ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2025**

**4-son**
(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | | **TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI** |
| **Z. Taxirov** | 4 | Til korpusi: mohiyat, maqsad, mahorat |
| **M. Pardayeva, O'. Odiljonov** | 7 | Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarida kasbiy so'nish: xalqaro holat va yechimlar tahlili |
| **Z. Dexkambayeva** | 14 | Ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni loyihalashning tamoyillari |
| **M. Xalilova** | 19 | Inson kapitalini ta'minlashda tolerantlik munosabatlari |
| **D. Adilova** | 24 | Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish tizimini rivojlantirish |
| **M. Nishanova** | 27 | Andragogik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari |
| **D. Miraliyeva** | 31 | Yangi avlod darsliklarida 4k modeli asosida kompetensiyaviy yondashuv: metodologik va amaliy tahlil |
| **Z. Hojiyeva, T. Isaqulov** | 34 | Bo'lajak o'qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash tamoyillari |
| **J. Xaliqov** | 38 | Aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning nazariy asoslari |
| **N. Mehmonova** | 41 | O'quvchi yoshlarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish (O'zbekiston yoshlar ittifoqi misolida) |
| **N. Sindarova** | 45 | O'quvchilarning chet tili bo'yicha lingvistik kompetensiyalarini kommunikativ va differensial yondashuv asosida rivojlantirish |
| | | **TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI** |
| **O. Qurbonova** | 49 | Ona tili mazmunini takomillashtirishda lingvometodik yondashuvlar mohiyati |
| **D. Subanova** | 52 | Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish sifatini ta'minlashni drama-texnologiyalari asosida takomillashtirish |
| **G. Qarshiboyeva** | 56 | Ta'lim jarayonida "She'riy maktublar" janridan foydalanish |
| **S. Xasanova, R. Ziyayev** | 59 | Uglevodorodlarning umumiy tenglamalari bo'yicha masalalar yechish |
| **G. Egamova** | 63 | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsion yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari |
| **M. Yuldasheva** | 67 | Boshlang'ich sinflarda matematik tafakkurni shakllantirish tizimini takomillashtirish |
| | | **TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT** |
| **X. Asrorov** | 71 | Xalqaro baholash dasturlari – ijtimoiy-didaktik zaruriyat sifatida |
| | | **ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** |
| **M. Ramazonova** | 75 | Artpedagogika – shaxs ma'naviyatini shakllantirishning va rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida |
| **O. Jabborova** | 79 | Boshlang'ich ta'lim metodikasini zamonaviylashtirish mexanizmlari |

| | | |
|---|---|---|
| **B. Rustambekov** | 82 | Ta’lim jarayonida “Swot” tahlil (kuchli tomonlar; zaif tomonlar; imkoniyatlar; tahdidlar) metodini qo‘llash afzalliklari |
| | | **TA’LIMDA MARKETING** |
| **M. Shamsiyeva** | 85 | O‘zbekistonda startap ekotizimini shakllantirish va innovatsion loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy yo‘nalishlari |
| | | **JISMONIY TARBIYA VA SPORT** |
| **M. Turg‘untoshev** | 88 | Milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish |
| **E. Ochilov** | 94 | Kurash bilan shug‘ullanuvchilarning chidamkorliklarini rivojlantirish |
| | | **MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH** |
| **N. Tashbaev** | 97 | Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi |
| **J. Abdusabirov** | 100 | Malaka oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish |
| | | **MAKTABGACHA TA’LIM** |
| **S. Tadjibayev** | 106 | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida tasviriy faoliyat bo‘yicha kreativlikni rivojlantirishga bo‘lajak tarbiyachilarni tizimli tayyorlash |
| **F. Po‘lotov** | 110 | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining tasviriy savodxonligini oshirish |
| **U. Zokirov** | 115 | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog‘lik-salomatligi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilishning dolzarbligi |
| | | **TA’LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY HAVFSIZLIK** |
| **N. Bahriyeva, J. Baxriyeva** | 119 | Insonning ekstremal hayot vaziyatlariga psixologik tayyorlash |
| | | **ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR** |
| **A. Shermuxammedov** | 125 | Raqamli ta’limning ijobiy va salbiy tomonlari |
| | | **AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA** |
| **N. Jabborova** | 130 | Ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati |
| | | **КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: ЦЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ** |
| **Н. Акбарходжаева** | 139 | Интеграция цифровых платформ в оценивание учебных достижений: опыт применения “Quizizz” в естественно-научном образовании |

**Zair TAXIROV,**
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, "Jurnalistika va filologiya" fakulteti professori, filologiya fanlari doktori

# TIL KORPUSI: MOHIYAT, MAQSAD, MAHORAT

**Annotatsiya**

Maqolada o'z o'quvchilarini til korpusi tushunchasi bilan tanishtirib unda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, korpus yaratish, foydalanish hamda korpus turlari va ularning o'ziga xos jihatlar xususida so'z boradi. Shuningdek, "Amaliy tilshunoslik" yo'nalishi bakalavriantlari va magistrantlari va tilshunoslik korpusi bilan qiziquvchi boshqa soha vakillariga mo'ljallangan.

**Tayanch so'zlar.** Korpus, lingvistik korpus, til korpusi, matn korpusi, reprezentativ, mutanosiblik, konkardans, pragmatika, amaliy tilshunoslik, diaxroniya, sinxroniya, annotatsiyalangan, parallel, dinamik.

В статье, знакомя своих читателей с понятием языкового корпуса, говорится о создании и использовании корпусов с использованием компьютерных технологий, а также о типах корпусов и их особенностях. Он также предназначен для бакалавров и магистрантов по направлению "Прикладная лингвистика" и представителей других областей, интересующихся корпусом лингвистики.

**Ключевые слова.** Корпус, лингвистический корпус, языковой корпус, корпус текста, репрезентативный, пропорциональность, конкорданс, прагматика, прикладная лингвистика, диахрония, синхрония, аннотированный, параллельный.

The article introduces its readers to the concept of the language corpus and discusses the creation and use of corpora using computer technologies, as well as the types of corpora and their specific aspects. It is also intended for undergraduate and graduate students of the "Applied Linguistics" program and representatives of other fields interested in the linguistic corpus.

**Key words.** Corpus, linguistic corpus, language corpus, text corpus, representative, proportionality, concordance, pragmatics, applied linguistics, diachrony, synchrony, annotated, parallel, dynamic.

Bugungi kunda "korpus lingvistikasi" deb ataluvchi soha xususida fikr bildirishdan oldin "korpus" terminining ma'nolarini ko'rib chiqish maqsadiga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

Korpus (lot. corpus – tan, tana, gavda, jasad, jism) – 1) inson yoki jonivor tanasi; 2) kemaning asosiy gavdasi; 3) alohida bino; 4) bosmaxona shrifti – kegl; 5) biron-bir davlat vakillari to'dasi – diplomatlar va b. guruhi; 6) ayrim harbiy o'quv muassasai 7) biror armiya yoki flot boshliqlarining tarkibi 8) harbiy qo'shilma; 9) ayrim qonunchilik muassasasining nomi.

Til korpusi bu – kompyuterdagi til (lingvistika) korpusi, kompyuter texnologiyalari asosida til (matn) korpusini yaratish, undan foydalanish umumiy tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Matnlar til yoki lingvistika korpusi (oddiy qilib aytganda matnlar korpusi) deyilganda mashina o'qiydigan tarzdagi, yangi shaklga, tuzilishga keltirilgan, belgilangan, muayyan til masalasini hal qilishga bag'ishlangan, filologik jihatdan asoslangan tilga oid ma'lumotlar majmui tushuniladi. Demak tilga oid bir qator masalalarni hal qilish uchun muayyan korpus tuziladi, ular har vaqt pragmatik xususiyatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda turli manbalarda korpus terminiga berilgan tariflar uchraydi. Masalan, E.Finegan unga quyidagicha ta'rif beradi: korpus – keng ko'lamdagi matnlar majmui. Odatda mashina o'qiy oladigan tarzga ega bo'lib, matn yuzaga chiqqan vaziyat haqidagi ma'lumotni, ya'ni nutq egasi, muallif, nutq qaratiluvchisi yoki auditoriya haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

T.Mak-Eneri va E.Vilsonlar quyidagicha ta'rif beradi: korpus, bu – matn qismlari yig'indisi, til modeli sifatida foydalanish uchun ular aniq til mezonlariga muvofiq olinadi.

Yuqorida keltirilgan sitatalarda zamonaviy matn korpusining asosiy mohiyati tariflangan, ya'ni mantiqiy g'oya, pragmatik yo'nalganlik, mashina o'qiy oladigan tarz, ko'lamdorlik, matn tanlanadigan alohida meyor, tilga oid ma'lumot va b.lar. Ma'lumotlar turli-tuman: nom, muallif, muallif jinsi, nashr sanasi, janr, mavzu va b.lar.

Matnga, tilga oid ma'lumotlarni boshqarish tizimi ma'no ifodasi ham "matn korpusi" tushunchasi tarkibiga kiradi. U "korpus menejeri (yoki menejer-korpus) deb ham ataladi".

"Korpusdagi qidiruv istalgan so'z bo'yicha konkordanc – muayyan so'zning konteksda barcha qo'llanishlarining havolasi, manbai bilan ro'yxatini tuzish imkoniyatini beradi. Bugunga kelib til korpusi mustaqil soha sifatida shakllanib ulgurdi. Buni foydalaniladigan so'z materialining tavsifi ayni belgilangan matnlar; matn korpusini yaratish, matn ustida ishlash va boshqalarni amalga oshirishdagi vositalarning o'ziga xosligi yaqqol ko'rsatadi.

Agar tilshunoslik sohalari sintaksis, semantika holida sotsiaolingvistikaning maqsadi til qurilishini tasvirlash, tildan foydalanishni baholash bo'lsa, tilshunoslik korpusining maqsadi til tadqiqinigna emas, balki boshqa ko'pgina sohalarni ham tadqiq etishda qo'llanadigan metodologiyalarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda tilshunoslik korpusini "lingvistik tadqiqotlar turli sohalardagi usullar to'plami" deb ham ataydilar.

Bizningcha, korpusdagi tilshunoslikni tariflab uni shunchaki tilni tadqiq etish metodologiyasi deb emas, balki tadqiqot obyekti shakllanishiga olib keluvchi fan deyish mumkin. Til korpusi ikki jihatga ega: 1) yaratishga qaratilgan yo'nalish; 2) matn korpusidan foydalanish.

Demak aytish mumkinki, nazariy asoslar va lingvistik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan tilga oid keng ma'lumotlar ko'lamini yaratishning amaliy vositalari til korpusining mohiyati (predmeti) hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslik korpusi XX asrning so'nggi o'n yilligi birinchi yarmida yangi tilshunoslik yo'nalishi sifatida to'la shakllanadi. Hozirgi kunda kompyuterdagi til korpuslari quyidagilardan iborat:

– annotatsiyalangan-belgilangan korpus – bunda so'z turkumi, grammatik shakl, sintaktik funksiya va b. ma'lumotlar olish uchun maxsus belgilar matnda mavjud bo'ladi;

– tenglangan parallel korpus – unda bir tildagi matn va uning tarjimasi ikkinchi tilda teng jumlalarda yoki iboralarda berilgan (parallel) bo'ladi.

– diaxronik korpus – til rivoji turli davrlarida tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladi;

– ko'p tilli korpus – turli tillarga oid matnlar ko'lamini o'z ichiga oladi;

– dinamik korpus – muntazm to'ldirib, yangilanib turadigan matn korpusi;

– parallel (tarjima) korpus – ikki tilli yoki ko'p tilli korpus. Unda bitta tildagi matn va uning boshqa til (lar)dagi tarjimasidan iborat bo'ladi;

– to'liq matn korpusi – qismlardan emas, balki to'liq matnli korpus;

– qiyosiy (parallel) korpus – ikki yoki bir necha tildagi ayni bir mavzudagi matnlar majmui;

– sinxron korpus – faqat qisqa bir vaqt mobaynida (masalan, bir necha yil mobaynida) tuzilgan matnlarni o'z ichiga olgan korpus;

– korpusdagi lingvistika – kompyuterdagi lingvistika bo‘limi, kompyuter texnologiyalari yordamida, lingvistik korpus yaratish va undan foydalanish umumiy tamoyillarini o‘z ichiga olgan maxsus axboriy-qidiruv tizimi.

Kompyuterda til korpuslarini yaratishning maqsadga muvofiqligi quyidagi mulohazalarda ayon ko‘rinadi:

– korpusdagi yetarlicha ulkan (reprezentativ) va mutanosiblangan;

– hajm ma’lumotlar aniqligini kafolatlaydi hamda til hodisasini to‘lig‘icha tasavvur etishni ta’minlaydi;

– turli tavsifdagi ma’lumotlar korpusda o‘z tabiiy konteksi;

– shaklida bo‘ladi, bu ularni atroflicha va obyektiv tadqiq etish imkonini beradi;

– qachonlardir yaratilgan va tayyorlangan ma’lumotlar ko‘lamidan;

– tadqiqotchilar qayta-qayta, turli miqyoslarda foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Matn elektron korpusini ishlab chiqarish va uni qo‘llash amaliyotidan shu narsa ayon bo‘ladiki, barcha vazifalarni hal etishni ta’minlovchi universal korpus yaratish imkoni bor. Yuqorida elektron korpus termini uchradi. “Bugungi kunda korpus va elektron korpus terminlari sinonim sifatida qo‘llanilmoqda”.

Demak korpus hamma talabga javob beradigan bitta korpusga emas, balki turli (kamida uchta) matn korpusiga tayanadi:

birinchisi, nutqiy faoliyat barcha ko‘rinishlarini aks ettiruvchi;

ikkinchisi, nutqga, madaniyatga xos ayrim hodisalarni aks ettiruvchi masalan, maqolalar, iboralar, matallar korpusi;

uchinchisi, maxsus vazifani bajarish uchun yaratiluvchi, masalan, ta’lim, sotsialingvistika masalalariga bag‘ishlangan, mashina tarjimasini takkomil-lashtirishga qaratilgan korpuslar.

Bular pragmatik korpuslar hisoblanadi va ular korpus mo‘ljanllangan auditoriyani, ya’ni kimlar uchun tuzilishini hamda vazifa turini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, lingvistik korpus tilshunoslik (aslida amaliy tilshunoslikda)gi yangi yo‘nalish hisoblanadi. XX asrda dastlabki ingliz tili korpusining paydo bo‘lishi dunyodagi boshqa tillarda ham katta hajmdagi elektron korpuslarning yaratilishiga kuchli turtki bo‘ladi.

Amaliy tilshunoslikdagi mazkur yo‘nalish tildagi istalgan birlikni aniq istifoda etilishida tadqiqot olib borish imkoniyatini beradi. Xatto, biron bir aytilgan ibora qanday vaziyatda yuzaga chiqqanini ham ko‘rsatadi. Maxsus maqsadlarga mo‘ljallangan korpuslar tadqiqotchilar uchun empirik materiallarni avtomatik qidirish va tizimlashtirish, tilga oid keng ko‘lamli ma’lumotlarni zidlik bilan qayta ishlash imkonini beradi.

Kompyuter texnologiyalarining tobora takomillashib borishi, shubhasiz, matnga avtomatik ishlov berish programmasini yaratish va takomillashtirishga, lingvistik tadqiqotlarning yangidan yangi paradigmalari yuzaga chiqishiga olib keladi.

**Foydalanilga adabiyotlar**

1. Finegan E. Language: its structure and use. New-York: Harcourt Brace College Publishers, 2004.–132-b.

2. Lüdeling A., Kytü M., Corpus linguistics: an international hand book. Vol. I. Bertin: New-York: W.de Gruyter, 2008. – 42-b.

3. Sandra K. Heike Z. Corpus and ligui stoically annotated corpora. – New-York: Bloomsbury Akademic, 2015. – 4-b.

4. Abdurahmonova N.Z. Korpus lingvistikasi. – Germaniya: GLOBL, 2024.

**Mexriniso PARDAYEVA,**
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, boshqarma boshlig‘i, dotsent, (PhD)
**O‘tkir ODILJONOV,**
O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, bo‘lim boshlig‘i

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KASBIY SO‘NISH: XALQARO HOLAT VA YECHIMLAR TAHLILI

**Annotatsiya**

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari o‘rtasida kasbiy so‘nish muammosi xalqaro kontekstda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSH, Rossiya, Portugaliya va Yaponiya kabi davlatlarda kasbiy so‘nishning yuqori darajalari va uning asosiy sabablari va Finlyandiya, Kanada, Janubiy Koreya va Avstriya davlatlarida mazkur muammoning oldini olish bo‘yicha samarali amaliyotlar va chora-tadbirlar tahlil qilingan. Muallif O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kasbiy so‘nishning oldini olishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqgan.

**Tayanch so‘zlar.** O‘qituvchi, kasbiy so‘nish, stress, ta’lim tizimi, xalqaro tajriba, ish yuklamasi, ruhiy sog‘lomlik, mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash, profilaktika choralari.

В статье рассматривается проблема профессионального затухания среди учителей общеобразовательных учреждений в международном контексте. Также проанализированы высокие уровни профессионального затухания и его основные причины в таких странах, как Великобритания, США, Россия, Португалия и Япония, а также эффективная практика и меры по предотвращению этой проблемы в Финляндии, Канаде, Южной Корее и Австрии. Автором разработаны практические предложения, направленные на предотвращение профессионального угасания в системе образования Узбекистана.

**Ключевые слова.** Учитель, профессиональное выгорание, стресс, система образования, международный опыт, рабочая нагрузка, психическое здоровье, поддержка специалистов, профилактические меры.

The article examines the problem of professional decline among teachers of general secondary education institutions in an international context. Also analyzed are the high levels of professional decline and its main causes in such countries as Great Britain, the USA, Russia, Portugal, and Japan, as well as effective practices and measures to prevent this problem in Finland, Canada, South Korea, and Austria. The author has developed practical proposals aimed at preventing professional decline in the education system of Uzbekistan.

**Key words.** Teacher, professional burnout, stress, education system, international practice, workload, mental well-being, teacher support, preventive measures.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ta’lim jarayoni ishtirokchilarini psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalar doirasida, ayniqsa, kasbiy so‘nish (professional burnout) masalasi dolzarblik kasb etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ta’rifiga ko‘ra, ishdagi surunkali stress natijasida yuzaga keluvchi holat bo‘lib, unda xodim ruhan va jismonan tobora

horib boradi. O‘qituvchilar uchun bu muammo jahon miqyosida dolzarb bo‘lib, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘yicha o‘qituvchilarning taxminan 10–30 foiz kasbiy so‘nish simptomlarini his qiladi, ulardan taxminan 10 foiz o‘ta yuqori darajadagi so‘nishga uchraganlar sifatida baholanadi. Turli mamlakatlarda bu ko‘rsatkich turlicha: masalan, Tayvanda 26 foiz o‘qituvchi, Iroqda 24,5 foiz va Shri-Lankada 11,6 foiz o‘qituvchi kasbiy so‘nishga uchragani qayd etilgan. Ayrim rivojlangan davlatlarda esa o‘qituvchilarning deyarli yarmi yoki undan ko‘prog‘i o‘z ishidan qattiq charchash va ruhiy so‘nish holatini boshidan kechirmoqda – masalan, Germaniyada o‘qituvchilarning 47 foiz kasbiy so‘nish simptomlarini sezadi. Bu holat ta’lim sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ruhan so‘ngan o‘qituvchilarning samaradorligi pasayadi, ishdan qoniqishi yo‘qoladi va natijada o‘quvchilarning ta’lim natijalariga ham ta’sir qilishi mumkin.

Quyida, avvalo, o‘qituvchilar orasida kasbiy so‘nish darajasi eng baland bo‘lgan 5 ta davlat holati va buning asosiy sabablari tahlil qilinadi. So‘ng, muammoni samarali hal etish va oldini olish borasida yaxshi natijaga erishgan mamlakatlar tajribasi ko‘rib chiqilib, har bir davlat bo‘yicha qisqacha xulosalar keltiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida mazkur muammoni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar bildiriladi.

Eng yuqori kasbiy so‘nish kuzatilgan davlatlar va sabablari

Jahon tajribasida ayrim davlatlarda o‘qituvchilarning kasbiy so‘nish darajasi o‘ta yuqori ekani ta’kidlangan. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari orasida so‘nish darajasi eng yuqori bo‘lgan beshta mamlakat va ulardagi holatning asosiy sabablari tahlil qilinganda quyidagilarni ko‘rish mumkin (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval.

| Davlat | Kasbiy so‘nish darajasi (o‘qituvchilar) | Asosiy sabablari (tahliliy) |
|---|---|---|
| Buyuk Britaniya (Angliya) | Taxminan 70 foiz o‘qituvchi ishda “juda kuchli stress” his qiladi (Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa — Expresso). 2020-yilgi tadqiqotga ko‘ra, 84 foiz o‘qituvchi stressdan aziyat chekkan, 51 foiz esa bu sababli yaqin 2 yil ichida kasbdan ketishni o‘ylagan(Sest, poplakat, popit chay: mogut li uchitelya spravitsya s professionalnым vыgoraniyem? — EdDesign). | Haddan tashqari og‘ir ish yuklamasi, keyingi paytlarda yuzaga kelgan keng ko‘lamli byurokratik vazifalar (hujjatlarni to‘ldirish va hisobotlar) |
| AQSH | AQSHda o‘qituvchilar barcha soha xodimlari orasida eng yuqori darajadagi stressdan aziyat chekadi: har ikki o‘qituvchidan biri (52 foiz) “doimiy yoki juda tez-tez” o‘zini yomon his qiladi | |

Tartibsiz o‘quvchi xulqi va sinfdagi intizom muammolari ishdagi stressning asosiy manbai deb topilgan. Shuningdek, o‘qituvchilar ish vaqtiga nisbatan maoshning pastligi hamda darsdan tashqari qo‘shimcha topshiriqlar (hujjatlarni yuritish, baho qo‘yish, hisobotlar) ning ko‘pligi kasbiy so‘nishni kuchaytiruvchi omillar sifatida belgilangan.

AQSH o‘qituvchilari o‘rtacha haftasiga 53 soat ishlaydi, bu holat boshqa soha xodimlaridan 9 soatga ko‘p bo‘lib, yillik maosh o‘rtacha $18 mingga kam ekanligi aniqlangan – buning o‘zi ham kasbidan qoniqmaslik hissini oshiradi.

Rossiyada o‘qituvchilar orasida kasbiy so‘nish sindromi keng tarqalgan bo‘lib, ushbu holat o‘tkazilgan keng so‘rov natijasida o‘qituvchilarning 75 foiz kasbiy so‘nish simptomlarini his etayotgani aniqlangan, ularning 38 foizda esa so‘nish “o‘tkir fazaga”

yetgan, ya’ni ish sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshqa bir tadqiqotga ko‘ra, har 5 o‘qituvchidan 4 nafari (82 foiz) o‘quv yili oxiriga kelib so‘nish belgilariga duch keladi. O‘quv yilining jadal va yuklamasi yuqoriligi o‘qituvchilarning 49 foiz so‘nishga olib keluvchi asosiy omil deb ko‘rsatilgan – ya’ni o‘quv yili davomida ish hajmi juda to‘lib-toshgan. Yuqori sinf o‘qituvchilarida bitiruv imtihonlari oldidagi tashvish kuchli: o‘qituvchilarning 73 foiz dan ortig‘i milliy imtihonlar (YEGE va OGE) uchun haddan tashqari xavotir olishini bildirgan. Shu bilan birga, katta ish yuklamasi (o‘qituvchilarning taxminan 60 foiz buni ta’kidlagan) va ko‘p sonli tekshirishlar, nazorat ishlari (35 foiz ta’kidlagan) hamda shaxsiy charchoq singari omillar Rossiyadagi so‘nishni kuchaytirmoqda. Kasb spetsifikasi bo‘yicha yuqori empatiya va emotsional holatlar talab qilinishi ham uzoq muddatda ruhiy horg‘inlikka olib keladi.

Portugaliya – Yevropa bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich: Portugaliyada o‘qituvchilarning qariyb 90 foiz (aniqrog‘i 87,2 foiz) ish davomida ma’lum darajada stress kechirishini aytgan, ularning 35 foiz “juda kuchli stress” (o‘ta zo‘riqish) va yana 53 foiz “ancha kuchli stress”ni boshdan kechiradi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Portugaliya 1-o‘rinda, undan keyingi o‘rinlarda 70 foiz atrofidagi ko‘rsatkich bilan Vengriya va Britaniya turadi. Portugaliya o‘qituvchilari o‘rtasida kasbdan qoniqmaslikning bosh sababi iqtisodiy omillar ekani aytilmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, portugal o‘qituvchilarning 90 foizga yaqini o‘z maosh va daromadidan norozi (taqqoslash uchun, Belgiya yoki Avstriyada o‘qituvchilarning 70 foiz maoshidan mamnun). Bu holatga ikki asosiy omil sabab qilib keltirilgan: lavozim va maosh bo‘yicha karyerada o‘sishning juda sekin kechishi hamda 2008-2009-yillardagi iqtisodiy inqiroz (Leman Brazers bankrotligi oqibatlari)ning ta’lim sohasiga salbiy ta’siri. Natijada o‘qituvchilar maoshni hayotiy ehtiyojlariga kamlik qiladi deb biladi. Shu bilan birga, Portugaliyada o‘qituvchilarning katta qismi muddatli shartnomalar asosida ishlaydi – doimiy ish o‘rnining yo‘qligi va ish xavfsizligiga ishonchsizlik ham ularda stress darajasini oshiruvchi omildir.

Yaponiya – maktab o‘qituvchilari orasida so‘nish muammosi oxirgi yillarda kuchayib bormoqda. 2023-yilda o‘tkazilgan milliy tadqiqotga ko‘ra, o‘qituvchilarning 11,7 foiz qismi stress darajasi juda yuqori (tibbiy aralashuv talab qiladigan) holatga yetgan, va bu ko‘rsatkich yil sayin ortib, eng yuqori darajaga ko‘tarilgan. Yaponiya OECD davlatlari ichida o‘qituvchilar eng ko‘p ish vaqtiga ega mamlakatlardan hisoblanadi: o‘rta hisobda yapon o‘qituvchisi haftasiga 56 soatgacha ishlaydi, bu Angliya va Kanadadagi 47 soat, AQSH va Yangi Zelandiyadagi 46 soatdan keskin ko‘pdir (taqqoslash uchun, Finlyandiyada bu ko‘rsatkich 33 soatni, O‘zbekistonda 42 soatni tashkil etadi). Yaponiyada o‘qituvchilarning kasbiy so‘nishga uchrashiga olib keluvchi bosh omil – haddan tashqari ko‘p tashkiliy yuklamadir (hujjat ishlari, hisobotlar va boshqa ofis vazifalari). Stress sabablarining statistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, holatlarning 21,4 foiz aynan byurokratik vazifalar stressning birinchi raqamli omilidir. Bundan tashqari, yuqori tartib-intizomga ega o‘quvchilar bilan ishlash (19 foiz) hamda talabchan “harakeri” ota-onalar bilan murosaga kelishish (12,4 foiz) yirik stress manbalari sifatida qayd etilgan. Ya’ni, o‘qituvchi nafaqat dars berishi, balki ko‘p vaqtini hujjat to‘ldirishga, to‘polonchi o‘quvchilarni tartibga solishga va ba’zi norozi ota-onalarning shikoyatlariga javob berishga sarflaydi — bu esa ruhiy holatga qattiq ta’sir qiladi. Natijada, oxirgi yillarda Yaponiyada xizmat majburiyatlarini bajarolmay ruhiy sog‘liq bo‘yicha ta’tilga chiqib ketayotgan o‘qituvchilar soni rekord darajada oshib, 2022-yilda 0,71 foizga yetdi (ya’ni 12 mingdan ortiq o‘qituvchi).

Yuqorida qayd etilgan o‘qituvchilarning so‘nish darajalari turli manbalarda har xil

usullarda baholangan (ayrim mamlakatlarda “doimiy charchoq yoki stress his qilish” bo‘yicha so‘rovlar, boshqalarida klinik belgilangan sindrom yoki simptomlar ko‘rinishida). Shunga qaramay, bu ma’lumotlar o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish eng katta muammo bo‘lgan davlatlarni aniqlash va taqqoslashga imkon beradi. Keltirilgan har bir davlatda o‘qituvchilarning ruhiy horg‘inligiga olib keluvchi omillar ko‘p hollarda o‘xshash - kasblar uchun haddan tashqari yuklama va stress manbalari mavjudligi bo‘lsa-da, mahalliy sharoitga xos muayyan muammolar ham mavjud ekani ko‘rinadi. Masalan, Angliyada byurokratik nazoratning qattiqligi va ishonchsizlik muhiti asosiy omil bo‘lsa, Rossiyada ta’lim mazmuni va imtihonlar bosimi, Portugaliyada iqtisodiy omillar va qat’iy shart-nomaviy munosabatlar, Yaponiyada esa ma’muriy yuklama va ota-ona talablarining yuqoriligi kabi sabablar ustuvordir.

Kasbiy so‘nish muammosini kamaytirish yoki undan samarali chiqish bo‘yicha bir qator mamlakatlarda yillar davomida turli chora-tadbirlar sinovdan o‘tkazilgan. Ayrim davlatlar ta’lim tizimi tuzilmasi va siyosatini shunday yo‘lga qo‘yganki, o‘qituvchilarda stress va ruhiy charchoqning oldini olishda ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlar misolida bunday profilaktika choralari va ularning natijalari keltiriladi (2-jadvalga qaralsin).

| Davlat | Qo‘llangan choralar | Natija va ta’sir (tadqiqotga asoslangan) |
|---|---|---|
| Finlyandiya | O‘qituvchilar uchun ish muhiti va yuklamani boshqarish siyosati: haftalik ish soatlari nisbatan kam (o‘rtacha 33 soat/haftasiga) va darsdan tashqari majburiyatlar minimal darajada saqlanadi (Education Today). Masalan, hujjat ishlari va ma’muriy vazifalarga o‘rtacha faqat 1,4 soat ajratiladi – bu OECD bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlardan biri (taqqoslash uchun, AQSHda 6+ soat, Yaponiyada 8+ soat) (Education Today). Shuningdek, o‘qituvchilarga yuqori erkinlik va ishonch bildiriladi, ular o‘quv dasturini bajarishda mustaqillikka ega. | Kam yuklama va ish-hayot muvozanati natijasida fin o‘qituvchilari kasbidan ko‘proq qoniqish bildirishadi va ruhiy sog‘lom qolishadi. Tadqiqotlar Finlyandiyada o‘qituvchilarning qoniqish darajasi yuqori hamda o‘quvchilarning natijalari ham yuqori ekanini ko‘rsatadi. |
| Kanada | O‘qituvchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan tizim: maosh va shart-sharoitlar jihatdan jahonning oldi qatorini egallamoqda. Masalan, Kanadada o‘qituvchi mehnatiga munosib haq to‘lanadi va zarur resurslar bilan ta’minlanadi; Alberta viloyatida o‘qituvchilarning ishidan qoniqishi juda yuqori, ko‘pchiligi kasbni o‘z xohishi bilan tanlagan va ularning o‘quvchilari yuqori yutuqlarga erishadi. | Kanadada o‘qituvchilar malakasini oshirish, metodik qo‘llab-quvvatlash va maslahatchilar instituti yaxshi rivojlangan. |
| Janubiy Koreya | Qonunchilik va tizimiy choralar orqali o‘qituvchi huquqlarini himoya qilish. | 2023-yilda Janubiy Koreyada o‘qituvchilarning haddan tashqari zo‘riqishi va ruhiy tazyiqlarga qarshi maxsus qonunlar qabul qilingan. |

| | | |
|---|---|---|
| Avstriya | O‘qituvchi mehnatining munosib rag‘batlantirilishi va barqaror kadrlar siyosatini yo‘lga qo‘yish: Avstriya va bir qator Yevropaning boshqa davlatlarida o‘qituvchilarga nisbatan mehnat bozoridagi raqobatbardosh maosh va imtiyozlar taklif etiladi. Masalan, Avstriyada o‘qituvchilarning katta qismi o‘z daromadidan mamnun. Hukumat ta’lim sohasi xodimlarini baholash va rag‘batlantirish tizimini shaffof va barqaror yo‘lga qo‘ygan. | Maoshdan qoniqish va kasbiy barqarorlik o‘qituvchilarning umumiy ishdan qoniqishini oshiradi, bu esa uzoq muddatda so‘nish xavfini pasaytiradi. Masalan, Avstriya va Belgiyada o‘qituvchilarning 70% o‘z daromadidan mamnun ekani aniqlangan, bu ko‘rsatkich Portugaliyaga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, tegishincha bu davlatlarda o‘qituvchi ruhiyatida stress kamroq ekani kuzatiladi Avstriyalik o‘qituvchilarning kasbni tashlab ketish darajasi ham past bo‘lib, ta’lim sifati barqaror. Bu tajriba o‘qituvchi mehnatini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish so‘nishni oldini olishda muhim ekanini ko‘rsatadi. |

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi kasbiy so‘nishini kamaytirishda samara bergan yondashuvlar quyidagi umumiy jihatlarga ega:

Ish yuklamasini muvofiqlashtirish: Finlandiya tajribasi ko‘rsatadiki, o‘qituvchi dars soatlari va qo‘shimcha vazifalar miqdorini me’yorda ushlash, ortiqcha byurokratik ishlardan ozod etish ularning professional chekinishining oldini oladi. Koreyada ham oxirgi yillarda ish soatini qisqartirishga intilish kuzatildi.

Moliyaviy rag‘bat va barqarorlik: Avstriya, Kanada kabi davlatlarda o‘qituvchilarga munosib maosh, ijtimoiy kafolatlar va lavozimda o‘sish imkoniyati berilgani ularda o‘z ishiga qoniqishni saqlab turadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash: ba’zi mamlakatlarda o‘qituvchilar uchun maxsus ruhiy qo‘llab-quvvat tizimlari yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada Education Support xayriya xizmati tomonidan o‘z ichiga oladigan 24/7 ishonch telefoni tashkil etilgan bo‘lib, o‘qituvchilar bepul maslahat va psixologik yordam olishlari mumkin. AQSHda Calm Schools Initiative doirasida o‘qituvchilar uchun meditatsiya va ruhiy horg‘inlikni chiqarishga yordam beradigan maxsus mobil ilova va dasturlar joriy qilingan. Bu kabi choralar har bir davlatda muammoni to‘liq bartaraf etmagan bo‘lsa-da, o‘qituvchilarning muammolarini yengillatishga yordam bermoqda.

Qonunchilik himoyasi: Janubiy Koreyadagi singari, o‘qituvchilarni tazyiq yoki zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktablarda yaxshi psixologik muhit yaratish (masalan, mentoring – tayanch ustozlik dasturlari, hamkasblar o‘rtasida tajriba almashinuvini rag‘batlantirish) ham kasbiy so‘nishning oldini oladi. Ayrim tadqiqotlar, masalan, AQSHning Tulsa shahrida olib borilgan tajriba, maktab jamoasida emotsional-ma’rifiy (SEL) dasturlarni joriy etish o‘qituvchilarning depressiya va ishdan ketish ko‘rsatkichlarini sezilarli kamaytirganini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston uchun amaliy takliflar. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘qituvchilarda ruhiy horg‘inlik masalasiga e’tibor qaratish zarur. Ayni paytda mamlakatda bu muammoni aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan dastlabki qadamlar boshlanmoqda. Jumladan, 2025-yil davlat dasturi doirasida o‘qituvchilarning psixologik bardoshliligini oshirishga qaratilgan maxsus choralar rejalashtirilgan: o‘qituvchilarni stressni boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqotga oid malaka oshirish kurslari tashkil etish, har bir maktabda psixologik maslahat xizmatini kuchaytirish, hamda o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun emotsional so‘nish profilaktikasi dasturlarini ishlab chiqish taklif etilgan. Bu istiqboldagi choralar quyidagi kompleks takliflar bilan to‘ldirilishi mumkin:

Ish yuklamasini qayta ko‘rib chiqish: O‘qituvchilarning ish yuklamasi va hisobotlarini tahlil qilib, imkoni boricha optimallashtirish lozim. Jumladan, bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan dars soatini me’yorlashtirish (masalan, xalqaro me’yorlarga yaqinlashtirish) muhim – bu borada Finlandiya va Koreya tajribasidan foydalanish mumkin, ya’ni o‘qituvchiga darsdan tashqari vaqtini samarali o‘tkazishi va o‘quvchi bilan ishlashga bag‘ishlashi uchun shart-sharoit hosil qilish lozim.

Moliyaviy va ijtimoiy rag‘bat: o‘qituvchi mehnatiga to‘lanadigan haq tadrijiy tarzda raqobatbardosh darajaga chiqarilishi zarur. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda o‘qituvchi maoshi oshirilmoqda, bu choralarni izchil davom ettirib, hech bo‘lmaganda mintaqadagi (MDH yoki o‘rtacha global) darajaga yetkazish maqsad qilmoq kerak. Maosh va tariflarni oshirish bilan birga, ustozlarga qo‘shimcha imtiyozlar (masalan, imtiyozli ipoteka, transport xarajatlarini qoplash, yil yakunida mukofotlar) berish mumkin. Avstriya va Kanada tajribasi ko‘rsatganidek, o‘z mehnatidan qoniqqan o‘qituvchi o‘z ishini tashlashga kam moyil bo‘ladi va unda so‘nish xavfi pasayadi.

Psixologik xizmat va maslahat: Har bir maktabda psixolog faoliyati samaradorligini to‘liq ta’minlash va ularning malakasini oshirish zarur. Maktab psixologlari faqat o‘quvchilar bilan emas, o‘qituvchilar bilan ham ishlash vakolatiga ega bo‘lishi, ustozlar uchun muntazam stressni boshqarish treninglari, psixoterapevtik suhbatlar uyushtirishi lozim. Har bir hududda o‘qituvchilar uchun ishonch telefon liniyasi yoki onlayn platforma tashkil qilinishi, ularning anonim ravishda mutaxassislardan maslahat olishi yo‘lga qo‘yilishi mumkin (bunga Britaniyadagi Education Support ishonch telefoni analog qilinadi). Shu bilan birga, kasbiy so‘nish belgilari aniqlangan o‘qituvchilarni o‘z vaqtida reabilitatsiya qilish, sanatoriyga yo‘llanmalar ajratish kabi choralar ham qo‘llash mumkin.

Malaka oshirish: Yosh o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish ko‘proq uchrashi mumkin, chunki ular tajriba kamligi tufayli ko‘proq qiyinchilikka duch kelishadi. Shuning uchun har bir yosh mutaxassisga tayanch tajribali ustoz biriktirish tizimini kuchaytirish kerak. “Ustoz-shogird” dasturi doirasida o‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashishi, qiyin holatlarni birgalikda tahlil qilishi va yordam olishi ta’minlanishi lozim. Bunday hamjihatlik muhiti kasbiy so‘nishning oldini olishda samarali ekani ayrim davlatlar tajribasida ko‘rish mumkin. Malaka oshirish kurslariga stressni boshqarish, ijobiy pedagogika, sinf boshqaruvi bo‘yicha modullar kiritilib, o‘qituvchilarga muammoli vaziyatlarda emotsional himoya usullarini o‘rgatish lozim.

Jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlik: o‘qituvchiga hurmat va ishonch muhitini yaratish butun jamiyat vazifasidir. Maktab-mahalla va ota-ona qo‘mitalari hamkorligini takomillashtirib, o‘qituvchiga asossiz da’vo va bosim qilish holatlarining oldini olish kerak. Janubiy Koreyada qonunchilik darajasida hal etilgan “o‘qituvchilarni asossiz ayblovlardan himoya qilish” masalasi bizda ham dolzarb – ta’lim muassasalari ma’muriyati va mahalliy hokimiyatlar o‘qituvchi sha’ni va huquqlarini himoya qilishi shart. Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, seminarlar uyushtirib, bola ta’limini kelishilgan hamkorlikda olib borish, o‘qituvchi mehnatiga hurmat ruhini singdirish zarur.

O‘qituvchilar orasida kasbiy so‘nish – ta’limning sifati va barqarorligiga ta’sir etuvchi jiddiy omildir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu muammoni yechish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: mehnat shartlarini yaxshilash, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, yuklamani optimallashtirish va jamiyatda o‘qituvchi maqomini oshirish. Har bir mamlakatning o‘z ijobiy tajribasidan o‘rgangan holda, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ustozlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarni tizimli amalga oshirish lozim.

Zero, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi zimmasida turgan o'qituvchi sog'lom va ilhomga to'lgan bo'lsagina, kelajak avlodning ta'limini yuksak pog'onaga olib chiqishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–16-son Farmoni(https://www.lex.uz/docs/7369703)

2. EdDesign. (n.d.). Сест, поплакат, попит чай: могут ли учителя справится с профессионалным выгоранием?(https://eddesign.ru/articles/spravit-sya-s-professionalnym-vygoraniem)

3. Nature. (2023). Humanities and Social Sciences Communications: Supporting teacher well-being.(https://www.nature.com/articles/s41599-023-01645-7)

4. Болше 80% российских учителей заявили о выгорании в консе учебного года-RBK (https://www.rbc.ru/rbcfreenews)

5. Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa — Expresso (https://expresso.pt/sociedade/2021-03-24-Professores-em-Portugal-sao-os-que-revelam-maior-stress-na-Europa-b9879ba4#:~:text=Portugal%20aparece%20no%20n%C3%BAmero%20um%3A,se%20pelos%2031)

6. Teachers in Japan Suffering from Record High Stress | Nippon.com (https://www.nippon.com/en/japan-data/h02194/#:~:text=A%20survey%20conducted%20by%20the,in%202023)

7. Education Today (https://www.educationtoday.com.au/news-detail/Teacher-Workload-in-Australia-now-amongst-the-highest-in-the-OECD-4615#:~:text=Lower%20secondary%20school%20teachers%20in,class%20hours)

8. Professores em Portugal são os que revelam maior stress na Europa — Expresso

9. South Korea passes law to protect rights of teachers after mass protests over abuse from parents (South Korea) The Guardian(https://www.theguardian.com/world/2023/sep/22/south-korea-teachers-rights-laws-mass-protests-parents-abuse#:~:text=South%20Korea%20has%20passed%20a,to%20malicious%20complaints%20from%20parents)

**Zulfiya DEXKAMBAYEVA,**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, dotsent, (P.F.N.)

# TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV MUHITNI LOYIHALASHNING TAMOYILLARI

**Annotatsiya**

Maqolada inklyuziv muhitni loyihalashning asosiy tamoyillari universal o‘qitish dizayni (UDL), ta’lim yo‘nalishlarining variativligi, sohalararo yondashuv, barcha ishtirokchilarning faol ishtiroki, mavjudlik va xavfsizlik, amaliyotlarning raqamlashtirilishi hamda meyorlar tahlil qilingan. Shuningdek, cheklangan resurslar sharoitida aralash inklyuziya modellarini qo‘llash maqsadga muvofiq ekani ta’kidlangan.

**Tayanch so‘zlar.** Inklyuziv ta’lim, inklyuziv muhit, universal o‘qitish dizayni (UDL), ta’lim yo‘nalishlarining variativligi, sohalararo yondashuv, mavjudlik va xavfsizlik, raqamlashtirish.

В статье анализируются основные принципы проектирования инклюзивной среды: универсальный дизайн обучения (УДЛ), вариативность образовательных направлений, межотраслевой подход, активное участие всех участников, доступность и безопасность, цифровизация практики и нормы. Также отмечена целесообразность применения моделей смешанной инклюзии в условиях ограниченных ресурсов.

**Ключевые слова.** Инклюзивное образование, инклюзивная среда, универсальный дизайн обучения (UDL), вариативность образовательных маршрутов, междисциплинарный подход, доступность и безопасность, цифровизация.

The article analyzes the basic principles of designing an inclusive environment: universal learning design (UDL), the variability of educational directions, an interdisciplinary approach, active participation of all participants, accessibility and security, digitalization of practices, and standards. It is also noted that it is advisable to use mixed inclusion models under conditions of limited resources.

**Key words.** Inclusive education, inclusive environment, universal teaching design (UDL), variability of educational directions, interdisciplinary approach, availability and security, digitalization.

Inklyuziv ta’lim davlat siyosati va pedagogik amaliyot sifatida O‘zbekistonda so‘nggi besh yil ichida faol rivojlanmoqda. 2006-yilda BMT nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilgandan va 2020-yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilgandan (bu qonun imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’limga teng huquqli kirishni nazarda tutadi) so‘ng, Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi 42 ta maktabda birinchi pilot loyihalar amalga oshirildi. Shunga qaramay, Milliy statistika institutining ma’lumotlariga ko‘ra, umumta’lim muassasalarining atigi 18,4 foizda (UO), imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiya qilish uchun zarur sharoitlar yaratilgan, 16,5 foiz bola esa “uyda o‘qish”ni davom ettirmoqda yoki ixtisoslashtirilgan internatlarda tahsil olmoqda.

Shu munosabat bilan inklyuziv ta’lim muhitini loyihalash O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning ajralmas vazifasiga aylanadi. Inklyuziv muhit deb arxitektura-texnologik, pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlar majmuini tushunamiz, bu sharoitlar barcha o‘quvchilarni (shu jumladan imkoniyati cheklangan bolalar va maxsus ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarni) teng huquqda yagona o‘quv-tarbiyaviy jarayonga jalb qilishni ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim deb UNESCO (ta’rifiga ko‘ra “o‘ziga xos ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar hamda barcha o‘quvchilarni, ta’lim sharoitlarini individuallashgan ehtiyojlarga moslashtirish orqali, umumiy o‘quv faoliyatiga maksimal darajada jalb qilish jarayonini” tushunamiz. 2006-yilda BMT nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyani imzolagan davlatlar “umumiy ta’limning barcha bosqichlarida inklyuziv tizimni ta’minlash” majburiyatini olganlar [1, 24-moddasi].

Inklyuziya asosiy tamoyillari xalqaro va mahalliy hujjatlar (O‘zbekiston “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 5-moddasi; O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi 2020–2025-yillarga) asosida shakllantirilgan:

– mavjudlik, ya’ni jismoniy va axborot muhitini to‘siqsiz yaratish;

– tenglik, ya’ni nogironlikni ham o‘z ichiga olgan har qanday mezon asosida diskriminatsiyani oldini olish;

– har bir inson qadriyatini e’tirof etish, ya’ni har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va potentsialini tan olish;

– hamkorlik, ya’ni pedagoglar, ota-onalar, mutaxassislar va jamoatchilik vakillari bilan birgalikda ishlash. natijalarga yo‘naltirish, ya’ni nafaqat akademik yutuqlar, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishni ham monitoring qilish.

Jahon amaliyotida bir necha inklyuziv ta’lim modellari mavjud. Ularning asosiylari 1-jadvalda keltirilgan.

*Jadval 1. Inklyuziv ta’lim modellari klassifikatsiyasi*

| **Model** | **Tavsifi** | **Afzalliklari** | **Kamchiliklari** |
|---|---|---|---|
| **To‘liq (faoliyatga yo‘naltirilgan) inklyuziya** | Barcha maxsus ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar (MEO) boshqa bolalar bilan ajratilgan guruhlarsiz, o‘quv jarayoniga minimal tuzatishlar kiritilgan holda birga o‘qitiladi. | Katta resurslar mavjud bo‘lganda maksimal integratsiya, bag‘rikenglikni shakllantirish. | Kadrlar, metodika, infratuzilma kabi katta resurslarni talab qiladi. |
| **Qisman (sinf-integratsiya) inklyuziya** | MEO sinfni bir qismida umumiy sinfda o‘qiydi, qolgan vaqtini resurs xonasi yoki defektolog, logoped kabi tor mutaxassislar bilan o‘tkazadi. | Guruhli ta’lim va ixtisoslashgan qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida muvozanat. | Sinflar o‘rtasida tez-tez ko‘chish stigma xatarini keltirib chiqaradi. |
| **Segregatsiyalangan inklyuziya** | MEO oddiy maktab ichida maxsus sinflarda (resource class within mainstream) o‘qitiladi, lekin maktab jamoasining bir qismi bo‘lib qoladi. | Rivojlanish xususiyatlariga chuqur tuzatish, ushbu nuqtayi nazarga e’tibor qaratish imkoniyati. | Integratsiya vaqti kamayadi, izolyatsiya yuzaga kelishi mumkin. |
| **Push-in / Pull-out modeli** | Mutaxassislar (defektolog, psixolog) umumiy sinfga kiradi (push-in) yoki MEO vaqtincha resurs xonasiga olib chiqiladi (pull-out). | Moslashuvchanlik: qo‘llab-quvvatlash eng zarur pallada beriladi (Florian, Black-Hawkins, | Tez-tez o‘tishlar diqqatni jamlash va ijtimoiy aloqalarga halaqit berishi mumkin. |

Jadvalda qayd etilganidek, to‘liq inklyuziya katta resurslar mavjud bo‘lganda eng samarali, ammo moliyaviy cheklovlar va mutaxassislar yetishmovchiligi sharoitida qo‘shma (push-in/pull-out, qisman inklyuziya) modellardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Inklyuziv muhitni loyihalash nafaqat arxitektura-dizayn vazifasi, balki chuqur pedagogik-psixologik jarayon bo‘lib, unda kommunikatsiyalarni tashkil etish, ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘quv mazmuni va texnologiyalarni moslashtirish o‘z ifodasini topadi. Keling, O‘zbekiston ta’lim muassasalarining tizimli transformatsiyasiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan inklyuziv muhitni loyihalashning asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqamiz:

Universal o‘qitish dizayni (UDL) tamoylili.

Universal Design for Learning (UDL) ma’lumotni taqdim etish, o‘zaro aloqalar va bilimni ifoda etish usullarida moslashuvchanlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu tamoylil o‘quv materialini kognitiv, sensor yoki jismoniy xususiyatlardan qat’iy nazar, barcha uchun mavjud bo‘lishini nazarda tutadi.

O‘zbekiston kontekstida bu vizual, audiologik va kinestetik strategiyalarni keng qo‘llashni talab qiladi. Bundan tashqari, ovozli yordamchilar, ekran diktorlari, alternativ sichqoncha va klaviaturalar kabi raqamli vositalarni joriy etish zarur. Mahalliy maktablarda UDLni amalga oshirish uchun pedagoglarni differensial topshiriqlar loyihalash usullari bo‘yicha o‘qitish, interaktiv platformalardan foydalanish va elektron IOM (individual ta’lim marshrutlarini) shakllantirish lozim.

Ta’lim yo‘nalishlarining variativligi tamoylili.

Har bir bolaning o‘ziga xos ta’lim profili bor va inklyuziv muhit turli rivojlanish traektoriyalariga mos keladigan imkoniyatlarni ta’minlashi kerak. Variativlik tamoylili individual ta’lim marshrutlarini (IOM) yaratishni talab qiladi, unda qabul qilish xususiyatlari, materialni o‘zlashtirish tempi, qo‘llab-quvvatlash ehtiyojlari va motivatsion omillar hisobga olinadi.

O‘zbekiston sharoitida IOMni joriy etish pedagog, defektolog, psixolog va ota-onadan iborat jamoa qo‘llab-quvvatlashni shakllantirishni ham talab qiladi. IOM maqsadlar, moslashtirilgan o‘qitish shakllari, nazorat usullari va rivojlanishni baholash mexanizmlarini o‘z ichiga olishi lozim. Bu yondashuv aqlan, xulq-atvor va birlashgan buzilishlari bo‘lgan bolalar uchun ayniqsa muhimdir.

Sohalararo yondashuv tamoylili.

Inklyuziv muhit turli mutaxassislar o‘zaro hamkorligi makonidir. Sohalararo yondashuv pedagoglar, logopedlar, psixologlar, tutorlar, ijtimoiy xodimlar va tibbiyot mutaxassislarining bolaning kompleks qo‘llab-quvvatlanishi uchun sa’y-harakatlarini integratsiya qilishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida bu tamoylilni “inklyuziv jamoalar” yaratish, IOM yuritish bo‘yicha muntazam yig‘ilishlar o‘tkazish va MySchool, edu.uz kabi raqamli platformalar orqali axborot almashish orqali amalga oshirish mumkin. Bu nafaqat harakatlarni muvofiqlashtirish, balki pedagoglarning professional charchashini kamaytirish imkonini beradi.

Barcha sub’ektlarning faol ishtiroki tamoylili.

Inklyuziv muhitning asosiy ustunlaridan biri – jarayonga barcha ishtirokchilar: o‘quvchilar, ota-onalar, pedagoglar, ma’muriy xodimlar va jamoatchilik vakillari jalb qilinishi. Barcha subyektlarning faol ishtiroki tamoylili ochiq dialog, qaror qabul qilishda hamkorlik va o‘quv muhitini birgalikda loyihalashni taqozo etadi.

Ota-onalar nafaqat ma’lumotga ega bo‘lishlari, balki IOM shakllantirishda, tadbirlarda

ishtirok qilishda, natijalarni muhokama qilishda faol bo‘lishlari lozim. O‘zbekistondagi maktablar va bog‘chalarda “ota-ona klublari”, treninglar, maslahat kunlari tashkil etilishi mumkin. Rivojlanishida xususiyatlari bo‘lgan bolalar ham passiv obyekt emas, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlari kerak.

Muhitni doimiy refleksiya va baholash tamoylili.

Inklyuziv muhit samaradorligi faqat doimiy monitoring va moslashuvchan o‘zgartirishlar bilan ta’minlanishi mumkin. Refleksiya tamoylili pedagoglarning o‘z-o‘zini baholashi, o‘quvchilar va ota-onalarning qoniqishini baholash, shuningdek Inklyuziya Indeksidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda inklyuziya monitoringi uchun raqamli platformalarni joriy etish muhit samaradorligini dinamika bo‘yicha tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu usul metodlarni tuzatish, resurslarni qayta taqsimlash va qo‘llab-quvvatlashni individuallashtirishga imkon beradi. Reflektiv faoliyat yillik hisobotlarga kiritilishi kerak.

Mavjudlik va xavfsizlik tamoylili.

Inklyuziv muhit jismoniy va psixologik jihatdan hamma uchun mavjud bo‘lishi lozim. Mavjudlik tamoylili to‘siqsiz arxitektura (ramplar, liftlar, keng eshiklar), moslashtirilgan sanitariya sharoitlari, hududni zonalash hamda psixologik komfort va himoya sharoitlarini yaratishni talab qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘plab ta’lim muassasalari inklyuziv standartlarga muvofiq rekonstruksiya qilinishni talab qilmoqda. Bu moliyalashtirish, loyiha yechimlari va normativ tartibga solishni talab etadi. Xavfsizlik faqat jismoniy muhitni emas, balki diskriminatsiya, bullying va stigmatizatsiya oldini olishni ham o‘z ichiga oladi – bu esa ichki siyosat va qadriyatlar muhitini yaratishni talab qiladi.

Inklyuziv amaliyotlarni raqamlashtirish tamoylili.

Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta’limda muhim rol o‘ynaydi. Raqamlashtirish tamoylili diagnostika, mazmunni moslashtirish, kommunikatsiya va qo‘llab-quvvatlash uchun EdTech yechimlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu muhitni nafaqat mavjudligini oshiradi, balki barcha ishtirokchilarning imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida bu o‘zbek tilida mobil ilovalar ishlab chiqish, masofaviy ta’lim platformalarini joriy etish, o‘quv o‘yinlari va virtual haqiqatdan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Raqamlashtirish davlat ICT-standartlariga asoslanishi va pedagoglar malakasini oshirish tizimiga kiritilishi kerak.

Normativ aniqlik tamoylili.

Muhitni muvaffaqiyatli loyihalash aniq huquqiy va tashkiliy asoslarisiz mumkin emas. Normativ aniqlik tamoylili inklyuziv amaliyotlarni amalga oshirishni ta’minlaydigan qonunlar, standartlar, ko‘rsatmalar mavjudligini talab qiladi.

O‘zbekiston bu yo‘nalishda muhim qadamlarni tashladi: BMT nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyani imzoladi va inklyuziya elementlarini “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga kiritdi. Biroq, arxitekturaviy, pedagogik, psixologik va boshqaruv komponentlarini tartibga soluvchi “Inklyuziv ta’lim muhiti to‘g‘risida” maxsus normativ hujjatni ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim muhitini loyihalash – bu sohalararo yondashuv, innovatsion tafakkur va siyosiy iroda talab qiladigan murakkab, ammo zarur jarayon. Maqolada keltirilgan tamoyillar inklyuziv transformatsiyaning tizimli modelini yaratish imkonini beradi, har bir bolaga sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlaydi. Ularni amalga oshirish uchun diagnostika, loyihalash, ijro va monitoring bosqichlarini bosqichma-bosqich bajarish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi

turdagi – kompetent, empatik va hamkorlikka tayyor kadrlarni tayyorlash talab etiladi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim muhitini loyihalash – murakkab, ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, tizimli yondashuvni talab qiladi. Maqolada asosiy tamoyillar – universal o‘qitish dizayni (UDL), ta’lim yo‘nalishlarining variativligi, sohalararo yondashuv, barcha subyektlarning faol ishtiroki, muhitning mavjudlik va xavfsizlik darajasi hamda doimiy monitoring va refleksiya alohida ta’kidlangan. Inklyuziv transformatsiya muvaffaqiyati davlat, pedagogik jamoa, ota-onalar va jamoatchilik sa’y-harakatlarini birlashtirishga bog‘liq. Diagnostika, loyihalash, ijro va monitoring bosqichlarini bosqichma-bosqich amalga oshirgan holda, O‘zbekiston 2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan ta’limni rivojlantirish konsepsiyasidagi maqsadlarga erishadi – ya’ni oddiy maktablardagi imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ulushini 40 foiz darajasiga olib chiqadi va har bir bolaga sifatli ta’lim olishga teng imkoniyatlar yaratilgan ta’lim tizimini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Конвенция о правах инвалидов. Конвенция Генеральной Ассамблеи ООН от 13 декабря 2006 г. № A/RES/61/106. – Режим доступа: ttps://www.un.org/disabilities/documents/convention/convoptprot-rus.pdf (дата обращения: 10.05.2025).

2. Закон Республики Узбекистан “Об образовании”. Принят Олий Мажлисом РУз 30.08.2020 г. – Ведомости Олий Мажлиса РУз. – 2020. – 28 сент. – № 36 (766). – Ст. 482.

3. But T., Ainscow M. The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011. 152 c.

4. D’Alessio S. Inclusive Education in Italy: A Critical Analysis of the Policy of Integrazione Scolastica. Rotterdam: Sense Publishers, 2011. 205 c.

5. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogies // Booth T., Ainscow M. (ред.). Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011. C. 40–66.

6. Hutchinson N. L. Inclusion of Exceptional Learners in Canadian Schools: A Practical Handbook for Teachers. 2-еизд. Toronto: Pearson Education, 2014. 480 c.

7. Meyer A., Rose D. H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014. 208 c.

8. Ориббоева Д. Д., Рафикова Р. А. Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан // ScienceandEducation. 2024. № 5(11). С. 276–280.

9. Чаброва Т. Л. Опыт международного сотрудничества по вопросам инклюзивного образования и перспективы развития инклюзивного образования в Узбекистане // Психология человека в образовании. 2024. № 6(1). С. 106–112.

**Muxabbat XALILOVA,**
Navoiy davlat universiteti, “Pedagogika-psixologiya” kafedrasi, dotsent, (P.F.N.)

# INSON KAPITALINI TA’MINLASHDA TOLERANTLIK MUNOSABATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada xalqaro Shanxay sammitining mazmun-mohiyati, inson kapitalini ta’minlashning toleriantlik munosabatlari, tarixiy rivojlanish bosqichlari, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, diniy konfessiyalararo o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar global tarzda muallifning ilmiy izlanishlari asosida batafsil amaliy va nazariy jihatdan yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Konfessiya, konsepsiya, toleriantlik, inson kapitali, millatlararo totuvlik, etnik birlik, internatsionalizm, baynalminalchilik.

В статье подробно, практически и теоретически освещены суть и значение международного Шанхайского саммита, толерантные отношения в обеспечении человеческого капитала, этапы исторического развития, межнациональное согласие, религиозная терпимость, межконфессиональное взаимное уважение, взаимопонимание, общечеловеческие ценности и традиции на основе глобальных научных исследований автора.

**Ключевые слова.** Конфессия, концепция, толерантность, человеческий капитал, межнациональное согласие, этническое единство, интернационализм, интернационализм.

The article details the essence of the international Shanghai summit, tolerant relations in ensuring human capital, stages of historical development, interethnic harmony, religious tolerance, mutual respect between religious confessions, mutual understanding, universal values, and traditions from a global perspective based on the author's scientific research.

**Key words.** Confession, concept, tolerance, human capital, interethnic harmony, ethnic unity, internationalism, internationalism.

O‘zbekiston Respublekasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” kitobida ko‘p millatli xalqlarning birdamligini saqlash maqsadida qo‘yidagi strategik maqsadlarni amalga oshirishni keltirib o‘tadi:

1-jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqiyedan qat’iy nazar qonun oldida tengligini ta’minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil etish;

2-millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish;

3-yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida o‘tkaziladigan millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, ma’ruzalar va boshqa tadbirlarning samarasini oshirish.

Prezidentimizning keltirib o‘tilgan strategik maqsadlarini amalga oshirishda ayni damda Samarqand shahrida tashkil etilgan Shanxay hamkorlik sammiti buning yaqqol dalilidir. Darhaqiqat shuni e’tirof bilan qayd etish mumkinki, bugungi kundagi davlatlararo hamkorlik masalalari jadal sur’atlar bilan amalga oshirilishi global muommolarni hal etishga qaratilganli bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqanddagi Shanxay hamkorlik sammiti shu kunlarda dunyo miqyosidagi eng katta siyosiy tadbir bo‘lib turibdi. Ko‘hna shaharda 14 ta davlatning rahbarlari jam bo‘lgan. Sammitning ilk kunida ular o‘zaro uchrashuvlar o‘tkazyapti. Ayrim uchrashuvlar jahondagi geosiyosiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muommolarni hal etishga qaratilmoqda.

Davlat rahbarlarining avtomobilsozlik, “yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma, savdo-sotiq, mashinasozlik, neft-kimyo va geologiya sohalari bo‘yicha shartnomalarni imzolashi, ertangi kun uchun yosh avlodni har tomonlama kamol topishida, etnik birlikning zamonaviy jihatlarini shakllanishida tolerantlik munosabatlarini innovatsion strategik jihatlarini zamonaviy talqinda e’tirof etmoqda.

Tolerantlik tushunchasi zamirida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Tolerantlik fuqarolar orasida totuvlikni ta’minlaydi, jamiyatda tabiiy ravishda uchraydigan ijtimoiy farqlarning keskinlashuviga, ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bugun nafaqat yurtimizda, balki butun yer yuzida tolerantlik, millatlararo totuvlik diniy bag‘rikenglik, diniy konfessiyalararo o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish asosiy hayotiy tamoyilga aylanmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyati ham tolerantlik munosabatlari asosida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga qaratilgan.

Tolerantlik – bu umumbashariy axloqiy normalardan biri bo‘lib, insonni inson bilan til topishishiga, insoniy munosabatlarni rivojlanishiga, xalqni xalq bilan, millatni millat bilan birlashishiga olib keladi[1].

Tolerantlik oddiy tushunchalardan emas chunki buning zamirida teran axloqiy normalar, sanksiyalar, hayotiy qonuniyatlar o‘z ifodasini topadi.

Ushbu tushunchalar zamirida har bir xalqning ma’rifiy, ma’naviy-madaniy, siyosiy, axloqiy, tarixiy etnik jihatdan hayot xavfsizligining o‘z milliy sifatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni ham bugungi kundagi amaliy natijalarini hayotning o‘zi isbotlamoqda.

Jumladan, konsepsiyada keltirilgan: 1-millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini amalga oshirish masalalarini yorituvchi ommaviy axborot vositalarini rag‘batlantirish;

2-turli millatlar va elatlarning tillarida nashr etiladigan ommaviy axborot vositalari rivojini qo‘llab-quvvatlash, ularda vatanparvarlik, millatlararo bag‘rikenglik mavzularidagi, oilaviy qadriyatlarni, millat va elatlarning O‘zbekistonda yashab o‘tgan va istiqomat qilayotgan, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan atoqli namoyandalari ma’naviy-madaniy va ilmiy merosini targ‘ib qiluvchi materiallarni yoritish amaliyotini kengaytirish;

3-millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, ushbu sohadagi yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishni tashkillashtirish;

4-millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish;

[1] Sh.Mirziyoyev “O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi”- O‘zbekiston, – T., 2022y 294-295 betlar

5-millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish sohasida:

6-fuqarolarning milliy mansubligi va ona tilidan qat’i nazar ularning barchasi uchun mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida teng huquqli ishtirok etishlari uchun teng sharoitlarni ta’minlash prinsipini amalga oshirishga ko‘maklashish;

7-fuqarolarning milliy mansubligidan qat’i nazar ularning barchasi uchun mehnat qilish, kasbni va ish joyini erkin tanlashda teng huquqlarni ta’minlash choralarini amalga oshirish;

Konsepsiyada keltirilgan mexanizmlarni amalga oshirishda albatta bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini ta’minlash faktorlaridan biri bo‘lib, millatlar o‘rtasidagi muommolarni nazariy va amaliy hal etilishida muhim o‘rin egallaydi.

Inson kapitalini taminlashning toleriantlik faktorlarida azaliy xalqimizning haqiqiy ma’naviy boyliklari bo‘lmish iymon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo‘stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarni jamiyatimizning kundalik hayotida ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Albatta ushbu insoniy tuyg‘ular kishini kishiga, millatni millatga, xalqni xalq bilan til topa bilishga olib keladi.

Jadal su’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda yoshlarda tolerantlik munosabatlarini shakllantirish globallashuv jarayonlariga to‘g‘ri munosabat bildirish bilan birgalikda, boshqa xalqlarga, millatlarga bo‘lgan insoniy munosabatlarni shakllantiradi.

Yoshlarimizda totuvlik, tinchlik, adolatlilik, o‘zaro ma’naviy birlik tuyg‘ularini doimiy rivojlantirib borish mustaqil davlatimizning milliy yuksalishiga, barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Albatta bu tushunchalar odamlarni ahil-inoq yashashga, bir-birlarini tushunishga, ma’naviy-madaniy jihatdan shakllantirishga xizmat qilib umumbashariy milliy birlikni keltirib chiqaradi. O‘tmishni, milliy qadriyatlarni bilish, donishmand xalqimizning asriy an’ana va udumlarini o‘rganish ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat tarixdan ma’lumki har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, udumlari, bebaho qadriyatlari mavjudki, ularni asrab avaylash, hurmat qilish, kelgusi avlodlarga yetkazish orqali ularda milliy g‘urur va iftixor hislarini rovojlantirish, qadriyatlarni ulug‘lash bilan bog‘liq fazilatlarni shakllantirish har bir davrlarda ham eng dalzarb masalalardan biri bo‘lib qolgan.

Yoshlarimizda eng avvalo miliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo‘lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilishga undash tolerantlik munosabatlarni shakllantirish bilan birgalkda, umumbashariy milliy qiyofaning sifatlari bo‘lmish: milliy xarakter, milliy urf-odat va an’analar, milliy g‘oya, did, milliy ongning tarkib toptiradi.

Antik davrlardayoq sayyoh va savdogarlar uzoq yurtlarga qilgan safarlardan qaytgach, xorijiy xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlari, odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning kiyinishi, qanday ovqatlar tanovvul qilishi, bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, hayvonot olami va boshqa narsalar haqida o‘z vatandoshlariga ajoyib va g‘aroyib narsalarni so‘zlab berishgan.

Qadimgi dunyo mutafakkirlari Arestotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo‘lishining sabablarini o‘z nuqtayi nazari asosida tushuntirib berishga harakat qilganlar.

Geppokrat (eramizdan avvalgi 460-375) o‘zining “Havo, suv va quruqlik”, degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarini bevosita iqlim sharoiti bilan bog‘lagan holda tushuntirib berdi. Mashhur matematik va faylasuf Pifagorning (eramizdan avvalgi 570-500) tushuntirishiga qaraganda, hayvon go‘shti va yog‘ini ko‘p iste’mol qilinishi, xalqlarda qattiqqo‘llik va dag‘allikni vujudga keltirishini falsafiy jihatdan tushuntirib berishga harakat qilgan.

Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy “Osori boqiya” (Abadiy qadriyatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, so‘g‘dlar, xorazmliklar, xristianlar, yahudiylar, musulmonlarning ruhiy xususiyatlari va ularning eralarini boshlanish sabablarini ko‘rsatib bergan[2]. Darhaqiqat inson ruhiyatini yuksaltirish unga ma’naviy ozuqa berish qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanib kelgan.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda bo‘lgan katta o‘zgarishlar, milliy ongning o‘sishi, millatlararo integrasiyaning kuchayishi bugungi hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizni yanada hayot, yangilanish, taraqqiyot bilan uzviy va izchil ravishda, teranroq anglab zamonaviy bilimlarni, kasblarni, faoliyat jarayonlarini egallashga olib kelmoqda.

Yoshlarda tolerantlik munosabatlarini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, o‘zida shu jamiyatga xos mentalitet, insoniy mehr-muhabbat hamda bag‘rikenglik darajalarini aks ettiradi. Albatta bugungi kun yoshlari, hayotimiz davomchilari, taraqqiyotimiz rivoji, ertangi kun yaratuvchilarida tolerantlik munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu munosabatlar, boshqa millat, xalqlarga bo‘lgan bilish jarayonlarini shakllantirish bugungi, globallashuv jarayonlarining asosiy kechiktirib bo‘lmas, umumbashariy vazifalaridan sanaladi. Darhaqiqat, ushbu vazifalarni amalga oshirishda birinchi integrasiya jarayonlarini har bir xalq, millat tarixi rivojlanishi, ma’naviy va madaniy taraqqiyoti tushunchalaridan kelib chiqib uzviy va izchil amalga oshirib borish, ma’naviy birlik me’zonlaridan sanalib o‘zaro hamjihatlikni keltirib chiqaradi. Yoshlarda shakllangan tolerantlik munosabatlari ularda fozillik sifatlarini, barkamollik harakatlarini yuzaga keltirib jahon maydonlarida jadal sur’atlar bilan borishiga yordam beradi.

Shaxs taraqqiyoti masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat, ma’zmun-mohiyatni talab etib, bilish jarayonlari, sezgi, idrok, tafakkur va tasavvurni mukammal rivojlantirib borishni talab etadi. Avvalo teran fikrlash shaxsda ijtimoiylashish, milliylashishni o‘z ona tilini o‘rganish bilan boshlanadi. Milliy tilni bilmaslik etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarni mohiyatlarini anglab olishga to‘sqinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlatiladigan so‘zlarda milliy o‘ziga xoslik bo‘ladi. Tafakkur bilan til va nutq o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi uchun, ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo‘lib o‘zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilda reallashadi, maddiylashadi. Har bir millatga xos bo‘lgan sezgi, idrok, tafakkur tarzi shu millat tili, nutqi, tafakkur rivoji bilan belgilanadi. Shunday ekan tolerantlik munosabatlarini shakllantirish birinchi galda shu millat tilini, nutqini mukammal o‘zlashtirishni talab etib, tarixiy rivojlanish davridagi an’analari, urf-odatlari bilan birgalikda amalga oshadi.

Shu jihatdan yoshlarimizda birinchi galda o‘z ona-tilini mukammal bilishni, ajdodlari bosib o‘tgan tarixiy davrni, har bir davrning o‘ziga xos ijtimoiy rivojlanishini chuqur ilmiy va umumbashariy ravishda nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishlari va o‘z munosabatlarini faoliyat jarayonlarida gavdalantirishlari lozim ekanigini chuqur anglashlari talab etiladi.

[2] L.G.Pochebut. Kross-kul’turnaya I etnicheskaya psixologiya.Moskva.Sank-Peterburg. 2012. б 128

Yoshlarimizda tolerantlik munosabatlari quyidagi bilish me’zonlarida o‘z ifodasini topadi:

1-har bir xalqning tarixiy rivojlanishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;

2-tili, urf-odat, an’analarini o‘rganish, hurmat qilish;

3-mashhur kishilari haqida bilimlarga ega bo‘lish;

4-shu millatning, xalqning asosiy faoliyat jarayonlari bilan qiziqish;

5-zamonaviy texnologiyalari haqida ma’lumotga ega bo‘lish;

6-arxetiktura-san’ati haqida bilimlarga ega bo‘lish;

7-muzeylari, tarixiy qadamjolari bilan tanishish;

8-tabiati, ekologiyasi bilan qiziqish;

9-o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, ma’naviyati, madaniyati bilan tanishish, hurmat qilish;

10-bugungi kundagi rivojlanishi, taraqqiyoti masalalasi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish.

Ushbu jihatlar kelgusida kelajagimizni davomchilari bo‘lgan yosh avlod ongida umumbashariy birlik tafakkurini shakllantirib qo‘yidagi faoliyat jarayonlarini shakllanishiga olib keladi:

1-xalqaro maydonlarda o‘z iqtidorini namoyish etish;

2-tadqiqot ishlarida innovatsiya, integratsiya, investitsiya kabi global muommolarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni tatbiq etish;

3-xalqaro miqyosda professional tayyorgarlikga erishish;

4-tajriba almashish ko‘nikmalarini shakllantirish;

5-hamkorlikning global yechimiga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

6-rivojlangan davlarlarninging so‘nggi yangiliklari bilan tanishish;

7-har bir davlatning buyuk shaxslari va tarixiy rivojlanishi haqida tasavvur va tafakkurga ega bo‘lish;

8-tolerantlik harakatlari, munosabatlarining metodologik jihatlarini o‘rganish, tahlil qilish va hayot ma’zmuniga aylantirish;

9-turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni yaratish;

10-hamkorlik asosida faoliyat jarayonlarini tashkil etish madaniyatining etnik jihatlari tarkib topadi.

Xulosa qilib aytganda, tinchlik-totuvlik bor joyda osoyishta hayot davom etadi. Tinchlik, taraqqiyot, rivojlanish masalasi esa, har bir kishi birinchi o‘z osoyishtaligini chuqur anglab sog‘lomlashtirib, yon-atrofdagilarning ham kim ekanligini qaysi millat vakili ekanligi haqida e’tiborli bo‘lishiga olib keladi. Ushbu e’tibor, etikit zamirida ma’naviy ruhiy birlik yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 15-noyabrdagi, PF-5876-son Farmoni.

2. Sh.Mirziyoyev “O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” – “O‘zbekiston”, – T., 2022-y 294-29- betlar.

3. Karimova V., Shomurodova N. Etnopsixologiya. – T., 2012.B-9.

4. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va toleriantlik. – T., 2020.

5. Почебут Л.Г. Кросс-кулътурная И этническая психология. Москва. Санк-Петербург. 2012. с128.

**Dilorom ADILOVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
“Umumiy pedagogika” kafedrasi, dotsent (v.b)

# BADIIY PEDAGOGIKA VA VIRTUAL MUZEY INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada badiiy pedagogika va virtual muzey texnologiyalarining integratsiyasi orqali talabalar ongida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, badiiy-estetik tarbiyaning shaxsiy kamolotga ta’siri, virtual muhitda estetik didni shakllantirish orqali axloqiy ongni mustahkamlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlar.** Badiiy pedagogika, ma’naviy qadriyatlar, virtual muzey, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya.

В статье освещены теоретические и практические основы формирования системы духовно-нравственных ценностей в сознании студентов посредством интеграции художественной педагогики и технологий виртуального музея. Также рассматривается влияние художественно-эстетического воспитания на личностное развитие, возможности укрепления нравственного сознания путем формирования эстетического вкуса в виртуальной среде.

**Ключевый слова.** Художественная педагогика, духовные ценности, виртуальный музей, нравственное воспитание, эстетическое воспитание.

The article highlights the theoretical and practical foundations of forming a system of spiritual and moral values in the minds of students through the integration of art pedagogy and virtual museum technologies. The influence of artistic and aesthetic education on personal development, the possibilities of strengthening moral consciousness through the formation of aesthetic taste in the virtual environment are also considered.

**Key words.** Artistic pedagogy, moral values, virtual museum, ethical education, aesthetic education.

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk, axloqiy mas’uliyatni chuqur anglagan shaxs sifatida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, axborot xuruji kuchaygan, madaniyatlararo integratsiya jadallashgan davrda yoshlarning mustahkam ichki e’tiqodi, milliy qadriyatlarga sadoqati va axloqiy qarashlarining shakllangan bo‘lishi beqiyos ahamiyatga ega.

Bu borada badiiy pedagogika va virtual texnologiyalar simbioziga asoslangan yondashuvlar yangi imkoniyatlar ochmoqda. Badiiy pedagogika – bu shaxsning estetik idrokini, ma’naviy olamini va axloqiy dunyoqarashini san’at vositalari orqali shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimdir. Virtual muzeylar esa zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan, interaktiv ta’lim muhiti yaratishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita bo‘lib, talabalarni real tarixiy va madaniy kontekst bilan bevosita tanishtirish imkonini beradi.

Badiiy pedagogika bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar san’atning tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur ochib beradi. Jumladan, O‘zbekistonlik pedagog olima S. Raxmonqulova o‘z tadqiqotlarida estetik tarbiyaning shaxs psixologiyasi va axloqiy qarashlariga ko‘rsatadigan ta’sirini asoslab bergan. Uning fikricha, san’at bilan o‘zaro

muloqot orqali insonda axloqiy sezuvchanlik, go‘zallikni anglash va o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yish kabi ijtimoiy fazilatlar shakllanadi.

Xorijiy manbalar orasida Falk va Dierking (2002) tomonidan taqdim etilgan “Learning from Museums” nomli asar alohida e’tiborga loyiq. Ushbu tadqiqotda mualliflar virtual muzeylarning interaktivligi o‘quvchining estetik va hissiy tajribasini kuchaytirishini isbotlaydi. Parry (2007) esa virtual ekspozitsiyalar orqali yoshlar tarixiy ongini shakllantirish, qadimiy merosni tushunish va qadrlashga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar inqirozi, globallashuv, raqamli madaniyatning ta’siri ostida yoshlarning ruhiy-estetik qiyofasi sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, raqamli kontentning haddan ortiq iste’mol qilinishi, ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy qadriyatlar emas, balki ko‘ngilochar, yuzaki va ko‘pincha istehzo yo‘nalishidagi materiallarning ko‘payishi yoshlar ongida chuqur iz qoldirmoqda. Bu holatga qarshi an’anaviy ta’lim vositalari ba’zida yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu boisdan ham badiiy pedagogika va virtual muzey kabi vositalarning integratsiyalashuvi dolzarb ilmiy-pedagogik masala sifatida ko‘rilmoqda.

Badiiy pedagogika – bu oddiy dars o‘tish metodikasi emas, balki inson qalbiga san’at orqali yo‘l topish, tarbiyani estetik obrazlar orqali ongga emas, qalbga singdirish konsepsiyasidir. Ushbu yondashuv Lev Vygotskiy, Jon Dyui, Xovard Gardner kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik, g‘oyalari bilan boyitilgan. Masalan, Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasiga ko‘ra, inson nafaqat mantiqiy va lingvistik, balki musiqiy, vizual-estetik, shaxslararo va intrapersonal intellekt asosida ham o‘rganadi. Demak, san’atga yo‘g‘rilgan ta’lim (badiiy pedagogika) insonning chuqur anglash mexanizmlarini ishga soladi. Virtual muzey esa bu yondashuvni zamonaviy formatda, interaktiv vositalar orqali yosh avlodga yetkazish imkonini beradi. Masalan, talaba real vaqt rejimida 3D formatda Ko‘k gumbaz, Sherdor, Registon majmuasini ko‘zdan kechiradi, tarixiy shaxslarning hayoti bilan virtual muloqot qiladi, adiblar ijodini audio-vizual tarzda his qiladi. Bu faqat bilim emas – hissiy taassurot, estetik tajriba, va eng muhimi, axloqiy mezonlar shakllanishining yangi zamonaviy shaklidir.

Xorijiy tajribalarda, xususan, Finlyandiya, Estoniya, Janubiy Koreya ta’lim tizimlarida san’at vositasida axloqiy va ijtimoiy ongni rivojlantirishda virtual muhitlardan faol foydalanilmoqda. Estoniyada “Kumu” nomli virtual san’at muzeyi orqali talabalarga milliy identitet va estetik tarbiya beriladi. Janubiy Koreyada esa madaniy markazlar maktablar bilan integratsiyada faoliyat yuritadi. AQShda esa “Smithsonian” virtual muzeyi orqali ijtimoiy adolat, tarixiy haqiqat va etnik xilma-xillik tushunchalari keng yoritiladi.

O‘zbekistonda esa bu boradagi ishlar endigina shakllanmoqda. Garchi “Milliy madaniy meros agentligi” tomonidan ayrim raqamlashtirish ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, ular ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘lanmagan. Virtual muzeylar ta’limiy resurs sifatida emas, aksariyat hollarda turistik yoki arxiviy rol o‘ynaydi. Shu bois badiiy pedagogika va virtual muzeyni integratsiyalash – nazariy va amaliy jihatdan yangi pedagogik platformani shakllantirishni talab qiladi.

Shuningdek, muammo sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– oliy ta’limda estetik tarbiya mavzulari cheklangan yoki alohida modul shaklida emas;

– pedagoglar bu boradagi zamonaviy metodik yondashuvlardan bexabar;

– virtual muzeylar ko‘proq axborot berish bilan cheklanib, interaktiv tarbiya mexanizmini ishlab chiqmayapti;

– talabalarda badiiy tahlil, estetik fikrlash va axloqiy anglash faoliyati yetarlicha shakllanmagan.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, badiiy pedagogika va virtual muzeyning uyg‘unligi talabalarning faqat bilim emas, balki barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim vositadir. Integratsiyalashgan yondashuv orqali ularning ma’naviy sezuvchanligi, san’atga nisbatan estetik munosabati va milliy qadriyatlarga sadoqati mustahkamlanadi. Shu sababli bu yondashuv O‘zbekiston ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Virtual muzeylar orqali ta’lim berish jarayonining afzalliklari quyidagicha umumlashtirildi:

1. Axloqiy-ruhiy ta’sir kuchi. Virtual ekspozitsiyalar orqali talabalar nafaqat madaniy meros bilan tanishadilar, balki axloqiy savollarga o‘z mustaqil yondashuvlarini shakllantirishadi. Masalan, Urush xotiralari, Qatag‘onlar tarixi yoki buyuk mutafakkirlar hayoti bilan tanishish ularda hayotiy saboqlar uyg‘otadi.

2. Estetik idrokning rivoji. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik, musiqa va teatr san’ati bilan bog‘liq virtual ekspozitsiyalar orqali talabalarda go‘zallikni anglash, nozik estetik idrok, san’atga hurmat kabi hislar shakllanadi. Bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri axloqiy mezonlarga xizmat qiladi.

3. Madaniy identifikatsiya. Virtual muzeylar orqali milliy qadriyatlar – hunarmandchilik, milliy kiyimlar, tarixiy obidalar va buyuk allomalarning merosi bilan tanishish talabalarda o‘zlikni anglashni mustahkamlaydi.

4. Mustaqil fikrlash va tahlil qilish. Virtual ekspozitsiyalar ko‘pincha interaktiv elementlar (masalan, virtual sayohatlar, tanlovli topshiriqlar) asosida tuziladi. Bu esa mustaqil tahlil qilish, axloqiy masalalarni muhokama qilish, qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, maqolada xorijiy tajribalar bilan solishtirgan holda O‘zbekistonda mavjud muammolar tahlil qilinib, istiqbolli yo‘nalishlar ham taklif etildi. Xususan, bu yondashuvni ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagoglar uchun malaka oshirish dasturlarida badiiy pedagogika va virtual metodlar bo‘yicha alohida modullar joriy etilishi.

2. Oliy o‘quv yurtlarida “Madaniy meros bilan interaktiv ta’lim” kabi fakultativ kurslar tashkil etilishi.

3. Virtual muzeylar faoliyatini ta’lim bilan bog‘lash uchun platformali hamkorlik (masalan, IIVM – Integratsiyalashgan Interaktiv Virtual Muzey) modelining ishlab chiqilishi.

4. Talabalarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda adabiy, tarixiy va milliy eksponatlar asosidagi loyiha ishlari yo‘lga qo‘yilishi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi nafaqat innovatsion yondashuv, balki kelajak shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladigan chuqur g‘oyaviy tizimdir. Bu tizim orqali biz yoshlarimizga faqat bilim emas, balki hayotda yo‘l topuvchi ichki kompas – axloq, estetik did va ma’naviy yuksaklikni ham tuhfa eta olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abdullaeva N. M. (2020). Badiiy pedagogikaning nazariy asoslari va amaliyoti. –T.: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

2. Karimov O. S. (2019). “Virtual muzeylarning ta’lim jarayonidagi roli va imkoniyatlari”. Ta’lim va Innovatsiyalar, 4(12), 45-53.

3. Sattarova G. K. (2021). “Integratsiya badiiy pedagogika va virtual muzey texnologiyalari: zamonaviy ta’lim muammolari”. Xalq ta’limi, 2(55), 67-75.

**Mastura NISHANOVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi, o‘qituvchi

# ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Annotatsiya**

Maqolada andragogik yondashuvning zamonaviy pedagogika tizimidagi o‘rni, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, talabalarni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda, ularda mustahkam muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda andragogik metodlarning ta’siri tahlil qilinadi. Muallif nazariy qarashlar, xorijiy va milliy tajribalar hamda taklif va tavsiyalar keltiriladi.

**Tayanch so‘zlar.** Andragogika, kommunikativ kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, interaktiv metodlar, pedagogik muloqot.

В статье освещается роль андрагогического подхода в современной педагогической системе, особенно в формировании коммуникативной компетентности будущих учителей. Также анализируется влияние андрагогических методов на воспитание студентов как зрелых личностей, развитие у них прочных коммуникативных навыков. Приводятся теоретические взгляды, зарубежный и национальный опыт, а также предложения и рекомендации.

**Ключевые слова.** Андрагогика, коммуникативная компетентность, будущий учитель, интерактивные методы, педагогическое общение.

The article highlights the role of the andragogical approach in the modern pedagogical system, especially in the formation of communicative competence of future teachers. The influence of andragogical methods on the upbringing of students as mature individuals and the development of strong communication skills is also analyzed. Theoretical views, foreign and national experience, as well as proposals and recommendations are presented.

**Key words.** Andragogy, communicative competence, future teacher, interactive methods, pedagogical communication.

Bugungi kunda ta’lim tizimining modernizatsiyasi o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy-madaniy muhitda faol kommunikator sifatida shakllanishini taqozo etmoqda. Shu jihatdan, pedagogik ta’lim tizimida o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bunday kompetentliklar nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, motivatsiya berish, emotsional iqlim yaratish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Andragogik yondashuv aynan katta yoshdagi shaxslar – talabalar bilan ishlashda samarali metodologiya sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv talabaning avvalgi tajribasiga tayanib, uni faol bilim oluvchi sifatida jalb etishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, pedagogik kadrlarni tayyorlashda andragogik yondashuv orqali kommunikativ salohiyatni rivojlantirish muhim strategik yo‘nalish sanaladi.

Andragogika – bu ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan, tajriba va ehtiyojlarga asoslangan modeli bo‘lib, u katta yoshdagi o‘quvchilarning mustaqil, mas’uliyatli va ongli ta’lim oluvchilar sifatida qaralishini nazarda tutadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida ushbu yondashuvni qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

• fikrni aniqlik bilan ifoda etish;
• faol tinglash va emotsional empatiya;
• ijtimoiy muloqotda ishonchli bo‘lish;
• tanqidiy fikrlash va diplomatik yondashuv.

Andragogik yondashuvda o‘qituvchilar talabalarning mustaqil qaror qabul qilishi, muammoga asoslangan o‘rganish (problem-based learning), rolli o‘yinlar, treninglar, va reflektiv mashg‘ulotlar orqali kommunikatsiya madaniyatini rivojlantiradi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, AQSH, Germaniya, Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlarda andragogika asosida o‘qituvchilarni tayyorlashda muloqot psixologiyasi, konfliktsiz muloqot yuritish, ta’sirchan nutq texnikasi kabi kurslar ajratilgan. O‘zbekiston tajribasida ham bunday yondashuvni rivojlantirish uchun metodik asoslar yaratilmoqda.

Zamonaviy pedagogikada o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ayniqsa, raqamli transformatsiya, ijtimoiy tarmoqlar ta’siri va interaktiv ta’lim muhitida dolzarb masalalardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishdan tashqari, o‘z fikrini ravon, aniq va ishonchli tarzda bayon eta oladigan, turli vaziyatlarda mos muloqot strategiyasini tanlay oladigan yetuk shaxs sifatida shakllanishi kerak. Andragogik yondashuv ana shu talablarni bajarishda kuchli ilmiy-amaliy asos bo‘la oladi. Chunki bu yondashuv talabaning tajribasini qadrlaydi, uni mustaqil fikr yurituvchi subyekt sifatida tan oladi va “yo‘ldosh-o‘qituvchi” modelini ilgari suradi. Knowles (1984) ta’kidlaganidek, katta yoshdagilar bilan ishlashda asosiy diqqat – ularning ichki motivatsiyasi va o‘ziga xos o‘rganish uslublarini hisobga olishda bo‘lishi kerak. Shuningdek, Mezirow (1991) tomonidan ishlab chiqilgan “transformativ ta’lim” nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va kommunikativ yondashuvlari ham tubdan o‘zgaradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu – faqat bilim emas, balki o‘zini anglash, boshqa odamlarning fikrini hurmat qilish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘rganish degani.

O‘zbekiston tajribasiga to‘xtalsak, pedagogika oliygohlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar hali ham yetarli emas. Talabalarda notiqlik, jamoat bilan ishlash, ota-onalar va hamkasblar bilan muloqot yuritish bo‘yicha amaliy kompetensiyalar sust shakllanyapti. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh, zamon bilan hamnafas o‘qituvchi yetishtirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro amaliyotda esa aksincha, andragogik yondashuv asosida o‘qituvchilarning kommunikatsiya malakalariga alohida fanlar va tajriba dasturlari ajratiladi. Masalan:

• Finlyandiyada har bir bo‘lajak o‘qituvchi “Professional communication and reflection” kursini o‘tadi va ijtimoiy-psixologik treninglarda ishtirok etadi.

• Germaniyada pedagogik fakultetlarda har bir semestrda kommunikatsiyaga oid amaliy vaziyatlar asosida “interaktiv seminarlar” o‘tkaziladi.

• Janubiy Koreyada andragogika va media savodxonlik o‘zaro uyg‘unlashgan holatda o‘qituvchilikka tayyorgarlik tizimiga integratsiyalangan.

Demak, bizda ham quyidagilarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda:

1. “Kommunikativ kompetentlik” bo‘yicha alohida integrallashgan fanlar (nutq madaniyati + psixologiya + muloqot texnologiyalari) ishlab chiqilishi.

2. Trening va master-klasslar asosida talabalarni noformal uslubda o‘qitish – an’anaviy leksiyalardan ko‘ra samaraliroq.

3. Amaliy simulyatsiyalar: o‘quvchi, ota-ona, o‘qituvchi-hamkasb, o‘qituvchi-ma’mur munosabatlarini ifodalovchi rolli o‘yinlar va keyslar orqali kommunikatsiya ko‘nikmalarini mustahkamlash. Bundan tashqari, yangi avlod o‘qituvchisi uchun raqamli kommuni-

katsiya, ijtimoiy tarmoqlarda ta’limiy faoliyat yuritish (edubloglar, pedagogik kontentlar) ham asosiy kompetensiyalarga aylanyapti. Shunday ekan, andragogik yondashuv bu ehtiyojni ham qamrab oluvchi keng qamrovli yondashuvga aylanmoqda.

1. Andragogika – faqat didaktik model emas, balki shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ taraqqiyotga yo‘naltirilgan tamoyillar tizimidir.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun bu yondashuvni tizimli va strategik asosda joriy etish zarur.

3. Amaliyotga yo‘naltirilgan, psixologik, til va madaniyat kontekstida muloqotni o‘rgatuvchi integratsion dasturlar ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Kommunikativ kompetentlik faqat til bilish bilan cheklanmaydi – u nutq aktlarini to‘g‘ri tashkil etish, kontekstni anglash, mimika, intonatsiya va emotsional fondan to‘g‘ri foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan psixolingvistika bilimlari o‘qituvchining kommunikativ yondashuvini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi har bir gapida ijtimoiy, madaniy va psixologik subtekstni tushunishi, auditoriyaga mos ohangda murojaat qila olishi lozim. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra (2023), o‘rta ta’limdagi o‘qituvchilarning 42 foizi darsdan tashqari muloqotda noaniqlik, kommunikativ to‘siq yoki psixologik toliqish sababli faol bo‘lmasligi aniqlangan. Shu sababli, dunyo tajribasida o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich rasmiy statistikada to‘liq aks ettirilmagan, biroq sinfdagi faollik va o‘quvchining subyektiv ishonch darajasi bevosita o‘qituvchining kommunikativ salohiyatiga bog‘liq.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘qituvchining muloqot shaklini o‘zgartiryapti. Masalan, Zoom yoki Google Meet platformalarida olib borilayotgan onlayn darslar, forumlar va elektron jurnallar orqali yozma muloqot kuchaymoqda. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar onlayn muloqot etikasi, vizual kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, samarali raqamli taqdimotlar yaratish kabi malakalarga ega bo‘lishlari zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilar orasida ayollar soni ustun. Bu esa kommunikatsiyada o‘ziga xos yondashuvlar, yumshoqlik, empatiya va ijtimoiy sezgirlikni talab etadi. Shu sababli andragogik yondashuvda gender differensiallari, emotsional intellekt va empatik eshitish bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar kiritilishi tavsiya etiladi.

O‘zbek jamiyati o‘ziga xos mentalitet, qadriyatlar va ijtimoiy aloqa shakllariga ega. Bo‘lajak o‘qituvchi kommunikativ kompetentlikni faqat umumiy nazariyalar asosida emas, balki mahalliy kontekstga moslashtirilgan amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantirishi lozim. Masalan, ota-onalar bilan suhbatlarda yoki jamoat tadbirlarida ishtirok etish – talaba uchun real kommunikatsiya maktabidir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limda eng muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, andragogik yondashuv asosida bu kompetentlikni shakllantirish talabalarning yoshi, hayotiy tajribasi, ijtimoiy roli va mustaqil fikrlash qobiliyatini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu maqolada tahlil qilingan nazariy qarashlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, samarali kommunikatsiya nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bilim almashinuvi, balki ishonch, ijtimoiy hamkorlik va ta’lim sifati kafolati sifatida namoyon bo‘ladi.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- o‘zaro hurmat va empatiya asosida muloqot olib borish;
- raqamli va an’anaviy kommunikatsiya vositalarini uyg‘unlashtirish;
- turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali aloqada bo‘lishni o‘rgatish;

• refleksiy va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish;

• kommunikatsiya madaniyatini milliy va global qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish.

Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi nafaqat talabaning o‘zini anglash darajasini oshiradi, balki ta’lim tizimining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi. Shu bois, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida andragogik yondashuvga asoslangan, kommunikatsion mashg‘ulotlar bilan boyitilgan integrallashgan o‘quv dasturlari joriy etilishi dolzarb masala sifatida qaralishi lozim.

**Foydalanigan adabiyotlar**

1. Abdurahmonova M.J. (2022). Pedagogikada kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari. – T.: “Ilm-Ziyo” nashriyoti.

2. Knowles M. S. (1980). The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. – Cambridge: Cambridge Books.

3. Qo‘chqorov A. (2021). Andragogik yondashuv: nazariy asoslar va amaliyot. – T.: “Fan va texnologiya”.

4. Xamraeva R. X. (2020). Interaktiv usullar orqali talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirish. // Pedagogika fanlari jurnali.

5. Brookfield S. D. (2013). Developing Critical Thinkers: Challenging Adults to Explore Alternative Ways of Thinking and Acting. – San Francisco: Jossey-Bass.

6. UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report – Teachers and Teaching in a Changing World. – Paris: UNESCO Publishing.

7. Salimov R.A. (2020). Zamonaviy ta’lim jarayonida muloqot kompetensiyasi va uni shakllantirish texnologiyalari. – T.: “Ijodiy uy”.

**Dilafruz MIRALIYEVA,**
Xalqaro Nordik universiteti, ‘‘Pedagogika’’ kafedrasi dotsenti, PhD

# YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA 4 K MODELI ASOSIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV: METODOLOGIK VA AMALIY TAHLIL

**Annotatsiya**

Maqolada umumta’lim maktablari uchun yaratilgan yangi avlod darsliklarida 4K modeli – kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya – kompetensiyalarining qanday ifodalangani aytib o‘tilgan. Shuningdek, darslik mazmuni, topshiriqlar tuzilmasi, interaktiv yondashuvlar va o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida 4K yondashuvining samarali tatbiq etilishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Yangi avlod darsliklari namunalarida 4K modelining integratsiyasi misollar orqali ochib berilgan hamda ta’lim sifati va o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ta’siri baholangan.

**Tayanch so‘zlar.** 4K modeli, darslik tahlili, kompetensiyaviy yondashuv, kreativlik, kritik fikrlash, zamonaviy ta’lim.

В статье рассматривается, как модель 4К – критическое мышление, креативность, коммуникация и кооперация – представлена в учебниках нового поколения, созданных для общеобразовательных школ. Также на научной основе проанализировано содержание учебника, структура заданий, интерактивные подходы и эффективное внедрение 4К-подхода в отношениях учитель-ученик. Интеграция модели 4К в образцах учебников нового поколения раскрыта на примерах, а также оценено влияние на качество образования и формирование учащегося как личности.

**Ключевые слова.** Модель 4К, анализ учебников, компетентностный подход, креативность, критическое мышление, современное образование.

The article discusses how the 4K model – critical thinking, creativity, communication and cooperation – competencies are expressed in new generation textbooks created for general education schools. Also, the content of the textbook, the structure of tasks, interactive approaches, and the effective implementation of the 4K approach in teacher-student relations were analyzed on a scientific basis. The integration of the 4K model in examples of new generation textbooks is revealed through examples, and the impact on the quality of education and the formation of the student as a personality is assessed.

**Key words.** 4K model, textbook analysis, competency-based approach, creativity, critical thinking, modern education.

Ta’lim tizimida oxirgi yillarda yangilanishlar ko‘plab yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktab darsliklarining mazmuni va shakli butunlay yangi yondashuv asosida ishlab chiqilmoqda. Bunday o‘zgarishlar zamirida “4K modeli” deb nomlangan zamonaviy ta’lim konsepsiyasi asos qilib olingan.

4K modeli – bu to‘rt muhim ko‘nikmaga asoslangan yondashuv bo‘lib, quyidagilardan iborat:

• Kritik fikrlash – o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, asosli fikr yuritish, muammolarga ilmiy yondashish qobiliyatini rivojlantirish.

• Kreativlik – o‘quvchilarda yangicha g‘oyalar ishlab chiqish, innovatsion fikrlash va muammoni noodatiy yo‘llar bilan hal qilish qobiliyatini shakllantirish.

• Kooperatsiya – ya’ni hamkorlikda ishlash. O‘quvchilar guruhlarda birga ishlashni, mas’uliyatni bo‘lishishni, fikr almashishni o‘rganadilar.

• Kommunikatsiya – muloqot qilish, o‘z fikrini erkin va aniq ifoda eta olish, boshqalarni tinglash, savol-javob madaniyatini shakllantirish.

Mazkur model xalqaro ta’lim tizimlarida (masalan, PISA, PIRLS, TIMSS kabi baholash tizimlarida) asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, O‘zbekiston ham o‘z ta’lim dasturlarini shu yo‘nalishda takomillashtirish yo‘lidan bormoqda.

Yangi avlod darsliklari mazmuni ham aynan shu 4K modeli asosida tuzilgan. Har bir mavzu o‘quvchida mustaqil fikrlash, ijod qilish, o‘z fikrini bayon eta olish va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, darsliklardagi topshiriqlar orasida: guruh bo‘lib loyiha tayyorlash, real hayotdagi muammoni muhokama qilish, rasmga qarab hikoya tuzish, savollarga turli nuqtayi nazardan javob berish kabi interaktiv usullar mavjud.

Yana bir muhim jihat – bu sistematik yondashuv. Har bir darslikda mavzular bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga, aniqdan mavhumga tomon qurilgan. Bu o‘quvchiga bilimlarni asta-sekin tushunish va chuqurlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, har bir mavzuda avvalgi bilimlar takrorlanib, yangi ma’lumotlar ular asosida mustahkamlanadi. Bu usul “spiral yondashuv” deb ataladi.

Darsliklarda berilgan matnlar o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, sodda va tushunarli tilda yozilgan. Atamalar yoki murakkab so‘zlar izoh bilan berilgan. Har bir mavzu oxirida savol-javoblar, kichik tajribalar yoki loyihaviy vazifalar orqali o‘quvchi o‘z bilimini mustahkamlaydi.

Yangi darsliklarda o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun rasm, komiks, dialoglar, qiziqarli faktlar, o‘yinli topshiriqlardan ham keng foydalanilgan. Bu esa bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faollikka undaydi. Shuningdek, har bir mavzu yakunida o‘zini baholash bo‘limi berilgan. Unda o‘quvchi “Men bugun nima o‘rgandim?”, “Qanday fikr qildim?”, “Do‘stlarim bilan qanday ishladim?” kabi savollarga javob berib, o‘z o‘qish jarayonini nazorat qilishni o‘rganadi. Bu metod “Metakognitiv ko‘nikmalar”ni – ya’ni o‘z fikrlashini anglashni rivojlantiradi.

Darsliklarda interaktiv yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar o‘zaro savol-javoblar orqali muloqotga kirishadi, kichik guruh va juftliklarda ishlashadi, darsda o‘z fikrini aytish, himoya qilish va tinglashni o‘rganadi. Bu orqali ular nafaqat bilim oladi, balki shaxs sifatida shakllanishadi.

Darsliklar mazmunini zamonaviy kompetensiyalarga mos holda takomillashtirishda faqatgina 4K modeli bilan cheklanmasdan, ilg‘or xorijiy tajribalarda qo‘llanilayotgan STEAM yondashuvi, Universal Design for Learning (UDL) va Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan topshiriqlar tizimi ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, darslikdagi materiallar o‘quvchilarda fanlararo integratsiyalashgan tafakkurni shakllantirishi, hayotiy muammolarga ko‘p yoqlama yondashishni talab qilishi kerak.

Yana bir muhim jihat – darsliklardagi topshiriqlarning Bloom taksonomiyasi asosida bosqichma-bosqich tartiblangan bo‘lishidir. Taksonomiyaga ko‘ra, o‘quvchilar avval ma’lumotni yodlaydi (knowledge), tushunadi (understand), qo‘llaydi (apply), tahlil qiladi (analyze), sintez qiladi (synthesize) va baholaydi (evaluate). Darslikda har bir darajaga mos topshiriq bo‘lishi, o‘quvchini chuqur fikrlashga olib borishi zarur.

Zamonaviy darsliklar, shuningdek, metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Ya’ni, o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini anglay olishi, “Men bu mavzuni qanday tushundim?”, “Qanday strategiya menga yordam berdi?” kabi savollar orqali o‘z o‘qishini boshqara olishi kerak. Bu yondashuv, ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari va iqtidorli yoshlar uchun foydalidir. Bundan tashqari, darsliklarda axloqiy-estetik tarbiya elementlarining mavjudligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqotni shakllantiruvchi topshiriqlarning kiritilishi o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki komil inson

qilib tarbiyalaydi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasidagi asosiy tamoyillar bilan bog‘liq holda darsliklar mazmuni takomillashtirilishi kerak. Darsliklardagi matnlar shuningdek, raqamli pedagogika tamoyillariga ham moslashtirilishi, QR-kodlar, interaktiv videodarslar, raqamli sinflar bilan uyg‘un holda ishlashi lozim. Bu metodlar o‘quvchining darslikdan tashqari raqamli resurslarga ham mustaqil kirib, bilim doirasini kengaytirishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, darsliklar nafaqat bilim beruvchi vosita, balki zamonaviy o‘quvchini tarbiyalovchi ko‘p qirrali, interaktiv va ongli o‘rganishga yo‘naltirilgan resursga aylanishi shart. Bunda esa, faqat 4K modeli emas, yuqorida sanab o‘tilgan boshqa ilmiy yondashuvlar bilan integratsiyalashgan metodik asosga suyanish zarur

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, darsda 4K yondashuvini qo‘llagan o‘qituvchilar dars jarayonida faollik, kreativlik va mustaqillik ko‘rsatkichlarining oshganini ta’kidlamoqda. O‘quvchilar bilimni faqat yodlab emas, tushunib, qo‘llab, muhokama qilib o‘zlashtirishmoqda. Bu esa zamonaviy, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda muhim qadamdir.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muloqotga kirishish ko‘nikmalari va guruhda ishlash madaniyati asosiy kompetensiyalar sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun 4K modelini darsliklarga integratsiya qilish – bu zamon talabi bilan hamohang, puxta o‘ylangan yondashuvdir. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yangi avlod darsliklarida aynan 4K – kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kooperatsiya – asosiy g‘oyaviy tayanch sifatida uyg‘unlashtirilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki real hayotda zarur bo‘lgan hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Ayniqsa, darsliklardagi matnlarning psixologik yosh xususiyatlariga mosligi, topshiriqlarning bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qilgani, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya bo‘limlarining kiritilgani o‘quvchining o‘z ustida ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, loyiha va muammoli topshiriqlar orqali bilim olish jarayoni chinakam faol, mazmunli va o‘quvchi markazli tus olgan.

Kelgusida darsliklar sifatini yanada oshirish uchun:

• pedagoglar va darslik mualliflari uchun 4K modelini chuqur tushuntiruvchi metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi;

• har bir darslik mazmunining 4K komponentlariga mosligi yuzasidan muntazam monitoring tizimi joriy qilinishi;

• o‘qituvchilarning zamonaviy metodologiyalarga tayangan holda ishlash ko‘nikmasini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zero, darslik – bu nafaqat o‘quv quroli, balki butun bir avlodning dunyoqarashini shakllantiruvchi vositadir. Shu bois, uni ishlab chiqish jarayoni mukammal metodik asoslar va zamonaviy yondashuvlarga tayanmog‘i darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4312-sonli qarori. “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

2. Xalq ta’limi vazirligi (2023). Maktab darsliklarining 4K modeli asosida qayta ishlanishi bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent.

3. Djamankulova, D., & Akbarova, M. (2022). Integration of 4C skills in primary education: experience and perspectives. Journal of Innovative Pedagogy, 4(1), 45–58.

4. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. Retrieved from https://www.oecd.org

**Zulfiya HOJIYEVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
**To‘lqin ISAQULOV,**
“Otiental universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsent

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SAMARALI HAMKORLIKDAGI FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari, tamoyillari va qonuniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hamkorlik asosidagi o‘qitish metodlari, kommunikativ kompetensiyalar, o‘quv-amaliyot jarayonining integratsiyasi orqali o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlash muhimligi asoslanadi.

**Tayanch so‘zlar.** Bo‘lajak o‘qituvchi, hamkorlik, pedagogik faoliyat, kommunikativ kompetensiya, tamoyillar, o‘quv-amaliyot.

В статье анализируются теоретические основы, принципы и закономерности подготовки будущих учителей к эффективной совместной деятельности. Также обосновывается важность подготовки к преподавательской деятельности через интеграцию методов обучения на основе сотрудничества, коммуникативных компетенций, учебно-практического процесса.

**Ключевый слова.** Будущий учитель, сотрудничество, педагогическая деятельность, коммуникативная компетенция, принципы, учебно-практическая деятельность.

The article analyzes the theoretical foundations, principles, and regularities of preparing future teachers for effective collaborative activities. The importance of preparing for pedagogical activity through the integration of teaching methods based on cooperation, communicative competencies, and the educational and practical process is also substantiated.

**Key words.** Future teacher, cooperation, pedagogical activity, communicative competence, principles, educational practice.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik jarayonning markaziga o‘quvchi shaxsini qo‘yish, uni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlar doirasida emas, balki amaliy hamkorlikka asoslangan faoliyatda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Aynan samarali hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyati kelajakdagi o‘qituvchining ta’lim muassasasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga asos bo‘ladi.

Pedagogik faoliyat mohiyatan ijtimoiy hamkorlikka tayangan holda amalga oshadi. Shuning uchun o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida hamkorlikdagi o‘qitish uslublari, kommunikativ kompetensiyalar, ijtimoiy psixologik moslashuv va muammoli vaziyatlarda jamoaviy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Hamkorlikdagi o‘qitish nafaqat bilimlarni chuqur egallash, balki kasbiy ijtimoiylashuv, rahbarlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Oliy pedagogika ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ayniqsa loyihaviy, interaktiv va reflektiv yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sirga kirishish, fikr almashish, mas’uliyatni bo‘lishish kabi faoliyat komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar samarali

hamkorlik uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy hissiy intellekt, empatiya, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligida samarali hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishda quyidagi qonuniyatlarga e’tibor qaratiladi: birinchidan, hamkorlikning tabiatidan kelib chiqadigan tenglik, ochiqlik va o‘zaro ishonch tamoyillari; ikkinchidan, har bir a’zoning individual qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olish; uchinchidan, jamoaviy fikrlash va muammolarni hal etishdagi ixtiyoriylik va ijobiy motivatsiya; to‘rtinchidan, pedagogik muhitning qulayligi, ya’ni erkin muloqotga undaydigan, ijodkorlikka ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda samarali hamkorlikdagi faoliyatni shakllantirishda o‘quv-amaliyot jarayonining uzviyligi muhim omil hisoblanadi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni maktablarda amaliyot o‘tash davrida jamoaviy darslar, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar, mentorlik va tahliliy refleksiya vositasida mustahkamlash muhimdir. Bu esa ularning real muhitda faol ishtirok etish orqali tajriba orttirishlariga, o‘zini o‘qituvchi sifatida sinab ko‘rishlariga imkon beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatga tayyorligini baholashda esa ularning kommunikativ kompetensiyalari, liderlik salohiyati, vazifalarni taqsimlash va jamoa ichidagi rolni egallash darajasi, konflikt holatlarini bartaraf etishdagi yondashuvi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Bu mezonlarni aniqlashda kuzatish, intervyu, portfoliolar, o‘zaro baholash kabi zamonaviy pedagogik diagnostika usullaridan foydalaniladi.

Ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy yetukligi hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qoladi. Shu boisdan, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlov mexanizmlarini chuqurlashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish va doimiy takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda pedagog kadrlarni tayyorlashda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2023-yillarda Prezident Qaror va Farmonlari qabul qilinib, oliy va xalq ta’limi muassasalari tuzilmasi qayta shakllantirildi: bir necha pedagogika institutlari oliy ta’lim vakolatlariga o‘tkazilib, ularda uzviylik ta’minlandi. Jumladan, PF-79 farmoni maktabgacha va umumta’lim muassasalaridagi pedagoglarni kompetensiya asosida tayyorlashni amalda joriy etdi.

2025-yil aprel oydagi PF-73-son Farmoniga muvofiq esa Toshkent davlat pedagogika universiteti asosida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tashkil etilib, bu oliy ta’lim agentligini milliy pedagogika yetakchisi sifatida belgiladi. Shu tariqa, hozirgi model hamkorlik, pedagogik tajribani standardlashtirish va innovatsiyalarni yurtning barcha mintaqalariga keng yoyish imkonini yaratmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, tizimda 9 680 maktab va 4 916 maktabgacha ta’lim muassasasi hamda 400 000 dan ziyod pedagog faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ma’lumotlarda qayd etildiki, pedagoglar kamida har 5 yilda bir marta malakasini oshiradi, biroq malaka oshirish sifati va ilmiy izlanishlar yomonligi kuzatilgan.

Yutuq sifatida, UNICEF, KOICA va Germaniya hamda Buyuk Britaniya kabi xalqaro hamkorlik doirasida 2023-2025-yillarda regionlarda malaka oshirish markazlari tashkil etilib, raqamli monitoring, vebinar va ko‘p modulli kurslar joriy etilgan. Shuningdek, 2025-yil va undan keyin maktablarda pedagog sifatini chet el bilim darajasiga yetkazish xususiy OTMlar ham davlat standartlariga moslashtirilish bosqichi boshlangan.

Amaldagi holat bo‘yicha hamkorlik asosida pedagog tayyorlashda quyidagi ehtiyojlar qayd etilgan:

• Uzviylik muammosi: oliy va xalq ta’limi o‘rtasida integratsiya yetishmaydi. Maktab amaliyoti bilan oliy ta’limdagi nazariy bazalar orasida chala bog‘lanish mavjud.

• Ilmiy faoliyatni kuchaytirish: pedagoglar kam ilmiy ish olib boradi, tashqi baholash tizimi mukammallashtirilishi kerak.

• Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: ko‘plab universitetlar elektron jurnal, LMS, e-dars jadvali va Monitoring (NEMIS) tizimlarini joriy etmoqda, lekin hamma muassasada amaliy tatbiqi yetarli emas.

• Xalqaro hamkorlik: mintaqaviy hamda xorijiy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish hamda professor-o‘qituvchilarni xalqaro konferensiya va e’lonlarda ishtirokini kuchaytirish ijobiy yo‘nalish sifatida belgilangan.

Kamchiliklar bilan bir qatorda qator yangilik va tatbiq etilayotgan zamonaviy metod va yutuqlar ham mavjud xususan:

1. Uzviylikni ta’minlash – pedagogika muassasalari tarkibidagi modul va ilmi-amaliy kurslar mavjud maktab motivatsiyasiga moslashtirilmoqda; nazariy ilmiy-amaliy uzviylikli metodologiya tatbiq etilmoqda.

2. Ilmiy integratsiya – yuqori ilmiy kampus sifatida Nizomiy milliy pedagogika universiteti markaziy rolni egallab, metodik va ilmiy integratsiyalashgan ishlarga vakolat berilgan.

3. Axborot va raqamli tizimlardan foydalanish – elektron monitoring tizimlari, masofaviy kurslar modullari va talabalarni baholash real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda.

4. Xalqaro hamkorlik infratuzilmasi – KOICA va UNICEF grantlari asosida tashriflar, konferensiyalar, metodik materiallar almashinuvi kuchaytirildi.

Bo‘lajak pedagoglarni har taraflama ilmiy salohiyatini oshirish ularga keng imkoniyatlar yaratish kelajak avlodni chuqur bilim olishida asosiy vosita deya olamiz. Pedagoglarning ilmiy referenslari va Scopus, Web of Science’da maqolalar chop etish me’yori yetarli emas, bu borada seminar-treninglar joriy etilishi lozim. Maktablarda amaliyot o‘tayotgan talabalar uchun mentorlik va sinfxona hamkorliklari tizimi tizimli emas; shu bois maktab-universitet integratsiyasi, PLC-based seminarlar, hamkorlik formatidagi aksiya tadbirlari kuchaytirilishi tavsiya etiladi. Xalq ta’limi va oliy ta’lim hamkorlari o‘rtasida uzoq muddatli sheriklik shakllari lozim – doimiy PLClar tashkil etish, hamkorlik loyihalar, ilmiy rezidentura va ilmiy-amaliy stajirovka dasturlari orqali uzviylikni kuchaytirish mumkin.

Mamlakatimizdagi qator hududlarda olib borilgan kuzatishlar quyidagilarni ma’lum qildi.

Andijon viloyatidagi tajriba:

Andijon davlat universiteti huzuridagi pedagogika fakultetida 2023-yildan boshlab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Maktabda mentorlik” loyihasi joriy etildi. Bu loyihada talaba har semestrda bir umumta’lim maktabiga biriktirilib, o‘sha yerda haftasiga 6-8 soatlik amaliy mashg‘ulotlar o‘taydi. Shu orqali nazariy bilimni real darslarga tatbiq etish bosqichi kuchaydi.

Xorazm viloyatidagi muammo:

Xorazm viloyati maktablarida 2024-yilgi monitoring natijalariga ko‘ra, yosh o‘qituvchilarning 37 foizi maktab amaliyotidan keyin kasbiy faoliyatdan voz kechgan. Sababi sifatida ularning aytishicha, yetarli psixologik tayyorgarlik yo‘qligi va tajribali ustozlar bilan tizimli hamkorlik yetishmasligi sabab bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyatidagi yutuq:

Qarshi davlat universitetida Finlandiya bilan hamkorlikda olib borilgan loyiha na-

tijasida, 2024-yilda “Raqamli pedagogika” yo‘nalishi ochildi. Bu yo‘nalishda o‘qiyotgan talabalar raqamli dars dizayni, masofaviy monitoring va virtual laboratoriyalar asosida ta’lim berish ko‘nikmasini olmoqda. Maktablarda esa QR-kodli testlar va video-darslar ishlatilyapti.

Toshkent shahri misoli:

Toshkent shahrida joylashgan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2025-yil mart oyidan boshlab har bir 4-bosqich talabani “Hamkor maktab” tizimi asosida 1 ta umumta’lim maktabiga biriktirdi. Bu maktabda talabaga tajribali ustoz mentor etib tayinlandi va ular birgalikda sinfda dars o‘tish, metodik material tayyorlash va darsdan keyingi tahlil qilishni joriy qildilar.

Surxondaryo viloyatidagi tashabbus:

2024-yilning kuzida Termiz davlat universiteti tomonidan “Kampusdan sinfxonagacha” nomli pilot loyiha amalga oshirildi. Unda talabalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni maktab amaliyotida qo‘llash bo‘yicha 3 bosqichli modul kurslari tashkil qilindi. Bu kurslarda ishtirok etgan talabalar maktab darslarini QR-kodli interaktiv topshiriqlar, gamifikatsiya va AR (augmented reality) texnologiyalari orqali olib bordi. Monitoring natijalariga ko‘ra, loyiha ishtirokchilarining 80% maktablarda faol ish boshlagan.

Samarqand tajribasi – tarmoqli mentorlik:

Samarqand davlat universitetida 2023-yildan beri joriy etilgan “Tarmoqli mentorlik” tizimi orqali, har bir talaba kamida 2 nafar ustoz – biri universitetda, biri maktabda – bilan aloqada bo‘ladi. Bu yondashuv ilmiy-metodik va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirish imkonini berdi. 2024-yilgi baholashda ushbu tizim orqali amaliyotga chiqqan talabalarning 93 foizi real darslarda mustaqil faoliyat yurita olgan.

Pedagogik ta’limda xalqaro va hududiy hamkorlik asosida olib borilayotgan islohotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida muhim o‘rin tutmoqda. KOICA, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar, xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar orqali yangi metodik yondashuvlar, mentorlik tizimi va raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi kuzatilmoqda.

Hududlar kesimidagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, samarali mentorlik, tizimli maktab-amaliyot integratsiyasi va innovatsion metodlar yosh pedagoglar kasbiy yo‘lini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, har bir oliy ta’lim muassasasi doirasida uzviy maktab hamkorligi, doimiy PLClar, ilmiy-amaliy seminarlar va stajirovkalar orqali ushbu jarayonni tizimlashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni – “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma’lumotlari, 2024.

3. Hojieva Z. U. (2014). The Role of “Mark” in Humanization of Didactic Relationships. In Young Scientist USA (pp. 33-36).

4. Andijon davlat universiteti “Maktabda mentorlik” loyihasi hisobotlari, 2023.

5. Qarshi davlat universiteti – Finlandiya hamkorligidagi “Raqamli pedagogika” loyihasi natijalari, 2024.

6. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti – “Hamkor maktab” amaliyoti haqida axborot byulleteni, 2025.

**Jasurjon XALIQOV,**
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, tayanch doktorant

# AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA MUSIQIY DIDNI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan o‘quvchilarda musiqiy didni shakllantirishning nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, musiqa ta’limida qadriyatlar tizimi asosida estetik va axloqiy tarbiya berishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif, musiqa orqali shaxsda emotsional sezuvchanlik, estetik qadr-qimmat, madaniy ong va axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or g‘oyalarga asoslanilgan nazariy qarashlar va zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlarini tahlil qilib, musiqiy didni tarbiyalashda aksiologik yondashuvning afzalliklarini asoslab bergan.

**Tayanch so‘zlar.** Aksiologik yondashuv, musiqiy did, qadriyatlar, estetik tarbiya, o‘quvchilar, musiqa ta’limi, shaxs kamoloti.

В статье освещаются теоретические основы формирования музыкального вкуса у учащихся с точки зрения аксиологического подхода. Также анализируются педагогические возможности эстетического и нравственного воспитания на основе системы ценностей в музыкальном образовании. Автор, проанализировав теоретические взгляды, основанные на передовых идеях и подходах современных зарубежных и отечественных ученых по формированию эмоциональной чувствительности, эстетического достоинства, культурного сознания и нравственных качеств у человека через музыку, обосновал преимущества аксиологического подхода в воспитании музыкального вкуса.

**Ключевые слова**. Аксиологический подход, музыкальный вкус, ценности, эстетическое воспитание, учащиеся, музыкальное образование, личностное развитие.

The article highlights the theoretical foundations of the formation of musical taste in students from the point of view of the axiological approach. Also, the pedagogical possibilities of aesthetic and moral education based on the system of values in music education are analyzed. The author, having analyzed the theoretical views based on advanced ideas and the approaches of modern foreign and domestic scientists to the formation of emotional sensitivity, aesthetic value, cultural consciousness, and moral qualities in a person through music, substantiated the advantages of the axiological approach to the cultivation of musical taste.

**Key words.** Axiological approach, musical taste, values, aesthetic education, students, music education, personal development.

Bugungi ta’lim tizimi shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, uning ichki dunyosi, estetik qarashlari va qadriyatlar tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, musiqiy ta’lim faqat ijrochilik mahoratini emas, balki o‘quvchilarda musiqiy did, estetik sezuvchanlik, ma’naviy-etnik ongni shakllantirishda ham muhim vositaga aylangan. Ayni paytda ta’lim jarayoniga aksiologik yondashuvni tatbiq etish – musiqiy tarbiyada muhim metodologik asos sifatida maydonga chiqmoqda. Bu yondashuv o‘quvchining qadriyatlar tizimini shakllantirish, musiqani anglash va baholashda chuqur ijtimoiy va madaniy asos yaratadi.

Aksiologik yondashuvning nazariy asoslariga to‘xtaladigan bo‘lsak, aksiologiya – qadriyatlar haqidagi fan bo‘lib, uning asoschilari sifatida E. Spranger, V. Vindelband,

E. fon Hartman, N. Hartmann kabi faylasuflar ko‘rsatiladi. Ularning qarashlarida shaxs tarbiyasida qadriyatlar markaziy o‘rinda turadi. E. Spranger o‘zining “Shaxs turlari” asarida shaxsni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bu qadriyatga bo‘lgan munosabat ekanligini ta’kidlaydi.

Xorijiy tajribalarda aksiologik yondashuv va musiqiy did tarbiyasi haqida quyida o‘z mulohazalarimizni keltirib o‘tamiz.

1. AQSh – Estetik va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi (John Dewey maktabi)

• John Dewey musiqiy ta’limni “tajriba asosidagi qadriyatlarni shakllantiruvchi jarayon” deb hisoblagan;

• AQSh maktablarida musiqa darslari orqali shaxsiy tanlov, madaniy ong, jamoaviy muomala madaniyati tarbiyalanadi;

• musiqa o‘rgatishda o‘quvchilarga muayyan janrni tanlash erkinligi beriladi, bu esa axloqiy-estetik qadriyatlarni ongli qabul qilishga olib keladi.

2. Germaniya – Musiqiy tarbiya orqali madaniy qadriyatlarni singdirish

• Germaniyada musiqa ta’limi umumiy madaniy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi;

• o‘quvchilarga xalq musiqasi, klassik va zamonaviy asarlar bilan tanishish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib qilinadi;

• Carl Orff metodikasi – o‘yin, ritm, harakat orqali musiqiy dunyoqarash shakllantiriladi. Bu metod bolalarning emotsional-estetik olamiga chuqur ta’sir qiladi.

3. Yaponiya – Musiqa va qadriyatlar uyg‘unligi

• Yaponiyada musiqa darslarida qadriyatlar (hurmat, tartib, sabr, jamoaviylik) markazda turadi;

• darslar davomida xalq an’analariga asoslangan kuylar, choral musiqalar va ritual musiqalar orqali milliymadaniy xotira mustahkamlanadi;

• musiqa orqali o‘quvchilarda ichki intizom va ruhiy uyg‘unlik tarbiyalanadi;

4. Finlyandiya – Musiqiy tanlov orqali shaxsiy qadriyatlarni kashf etish.

• fin ta’lim tizimi har bir o‘quvchining musiqiy didini mustaqil rivojlantirishga yo‘naltirilgan;

• o‘qituvchilar o‘quvchining qiziqishlariga tayanib individual yondashadi. Bu orqali bola o‘z qadriyat tizimini anglaydi;

• qadriyatli yondashuv orqali musiqiy darslar bolalarning shaxsiy identiteti va estetik olamini shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Rossiya – Musiqa orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya.

• Rossiyalik pedagog B.V. Asafyev musiqa – bu “emotsional tafakkur” degan;

• Rossiya maktablarida musiqiy ta’lim orqali estetik idrok, patriotizm, insonparvarlik kabi qadriyatlar singdiriladi;

• klassik asarlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda musiqiy did va baholash madaniyati rivojlanadi.

Ta’limda aksiologik yondashuvdan foydalanish, ayniqsa, musiqiy tarbiyada shaxsning ichki olamini boyitish, emotsional-intellektual salohiyatini oshirish, musiqani nafaqat eshitish, balki “tuyish” darajasiga ko‘tarish imkonini beradi. J. Dyui musiqani tajriba sifatida ko‘radi – bu esa musiqa orqali insonning ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari shakllanishiga olib keladi.

Musiqiy did – bu shunchaki yoqtirish yoki yoqtirmaslik hissi emas, balki insonning estetik, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan ongli tanlovidir. Aksiologik nuqtayi nazardan musiqiy didni shakllantirishda quyidagi jihatlar muhim:

• musiqa orqali qadriyatlarni idrok etish (masalan, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik);

• musiqaning emotsional ta’siri orqali axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash;

• turli janr va milliy musiqalar orqali madaniy xilma-xillikni qadrlash.

Ayni shu jihatlar o‘quvchining musiqaga ongli munosabatini, ya’ni musiqiy didini shakllantiradi. Shu maqsadda tayyorlangan o‘quv dasturlari, didaktik materiallar ham qadriyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy didni tarbiyalashda aksiologik yondashuvni asos qilib olish quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

• o‘quvchilarda estetik va axloqiy sezuvchanlik kuchayadi;

• musiqa darslari shaxsiy fikrlash va tahlil qilish vositasiga aylanadi;

• shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi;

• milliy musiqa orqali madaniy o‘zlik anglanadi.

Bunday yondashuv o‘qituvchidan nafaqat musiqa fanining bilimdoni bo‘lishni, balki tarbiyaviy yondashuvni, psixologik va estetik sezuvchanlikni ham talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida musiqiy didni tarbiyalash o‘quvchi shaxsining ma’naviy-estetik rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv orqali o‘quvchida nafaqat musiqa san’atiga qiziqish uyg‘onadi, balki musiqani qadrlash, baholash, hayotda amaliy qo‘llashga doir ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalar shakllanadi.

Shu asosda kelgusida amaliy modellar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va aksiologik mezonlarga asoslangan musiqiy ta’lim dasturlarini takomillashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Spranger E. (1928). Types of Men: The Psychology and Ethics of Personality. New York: G.E. Stechert.

2. Dewey J. (1934). Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company.

3. Rozin V.M. (2000). Aksiologicheskiye osnovy pedagogiki. Moskva: Pedagogika.

4. Kagan V.E. (1996). Muzyka i lichnost’: aksiologicheskiy podkhod. Sankt-Peterburg: Akademicheskiy proyekt.

5. Yo‘ldoshev Q. (2019). O‘quvchilarda estetik didni shakllantirishda musiqaning ahamiyati. Pedagogika va psixologiya jurnali, 4(2), 55–60.

6. Karimova Z. (2020). Musiqa ta’limida qadriyatga asoslangan yondashuv. Ilm-fan va ta’lim innovatsiyalari. 1(3), 20–25.

**Nilufar MEHMONOVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

# O‘QUVCHI YOSHLARDA INNOVATSION FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH (O‘zbekiston yoshlar ittifoqi misolida)

**Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan innovatsion fikrlashni shakllantirish muammosi yoritiladi. Shuningdek, asosiy e’tibor o‘quvchi yoshlar orasida innovatsion tafakkurni rivojlantirishga va bu jarayonda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Innovatsion fikrlash, ta’lim tizimi, yoshlar, kreativlik, raqamli ta’lim, startap, xalqaro tajriba.

В статье освещается проблема формирования инновационного мышления, которое является одним из приоритетных направлений молодежной политики в Республике Узбекистан. Также основное внимание уделяется развитию инновационного мышления среди учащейся молодежи и роли Союза молодежи Узбекистана в этом процессе.

**Ключевые слова.** Инновационное мышление, система образования, молодежь, креативность, цифровое образование, стартап, международный опыт.

The article highlights the problem of forming innovative thinking, which is one of the priority areas of youth policy in the Republic of Uzbekistan. Also, the main attention is paid to the development of innovative thinking among student youth and the role of the Youth Union of Uzbekistan in this process.

**Key words.** Innovative thinking, education system, youth, creativity, digital education, startup, international experience.

Zamonaviy davr ta’lim tizimi, axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida o‘quvchi yoshlarning tafakkurini yangicha asosda shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, innovatsion fikrlashni shakllantirish, ularni ilm-fan, texnologiya, raqamli startaplar yo‘nalishida faol ishtirok ettirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ilmiy va texnologik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali innovatsion fikrlashni shakllantirishda muhim institutlardan biri sanaladi. So‘nggi yillarda Ittifoq tomonidan amalga oshirilgan loyihalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tashkilot innovatsion fikrga ega yoshlarni aniqlash, rag‘batlantirish va ularni ilmiy-amaliy faoliyatga jalb etish bo‘yicha tizimli ish olib bormoqda.

Innovatsion fikrlash – bu yangi g‘oyalar yaratish, mavjud muammolarni yangi usullar bilan hal qilish va o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatidir. Zamonaviy jamiyatda innovatsion fikrlash yoshlarning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni innovatsion fikrlashga o‘rgatish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda

Yoshlar ittifoqi muhim rol o‘ynaydi. Avvalo, innovatsion fikrlash tushunchasiga aniqlik kiritamiz. Bu – mavjud muammoni yangicha, ilg‘or va ijodiy yondashuv asosida hal eta olish qobiliyatidir. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, XXI asrda eng muhim ko‘nikmalar qatoriga aynan “ijodiy fikrlash” va “kritik tahlil” kiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘quvchi-yoshlarda ushbu ko‘nikmalarni maktab davridan boshlab rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Yoshlar ittifoqi – bu yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan tashkilotdir. U innovatsion fikrlashni rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

Ta’lim va malaka oshirish dasturlari: yoshlar ittifoqi turli ta’lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etib, yoshlarni innovatsion fikrlashga o‘rgatadi. Masalan, Farg‘ona davlat universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotda talabalar orasida innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan.

Innovatsion loyihalar va startaplar: yoshlar ittifoqi yoshlarni innovatsion loyihalar yaratishga undaydi va ularni amalga oshirishda yordam beradi. Bu orqali yoshlar o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hamkorlik va tarmoq yaratish: yoshlar ittifoqi turli tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatib, yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Bu orqali yoshlar o‘zaro tajriba almashish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi innovatsion rivojlanish sohasida faoliyat yuritib, yoshlarni ilm-fan, texnologiya va tadbirkorlikka jalb qilishga qaratilgan turli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Texnoparklar, startap loyihalari, innovatsion tanlovlar va xalqaro hamkorlik orqali yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu tashabbuslar yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish va mamlakatning innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Innovatsion rivojlanishdagi yoshlar ittifoqining tashabbuslari ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2023-yilda O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan mamlakat bo‘ylab 46 ta innovatsion faoliyat infratuzilmasi subyektlari tashkil etildi. Ular orasida 11 ta texnologik park, 4 ta texnologiyalar transferi markazi, 4 ta innovatsion klaster, 16 ta innovatsiya markazi, 11 ta bizness inkubator va akseleratorlar mavjud. Bu tashkilotlar yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilish va ularning startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.1 Shuningdek, Yoshlar texnoparklarida ham yoshlarni qo‘llab ularga ulkan imkoniyatlar va imtiyozlar yaratayotgan loyihalarni ilgari surgan. Xususan, Yoshlar texnoparklarida 10 ming 298 nafar yosh ishtirok etmoqda. Mazkur texnoparklarda yoshlar tomonidan 280 ta startap loyihasi shakllantirildi, bu esa 133,3 foizga o‘sishni anglatadi. Bu loyihalar yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2023-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 9 ta startap loyihasi tanlovi e’lon qilindi. Umumiy tanlovlarga jami 817 ta taklif loyiha kelib tushdi. Tanlovlar natijasiga ko‘ra, jami 43,7 milliard so‘mlik 54 ta startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi. Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturi hamkorligida o‘tkazilgan “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi” ko‘rik-tanlovida Samarqand davlat veterinariya, chorvachilik va biotexnologiya universitetining Nukus filiali yoshlarining biologik idishlar yaratish g‘oyasi g‘olib bo‘ldi. G‘oliblar Yevropaning ilg‘or tajribasini o‘rganish uchun o‘quv safariga yo‘llanma qo‘lga kiritdi. Innovatsion fikrlashni shakllantirishda texnoparklar va startap muhitining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Yoshlar Ittifoqi ko‘magida bir qancha oliy

[1] Uza.uz

ta’lim muassasalarida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilovalar, ekologik toza mahsulotlar, aqlli qurilmalar ko‘rgazmalarda namoyish etilmoqda. Masalan, 2024-yilda o‘tkazilgan “InnoWeek. Uz-2024” xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida yoshlar uchun robototexnika, dron poygasi, VR/AR, 3D modellashtirish, dasturlash kabi yo‘nalishlarda 1200 dan ortiq yosh ishtirok etdi. Haftalikda 70 nafar yosh g‘olib bo‘lib, ularga mukofotlar topshirildi[2].

Yoshlar akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi hamkorligida o‘tkazilayotgan treninglar yoshlarning muammoga asoslangan fikrlash (problem solving), tizimli fikrlash (systemic thinking) va raqamli savodxonlik kabi zamonaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion fikrlash faqat darslik doirasida shakllanmaydi. Bu jarayonda o‘quvchilarning hayotiy faoliyatga integratsiyalashgan holda o‘rganishi muhim. Shu bois ko‘plab nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy markazlar, axborot texnologiyalari kompaniyalari (masalan, IT Park, Astrum, One Million Uzbek Coders) bilan hamkorlikda yoshlar uchun stajirovkalar, loyihalar va ustaxonalar tashkil etilmoqda. Bu esa yoshlarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy malaka ham orttirishiga xizmat qilmoqda. Misol uchun, 2024-yil aprel oyida Yoshlar Ittifoqi bilan “Codify Academy” hamkorligida 300 nafar maktab o‘quvchisi uchun “Python asosida dasturlash” kurslari o‘tkazildi. Bu loyiha yoshlar orasida IT sohasiga qiziqishni sezilarli darajada oshirdi. Viloyat, tuman va mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar ittifoqi yetakchilari orqali innovatsion fikrlash targ‘iboti joylardagi o‘quvchi-yoshlargacha yetib bormoqda. Ayniqsa, “Mahallabay” tizim asosida ish olib borilayotgani natijasida qamrov kengaymoqda. 2023-yil davomida respublika bo‘yicha 1200 dan ortiq innovatsion loyiha hududiy tanlovlarda taqdim etilgan. Zamonaviy global tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion taraqqiyot faqat texnologik yutuqlarga emas, balki inson kapitalining sifatiga, ayniqsa, yosh avlodning fikrlash darajasi va kreativ salohiyatiga bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, o‘quvchi-yoshlarda innovatsion fikrlashni shakllantirish O‘zbekistonning kelajak iqtisodiy xavfsizligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi uchun strategik masalaga aylanmoqda.

Finlandiya, Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlarda maktab yoshidagi o‘quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha maktabgacha ta’limdan boshlab integratsiyalashgan tizim joriy etilgan. Masalan, Estoniya ta’lim tizimida 1-sinfdan boshlab “Dasturlash asoslari”, “Muammo asosida o‘rganish” (PBL – Problem-Based Learning) va “Tizimli fikrlash” fanlari mavjud. Bu yondashuv ularning global texnologik bozordagi muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardan biridir.

O‘zbekistonda esa ushbu yo‘nalishda so‘nggi 5 yil ichida boshlangan islohotlar Yoshlar Ittifoqi faoliyati misolida tizimlashayotganini ko‘rish mumkin. Jumladan:

• 2019 – 2024-yillar oralig‘ida Yoshlar Ittifoqi tashabbusi bilan 2000 dan ortiq intellektual tanlovlar, hackathonlar, startap forumlar o‘tkazildi;

• O‘zbekiston bo‘yicha 250 dan ortiq umumta’lim maktabida Yoshlar texnoparklari tashkil etildi;

• 100 mingdan ortiq o‘quvchi va talaba yoshlar innovatsion fikrlashga oid trening va loyihalarda qatnashdi (Yoshlar ishlari agentligi ma’lumotlari asosida, 2024-yil).

Innovatsion fikrlash faqat fanlar doirasida emas, balki jamiyatdagi umumiy muhit va raqamli infratuzilma bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli pedagogika vositalarining kengayishi, onlayn o‘quv platformalar (masalan, Coursera, Udemy, Astrum, Dasturlash maktablari) orqali maktab o‘quvchilari o‘z qiziqishlariga mos kurslarni

[2] Xs.uz.13.08.2024.

mustaqil o‘rganmoqda. Bu ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish, fikr erkinligi va ijodkorlik qobiliyatini kuchaytiradi. Yoshlar Ittifoqi esa bunday tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali maktablar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘prik rolini bajarmoqda. Misol uchun, 2024-yil mart oyida Andijon viloyatida 30 nafar maktab o‘quvchisi “InnoSkills” dasturi orqali IT-park rezidentlari bilan hamkorlikda o‘zining dasturiy loyihasini yaratdi. O‘quvchi-yoshlarda innovatsion fikrlashni yanada chuqur shakllantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy asoslangan reja taklif qilinadi:

1. Muammo asosida o‘qitish (PBL) metodologiyasini maktab darslariga bosqich-ma-bosqich integratsiya qilish.

2. Ijodiy laboratoriyalar va Fab-lab’lar (ya’ni kichik eksperiment va dizayn ustaxonalari)ni har bir hududda yo‘lga qo‘yish.

3. Har bir tuman yoki shahar maktabida “Yoshlar innovatsiya elchilari” dasturini joriy etish.

4. Startap mentorlari bazasini yaratish va uni yoshlar bilan bog‘laydigan onlayn platforma ishga tushirish (masalan, “Mentor.uz”).

5. Maktab va kollejlar o‘rtasida Innovatsion G‘oyalar Olimpiadasini har yili o‘tkazish;

6. Innovatsion fikrlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini lokal sharoitga moslashtirish (mahalliy muammolar asosida real loyiha ishlab chiqish tajribasi).

7. Fan va texnologiya olimpiadalarini dizayn, san’at, muhandislik va ekologik fikrlash yo‘nalishlari bilan boyitish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganiyeva M. (2023). Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish. // ScienceWeb Akademik jurnali, https://scienceweb.uz/publication/12313

2. Yoqubova M. (2023). O‘quvchilarda ijodiy va innovatsion tafakkurni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. // Farg‘ona Davlat Universiteti ilmiy jurnali, 3-son. https://journal.fdu.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-martdagi “Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–186-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. (2024). Yillik hisobot. https://mininnovation.uz

5. UZA. (2024). 2024-yilda 46 ta innovatsion faoliyat infratuzilmasi subyektlari tashkil etildi. https://uza.uz

**Nargiza SINDAROVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

# O‘QUVCHILARNING CHET TILI BO‘YICHA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI KOMMUNIKATIV VA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada maktab o‘quvchilarida chet til lingvistik kompetensiyani shakllantirishda kommunikativ va differensial yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, chet til o‘qitish jarayonida tilning tizimli xususiyatlarini chuqur o‘zlashtirish, nutqiy faoliyatga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni qo‘llash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va layoqatlarini hisobga olish asosida til kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bunda tashqari, lingvistik kompetensiyaning strukturaviy birliklari (fonetika, leksika, grammatika, sintaksis, semantika) va ularning amaliyotda qo‘llanishi o‘rganilgan. Muallif kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan, kontekstual va refleksiv metodlarning integratsiyalashuvi samarali deb e’tirof etib o‘tgan.

**Tayanch so‘zlar.** Lingvistik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, differensial yondashuv, chet til o‘qitish metodikasi, fonetik va leksik kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, nutqiy faoliyat, til o‘rganish strategiyasi.

В статье освещены научно-теоретические основы коммуникативного и дифференцированного подходов к формированию иноязычной лингвистической компетенции у школьников. Также проанализированы возможности развития языковой компетенции на основе глубокого усвоения системных особенностей языка в процессе обучения иностранному языку, применения методических подходов, ориентированных на речевую деятельность, учета индивидуальных потребностей и способностей учащихся. Кроме того, были изучены структурные единицы лингвистической компетенции (фонетика, лексика, грамматика, синтаксис, семантика) и их применение на практике. Автор признает эффективной интеграцию личностно-ориентированных, контекстуальных и рефлексивных методов в формировании коммуникативной компетенции.

**Ключевые слова.** Лингвистическая компетенция, коммуникативный подход, дифференцированный подход, методика преподавания иностранного языка, фонетическая и лексическая компетенции, личностно-ориентированное обучение, речевая деятельность, стратегия изучения языка.

The article highlights the scientific and theoretical foundations of communicative and differential approaches in the formation of foreign language linguistic competence in schoolchildren. Also, in the process of teaching a foreign language, the possibilities of developing language competence based on a deep understanding of the systemic features of language, the application of methodological approaches focused on speech activity, and taking into account the individual needs and abilities of students were analyzed. In addition, the structural units of linguistic competence (phonetics, lexicon, grammar, syntax, semantics) and their practical application were studied. The author recognized that the integration of personality-oriented, contextual, and reflexive methods in the formation of communicative competence is effective.

**Key words.** Linguistic competence, communicative approach, differential approach, foreign language teaching methodology, phonetic and lexical competence, personality-oriented learning, speech activity, language learning strategy.

Mors omne inatam dees, cri tella vehem inena, clarbi se perum se nonlocre mei pultus contemura, mod Cupiorei intre estrati licibus; ia no. Me temnium haberis. Vividi si supplis

Globalizatsiya sharoitida xorijiy tillarni egallash – o‘quvchilar shaxsini har tomonlama kamol toptirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, shuningdek, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, zamonaviy til o‘rganish metodikasi o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda kommunikativ va differensial yondashuvlarni integratsiyalashni taqozo etmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda lingvistik kompetensiya – bu o‘quvchining fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika kabi tilshunoslik sohalaridagi bilimlari, ularni amaliy nutqiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati hamda til birliklari asosida mazmunli muloqotga kirishish qobiliyati sifatida izohlanadi. Bunday kompetensiyani rivojlantirish uchun shaxsga yo‘naltirilgan, individual ehtiyojlarni hisobga olgan differensial yondashuv va kommunikativ vaziyatlarga asoslangan kommunikativ yondashuvning uzviy uyg‘unligi ta’limiy jarayonda ustuvor hisoblanadi.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarning chet tilda erkin fikr bildirish, o‘zaro muloqotga kirishish va nutqiy faoliyatda ishtirok etish salohiyatini oshirish maqsadida lingvistik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar takomillashtirilmoqda. Bu esa til o‘rganish jarayonini nafaqat nazariy bilim bilan boyitadi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va kontekstual tushunish kabi muhim nutqiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz raqobatbardosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim. - deb ta’kidlagan edilar.” Bunga ko‘ra, asosiy talabalarni bajarishda zamonaviy dunyoda raqobatga bardoshli davlat bo‘lish uchun, fuqarolarning bilim darajasi, xususan, chet tillarni bilishi muhim va global iqtisodiyot, diplomatiya, texnologiya, fan va ta’lim sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun xalqaro muloqot vositasi sifatida chet tillarni bilish zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g’risidagi” qarorida 2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh, tashabbuskor, keng fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarga ega yosh avlodni tayyorlash maqsadi ilgari surilib, maktab ta’limining mazmuni va metodikasini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning mehnatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish inobatga olingan. Xususan, ushbu qaror mazmuni chet til o‘qitishning zamonaviy paradigmalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, lingvistik kompetensiyani keng va chuqur rivojlantirishga, innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirishga va kommunikativ yondashuv asosida o‘quvchilarni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-sonli – “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ta’lim-tarbiya va ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichini boshlash zarurligi,ta’limni xalqparvarlik, milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish va barkamol shaxs tarbiyasi ustuvor maqsad sifatida e’tirof etilgan.Tarbiya ta’limdan ajralmasligi, uning har bir bo‘g‘inida uyg‘un holda olib borilishi zarurligi qayd etilgan.Ta’lim sifatini oshirish, chegara bilmas bilim olish imkoniyatlari, va fanlararo integratsiya – bularning barchasi o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga zamin yaratadi. Chet tillarini o‘rganishga

e’tibor kuchaytirilishi, xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish uchun o‘qituvchilar tayyorlash va o‘quv-metodik bazani yangilash orqali o‘quvchilarning grammatik, leksik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilib, ta’lim jarayoniga chet tillaridagi manbalarni jalb qilish, o‘quvchilarning turli kontekstlarda tilni qo‘llash malakasini oshiradi.

Til insoniyat sivilizatsiyasining negizini tashkil etuvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida kishilik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan. Ular xalqlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlovchi va madaniyatlararo integratsiyani kuchaytiruvchi muhim vositadir. Shu boisdan ham chet tillarini o‘rganish va ularni o‘rgatish doimo dolzarb masala bo‘lib kelgan. Tilni o‘rgatishda lingvistik kompetensiyani – ya’ni fonetik, grammatik, leksik, pragmatik va sotsiolingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodlar doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Jahon tajribasida chet tillarini o‘qitishda turli metodik yondashuvlar qo‘llanilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani – ya’ni fonetik, leksik, grammatik va kommunikativ ko‘nikmalarni tizimli shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur yondashuvlar amaliyotda sinovdan o‘tgan sari, lingvistik kompetensiyani chuqur egallashga yo‘naltirilgan holda doimiy ravishda takomillashtirilib borilgan. Shu bilan birga mashxur pedagog, tilshunos,psixologlar tomonidan lingvistik kompetensiya tushunchasi turlicha yoritilgan va ushbu kompetensiyani turli yondashuvlar asosida rivojlantirish tadqiqotlari olib borilmoqda. Amaliyotda qo‘llanilib, sinovdan o‘tgani sayin, lingvistik kompetensiyani chuqur egallashga yo‘naltirilgan metodikalar va texnologiyalar doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Bu jarayon lingvistik bilimlarning nafaqat nazariy, balki amaliy va funksional jihatlarini chuqur o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish borasidagi zamonaviy yondashuvlar til o‘rganishning an’anaviy shakllaridan voz kechib, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, kommunikativ, differensial va kognitiv asoslangan metodlar bilan boyitilmoqda.

Mashxur pedagog, tilshunos, psixologlar N.Xomsky, Maykl Kenal va Meril Sveyn, Sandra J. Savignon, Devid Kristal, M.Z. Djelyalov, E.A. Bystrova, Kadirova D.F., J.J. Jalolovlarning tadqiqot ishlarida lingvistik kompetensiya mazmuni turlicha o‘rganilganini qayd etish mumkin. Lingvistik komptensiyasini tushunchasini keng yoritishda, dastavval “kompetensiya” tushunchasi mohiyatini izohladik.

1965-yilda Noam Xomsky “Aspects of the Theory of Syntax” kitobida ilk marotaba “lingvistik kompetensiya” tushunchasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, “Linguistic competence is the speaker-hearer’s knowledge of his language” ya’ni, “lingvistik kompetensiya – so‘zlovchi-tinglovchining o‘z tilini bilishi.” - deya ta’riflangan.” Xomsky qarashlariga ko‘ra ushbu “lingvistik kompetensiya” - til qoidalarini ichki sezgi bilan anglashdir.

1980-yilda tilshunos tadqiqotchilar Maykl Kenal va Meril Sveyn “Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning bir bo‘lagi sifatida ifodalaydilar va uni tilning formal (grammatik) jihatlarini bilish deb belgilaydilar.” Nazdimizda, tilshunos olimlar Maykl Kenal va Meril Sveyn tomonidan ilgari surilgan fikrda “lingvistik kompetensiya” kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etilib, u tilning formal (ya’ni grammatik) jihatlarini egallash bilan belgilanadi. Bu yondashuv til strukturasi haqidagi bilimlarni kommunikativ faoliyatning asosiy elementi sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Taniqli amerikalik amaliy tilshunos va professor Sandra J. Savignon fikriga ko‘ra, “lingvistik kompetensiyani zaruriy, biroq yetarli bo‘lmagan omil.” (“Linguistic competence is necessary, but not sufficient for communication.”) – deya izohlangan. Bunda u lingvistik kompetensiya orqali til strukturasi tushuniladi, ammo muloqotda muvaffaqiyatli

ishtirok etish uchun boshqa kompetensiyalar ham zarur ekanligini bildirgan.

Mashhur britaniyalik tilshunos, yozuvchi va lug‘atshunos bo‘lib, u zamonaviy lingvistika, sosiolingvistika, fonetika, semantika va ingliz tili bo‘yicha keng qamrovli ilmiy ishlari bilan tanilgan olim Devid Kristal “Lingvistik kompetensiya – bu insonning ona tilida gapirish va aytilgan gaplarni tushunish imkonini beradigan tug‘ma bilimidir.” (“Linguistic competence is the innate knowledge that enables a speaker to produce and understand utterances in their native language.”) - deya izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, lingvistik kompetensiya tushunchasi inson miyasi va kognitiv qobiliyatlari bilan bevosita bog‘liq va til o‘rganishning tabiiy, ichki jarayonidir. Devid Kristal “Xomsky nazariyasi”ni zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan ommalashtirgan va kengaytirgan.

Omonova D.N. o‘z tadqiqotida “maktab o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish o‘quvchilarning savodxonlik darslarida tovushlar va harflar, o‘qish va yozishni o‘rganish hamda chet tillarni o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.”- deya ta’riflaydi. Mazkur nuqtayi nazardan, D.N. Omonovaning ta’rifi maktab o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tilga oid bilimlar avvalo o‘z ona tilida tovush va harflarni tanish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, keyinchalik esa chet tillarini o‘zlashtirish orqali bosqichli va izchil tarzda rivojlantirilishi zarur. Bu jarayon kognitiv rivojlanish, fonetik-talaffuz malakalari, yozma va og‘zaki ifoda hamda semantik anglash kabi ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Chet tilni o‘qitishda o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida ustuvor vazifa sifatida talqin etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lingvistik kompetensiya nafaqat grammatik bilimlar majmui, balki til birliklarini amaliy nutqiy faoliyatda kontekstual va funksional qo‘llay olish salohiyatidir. Kommunikativ va differensial yondashuvlar asosida chet tilni o‘rgatish o‘quvchilarni shaxsiy qobiliyatlari, ehtiyojlari va til o‘zlashtirishdagi individual farqlarni hisobga olgan holda ta’limiy jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kommunikativ yondashuv asosida o‘quvchilarda mazmunli muloqotga kirishish, tilni ijtimoiy kontekstda qo‘llash va interaktiv vaziyatlarga moslashish qobiliyati shakllantiriladi. Differensial yondashuv esa o‘quvchilarning o‘quv uslublari va individual o‘zlashtirish sur’atlariga moslashgan holda ta’lim mazmuni va usullarini tanlash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi chet til lingvistik kompetensiyasini chuqur, barqaror va funksional shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilarda fonetik, leksik, grammatik bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularni muloqot jarayonida samarali qo‘llash, turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil fikr bildirish va ijtimoiy-lingvistik konvensiyalarni to‘g‘ri anglash kompetensiyasi shakllanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida chet til o‘rgatishda kommunikativ va differensial yondashuvlar uyg‘unligi lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy poydevorini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev 6-may 2021-yil, videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.

2. Chomsky N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press.

3.Canale M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing.Applied Linguistics, 1(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1

4.Savignon S. J. (1983). Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. Reading, MA: Addison-Wesley.

**Oysha QURBONOVA,**
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, "O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi, dotsent, (PhD)

# ONA TILI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA LINGVOMETODIK YONDASHUVLAR MOHIYATI

**Annotatsiya**

Maqolada ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirish va talabalarni lingvometodik tayyorgarlik rivojiga yo'naltirish, metodik-pedagogik bilimlar to'plamini tarkib toptirish, nutqiy, kreativ, shaxsiy, kasbiy faoliyatin irivojlantirishning o'ziga xosligi, lisoniy sathlarning og'zaki, yozma nutqda amaliy qo'llash ko'nikmasini hosil qilish bo'yicha respublika hamda xorijiy tilshunos, metodist olimlar ilmiy fikrlari tahlil qilinib, ularga subyektiv munosabat bildirilgan.

**Tayanch so'zlar.** Ona tili ta'lim mazmuni, nutq shakllari,nutqiy faoliyat, o'quv ta'limiy vositalar,,lingvometodik yondashuvlar,bilim, ko'nikma va malakalar,lingvistik, kommunikativ,o'quv fanlarning o'zaro integratsiyalashuvi, pedagogik loyihalash ustida ishlash.

В статье проанализированы научные взгляды отечественных и зарубежных лингвистов и ученых-методистов на совершенствование содержания обучения родному языку и ориентацию студентов на развитие лингвометодической подготовки, составление комплекса методико-педагогических знаний, особенности развития речевой, творческой, личностной, профессиональной деятельности, формирование навыков практического применения языковых уровней в устной и письменной речи, выражено субъективное отношение к ним.

**Ключевые слова.** Содержание обучения родному языку, формы речи, речевая деятельность, культура речи, лингвометодическая подготовка, знания, умения и навыки, лингвистический, коммуникативный, межпредметная интеграция учебных дисциплин, работа над педагогическим проектированием.

The article analyzes the scientific views of domestic and foreign linguists and methodologists on improving the content of native language education and orienting students towards the development of linguomethodological training, forming a set of methodological and pedagogical knowledge, the specifics of developing speech, creative, personal, and professional activities, and forming the skills of practical application of language levels in oral and written speech.

**Key words.** Native language teaching content, forms of speech, speech activity, speech culture, linguo-methodological training, knowledge, skills and abilities, linguistic, communicative, interdisciplinary integration of academic subjects, work on pedagogical design.

So'nggi yillarda ko'plab o'quv predmetlari qatori ona tilini o'qitish metodikasi ta'lim mazmuni takomilida lingvometodik tizimning rivoiiga, zamonaviy o'qitish shakliga, ta'limiy vositalarning rivojlanish dinamikasiga, ko'rinishi va mazmun nuqtayi nazardan jahon andozalariga moslashtirib tuzilgan yangi o'quv metodik adabiyotlari amaliyotga joriy qilindi. Shunisi ahamiyatliki, oldingi darsliklarimiz o'zining mazmun-mohiyati va o'quv topshiriqlaridagi ijodiylik, nutq madaniyati,aksiologik kompetentlikrivoji samaradorligi bilan diqqatga sazovordir. Shuningdek, amaliyotga joriy qilingan o'quv darsliklari o'quvchilarning, talabalarning kognitiv-pragmatik, nazariy-nutqiy, intellektual-kasbiy, kommunikativ-interaktiv, o'zini o 'zi rivojlantirish kabi

imkoniyatlarni qamrab olinganligi bilan ahamiyatga molikdir.Binobarin, ona tili mazmunini respublikamiz olimlarining qarashlari asosida modellashtirish va jahon standartlariga mos holda modernizatsiyalash professor-o‘qituvchi oldidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Binobarin, ona tilini o‘qitish metodikasi maqsad va vazifalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, talaba yoshlarning tanqidiy- tahliliy, kognitiv- pragmatik qobiliyatlarini, intellektual salohiyatini respublika va xorijiy tajribalardan ummumlashma bilimlar yig‘indisini va mantiqiy-nutqiy tafakkurini rivojlantirib, pedagogik-metodik tayyorgarligini loyihalash, modellashtirish asosida tarkib toptirishdan iborat. Bunday murakkab faoliyat zamirida ta’lim mazmuni takomili muhim o ‘rin tutadi. Ta’lim mazmunini takomillashtirish bo‘yicha qator soha olimlarining ilmiy-nazariy qarash va mushohalari tahsinga sazovor. A.G‘ulomov, H.Ne’matovning “Ona tili ta’limi mazmuni” ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanmasida quyidagicha yondashiladi.” Ta’lim mazmuni deganda:

1) o‘quv rejalari;
2) o‘quv dasturlari;
3) darsliklar;
4) o‘quv-metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi.

Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlanganva ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi[1]. Shuningdek, metodist olima, pedagogika fanlari doktori Q. Husanboyeva ta’lim mazmuniga o‘qituvchining kiritilishini keng qamrovli nuqtayi nazar bilan ta’kidlaganlar.

O.Roziqov, S.Og‘ayev, M.Mahmudova, B.Adizovlar esa ma’lumot mazmuni va ta’lim mazmuni tushunchalarini farqlab, ta’lim mazmunini “ma’lumot mazmunining dinamikasi – harakati” shaklida tushunadilar va ta’lim mazmuni tushunchasini quyidagicha izohlaydilar: “Ta’lim mazmuni – yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko ‘nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir”[2].

K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyevlar tomonidan tuzilgan” Ona tili o‘qitish metodikasi“ darsligidagi e’tirof ahamiyatga molik.“Ona tili ta’limi mazmuni aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri belgilansagina, oldinga qo‘yilgan talablar to‘liq bajariladi. Ona tili ta’limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o‘z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo‘lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim”. Ona tili ta’lim mazmunidagi mashqlarni tuzishdan asosiy maqsadlardan biri ularning og‘zaki va yozma tarzdagi ravon nutqini rivojlantirishga xizmat qilinishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.Ta’lim mazmunining asosiy mohiyatini ko‘plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Jumladan, “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmada ta’kidlanishicha, “Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi”[3]. Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlarIl. Ya.Lerner[4] va M.N.Skatkinlar ta’lim mazmuniga o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar. Yuqo-

[1] G‘ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

[2] Roziqov O., Og‘aev S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. – T.: Fan, 1997. –85-b.

[3] To ‘xliyev B., M.Shamsiyeva.,T.Ziyodova.O ‘zbek tili o ‘qitish metodikasi.Toshkent.Alisher navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -18b

[4] ЛернерЯ. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М. : Педагогика, 1981. – 186

ridagi “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani taraqqiyoti bo‘yicha bildirilgan fikrlardan kelib chiqib,bizning fikrimizcha, ta’lim mazmuni-pedagogik loyihalash-o‘qituvchi uchligidagi ta’lim mazmuni tuzilmasi maqsadga muvofiq. “Ta’lim mazmunini yangilash masalasi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, bevosita tilshunoslik fanining rivoji bilan bog‘liq muammodir”[5]. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar darslikdagi ta’lim mazmunini mustaqil o‘rganadilar va biror mavzuni pedagogik jihatdan loyihalashtiradilar hamda o‘qituvchi bilan interaktiv tarzda loyihalashtirilgan metodik kretiv mashg‘ulot ishlanmasi tahliliy o‘rganiladi. Shu bo‘yicha bildirilgan bahs-munozalar, bildirilgan subyektiv munosabatlar tahlil qilinib metodik tavsiyalar beriladi.

Ona tili ta’lim mazmuni takomillashtirishda e’tibor qaratiladigan asosiy aspektlardan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ, kognitiv, kommunikativ, kasbiy-nutqiy salohiyati samarasidir. Ulardagi kreativ, integrativ yondashuvlarini, rivojida fikrni og‘zaki va yozma shaklda mantiqiy nutq talablari, me’yorlariga rioya qilib ifodalash zarur. Shu o‘rinda N.Mahmudov va bir qator olimlar tomonidan tuzilgan 11-sinf “Ona tili”[6] darsligidagi keltirilgan e’tirof ayni haqiqatdir. “Gapda so‘zlar tartibining to‘g‘ri, tilningsintaktik tabiatiga uyg‘un bo‘lishi mantiqiy nutq tuzishda ahamiyatga molikdir. So‘z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikkiyoqlama anglanishiga olib keladi. Masalan, loqaydlik tufayli ko‘rsak ham indamaymiz tarzidagi jumlada so‘z tartibidagi nuqson sababli fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya’ni “loqaydlik tufayli ko‘rish( bu albatta, mantiqqa zid) va “loqaydlik tufayli indamaslik”. Aslida ifodalamoqchi bo‘lgan fikr – ularning ikkinchisi. Jumladagi so‘z tartibi Ko‘rsak ham, loqaydlik tufayli indamaymiz tarzida tuzilsa mantiq to‘g‘ri ifodalanadi”. Talabalarda mantiqiy izchil fikrlashni rivojlantirilsa ulardagi fikrlash va yondashuvlar me’yoriy talablarga mos mazmunli takomillashib boradi.

Demak, ona tili ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘quv metodik ta’minotdagi ta’limiy vositalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rgatish va ularda pedagogik loyihalash ko‘nikmalarining rivojiga e’tibor qaratishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mahmudov N.M va boshq. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik/. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 40 б

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva, Sariyev Sh.Ona tili o‘qitish metodikasi. (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik- T.: “Noshir”, 2009. – 352 b.

3. Qurbonova X.Q. Ona tili ta’lim mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari. Ped.fan.nomz.diss… Buxoro.2005.-22b

4.To‘xliyev B., ShamsiyevaM., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -18b

[5] Qurbonova X.Q. Ona tili ta'lim mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari.Ped.fan.nomz.diss… Buxoro.2005.-22b

[6] Mahmudov N. va boshq. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik/. –T.:”O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2018. -40 б

**Dilafruz SUBANOVA,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi” kafedrasi, dotsent

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH SIFATINI TA’MINLASHNI DRAMA-TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda drama texnologiyasini qo‘llash orqali samarali o‘qitish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, drama texnologiyalari – rolli o‘yinlar, hikoya aytish, improvizatsiya va matnlarni sahnalashtirish orqali so‘z boyligini oshirish, talaffuz, muloqot ko‘nikmalari va madaniy tushunchalarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Muallif boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatishda dramani qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalarni berib o‘tgan.

**Tayanch so‘zlar.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ingliz tilini o‘qitish, ta’limda drama, rolli o‘yinlar, hikoya aytish, til o‘zlashtirish, interaktiv o‘qitish, kommunikativ yondashuv, boshlang‘ich ta’lim.

В статье анализируются эффективные методы обучения посредством использования драматической технологии в обучении английскому языку учащихся начальных классов. Также было изучено, что драматические технологии - ролевые игры, повествование, импровизация и инсценировка текстов - положительно влияют на развитие словарного запаса, произношения, коммуникативных навыков и культурных понятий. Автор дал практические рекомендации по использованию драмы в обучении английскому языку в начальных классах.

**Ключевые слова.** Младшие школьники, обучение английскому языку, драма в образовании, ролевая игра, рассказывание историй, овладение языком, интерактивное обучение, коммуникативный подход, начальное образование.

The article analyzes effective teaching methods through the use of drama technology in teaching English to elementary school students. It was also studied that dramatic technologies - role-playing games, storytelling, improvisation, and the staging of texts - have a positive impact on increasing vocabulary, the development of pronunciation, communication skills, and cultural understanding. The author provides practical recommendations on the use of drama in teaching English in primary grades.

**Key words.** Young learners, English language teaching, drama in education, role-play, storytelling, language acquisition, interactive learning, communicative approach, primary education.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillar muhim kommunikatsiya vositasiga aylanmoqda. Mamlakat ravnaqi, xalq farovonligi uchun o‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal, tajribali, bilimli, zamonaviy shaxs sifatida shakllantirishda ota-onalar bilan birga pedagog va metodistlarning roli nihoyatda muhimdir. Shu sababli, ingliz tilini erta yoshdan o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilini o‘qitish, kattalarnikidan farqli yondashuvni talab qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar chet tillarni o‘rganishdagi eng yaxshi natijalarga faol, qiziqarli va harakatli o‘yinlar yordamida erishadilar.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rgatish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, bu yo‘nalishda Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan bir qator

muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2021-yil 19-mayda “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli Prezident qarori bu boradagi muhim hujjatlardan biridir.

Shu bilan bir qatorda, Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori asosida ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur qaror doirasida ushbu maqsadni amalga oshirish uchun “Ilk qadam” dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Ushbu yo‘nalishdagi keyingi dolzarb masalalardan biri – boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish jarayonlariga pedagoglarning tayyorgarlik darajasini o‘rganish va tahlil qilishdan iboratdir. Ma’lumki, 2025-yil 28-aprelda Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli farmon ham qabul qilingan bo‘lib, ushbu farmon ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqilishining muhim asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qarorlarning ijrosini ta’minlash maqsadida boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatishning samarali usullarini amaliyotga tadqiq etish soha mutaxassislarining vazifalaridan biridir. Shu maqsadda ushbu maqolada san’at vositalaridan biri bo‘lmish drama texnologiyasi yordamida kichik yoshdagi o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatish usullari haqida batafsil fikr yuritmoqchimiz.

Drama – bu til o‘rganish jarayonini mazmunli va hissiy tajriba orqali boyitadigan samarali vositadir. Drama texnologiyasi bolalarni ingliz tilida fikrlash va gapirishga undaydi, ularni real yoki tasavvuriy muloqot holatlariga jalb etadi. Hikoya, sahna ko‘rinishlarini ijro etish, rolli o‘yinlar va improvizatsiya orqali o‘quvchilar tilni tabiiy holatda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rgatishda foydali bo‘lgan bir nechta drama texnologiyalari tavsiflangan:

1. Rolli o‘yin (Role play). O‘quvchilar sotuvchi, o‘qituvchi, sayyoh kabi turli kasb egalarining rollarini bajaradilar va kundalik vaziyatlarni ingliz tilida jonlantirib ko‘rsatadilar. Bu texnologiya so‘z boyligi, gap tuzilmalari va muloqot ko‘nikmalarini kontekstda mashq qilishga yordam beradi.

2. Hikoya aytish va sahnalashtirish (Storytelling and Dramatization). O‘qituvchi yoki o‘quvchilar hikoyani aytadilar, keyin uni sahnalashtirishadi. Ushbu usul tinglab tushunish, yangi leksik birliklarni o‘zlashtirish, tushuncha hosil qilish va ifodali tilni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Pantomima (Mime). O‘quvchilar og‘zaki nutq ishlatmasdan, tana harakati va yuz ifodalari orqali so‘zlar, harakatlar yoki vaziyatlarni ifodalaydilar. Bu usul noverbal kommunikatsiya ko‘nikmalarini va yangi so‘zlarni yodlash uchun xotirani kuchaytiradi.

4. Improvizatsiya (Improvisation). O‘quvchilar berilgan mavzu asosida spontan sahnalarni o‘ylab topib, vaziyatni ijro etadilar. Ushbu texnologiya tez fikrlash, erkin gapirish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

5. Issiq stul (Hot Seating). Bir o‘quvchi biror obrazga kirib, sinfdagi boshqa o‘quvchilarning savollariga shu obraz nomidan javob beradi. Bu usul o‘quvchilarning o‘zini erkin tutishga, obrazni chuqurroq tushunishga va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

6. Muzlagan sahna (Freeze Frame). O‘quvchilar tanalaridan foydalangan holda biror voqea yoki hikoyadagi daqiqani “muzlatilgan” holatda aks ettiradilar. Bu esa talqin qilish va tavsiflovchi tilni o‘rgatishda foydalidir.

7. Qo‘g‘irchoq teatri (Puppetry). Qo‘l yoki barmoq qo‘g‘irchoqlari yordamida suhbatlar yoki hikoyalar sahnalashtiriladi. Qo‘g‘irchoqlar, ayniqsa uyatchan o‘quvchilar uchun, ingliz tilida gapirishni osonlashtiradi.

Xor bo‘lib aytish (Choral Speaking / Drama Chants). Butun sinf birgalikda qisqa suhbatlar, she’rlar yoki gaplarni harakatlar bilan aytadilar. Bu usul talaffuz, ritm va jamoaviy ishtirokni yaxshilaydi.

Simulyatsiya (Simulation). Ushbu texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati ta’lim sohasidagi hayotiy muammolarni modellashtirish va ularni hal qilish yo‘llarini izlashdir. O‘yin ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ertak syujetlaridan foydalanish tavsiya etiladi, o‘yinni tashkil qilish muddati uzoqroq davom etishi mumkin.

Harakatli hikoya (Narration with action). O‘qituvchi voqeani hikoya qiladi, o‘quvchilar esa uni bir vaqtning o‘zida sahnalashtiradilar. Bu usul eshitish, harakat va tinglab tushunishni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.]

Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli va jonli qiladi, balki ingliz tilini mazmunli, esda qolarli va interaktiv yo‘l bilan o‘rgatishga xizmat qiladi.

Mazkur taqdiqotni amaliyotga joriy etish maqsadida hududimizdagi bir qancha umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinflarida tajriba o‘tkazildi. Tadqiqotda 6 nafar ingliz tili o‘qituvchisi va 90 nafar 6-9 yoshdagi o‘quvchilar ishtirok etdi. 8 hafta davomida darslarga drama elementlari (rolli o‘yinlar, hikoya aytish, matnni sahnalashtirish) integratsiya qilindi.

Ma’lumotlar dars kuzatuvlari, o‘qituvchilar bilan suhbat va intervyular va so‘rovnomalar orqali to‘plandi. Tahlil tematik uslubda olib borilib, o‘quvchilarning til faoliyati, hissiy holati, ishtiroki va o‘qituvchilarning yondashuvlaridagi o‘zgarishlar aniqlab borildi. Tadqiqot natijasida quyidagi natijalarga erishildi:

– Drama orqali o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni real muloqot vaziyatlarda qo‘lladilar. Hikoya va sahna ko‘rinishlari orqali tinglab tushunish ko‘nikmlalari kuchaydi, dialoglarda ishtirok etish orqali talaffuz va erkin gapirish ko‘nikma va malakalari shakllandi.

– Drama texnologiyalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Hatto tortiqnchoq o‘quvchilar ham yuqorida ko‘rsatilgan texnologiyalarda faol ishtirok etishdi. Darslar yanada jonli va emotsional bo‘ldi.

– Turli hikoyalar va personajlar orqali o‘quvchilar har xil his-tuyg‘ularni ifodalashni, boshqalarning nuqtayi nazarini tushunishni o‘rgandilar. Madaniyatlararo muloqot tushunchalari shakllandi.

Ba’zi o‘qituvchilar drama faoliyatini rejalashtirishda vaqt yetishmasligi va metodik qo‘llanmalar kamligini ta’kidladilar. Shuningdek, ushbu yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilarning malaka oshirishga ehtiyoj borligi aniqlandi. Drama texnologiyalari asosidagi faoliyatlar kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ingliz tilini mazmunli tarzda qo‘llashga imkon beruvchi boy kontekstli va chuqur muhit yaratdi. Rolli o‘yinlar va dialoglar orqali o‘quvchilar yangi so‘z boyligini va gap tuzilmalari bilan ijtimoiy kontekstda mashq qilishdi. Hikoya aytish usuli tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirib, o‘quvchilarni turli til funksiyalari bilan tanishtirdi. Drama texnologiyalarini qo‘llash davomida o‘quvchilar ingliz tilida erkinroq so‘zlasha boshlashdi va til bilan bog‘liq xavotir kamaygani kuzatildi.

Drama texnologiyalarining eng sezilarli ta’sirlaridan biri bu o‘quvchilarning yuqori darajadagi ishtiroki bo‘ldi. An’anaviy metodlardan farqli ravishda, drama faol ishtirok va emotsional jalb etishni rag‘batlantirdi. Pantomima va improvizatsiya kabi ijodiy va

o‘yin tusidagi faoliyatlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otdi va ularni butun dars davomida motivatsiyasini rag‘batlantirdi. Ko‘plab o‘qituvchilar, hatto uyatchan yoki sust qatnashadigan o‘quvchilar ham drama texnologiyalarida faol ishtirok etayotganini qayd etishdi.

Shuningdek, drama o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatladi. U tasavvur qilish, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Guruhli chiqishlar hamkorlik va rejalashtirishni talab qilganligi bois, bu o‘quvchilarda jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. O‘quvchilar bir-birini tinglash, fikr almashish va guruh topshiriqlariga mazmunli hissa qo‘shishni o‘rgandilar. Ushbu ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali tilni real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlari yuzaga keldi.

Shunga qaramay, ba’zi muammolar ham kuzatildi. O‘qituvchilar drama faoliyatlarini tayyorlashga ko‘proq vaqt kerak bo‘lishi va sinfni boshqarish strategiyalariga ehtiyoj borligini ta’kidladilar. Ba’zi pedagoglar drama texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligiga ta’siriga ishonchsizlik bildirdilar, bu esa san’at vositalaridan biri bo‘lmish drama texnologiyasi bo‘yicha ko‘proq kasbiy rivojlanish zarurligini ko‘rsatdi. Biroq, dramani doimiy ravishda qo‘llagan o‘qituvchilar vaqt o‘tishi bilan o‘z ta’lim jarayonlarida ishonch va samaradorlik oshganini qayd etishdi.

Ingliz tilini o‘rgatishda drama – bu kichik yoshdagi o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy, emotsional va kognitiv rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli va qiziqarli yondashuvdir. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, rolli o‘yinlar, hikoya, improvizatsiya va pantomima kabi drama texnologiyalari muloqot uchun mazmunli kontekstlar yaratadi hamda bolalarga ingliz tilidan faol va ishonch bilan foydalanish imkonini beradi. Ushbu metodlar dars muhitini jonli, interaktiv o‘quv makoniga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori. Toshkent sh., 2021-yil 19-may. https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024

2. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori, Toshkent sh., 2019 yil 8-may. https://www.lex.uz/docs/4327235

3. Sh.M.Mirziyoyev. “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73 sonli farmoni, 2025-yil, 28-aprel. https://www.lex.uz/uz/docs/-7499721

4. Mahkamova G., Gulyamova Z., Subanova D. Boshlang‘ich sinfda chet til o‘qitish metodikasi. Darslik. 2023-yil. B.- 21

5. Sarah Phillips. Drama with children. Oxford. Resource book for teachers. 2001. https://azkurs.org/sh-sh-olimov-sh-x-samiyeva.html?page=45.

6. Subanova D. O‘zbekistonda boshlang‘ich sinfda ingliz tilini o‘qitishga qo‘yilgan talablar. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari.oak jurnali. 2022/4 – SON. ISSN 2181-9580. 120-126-betlar.

**Gulira’no QARSHIBOYEVA,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, magistrant

# TA’LIM JARAYONIDA “SHE’RIY MAKTUBLAR” JANRIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek tili va adabiyot darslarida talabalarda she’riy maktublarni o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va aprobatsiya tahlili yoritilgan. Shuningdek, topshiriqlar natijalariga asoslanib, talabalarning, aynan, maktub janrini boshqa janrlardan farqlay olish va tushunish qobiliyatlari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar.** She’riy maktub, baholash, tahlil qilish, valid, novalid, badiiy san’atlar, darajalarini baholash, aprobatsiya.

В статье освещены результаты исследования и анализ апробации уровня усвоения студентами стихотворных писем на уроках узбекского языка и литературы. Также, основываясь на результатах заданий, освещаются способности студентов отличать и понимать жанр письма от других жанров.

**Ключевые слова.** Поэтическое письмо, оценка, анализ, валид, новалид, художественные искусства, оценка уровней, апробация.

The article highlights the results of research conducted on the level of assimilation of poetic letters by students in Uzbek language and literature classes and the analysis of approbation. Also, based on the results of the assignments, the students' ability to distinguish and understand the letter genre from other genres is highlighted.

**Key words.** Poetic letter, evaluation, analysis, valid, novalid, artistic arts, assessment of levels, approbation.

Adabiy janrlarning shakllanishi va ularning o‘zaro chegaralarini aniqlash adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Har qaysi janr o‘zining funksional, uslubiy va kompozitsion xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktub janri ham o‘ziga xos tarkibiy va mazmuniy belgilar bilan boshqa janrlardan farqlanadi. Uni ayniqsa, publitsistik, badiiy proza, hatto kundalik, xotira va esselar bilan yaqin jihatlari ko‘p. Ammo, bu o‘xshash jihatlar maktub janrini belgilab bera olmaydi. Ushbu janrning asosiy xususiyatlari orqali farqlay olish ko‘nikmasining darajasini ko‘rsatib beradigan topshiriqlar talabalarning bilim ko‘rsatkichlarini belgilashi tabiiy. She’riy maktubni tushuntirish bo‘yicha berilayotgan ma’ruza yoki amaliy topshiriqlar yoshlar uchun janrlar takomilini tushunishga asos bo‘ladi. Ushbu jarayonlarning qanchalik samarali kechayotganini aniqlash ta’lim jarayonida talabalarning haqiqiy bilim ko‘rsatkichlarini baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, talabalarning bilim darajalarini baholashda ishlab chiqilgan topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, universitet talabalarining maktub janrini tushunish va tahlil qila olish darajalarini baholash maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqildi. Test natijalari orqali talabalarning, she’riy maktublarni boshqa she’riy shakllar, xususan, g‘azal, ruboiylardan farqlay olish, maktublarning

mazmunini ochiqlash, she'riy shakldagi maktublarda qatnashgan badiiy san'atlarni topa olish va maktublarda qo'llangan xalq og'zaki ijodi na'munalarining xat uchun qo'shgan hissasini aniqlay olish ko'nikmalari tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Muqimiy va Furqat ijodidagi she'riy maktublar janrini tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish va shu bilan birga, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish, talabalarda janrlar o'rtasidagi farqni topa olish va ta'lim metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari, aprobatsiya jarayonlari va natijalari taqdim etiladi. Tadqiqot o'zbek tili va adabiyoti universitetining O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabalari o'rtasida o'tkazildi.

| T/r | **Aprobatsiya haqida ma'lumot** | |
|---|---|---|
| 1. | Tajriba o'tkazilgan guruh | 201-guruh |
| 2. | Talabalar soni | 15 ta |
| 3. | Ajratilgan vaqt | 30 daqiqa |
| 4. | Topshiriqning umumiy soni | 15 ta |

Tuzilgan topshiriqlar maktub janri haqidagi bilimlarini turli jihatdan sinovdan o'tkazuvchi mazmundagi topshiriqlar sanaladi. Xususan, birinchi topshiriq uch xil she'riy shakllardan maktub janriga oid qatorni aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi topshiriq esa, o'qib tushinish ko'nikmasiga mansub bo'lib, berilgan she'riy maktub orqali maktubning kimga yo'llanganini aniqlash e'tiborga olingan. Sinovga qatnashgan 15 nafar talabaning 11 nafari to'g'ri javobni, qolgan 4 nafari noto'g'ri javobni belgilagan. Topshiriqlarning 9 tasi o'qib tahlil qilishga oid bo'lib, talabalar topshiriqqa javob yozish yoki to'g'ri variantni belgilashi uchun berilgan she'riy maktubni tahlil qila olishi kerak. Bu bosqich yuqori ko'rsatkichli topshiriq hisoblanadi. Shu kabi topshiriqlarga har bir berilgan to'g'ri javob uchun 2 ball dan berilgan. Sinov topshiriqlar, shu bilan birga, tushunish va qo'llay olish ko'nikmasini baholashga qaratilgan. Xususan, topshiriqning test shaklidagi variantida she'riy maktubda qo'llangan xalq og'zaki ijodi na'munasining maktubga qo'shgan hissasini topish testi berilgan. Talabalar quyidagi testni topishlari uchun shu birikma mazmunini tushunishlari kerak.

Natijalarni baholashda topshiriqlar uchun belgilangan to'g'ri va noto'g'ri javoblar foiz ko'rsatkichida hisoblandi. Test topshirig'ining o'qib tushunish ko'nikmasini baholashga qaratilgan qismi 100 foiz noto'g'ri javob belgilangan. Bu esa testning to'g'ri tuzilmagani bilan xulosalandi. Bundan tashqari, maktubda yashiringan ochiq va yashirin ma'nolarni topa olish topshirig'ida talabalarning 53 foizi to'g'ri javobni, 47 foizi noto'g'ri javobni belgilagan. Bu ularning maktub janri haqida umumiy, nazariy ma'lumotga ega ekanligini, ammo ularni amaliy qo'llay olish va tahlil qilish ko'nikmalari past ekanini ko'rsatgan. Sinov uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar she'riy maktub orqali shoirning ruhiy holatini aniqlashga, unda qo'llangan she'riy san'atlarni topa olishga va maktubda berilgan ochiq va yashirin ma'nolarni tahlil qilishga qaratilgan.

TAJRIBA TOPSHIRIQLAR TAHLILI

| T/r | To‘g‘ri belgilaganlar soni | Noto‘g‘ri belgilaganlar soni | Xulosa |
|---|---|---|---|
| 1. | 9ta 60% | 6ta 40% | Test **valid** deb topildi |
| 2. | 11ta 73% | 4ta 27% | Test **valid** deb topildi |
| 3.1 | 11ta 73% | 4ta 27% (2ta *a* / 2ta *b*) | Test **valid** deb topildi |
| 3.2 | 9ta 60% | 6ta 40% (3ta *d* / 2ta *b* / 1ta *c* ) | Test **valid** deb topildi |
| 3.3 | 0 | 15 ta 100% | Test **novalid** deb topildi |
| 3.4 | 5ta 33% | 10ta 67% (7ta *c* / 1ta *a* / 2ta *d* ) | Test **valid** deb topildi |
| 3.5 | 15ta 100% | 0 | Test **novalid** deb topildi |
| 3.6 | 13ta 86% | 2ta 14% | Test **novalid** deb topildi |
| 4.1 | 12ta 80% | 3ta 20% | Test **valid** deb topildi |
| 4.2 | 9ta 60% | 6ta 40% | Test **valid** deb topildi |
| 4.3 | 7ta 47% | 8ta 53% | Test **valid** deb topildi |
| 4.4 | 11ta 73% | 4ta 27% | Test **valid** deb topildi |
| 4.5 | 8ta 53% | 7ta 47% | Test **valid** deb topildi |
| 4.6 | 10ta 67% | 5ta 33% | Test **valid** deb topildi |
| 4.7 | 8ta 53% | 7ta 47% | Test **valid** deb topildi |

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning maktub janridagi asarlarni o‘rganish jarayonidagi faolligi yuqori bo‘lsa-da, ularni tahlil qila olish darajasi ayrim indikatorlar bo‘yicha pastroq natija ko‘rsatmoqda. Bu ularning nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi. Fikrimizcha, muammoning asosiy sabablari sifatida teoriyani amaliyot bilan bog‘lamaslik, shuningdek, adabiyot darslarida ham interaktiv metodlardan yetarli foydalanmaslik kabi holatlarni keltirish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, nazariy bilimlarni o‘rganish va ularni o‘zlashtirish o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi uzviy tushunchalardir. O‘tkazilgan aprobatsiya natijalari shuni ko‘rsatdiki, test savollari aniq, tushunarli va nazariy bilimlarni amaliy tahlil bilan bog‘lay oladigan darajada tuzilgan. Test talabalarning maktub janriga doir tasavvurlarini mustahkamlashda, matnga tanqidiy yondashuvni shakllantirishda, shuningdek, boshqa adabiy janrlardan farqlay olish malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Muqimiy. Asarlar. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1974

2. Furqat. Tanlangan asarlar. –T., 1975.

4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o‘lchovlar). – T., 2020.

5. Abdiraimov Sh. Baholash nazariyasi asoslari. –T., 2024.

6. Xo‘jayev A. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish: dissertatsiya. – T., 2019.

**Sevara XASANOVA,**
O‘zekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi bo‘lim boshlig‘i
**Rixsivoy ZIYAYEV,**
Toshkent Davlat agrar universiteni, “Biokimyo va fiziologiya” kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

# UGLEVODORODLARNING UMUMIY TENGLAMALARI BO‘YICHA MASALALAR YECHISH

**Annotatsiya**

Maqolada 10-sinfda organik birikmalarning asosiy sinflari o‘tilganda ko‘pgina organik reaksiyalar umumiy tenglamalar orqali ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, uglevodorodlarning umumiy tenglamalari yordamida masalalar yechish usullari berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Uglevodorodlar, alkan, sikloalkan, alken, umumiy formulalar, umumiy tenglamalar monoxlorli, birikma.

В статье обсуждается, что при изучении основных классов органических соединений в 10 классе многие органические реакции выражаются через общие уравнения. Кроме того, приведены методы решения задач с использованием общих уравнений углеводородов.

**Ключевые слова.** Углеводороды, алкан, циклоалкан, алкен, общие формулы, общие уравнения, монохлорное соединение.

The article discusses how many organic reactions are represented by general equations when studying the main classes of organic compounds in 10th grade. In addition, methods for solving problems using general hydrocarbon equations are given.

**Key words.** Hydrocarbons, alkane, cycloalkane, alkene, general formulas, general equations, monochlorine compound.

10-sinfda to‘yingan uglevodorodlar (alkanlar) mavzusi o‘tilganda, shu uglevodorodlarning birinchi vakili (metan)ning tuzilishi, olinishi, fizik-kimyoviy xossalari va ishlatilishi bilan bir qatorda, ularning umumiy xossalari ham o‘rganiladi. Bu esa o‘quvchilarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishlariga yordam beradi va ularning bilim darajalarini oshirishga imkon yaratadi. Uglevodorodlarning ba’zi umumiy reaksiyalari umumiy tenglamalar orqali ifodalanadi. Bunday umumiy tenglamalar tuzishga o‘quvchlar odatlanmaganliklari uchun bir qancha qiyinchilikka duch kelinadi. Shu sababli quyida barcha to‘yingan uglevodorodlar(alkanlar)ga xos bo‘lgan yonish reaksiyasining umumiy tenglamasini qanday tuzishni, hamda uglevodorodlarning umumiy tenglamalari asosida namunaviy masalalar yechish usullari bilan tanishib chiqamiz. Buning uchun, dastlab, biz alkanlarning ( yoki barcha uglerod, vodorod va kislorod tutgan barcha organik birikmalarning) yonishi natijasida doimo karbonat angidrid va suv hosil bo‘lishini o‘quvchilarga tushuntirib, alkanlarning kislorodda yonish reaksiya tenglamalarini umumiy ko‘rinishda yozib ko‘rsatamiz. Bunda dastlab kislorod atomar holida yozilib, dastlabki alkandagi va hosil bo‘lgan moddalardagi vodorod va uglerod atomlari hisoblanib koeffisentlar qo‘yiladi:

$$C_nH_{2n+2} + O \longrightarrow nCO_2 + (n+1)H_2O + Q$$

So‘ngra hosil bo‘lgan $nCO_2$ va (n +1) $H_2O$ dagi kislorod atomlari hisoblanib: 2n + n + 1 = 3n +1 yonishda ishtirok etgan atomar kislorod bilan tenglashtiriladi. Atomar kislorodni molekulyar holda yozish uchun bu sonni ikkiga bo‘lib, alkanlarning yonish reaksiyasining umumiy tenglamasi (1) chiqariladi:

$$C_nH_{2n+2} + (3n+1)O \longrightarrow nCO_2 + (n+1)H_2O + Q$$

$$C_nH_{2n+2} + \frac{(3n+1)}{2}O_2 \longrightarrow nCO_2 + (n+1)H_2O + Q \quad (1)$$

Agar n juft son bo‘lsa, quyidagi holda yozish mumkin:

$$2C_nH_{2n+2} + (3n+1)\,O_2 \longrightarrow 2nCO_2 + (2n+2)H_2O + Q \quad (2)$$

O‘quvchilarga bu tenglamani to‘g‘ri tuzilganligini isbotlash uchun bir necha misollar keltiramiz. Misol uchun n = 3 bo‘lgan propan $C_3H_8$ ning yonish reaksiya tenglamasi:

$$C_3H_8 + 5O_2 \longrightarrow 3CO_2 + 4H_2O + Q$$

n = 6 geksan uchun esa (2) tenglamani qo‘llab, koeffisentlar topiladi:

$$2C_6H_{14} + 19O_2 \longrightarrow 12CO_2 + 14H_2O + Q$$

Umumiy formulalar orqali ifodalangan reaksiya tenglamalari ham modda massalarining saqlanish qonuniga bo‘ysinadi. Bu qonunni (1) tenglamada qo‘llab, o‘quvchlarga isbotlab berish mumkin:

$$(12n+2n+2) + \frac{(3n+1)}{2} \cdot 32 = 44n + (n+1) \cdot 18$$

$$14n + 48n + 18 = 44n + 18n + 18$$

$$62n + 18 = 62n + 18$$

Alkanlarning umumiy formulasi bilan tenglamalar tuzishni o‘rganish jarayonida, ularning umumiy formulalari va tenglamalari asosida moddalarning molekulyar fomulasini aniqlash mumkin. Buning uchun shu alkanning nisbiy molekulyar massasi yoki biror gazga nisbatan zichligini bilish kifoya. Quyida uglevodorodlarning molekulyar massasini aniqlashga doir masalalarni ilgarigi ma’lum algebrik tenglamalarni yechish bilan emas, balki moddalarning umumiy formulalaridan foydalanib yangicha, qulay yechish usullari bilan tanishamiz.

**1-masala.** Alkan bug‘ining havoga nisbatan zichligi 2,966. Alkanning formulasini aniqlang.

*Yechish:* Alkan bug‘ining havoga nisbatan zichligini bilgan holda, uning molekulyar massasini hisoblaymiz:

$$M(C_nH_{2n+2}) = 29 \cdot D_{havo}; \quad M(C_nH_{2n+2}) = 29.\ 2{,}966 = 80\ g/mol$$

Alkanning umumiy formulasidagi $C_nH_{2n+2}$ dan n ning qiymatini topsak, berilgan

alkanning formulasi kelib chiqadi. Buning uchun, topilgan molekulyar massa va umumiy formuladan foydalanib, quyidagi tenglamalarni tuzamiz:

$M(C_nH_{2n+2})$ = 12n + (2n +2).; 80 = 14n +2 bu tenglamadan n ni hisoblab, alkanning formulasi $C_6H_{14}$ ekanligini topamiz.

**2-masala.** Berilgan sikloalkanning namunasi yondirilganda massasi 22 g bo'lgan $CO_2$ hosil bo'ldi. Bunda normal sharoitda o'lchanganda qancha hajm kislorod sarf bo'lgan?

*Yechish:* Berilgan uglevodorod sikloalkan $C_nH_{2n}$ ekanligi ma'lum. Uning yonish reaksiya tenglamasi:

$$C_nH_{2n} + 3n/2\ O_2 \longrightarrow nCO_2 + nH_2O + Q$$

Hosil bo'lgan $CO_2$ mol miqdorini aniqlaymiz:

$$\nu(CO_2) = \frac{m(CO_2)}{M(CO_2)};\ \ \nu(CO_2) = \frac{22}{44} = 0{,}5mol$$

Reaksiya tenglamasidan: $\frac{\nu(O_2)}{\nu(CO_2)} = \frac{\frac{3}{2}n}{n}$; bundan kislorodning mol miqdori:

$$\nu(O_2) = \frac{3}{2}\nu(CO_2);\quad \nu(O_2) = \frac{3}{2}\cdot 0{,}5 = 0{,}75mol$$

0,75 mol kislorodning normal sharoitdagi hajmi : $V(O_2) = 0{,}75 \cdot 22{,}4 = 16{,}8l$

Javob: 16,8 l O2.

**3-masala.** Massasi 0,29 g bo'lgan uglevodorodning yonishidan 0,448 l uglerod (IV)-oksidi va 0,45 g suv hosil bo'ldi. Shu uglevodorodning vodorodga nisbatan zichligi 29 ga teng bo'lsa, uning formulasini aniqlang.

Berilgan: $m(C_xH_y)$ = 0,29 g: $V(CO_2)$ = 0,448 l; $m(H_2O)$ = 0,45g;

$D_{H_2} = 29$ ; CxHy x = ?; y = ?

*Yechish:* Uglevodorodning molyar massasini aniqlaymiz:

$M(C_xH_y) = 2 \cdot D(H_2) = 2 \cdot 19 = 58$ g/mol

Uglevodorodning kislorodda to'liq yonish reaksiya tenglamasini umumiy ko'rinishda yozib, koeffisentlarni topib yozamiz:

$$C_xH_y + \frac{4x+y}{4}O_2 \longrightarrow xCO_2 + \frac{y}{2}H_2O$$

Tenglamadagi formulalarning ustki qismiga berilgan, pastki qismiga esa topilishi kerak bo'lgan qiymatlarni yozib chiqamiz:

$$\begin{array}{lll} 0{,}29g & & 0{,}448l \quad 0{,}45g \\ C_xH_y + \frac{4x+y}{4}O_2 & \longrightarrow & xCO_2 + \frac{y}{2}H_2O \\ 58g/mol & & 22{,}4x \quad \frac{y}{2}\cdot 18g \end{array}$$

So'ngra berilganlar asosida proporsiyalar tuzamiz va bularni yechib, x, y ni

topamiz:

$$x = \frac{58 \cdot 0{,}448}{0{,}29 \cdot 22{,}4} = 4; \quad y = \frac{58 \cdot 0{,}45}{0{,}29 \cdot 9} = 10$$

Shunday qilib x = 4; y = 10. Uglevodorodning formulasi $C_4H_{10}$ ekan.

**4-masala.** 2,8 g noma’lum alkenni to‘liq gidrogenlash uchun 0,896 l vodorod ( n.sh.da) sarflanadi. Bu alkenning molyar massasi va formulasini aniqlang.

*Yechish:* Umumiy reaksiya tenglamasi:

$$\underset{M}{C_nH_{2n}} + \underset{22{,}4l}{H_2} \longrightarrow \underset{0{,}896l}{C_nH_{2n+2}}$$

Proporsiya tuzamiz: 2,8 : 0,896 = M : 22,4; $M = \frac{2{,}8 \cdot 22{,}4}{0{,}896} = 70$

Alkenning molyar massasi: 70g/mol. Alkenning umumiy formulasi $C_nH_{2n}$. Bundan: 12n + 2n = 70; 14n = 70; n = 5.

Demak, alkenning formulasi $C_5H_{10}$.

**5-masala.** Etilen qatori to‘yinmagan uglevodorodga vodorod xlorid birikishi natijasida tarkibida 45,22% xlor bo‘lgan birikma hosil bo‘ldi. Reaksiya uchun olingan to‘yinmagan uglevodorodning formulasini aniqlang.

*Yechish:* Etilen qatori to‘yinmagan uglevodorod alkendir. Umumiy reaksiya tenglamasini yozamiz:

$$C_nH_{2n} + HCl \longrightarrow C_nH_{2n+1}Cl$$

Reaksiya natijasida tarkibida 45,22% xlor bo‘lgan alkanning monoxlorli birikmasi $C_nH_{2n+1}Cl$ hosil bo‘lishini e’tiborga olgan holda proporsiya tuzamiz:

$$C_nH_{2n+1}Cl = 12n + 2n + 1 + 35{,}5 = 14n + 36{,}5;$$

$$\frac{C_nH_{2n+1}Cl}{35{,}5} = \frac{14n + 36{,}5}{35{,}5} = \frac{100\%}{45{,}22\%};$$ bundan

n ni topamiz: (14n + 36,5). 45,22 = 100 35,5 ; n = 3.

Demak, reaksiya uchun olingan alken formulasi $C_3H_6$. Bu propendir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ziyayev R., Mirzayev R., Abdusamatov A. Organik kimyo “Qaldirg‘och”, –T., 2019, 99-108-betlar.

2. Muftahov A.G. Umumiy kimyo. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2004, 130-145-betlar

3. Mutalibov A., Murodov E, Masharipov S, Islomova H. Organik kimyo 10-sinf, darslik, “G‘afur G‘ulom” nomli NMIU, –T., 2017, 78 – 84-betlar.

**Gulruxsor EGAMOVA,**
Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, stajor-tadqiqotchi

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TARBIYA FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada pedagogika ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tegishli mutaxassislik doirasida metodik tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida so‘nggi yillarda yangi fanlardan biri sifatida talqin etilayotgan “Tarbiya” fanini o‘qitishga metodik tayyorlashning muhim jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu fan misolida o‘qitishga integratsion yondashuvning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Tarbiya, integratsiya, integratsion yondashuv, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘qitish, metodik tayyorlash, metod, texnologiya.

В статье представлена информация об особенностях методической подготовки будущих учителей начальных классов, обучающихся по направлению начального образования педагогических образовательных учреждений в рамках соответствующей специальности. В частности, освещены важные аспекты методической подготовки к преподаванию предмета "Воспитание," который в последние годы трактуется как один из новых предметов в направлении начального образования. Также на примере данного предмета раскрывается значение и особенности интеграционного подхода к обучению.

**Ключевые слова.** Воспитание, интеграция, интеграционный подход, будущие учителя начальных классов, обучение, методическая подготовка, метод, технология.

The article provides information on the specifics of methodological training of future primary school teachers studying in the field of primary education in pedagogical educational institutions within the framework of the relevant specialty. In particular, important aspects of methodological preparation for teaching the subject "Upbringing," which has been interpreted as one of the new subjects in the field of primary education in recent years, are highlighted. Also, using this subject as an example, the significance and specific features of the integrated approach to teaching are revealed.

**Key words.** Upbringing, integration, integrative approach, future primary school teachers, teaching, methodological training, method, technology.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash boshlang‘ich ta’lim jarayonining eng muhim, ajralmas va diqqatga sazovor bosqichlaridan biridir. Zero, tarbiyaga ixlos bilan munosabatda bo‘lib, uning tarixiy, diniy, axloqiy ildizlarini muntazam o‘rganib borish va yosh avlodga yetkazib berish tarbiya jarayonini tashkil etish uchun olib boriladigan eng samarali usul hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimiz va madaniy merosimizni ta’limning har bir bo‘g‘inida yoshlarimiz ongi va tafakkuriga singdirib borish ham aynan Tarbiya fani negizida amalga oshiriladigan jarayondir. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, ushbu fanni boshlang‘ich ta’lim tizimidagi boshqa fanlardan ayro tasavvur qila olmasligimizni ham ta’kidlab o‘tish joizdir. Boshqa har qaysi

fan kabi Tarbiya fani ham har bir jabhada boshqa fanlar bilan integratsiyalanish zaruriyatiga ega.

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda bu yondashuv o‘quvchilarning kompleks tarzda rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Tarbiya fanini integratsion yondashuv asosida o‘qitish orqali nafaqat fanlararo bog‘lanish ta’minlanadi, balki o‘quvchilarga milliy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va madaniy qadriyatlar singdiriladi.

Integratsion yondashuv pedagogik jarayonni yangi va zamonaviy bosqichga olib chiqadi. Bunda o‘qituvchi faqat ma’lumotlarni yetkazuvchi emas, balki turli fanlardan olingan bilimlarni uyg‘unlashtiruvchi va amaliyotga tadbiq etuvchi sifatida faoliyat yuritadi. Shuning uchun turli fanlarni faqat bir mazmunda o‘qitishdan ko‘ra, ularni uyg‘unlashtirish va shu orqali mazmunni kengaytirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Integratsiya turlari adabiyotlarda quyidagicha talqin etiladi:

Pedagogik adabiyotlarda integratsiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

Funksional integratsiya – fanlarning o‘zaro bog‘liq amaliy vazifalar orqali birlashtirilishi.

Mazmuniy integratsiya – bilimlarning umumiy mazmun doirasida sintezi.

Metodik integratsiya – ta’lim usullari va metodlarining uyg‘unlashtirilishi.

Texnologik integratsiya – ta’lim jarayonida turli texnologiyalarni qo‘llash.

Tarbiya fanini integratsion yondashuv orqali o‘qitishning afzalliklarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Fanlararo bog‘lanish orqali tarbiyaviy mazmunni kengaytirish. Bunda Tarbiya fanining mazmuni boshqa fanlar bilan integratsiya qilinib, yanada boyitiladi. Masalan, ona tili, matematika, tasviriy san’at, tabiiy fan kabilar bilan birgalikda tarbiyaviy mavzular ishlab chiqiladi.

O‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida integratsion yondashuv yordamida o‘quvchilar jamiyatda o‘z o‘rnini topish, hamkorlik qilish, mas’uliyatli bo‘lish kabi fazilatlarni egallaydilar.

O‘qituvchilarning metodik saviyasining oshishi. Bunda fanlararo yondashuv metodik ko‘nikmalarni kengaytiradi, pedagoglarda turli vaziyatlarda eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lni tanlab, vaziyatdan chiqib keta olish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini integratsion yondashuv asosida o‘qitishga tayyorlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali. U quyidagi asosiy tamoyillar orqali tashkil etiladi:

1. Fanlararo bilimlarning uyg‘unlashtirilishi. Metodik tayyorlashda o‘qituvchilarda turli fanlardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish, ularni tarbiyaviy jarayonga samarali tatbiq etish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Masalan, ona tili darslarida axloqiy mavzularni o‘rganish bilan birga tarix va tabiatshunoslikdan misollar keltirish, tarbiya fanining integratsion metodikasini yaratishga xizmat qiladi.

2.Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Metodik tayyorlashda o‘quvchilarni faollashtirish, ularni ijodiy, tanqidiy fikrlashga undash metodlari o‘rgatiladi. O‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki tadqiqotchi va rahbar sifatida faol bo‘la olishi kerak.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik tamoyillar. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashgan tarbiyaviy vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish o‘qituvchining mavjud metodik tayyorligining muhim elementi hisoblanadi.

4. Muammoli ta’limni qo‘llash. Muammoli vaziyatlarni aniqlash va ularni o‘uvchilar bilan birgalikda yechish integratsion ta’limda asosiy o‘rin tutadi. Bu o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi.

5. Innovatsion ta’lim texnologiyalari integratsiyasi. Zamonaviy ta’lim jarayonida multimediya vositalari, interaktiv usullar, elektron resurslardan samarali foydalanish o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini integratsion yondashuv asosida o‘qitishga tayyorlash jarayonida metodik tayyorlashning bir nechta o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jarayon nazariy bilimlardan amaliy ko‘nikmalarga muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlashi lozimligini ta’kidlagan holda, ularni sanab o‘tamiz:

1. Fanlararo mazmunni chuqur o‘zlashtirish. Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat tarbiya fanining nazariy asoslarini, balki boshqa fanlar – ona tili, tarix, tabiatshunoslik, san’at kabi sohalarning ham asosiy kontseptsiyalarini o‘rganadilar. Bu esa ularga fanlararo bog‘lanishni yaxshiroq tushunishga va darslarda integratsion metodlarni qo‘llashga imkon beradi.

2. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim. Metodik tayyorgarlik jarayonida talabalar dars jarayonida qo‘llash uchun konkret metodlar, texnologiyalar, interfaol usullarni o‘zlashtiradilar. Bunda loyihalar yaratish, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kichik tadqiqotlar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

3. Refleksiv faoliyat. O‘qituvchilar tayyorlashda o‘z faoliyatini baholash, xatolarni aniqlash va tuzatish, tajribadan xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayon metodik kompetentsiyaning muhim qismidir.

4. Guruh va jamoaviy ishlarni tashkil qilish. Integratsion ta’limda o‘qituvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlash, pedagogik fikr almashish va birgalikda dars materiallarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Shu bois metodik tayyorlash jarayonida guruh ishlari va seminarlar ko‘p qo‘llaniladi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy pedagogik amaliyotda AKT vositalaridan samarali foydalanish talab qilinadi. Metodik tayyorgarlikda talabalar elektron ta’lim resurslari, interaktiv taxtalar, multimedia dasturlari bilan ishlashni o‘rganadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini integratsion yondashuv asosida o‘qitishga metodik tayyorlash jarayoni zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning milliy, axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Metodik tayyorlashda fanlararo integratsiya, faoliyatga yo‘naltirilganlik, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika, muammoli ta’lim va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv o‘qituvchilarning metodik saviyasini oshiradi va o‘quvchilarda tarbiyaviy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Biroq, tayyorlash jarayonida metodik materiallarning yetishmasligi, AKT malakasi pastligi va individual yondashuvda kamchiliklar kabi muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun muntazam malaka oshirish, zamonaviy metodik resurslar yaratish va pedagoglarning AKT savodxonligini oshirish zarur.

Bu jarayonda zamonaviy metodik resurslar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar sonini ko‘paytirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv kurslari orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT savodxonligini oshirish, hamda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘qitilayotgan metodik fanlar mazmunini yana-da boyitib, chuqurlashtirish orqali ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullaev S. “Pedagogik integratsiya asoslari”. –T.: Fan va Ta’lim, 2019.
2. Murodova Z. “Ta'limda integratsiya turlari va ularning samaradorligi”. Ta'lim olami, 4(1), 2020.
3. Rasulov T. “Integratsion yondashuv va uning metodologiyasi”. – T.: O‘qituvchi, 2020.
4. Ergasheva D. “Boshlang‘ich sinf pedagogikasida integratsion yondashuv”. Samarqand: Samarqand Universiteti Nashriyoti, 2020.
5. Qodirov M. “Fanlararo ta'lim mazmuni va metodlari”. – T.: Ta’lim Nashriyoti, 2020.
6. Islomova L. “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining amaliy tayyorgarligi”. Ta’lim va Ilm, 4(3), 2020.
7. Rasulova N. “Refleksiv faoliyat va pedagogik mahorat”. Samarqand: Universitet Nashriyoti, 2019.
8. Usmonov D. “Pedagogik jamoaviy ish va uning samaradorligi”. Ta’lim Innovatsiyalari, 7(1), 2022.
9. Egamova G. “1-sinf Tarbiya darsligida integratsion yondashuv asosidagi topshiriqlar tahlili”. Online conference by worldly knowledge company Vol. 13 No. 01 (2025): Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. Andijon, 2025.
10. Egamova G. “Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi sifatida”. “Sun’iy intellekt va ta’lim: muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar”. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 8-9-aprel 2025. 2-to`plam. “Metodist nashriyoti”. NUKUS-2025.
11. Egamova G. “Integratsion yondashuv asosida boshlang‘ich sinf tarbiya darslarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida”. “Hududlarni sanoatlashtirish va innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 14-15-aprel, 2025. GulDU-2025.

**Ma’mura YULDASHEVA,**
“PROFI UNIVERSITY” xususiy oliy ta’lim muassasasi, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi mudiri

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikaga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan salbiy munosabatlari, xususan, xatolardan qo‘rqish, o‘qituvchilarning salbiy fikrlari va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlamasligi kabi omillar tahlil qilinadi. Muallif o‘qituvchilar va ota-onalarning salbiy munosabatlari o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan ishtiyoqiga qay darajada ta’sir qilishini aytib o‘tgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarda matematikaga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun o‘qituvchilar va ota-onalarning mas’uliyatini oshirish zarurligi ta’kidlanadi.

**Tayanch so‘zlar.** Matematika faniga munosabat, o‘quvchilarning ishtiyoqi, xatolarni o‘rganish, matematik tafakkur, o‘qituvchilarning ta’siri, ota-onalarning roli, salbiy munosabatlar, matematika fanini o‘zlashtirish.

Статья посвящена изучению отношения учащихся начальных классов к математике. Также анализируется негативное отношение учащихся к математике, в частности, такие факторы, как страх ошибок, негативное мнение учителей и отсутствие поддержки со стороны родителей. Автор отмечает, в какой степени негативное отношение учителей и родителей влияет на интерес учащихся к математике. Кроме того, подчеркивается необходимость повышения ответственности учителей и родителей за формирование у учащихся положительного отношения к математике.

**Ключевые слова.** Отношение к математике, мотивация учащихся, страх перед ошибками, математическое мышление, влияние учителей, роль родителей, негативное отношение, освоение математики.

The article is devoted to the study of primary school students' attitudes towards mathematics. Additionally, factors such as students' negative attitudes towards mathematics, particularly fear of mistakes, negative opinions from teachers, and lack of parental support, are analyzed. The author noted how the negative attitude of teachers and parents affects students' interest in mathematics. In addition, the need to increase the responsibility of teachers and parents for the formation of a positive attitude towards mathematics in students is emphasized.

**Key words.** Attitude towards mathematics, student motivation, fear of mistakes, mathematical thinking, influence of teachers, role of parents, negative attitude, mastering mathematics.

Matematikaning rivoji inson tafakkuri ta’sirida amalga oshadi. Shu sababdan ham matematikani o‘rganish o‘rganuvchidan tafakkurni rivojlantirishni talab etadi. Bunda matematik tafakkurning o‘ziga xos usul va shakllaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu haqida ayniqsa fransuz matematigi Henri Puankare hamda German Veylning matematik tafakkur haqidagi fikrlari, uni yoshlikdan tarbiyalab borish zarurligini tasdiqlaydi. Tafakkur – inson ongida ask etgan obyektlar tomonlar va xossalarini ajratish va ularni yangi bilim olish uchun boshqa obyektlar bilan tegishli munosabatlarda qo‘yish jarayoniga aytiladi. Umuman olganda, tafakkur obyektiv borliqning inson ongida faol aks ettirish jarayonidir. Tafakkur ham mazmun va shaklga ega. Alohida fikrlar tuzilmasi va ularni maxsus

birlashmalariga tafakkurning shakllari deyiladi. Tafakkurning shakllari quyidagilar: tushuncha, hukm va tasdiqlar. Uning haqiqatliligi – ularni to‘g‘ri o‘rganish, mustahkam va ishonchli sistemani ta’minlaydi.

Matematik ongni bog‘cha, maktabning ilk davridan takomillashtirish zarur. Matematika fani barcha aniq fanlarga asosdir. Bu fanni bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab keta oladi. Matematika so‘zi qadimgi grekcha - mathema so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi “fanlarni bilish” demakdir. Matematikaning rivoji inson tafakkuri ta’sirida amalga oshadi. Shu sababdan ham matematikani o‘rganish o‘rganuvchidan tafakkurni rivojlantirishni talab etadi. Bunda matematik tafakkurning o‘ziga xos usul va shakllaridan foydalanishga to‘gri keladi. Bu haqida ayniqsa fransuz matematigi Anri Puankare hamda German Veylning matematik tafakkur haqidagi fikrlari, uni yoshlikdan tarbiyalab borish zarurligini tasdiqlaydi. Matematika faniga qiziqish uyg‘otish o‘qitish metodikasi sifati va o‘quv faoliyati darajasiga bog‘liqdir. Har bir o‘quvchi darsda faol va zavq bilan ishlashi, bilimga bo‘lgan ishtiyoqning paydo bo‘lishi va takomillashidan boshlang‘ich nuqta sifatida foydalanishi, muhim e’tiborni o‘rganishga qiziqishni chuqurlashtirishga qaratishi lozim.

“Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Sh.Mirziyoyev.

Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish samaradorligi o‘quvchilarda ushbu o‘quv fani darslariga ijobiy munosabatlar shakllanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu munosabatlar ularning ishtiyoqi, boshidan kechiradigan quvonch va xafagarchiliklari, ayniqsa, qiyinchiliklari, maktabda o‘qituvchining, uyda ota-onalarning ta’siri asosida shakllanadi.

O‘quvchilar matematika darslarida turli ruhiy holatga tushib turadilar: birida “Men matematikani o‘rgana olmayman”, yana birida “Men matematikani bo‘sh o‘zlashtiraman”, “Men matematika darslarini yomon ko‘raman” kabi munosabat namoyon bo‘ladi. Matematikadan bo‘sh o‘zlashtiradigan o‘quvchilar ushbu o‘quv fanini yoqtirmay qo‘yadilar. Bo‘sh o‘zlashtirish sabablaridan biri misol va masalalarni yechishda xatolarga yo‘l qo‘yishlari va shu tufayli past baho (ball) olishlari, shu tufayli uyda har gal dakki eshitaverishlaridir. Xatolardan qo‘rqish ham matematika darslarini yomon ko‘rib qolish sabablaridan biridir. Xatoga yo‘l qo‘yishdan bola xavotirga tushadi.

Ayrim misol va masalalar bir xilligi, bir usulni uzoq takror-takror qo‘llash, shu tufayli bajarilayotgan amalning avtomatizm darajasida yod bo‘lib ketishi qiziqishni so‘ndiradi. Qiziqishning yo‘qolishi loqaydlik holatlarini keltirib chiqaradi. Buning ustiga darslarda o‘quvchilar asosan o‘qituvchining tushuntirishini tinglaydilar, savollarga javob beradilar, biror masalada bir-biri bilan bahslashmaydilar, biror tushuncha haqida o‘z fikrlarini aytib, mushohada yurtimaydilar.

Yuqoridagi mazmunda ta’lim olib, maktabni tamomlagan yoshlar salbiy munosabati tufayli hisob-kitob yuritadigan kasblardan o‘zlarini olib qochadilar, ya’ni matematikani bo‘sh o‘rganganlik kasb tanlashga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi. Bunday holatlar matematikani yaxshi o‘zlatiradigan o‘quvchilarni ham shu fandan uzoqlashtirishga sabab bo‘ladi. Ko‘proq qizlar jabr ko‘radi: ular matematikasi bor sohalarga bormaydilar. Boshqacha aytgandek, yoshlar masalalarni yechishda, misollarni ishlashda xato qilishdan qo‘rqqanlaridek, matematikasi bor sohalarda ishlay olmaslik kayfiyatida bo‘ladilar. Bunday holat farzandlarimiz, ayniqsa, qizlarimiz

orasida keng ildiz otgan. Aksincha, o‘quvchilarda matematikani hamma o‘rgana oladi, degan qat’iy ishonch paydo qilishgina, shu niyatda darslar ularning matematik tafakkurini rivojlantirishga qaratilsagina, bunday salbiy munosabat o‘zgarib, o‘z kuchiga, ijodiy qobiliyatlariga ishonch barqarorlashadi.

Aslida, Jo Boulerning fikricha, o‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar foydali. Xatoga yo‘l qo‘yilganda miya faol ishlay boshlaydi va tafakkurning rivojlanishi, bunga qo‘shimcha ravishda qayta o‘qib-o‘rganish jarayoni sodir bo‘ladi. Bu juda muhim, chunki xato qilgan odam o‘zini noqulay his qiladi: o‘z bilimini qayta ko‘rib chiqish, to‘ldirish zaruriyatini sezadi. Muallifning yana bir fikri: xatolar qadrlanmaydigan yoki undan ham battari – jazolanadigan joyda yetarlicha o‘sish ham bo‘lmaydi. O‘quvchilarga xato qilmay ishlashsin deb o‘ta sodda, oson yechiladigan misol va masala berilsa, bunday topshiriqlar ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmaydi, boshqacha aytganda, bunday jarayonlarda o‘rgatish ishlari nolga tenglashadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga faqat mayda rasmlar asosida qo‘shish yoki ayirish uchun misol bersa-yu, raqam keltirmasa, ushbu misol xatosiz bajarilgani bilan sanashni o‘rgatadi, lekin raqamlar asosida fikrlashga yordam bermaydi: matematik tafakkurni o‘stirishga tayyorlamaydi.

O‘quvchilarda matematikani o‘rganishga munosabatning shakllanishiga o‘qituvchilar ham, ota-onalar ham sababchi bo‘ladilar. Ayrim o‘qituvchilar matematikani qiynalib o‘rganayotgan bolalarga quyidagi kabi gaplarni ko‘p marotaba aytadilar: “Sen matematik bo‘la olmaysan”, “Matematikaga sening aqling yetmaydi”, “Ovora bo‘lma, sendan matematik chiqmaydi” va h.k. Ba’zi o‘qituvchilar hamma bolalar matematikani birday yetarlicha yuqori darajada o‘rgana olmaydi, degan fikrda bo‘ladilar, eng yomoni, shu nuqtayi nazarda turib ularga salbiy ta’sir o‘tkazadilar. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ayrim o‘qituvchilar ham, ota-onalar ham ba’zi bolalar matematika bilan astoydil shug‘ullanishga qodir emaslar, kelgusida bu soha ularga muvaffaqiyat keltirmaydi, maktabda alohida iqtidor namoyon qilib o‘qiganlarigina matematikasi bor sohalarda yutuqlarni qo‘lga kirita oladilar, deb hisoblaydilar.

Bunday ota-onalarning “Matematikaga aqling yetmaydi”, “Sen matematikadan “bo‘m-bo‘shsan” kabi qat’iy aytilgan gaplari, dakkilari ham sabab bo‘ladi. Bunday gaplar, dakkilar bolalarga juda yomon ta’sir qilib, ularni tushkun bir vaziyatga soladi: matematikani alohida qiziqish bilan o‘rganishdan tiyila boshlaydi.

Uyda ona-onalar farzandlariga uy vazifasini bajarishda vaqti yo‘qligidan yordam bera olmaydi, vaqti borlari ularga o‘zlarining matematikaga munosabatlarini aytib, ko‘maklashishdan bosh tortadilar: “Men matematikani yomon ko‘rar edim”, “Men ham matematikadan misol va masalalarni ko‘pincha yecha olmas edim”, “Sizlarga topshirilayotgan misol va masalalar butunlay boshqacha, shuning uchun o‘qituvchi tushuntarganidek qilib o‘zing ishlayver”, “Sen matematikani o‘rganishing shart emas”, “Mening vaqtim yo‘q, dadangdan borib yordam so‘ra” va hokazo.

Ota-onasi yordamida uy vazifasini bajarayotgan bola har bir misolni ishlab, yechimi necha bo‘lishini aytadi, ota-onasining ma’qullashini kutib yozmasdan turadi. Kattalardan “To‘g‘ri, yoz”, degan javobni eshitgandan keyingina yechimini yozib qo‘yadi. Bolaning bu tarzda uy vazifasini balarishi ota-onaning toqatini toq qiladi.

Uyda boshqacha usulni qo‘llash mumkin: avval biror qog‘ozda qoralama qilib mustaqil ishlab kattalarga ko‘rsatish vaziyatni yengillashtirgan bo‘lardi-yu, lekin bunday usul uyda deyarli qo‘llanmaydi.

Misol va masalalarni mustaqil xulosaga kelish, qait’iyat bilan uy vazifasini

yozib bo‘lishda sustkashlik qilavergan bolalar oxir-oqibat o‘zlashtrishda ortda qola boshlaydilar, bo‘sh o‘zlashtiruvchilar qatoridan joy oladilar. Bunday o‘quvchilar o‘z rivojlanishini tezlashtira olmaydilar va yuqori darajaga erisha olmaydilar. Vaholanki, bunday vaziyat yuz bermasligi: ular ham barcha bolalarga munosib bo‘lgan sifatli ta’lim va yordam bilan matematikani yaxshi o‘zlashtirishlari mumkin edi.

Yana bir keng tarqalgan xato: matematikani faqat eng aqlli odamlar o‘zlashtira oladi. Shunday qilib, bu sohadagi muvaffaqiyatsizliklar o‘quvchilarga ayniqsa og‘riqli ta’sir ko‘rsatadi: ular ahmoq va hayotda jiddiy muvaffaqiyatlarga erisha olmaydilar degan xulosaga kelishadi. Bu afsonani yo‘q qilish kerak.

O‘quvchilarga ba’zan butun bir bet uy vazifasi topshiriladiki, bunday vazifalar oilada qanday noxush vaziyatlarni vujudga keltirishini tasavvur qilish qiyin emas.

Darsliklarda yechish talab qilinadigan misol, masala va topshiriqlarni yechish uchun namuna berilmasligi yoki darslarda o‘tilmagan usullarda bajarish talab qilinishi bunga misol bo‘la oladi.

Matematika darslarida testlarga ma’lum o‘rin ajratiladi. Ayni testlar o‘quvchilarda ushbu o‘quv faniga salbiy munosabat uyg‘otishi mumkin. Birinchidan, mustaqil yechimga kelish ko‘nikmalarini egallamagan bola uchun test topshiriqlarini bajarish noxush vaziyat: qoniqarsiz baho (past ball) olishi aniq. Ikkinchidan, o‘quvchilarda matematikani chuqur mushohadalar yuritib o‘rganish shart emas ekan, degan fikr paydo bo‘ladi. Testlarni darsda bajarib ulgurish kerakligi esa uzoq o‘ylash imkonini bermaydi, natijada testlarning chala qolishi mumkinligi bolani oldindan qo‘rquvga tushiradi, o‘zini nochor sezadi. Bunday vaziyatlar matematik misollarni shartta-shartta yechib tashlash kerak, buning uchun amallarni yod olish, faktlarni eslab qolish zarur, degan fikrga olib keladi. Amallarni yod olish, faktlarni eslab qolish qobiliyati bo‘sh o‘quvchilar matematika o‘quv fanini yoqtirmaslikda davom etadilar.

Xulosa qolib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika darslariga nisbatan shakllanayotgan munosabatlarining ijobiy yoki salbiy bo‘lishi o‘qishning turli sabablarga ko‘ra oson yoki qiyin bo‘lishiga, o‘qituvchilar va ota-onalarning ta’siriga, o‘qitish metodikasiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Yuqorida ta’kidlangan, o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarga e’tibor qaratish bolalarda matematika faniga nisbatan qiziqishi ortishiga yordam beradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati matematika fanini o‘zlashtirish darajasiga bog‘liqdir!

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Sultonov M. Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-intellektual qobiliyatini rivojlantirish – Metodik qullanma/ Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent - 2016

2. Боулер Джо. Математическое мишление. Книга для родителей и учителей / Джо Боулер; перевод с английского Натали Ятсюк. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.

3. Методика преподавания математики в началних классах: учебно-методическое пособие для студентов дневного отделения. В 2 ч. Ч.1 / Сост.: Л.А.Каирова, Ю.С.Заятс. - 2-э изд., доп. и перераб. – Барнаул: АлтГПА, 2011. – 82 с.

4. Мендигалиева А.К. Обшие вопроси методики преподавания математики в началних классах. Учебное пособие. – Оренбург, 2019. – 158 с.

**Xurshid ASRAROV,**
Buxoro davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

# XALQARO BAHOLASH DASTURLARI – IJTIMOIY-DIDAKTIK ZARURIYAT SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarini xalqaro baholash dasturlari talablari darajasida baholash hamda xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish ijtimoiy-didaktik zaruriyat ekanligi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar.** Xalqaro baholash.o'quv materiali, o'zlashtirish ko'rsatkichi, baholash jarayoni, o'quv faoliyati, davlat talablari, o'quv dasturlari, yakuniy natija, savodxonlik darajasi, sifat va samaradorlik.

В статье рассматривается социально-дидактическая необходимость оценки показателей усвоения учащимися учебных материалов на уровне требований международных оценочных программ и внедрения международных оценочных программ в образовательный процесс.

**Ключевые слова.** Международная оценка.учебные материалы, показатели усвоения,процесс оценки, учебная деятельность, государственные требования, учебные программы, конечные результаты, уровни грамотности, качество и эффективность.

The article discusses the socio-didactic necessity of assessing the indicators of students' assimilation of educational materials at the level of the requirements of international assessment programs and the introduction of international assessment programs into the educational process.

**Key words.** International assessment. Learning materials, learning outcomes, assessment process, learning activities, government requirements, curricula, outcomes, literacy levels, quality and effectiveness.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tizimli isloh qilish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning transformatsiyalashgan shakllari va usullarini joriy etish, ta'limning yakuniy natijasi (Learning outcomes)ga asoslangan zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish, o'quvchilarning davlat talablarini egallaganlik darajasini inobatga olgan holda, o'quv dasturlari va o'quv mashg'ulotlari mazmunini didaktik jihatdan modernizasiyalash, o'quvchilarda xalqaro baholash dasturlari talablari darajasida zamonaviy bilim va ko'nikmalar hamda kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati dolzablashmoqda.

Bugungi kunda xalqaro ta'lim amaliyotida o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarini xalqaro baholash dasturlari talablari darajasida baholash hamda didaktik jarayonlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlarida umumiy o'rta ta'lim jarayonida ta'lim sifatini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturlari PIRLS, TIMSS, PISA, EGMA, EGRA asosida davlatlarning ta'lim sohasidagi yutuqlari kuzatish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning usullari va vositalarini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik darajalarini sertifikatlash yo'nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim

sohasidagi tub islohotlar negizida o‘qitish sifati va samaradorligini milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirishga ustivor vazifa sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son qarorida quyidagi vazifalar belgilangan:

– O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

– umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish;

– inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish;

– uzluksiz ta’lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirishga ko‘maklashish va qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish;

– xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish;

– pedagog-xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta’lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko‘nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

– davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalar va o‘quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

– zamonaviy innovasion iqtisodiyot talablariga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida umumta’lim davlat ta’lim standartlari tizimini muntazam takomillashtirib borish;

– o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivasiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e’tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov asosidagi fanlarni joriy qilish;

– 10-11-sinf o‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan, ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quvchilarning kasbiy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta’lim berishni rivojlantirish belgilangan.

XXI asrning boshlarida ta’limni modernizasiyalash va shu asosda ta’lim mazmunini baholash shkalasini o‘zgartirish zarurligi haqidagi yondashuvlar negizida, yagona davlat imtihoni, ta’lim standartlari va ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikning yakuniy joriy etilishi bilan baholash shkalasi va unga yondashuvlar sezilarli darajada o‘zgartirish kerakligi haqidagi g‘oyalar hamda xalqaro ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini davlatlar miqyosida taqqoslash amaliyotida joriy qilindi. Har qanday davlatning ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholash milliy baholash tizimi asosida amalga oshirilishini nazarga tutgan holda umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarini baholash muammosini hal qilishda quyidagi yangi yondashuvlarga amal qiladi:

– baholash ta’lim mazmunini o‘rganishning yakuniy natijasi sifatida qaraladi;

– ta’limning yakuniy natijasi (Learning outcomes)ning davlat ta’lim standartlariga muvofiqligi aniqlanadi;

– o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari asosida ularning egallagan bilim, ko‘nikma va malaka darajasi belgilanadi;

– baholash tizimi maktab o‘quvchilarining ta’lim faoliyatini baholashning an’anaviy tizimiga mos keladigan o‘quv jarayoniga emas, balki ta’lim faoliyati natijalariga yo‘naltirilganligi aniqlanadi. Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida esa quyidagilar belgilab berilgan:

– respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;

– Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

– Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

– The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

– The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun;

– ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovasion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

– ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;

– ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

– ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

– xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

– o‘qitishning innovasion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash;

– xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

– xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integrasiya qilish;

– xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollarni o‘zida mujassam etgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar

yaratish;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

– o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida munosib ishtirok etishni ta’minlash kabi ustivor vazifalar belgilab berildi.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini xalqaro baholash dasturlari asosida davlat talablarini bajarganlik ko‘rsatkichlarini aniqlash quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Birinchidan, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajalarini baholashda inson omilini kamaytiradi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajalarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning an’anaviy baholash tizimidan ustunligi.

Uchinchidan, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajalarini baholash eng avvalo obyektiv, aniq, barcha uchun qulay va ishonarli bo‘lishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajalarini baholash jarayonida o‘qituvchi ham o‘z ishini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, zamonaviy ko‘nikmalarga ega, kreativ fikrlaydigan, keng dunyoqarashli, mustaqil qaror qabul qiladigan, axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan yangi avlodni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Oltinchidan, sifatli boshlang‘ich va o‘mumiy o‘rta ta’limni ta’minlash orqali samarali ta’lim natijalari(Learning outcomes)ga erishish natijasida ta’lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlarning strategik rejasini ishlab chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yettinchidan, xalqaro ta’limda davlatlar taraqqiyotida ijtimoiy va intellektual kapitalning jadallashuvi natijasida mamlakatlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda zamonaviy sifatli ta’lim hamda nostandart, kreativ va tanqidiy fikrlash, yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. – QHMMB,2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son

4. Safarova R.G‘., Musayev U. va b. Umumiy o‘rta ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. –T.: Fan, 2008. 222 b.

5. Vorontsov A.B. O‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholashning pedagogik texnologiyasi. - M.: Nashriyot Rasskazov, 2002.-303 b.;

**Munira RAMAZONOVA,**
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining tarixi muzeyi rahbari

# ARTPEDAGOGIKA – SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING VA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy artpedagogika orqali bolani tarbiyalash va artpedagogika innovatsion ta'limning ajralmas qismi sifatida tan olinganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mallif artpedagogika san'at sohasida tarbiya va ta'lim samaradorligi bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

**Tayanch so'zlar.** Milliy ta'lim dasturi, renessans, artpedagogika, innovatsion, falsafiy, huquqiy, ilmity, badiiy, diniy, axloqiy. San'at vositasida ta'lim-tarbiya berish.

В статье рассматривается воспитание ребенка через современную артпедагогику и признание артпедагогики неотъемлемой частью инновационного образования. Автор также дал рекомендации по эффективности воспитания и образования в области артпедагогики и искусства.

**Ключевые слова.** Национальная образовательная программа, ренессанс, художественная педагогика, инновационная, философская, правовая, научная, художественная, религиозная, нравственная.

The article discusses the education of children through modern art pedagogy and the recognition of art pedagogy as an integral part of innovative education. The author also gave recommendations on the effectiveness of upbringing and education in the field of art pedagogy and art.

**Key words.** National educational program, renaissance, art pedagogy, innovative, philosophical, legal, scientific, artistic, religious, moral. Education through art.

Prezident Sh. Mirziyoevning 2019-yil 3-apreldagi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlab o'tkazgan yig'ilishida bu masalaga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi. Yig'ilishda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus!"[1]ining maqsadlarini ongiga chuqur singdirish, ularni san'at, adabiyot, teatrga ko'proq jalb etish, kitobxonlikni keng targ'ib etish kerakligi aytildi. Ayonki, birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinganbesh tashabbus yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilinmoqda.

Hammamiz ko'rib, guvoh bo'lib turibmizki, so'nggi 5-6 yilda mamlakatimizning barcha jabhalarida ulkan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yaqin-yaqingacha dunyodagi ilg'or davlatlarning iqtisodiy rivojiga havas bilan qarab kelayotgan bo'lsak, endi ko'pgina mamlakatlar bizga xuddi shunday nigoh tashlamoqda. Sanoat, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik singari o'nlab sohalarda yaratilayotgan o'zbek brendi dunyoga chiqdi. Xuddi shunday evrilishlar qatorida mamlakatimizning ta'lim tizimi ham tubdan isloh

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-apreldagi "Yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha" o'tkazilgan yig'ilish nutqi. www.uza.uz, 2019-yil, 3-aprel.

qilinmoqda. Bu borada Prezidentimizning ta’lim tizimi ham tubdan isloh qilinmoqda. Avvalo, o‘qituvchining obro‘yi tiklandi. Maktab, maktabgacha tarbiya muassasalarining qiyofasi o‘zgardi, o‘quv dargohlarining moddiy-texnik bazasi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari – milliy ta’lim dasturi, milliy mintalitetimiz zaminiga munosib ravishda qayta yaratilayotir. Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, “Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz” degan ulug‘vor g‘oyalari esa har bir sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning tub ildiziga aylandi.

Darhaqiqat, tomirlarida uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan va ikkita Renessansga asos solgan buyuk ajdodlarining qoni oqayotgan yosh avlod bugun uchinchi Renessans poydevorini qurayotganlar safida qadam tashlamoqda. Ko‘zlangan marraga yetmoqning birinchi yo‘li esa, Prezidentimiz har bir yig‘ilish va uchrashuvlarda qayota-qayta ta’kidlaganidek, bilim olish, bilim olish va yana bilim olishdir. Davlatimiz rahbari Yoshlar kuni munosabati bilan joriy yilning 30-iyun kuni Yangi O‘zbekiston bog‘ida bo‘lib o‘tgan bayramda so‘zlagan nutqida “Eng katta zaminimiz ta’lim”[2] deya bu talabni yana bir marta alohida urg‘uladi.

Ayonki, ilm-fanning ijtimoyi hayot bilan uyg‘unligi har bir davlatning taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ta’limning rivojlanish bosqichlari esa o‘qitish metodlari, vositalari va ularni tashkil etish shakllarini yanada takomillashtirish, o‘qitishga yangicha uslubda yondashish talabini kuchaytiradi. Yangicha yondashuv nafaqat o‘quvchilarga puxta ta’lim berishga xizmat qiladi, balki, iste’dodli bolalarni tanlash, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, qobiliyatini rivojlantirish, intellektual salohiyatini namoyish etishga ham ko‘mak beradi. Bunda Artpedagogik ta’limning o‘rni behad katta. Bu fan mamlakatimiz ta’lim tizimidagi tub islohotlarning ajralmas qismi hisoblansada, yurtimizda yoshlarga ta’lim berishning bir muncha yangi uslubidir. Yurtimizda san’at va madaniyat hamda uning tarkibiy o‘zagi hisoblanmish badiiy ta’limga qaratilgan e’tibor va g‘amxo‘rlik kuchaygan, vatanimiz tasviriy va amaliy san’atida, muzeyshunoslik, dizayn kabi sohalarda yirik o‘zgarishlar ko‘zga tashlanayotgan bir paytda, bu fanning o‘rni va roli ayniqsa, oshib bormoqda.

Artpedagogika jahon ma’rifatparvarlari tomonidan allaqachonlar tan olingan fanlardan biri sanaladi. Rossiya, AQSh, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning taniqli pedagog-olimlari ta’limning mazkur yo‘nalishiga yuksak baho berganlar. Jumladan, Rossiyadagi A. L. Shtiglits nomli Peterburg davlat badiiy-san’at akademiyasining ilmiy xodimi Kseniya Bandorina, Ispaniya sharqshunoslari assotsiyasi bosh kotibi, professor Xesus Xil Fuesenta, Oksford universiteti ilmiy xodimi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori Yusen Yu va boshqa olimlar ta’lim sifatini oshirishda artpedagogikaning o‘rni benihoyat katta ekanini alohida ta’kidlaganlar. Mazkur nuqtada janob Yusen Yuning quyidagi so‘zlarini eslash lozimdir. “Artpedagogika, innovatsion ta’limning ajralmas qismi sifatida tan olingan, – deydi u. O‘rta Osiyo arxeologiya va san’ati tarixi haqida Toshkent-Oksford vibenarlaridan, o‘ylashimcha, o‘quv jarayonida foydalanish mumkin”[3].

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 3-apreldagi yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishda bu masalaga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidladi. “Besh muhim tashabbus”ni ilgari surdi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish masalasi nazarda tutadi. Badiiy to‘garaklarda san’at orqali tarbiyalash. Maqolada emperik tadqiqot, mantiqiylik, tizimlilik, o‘zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot

[2] “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2022-yil, 1-iyul

[3] https://dereksiz.org/tasvirij-sanat-va-uni-ukitish-metodikasi.html?page=6

tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Demak, mashhur pedagoglarning e'tiroflariga ko'ra, artpedagogika bolalar va o'smirlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va boshqa sohalardagi bilim va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Xo'sh, artpedagogikaning o'zi nima?

Artpedagogika – san'at vositasida ta'lim tarbiya berishdir.

Artpedagogikaning vazifasi, funksiyasi, imkoniyatlari nimalardan namoyon bo'ladi? Masala shundaki, agarda artpedagogika ishtirok etmasa, badiiy ta'lim-tarbiya jarayonlarida asosan ratsional tushuntirish, ishontirish jarayonlari sayoz kechadi. Ta'lim sifati kutilgandek bo'lmaydi.

Texnologiya deb esa – natijasi kafolatlangan ishlab chiqarish jarayoniga aytiladi. Bu fanning bosh vazifasi – badiiy ijodiyot yoki san'atning biror tor yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash emas, balki, har tomonlama komil insonni taribyalash uchun axloqiy pok, go'zallik va ezgulikni yaxshi his eta oladigan, o'z axloqi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalash ishiga ko'maklashishdir.

Yana shularni aytish lozimki, artpedagogika, bolalarning go'zallik va estetik tuyg'ularini, badiiy ehtiyojlarini, ongini, dunyoni badiiy estetik idrok etish qobiliyatlarini, musiqiy yoki surat chizish, rolga kirish, she'r o'qishni, dizaynerlik, instalyasiya qobilyatlarini, xullas, go'zallik yaratish, go'zallikni tushinish va idrok qilishni o'rgatadi. San'at bilan boshqa sohalarni uyg'un xolda o'rganishda, yoshlarda tarixiy ongni rivojlantirishda, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarida, umuman yosh avlodni tarbiyalashda artpedagogikadan foydalanish lozim. Bunda musiqa va san'at maktablari, san'at institutlari, to'garaklar alohida ahamiyatga ega.

Shu o'rinda taniqli rus olimi G.K.Selevkoning quyidagi fikri ibratlidir. Artpedagogika o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qo'llanadigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir".

Artpedagogika san'at soxasida tarbiya va ta'lim samaradorligini qanday oshiradi? Biz bolalarga Vatan, do'stlik, ota-ona, mehr-oqibat haqidagi berayotgan bilimlar – bu informatsiya, axborot. Mana shu axborotni bir yonilg'iga, matorga aylantirish kerak. Matorni esa yondirish zarur. Matorni yondirish uchun hayajon va his tuyg'u lozim. Bu his tuyg'ular salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Mana, ikkinchi jahon urishi davrida yaratilgan filmlarni qaraylik: yovga, nemis-fashistlarga qarshi nafrat ufirib turadi bu asarlarda, yoxud G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri.

She'rni o'qiganda bosqinchilarga nisbatan cheksiz g'azab paydo bo'ladi yuraklarda. Shu mavzuda ko'plab karikaturalar ham yaratilgan.

Artpedagogikaning vazifasi bunday badiiy axborotlarni qalblarga yanayam chuqurroq singdirishdan iboratdir. Ya'ni bunday axborotlarni yanada jonlantirish, qiziqtirish, odamzot endi mana shu ma'lumotni olib sandig'iga solib qo'ymasin, axborotni ma'lumot uchungina qabul qilmasin, bu badiiy mahsulotni qabul qilgandan keyin o'ylasin, tafakkur qilsin, mantiqiy g'oyasini o'ylasin. Vatan manzaralarini biz nima uchun go'zal tasvirlaymiz? Nima uchun Vatan haqidagi qo'shiqlarni avjida baland, she'rlarni ajoyib tarzda kuylaymiz. Masalan, A. Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rini eslaylik:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan, deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho[4].

She’rdagi Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatni avvalo, artpedagogika muallimining o‘zi chuqur anglashi, his qilishi va yoshlar yuragiga muhrlaydigan ta’sirchan so‘zlar bilan ifodalash lozim. Artpedagogika insonni maqsadga chorlovchi mativator. O‘zbek she’riyatida, e’tibor beradigan bo‘lsak, go‘zallik, yor jamoli, sevgi-muhabbat haqidagi she’rlarda kishini mahliyo qiluvchi sehr bor. Masalan, A. Navoiyning “Qaro ko‘zim” g‘azali:

Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Ulug‘ Alisher Navoiy g‘azallarining hammasi go‘yo artpedagogika uchun yaratilgandek. Go‘zallikni eshitgan yor, shoir oshiqning yoniga keladi. G‘azalda bu holat tashbehlar va obrazlar vositasida behad go‘zal tasvirlangan. Demak, har qanday so‘z ham inson qalbini eritadi, nafosat, go‘zallik bag‘ishlaydi, deya olmaymiz. Artpedagogikada biz berayotgan bilim insonning ratsional olamiga va aqliga ta’sir qiladi. Agar ma’lumotga artpedagogik ishlov berilsa, bu odamni harakatga keltiradi. Va mativator vazifasini bajaradi. Misol uchun, bolani biror yumushga yaxshi muomola va shirin so‘zlar bilan buyursak, albatta ishni oqilona bajaradi.

Voqea odat yoki buyumni qoralash, yomonlash yoxud maqtashda ham artpedagogikadan foydalanish mumkin. Buning uchun artpedagog – muallim, voqea-hodisaning ma’naviy ma’nosi va badiiy go‘zalligi, yoqimligigi yoki aksinchaligini ilmiy asosda tushuntirib berishi lozim. Natijada, yoshlarda o‘sha narsaga ijobiy va salbiy munosabat paydo qilinadi.

Rossiyalik olimlardan D.M. Tkacheva, L.M. Milaeva,G.V. Artaeva, A. A. Sharipova, N.Yu. Sergeeva, S. V Starikova kabilar dissertatsiya yozishgan. Ha artpedagogika go‘zal tuyg‘ularni yoshlar qalbiga singdiruvchi toza buloqdir. Bugun biz ta’lim-tarbiya jarayonlarida mazkur buloq iforlaridan yanada keng va o‘rinli va unumli foydalanishimiz lozim xolos.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimova B., Rajabov R., Abdurasulov S. Tasviriy san’atga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T. 1994.

2. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – T., 2019 yil. 34-bet

3. Бабанский Ю.К., Сластенин В.А. Сорокин Н. А. И др. Под ред. Педагогика. – М.: Просвещенение, 1988.

4. Баранов С.П. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Просвещенение, 1988.

5. www.artyx.ru, @marifatziyo, www.ares.uz .

6. Герман М.Ю. Модернизм. Искусство первой половины XX века. СПб ‘‘Азбука-классика’’ 2005 г. ISBN: 5-352-00314-0.

[4]Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. –T., 2019-yil. 34-bet

**Onaxon JABBOROVA,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsent, (PhD)

# BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASINI ZAMONAVIYLASHTIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya**

Maqolada “O‘zbekiston-2030” strategiyasida qo‘yilgan boshlang‘ich ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifalari ijrosi jarayonida boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangilanish mexanizmlarini tadqiq etish va uning asosiy mezonlarini belgilash dolzarb haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim metodikasining asosiy yangilanish mexanizmlari tahlil qilingan.

**Tayanch so‘zlar.** Boshlang‘ich ta’lim, metodika, yangilanish, mexanizmlar, xususiyatlar, sifat, samaradorlik, yondashuv, natija.

В статье рассматривается актуальность исследования механизмов обновления методики начального образования и определения ее основных критериев в процессе реализации задач по достижению качественных показателей в начальном образовании, поставленных в стратегии "Узбекистан-2030." Также проанализированы основные механизмы обновления методики начального образования.

**Ключевые слова.** Начальное образование, методология, обновление, механизмы, характеристики, качество, эффективность, подход, результат.

The article discusses the relevance of researching the mechanisms for updating primary education methodology and defining its main criteria in the process of implementing the tasks of achieving quality indicators in primary education set in the "Uzbekistan-2030" strategy. The main mechanisms for updating the methodology of primary education are also analyzed.

**Key words.** Primary education, methodology, renewal, mechanisms, characteristics, quality, effectiveness, approach, result.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi masalalari bo‘yicha mamlakatimizda keyingi 10 yil davomida o‘ziga xos yangilanishlar va yangicha mexanizmlar tarkib topish jarayoni kechdi. Bu jarayonda o‘ziga xos yangilanishlar va ularning mexanizmlari qisqa muddatda pedagogik tajriba-sinovlardan o‘tganligi muhim hodisadir. Shu jihatdan bu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim metodikasining asosiy yangilanish mexanizmlarini ta’kidlab o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’lim mazmunida yangilanish mexanizmlari. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan mamlakatimizda 2017-yilgacha boshlang‘ich ta’lim quyidagi vazifalarni bajarab keldi:

a) o‘quvchilarni yozish, o‘qish va hisob savodxonligiga o‘rgatish;

b) o‘quvchilarni ta’limning keyingi umumiy o‘rta ta’lim bosqichiga tayyorlash;

v) o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuksaltirib borish;

g) oliy ma’lumotli va professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari avlodini tayyorlash.

2023-yilda mazkur qonunning yangi tahriri qabul qilindi va unda boshlang‘ich ta’limning mazmuni quyidagi yangi vazifalar bilan boyitildi:

a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, Prezident maktablari va fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan ta’lim muassasalari turlariga tayyorlas
b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va layoqatlari asosida ularni individual ta’limga yo‘naltirish;

v) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga bo‘lib o‘qitish; g) boshlang‘ich ta’limda inklyuziv ta’limni kuchaytirish.

Boshlang‘ich ta’lim mazmunida bo‘lgan bunday yangilanish mexanizmlari uni o‘qitish asoslarini ham yangilashni taqazo etdi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim mazmuni chuqurlashdi va bu ta’lim bosqichiga nisbatan mamlakatda umumiy savodxonlikni tarkib toptirish vazifasi yuzaga keldi. Shu tariqa boshlang‘ich ta’lim mazmunida bo‘lgan yangilanishlar uning metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish jarayonini ham taqazo etdi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasida yangilanish mexanizmlari. Boshlang‘ich ta’lim mazmunidagi yangilanishlar uning o‘qitish asoslarida ham yangicha mexanizmlarni tarkib toptirishga omil bo‘ldi. Buning natijasida keyingi 10 yil davomida boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning quyidagi yangi mexanizmlari amaliyotga joriy etildi:

a) boshlang‘ich ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan turli va rang-barang innovatsion texnologiyalar joriy etildi;

b) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining layoqati va qiziqishlariga ko‘ra ularni fanlar turkumlari bo‘yicha guruhlashtirib o‘qitish jarayoniga o‘tildi;

v) boshlang‘ich ta’limda qo‘shimcha ta’lim dasturlari va individual ta’lim shakllari keng qo‘llanila boshlandi;

g) oliy pedagogik ta’lim yo‘nalishida o‘qishning 4+2 shakli amalga kiritilib, unda bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bevosita amaliyot bilan bog‘liq holda tayyorlash tizimi tashkil etildi;

d) boshlang‘ich ta’lim didaktikasida individual yondashuvlarning ustuvorligi shakllandi;

e) amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga professional toifa berish tizimi joriy etildi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi bunday yangilanish mexanizmlari boshlang‘ich ta’lim va oliy boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qitishning onlayn va oflayn shakllaridan uyg‘un foydalanishni shakllantirdi. Shu tariqa mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim didaktikasida yangilanish mexanizmlari tezkor ro‘y berdi.

Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi bunday yangilanish mexanizmlari batafsil ilmiy tadqiqotlar asosida yetarli darajada baholanmadi. Buning natijasida boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi har qanday yangilanish jarayonlari samarali vositalar sifatida qabul qilina boshlandi. Bunda ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha turli metodikalarning joriy etilganligi va ularning rang-barangligi boshlang‘ich ta’lim didaktikasidagi yangilanish mexanizmlarini chuqur tahlil etishni taqozo etmoqda. Buning natijasida mavjud muammolarning yechimini topish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasidagi yangilanish mexanizmlari. Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasida o‘ziga xos yangi mexanizmlar tarkib topdi. Bu mexanizmlar boshlang‘ich ta’lim mazmuni va uning didaktikasidagi yangilanishlar hosilasi hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim metodologiyasida shakllangan quyidagi yangilanish mexanizmlarini alohida eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) boshlang‘ich ta’lim jarayoniga yangi hodisa – TIMSS, PISA va STEAM kabi xalqaro baholash dasturlari talablarini joriy etila boshlandi;

b) boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturlari ana shunday xalqaro baholash dasturlariga moslashtirildi va gumanitar fanlarning an’anaviy o‘qitish modellari saqlab qolindi;

v) boshlang‘ich ta’limning innovatsion texnologiyalari bo‘yicha bir qator pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy tadqiqotlari yaratildi va ularda tadqiqotchilarning rang-barang nazariy-metodik yondashuvlari taqdim etildi;

g) oliy ma'lumotli va professional boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning hududlar kesimi bo'yicha ta'minoti yangi tizimi tarkib topdi;

d) Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini shakllantirish va ularning "Innovatsion ta'lim pedagogik klasteri" kabi yangi metodikalar bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni yo'lga qo'yildi.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'lim metodologiyasida keskin va qizg'in yangilanishlar jarayoni bo'lganligini ko'rsatadi. Lekin bu masalalar maxsus pedagogik tadqiqotlar vositasida tahlil qilinib, ularning yutuqlari va kamchiliklari ko'rsatib berilmadi. Shu tariqa boshlang'ich ta'lim mazmuni, uning didaktikasi va metodologiyasida bo'lgan yangilanish mexanizmlari mazkur masalalarda yaxlit tadqiqotni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu masala bo'yicha biz tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotda quyidagi masalalar tahlil qilinganligi va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish jarayoni kechayotganligini eslatib o'tish joiz:

– boshlang'ich ta'lim metodikasining yangilanish mexanizmlari nazariy masalalarini o'rganish va umumlashtirish;

– boshlang'ich ta'lim metodikasida didaktik yangilanishning maqbul shakllarini aniqlash va ulardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– boshlang'ich ta'lim metodologiyasidagi yangilanish mexanizmlarini boshlang'ich ta'lim davlat standartlari va talablariga asosida saralash, ularning eng samaradorlik yo'nalishlarini amaliyot uchun taqdim etish;

– boshlang'ich ta'lim jarayoniga kiritilgan yangi texnologiya, tarbiya va oliy boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, boshlang'ich ta'limda tarbiya fani, texnologiya, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar o'quv fanlarining metodik mexanizmlarini tadqiq etish va uyg'unlashtirish;

– boshlang'ich ta'lim metodikasining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasidagi yangilanish mexanizmlarini umumlashtirish, ularning yutuqlarini belgilash va u asosda boshlang'ich ta'limning sifat samaradorligiga erishish vositalariga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasidagi yangilanish mexanizmlarini nazariy-metodik jihatdan tadqiq etish va uning vositasida bunday yangi omillardan foydalanish vositalarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Bu ta'lim tizimida va uning boshlang'ich ta'lim bosqichida sifat ko'rsatkichlariga erishishning o'ziga xos omillaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – T., 2023

2. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2024

3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.ziyonet.uz

4. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga tayyorlashning zamonaviy metodikasi. – T., 2024

**Bekmuhammad RUSTAMBEKOV,**
“Qo‘qon universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, Andijon filiali,
“Klinik fanlar” kafedrasi, assistent

# TA’LIM JARAYONIDA “SWOT” TAHLIL (Kuchli tomonlar; Zaif tomonlar; Imkoniyatlar; Tahdidlar) METODINI QO‘LLASH AFZALLIKLARI

**Annotatsiya**

Maqolada SWOT-tahlil qiyosiy va ko‘p omilli tahlil, so‘rovnomalar kabi vositalar bilan birgalikda qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, SWOT-tahlil boshqa tahlil usullari bilan birga qo‘llanilgan, bu esa yanada chuqur va aniq natijalarga erishish imkonini berishi va bu yondashuv tashkilotning xavflarni kamaytirish va imkoniyatlari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** SWOT tahlili, ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash, SWOT matritsasi, ta’lim dasturlar, strategik qarorlar.

В статье рассматривается использование SWOT-анализа в сочетании с такими инструментами, как сравнительный и многофакторный анализ, опросы. Также SWOT-анализ использовался в сочетании с другими методами анализа, что позволяет достичь более глубоких и точных результатов, и этот подход раскрывает возможности организации по снижению рисков.

**Ключевые слова.** SWOT-анализ, подготовка научно-педагогических кадров, SWOT-матрица, образовательныепрограммы, стратегические решения.

The article discusses the use of SWOT analysis in conjunction with tools such as comparative and multifactorial analysis and surveys. Additionally, SWOT analysis was used in conjunction with other analysis methods, which allows for more in-depth and accurate results, and this approach reveals the organization's risk reduction and capabilities.

**Key words.** SWOT analysis, training of scientific and pedagogical staff, SWOT matrix, educational programs, strategic decisions.

Hozirgi kunda SWOT-tahlili iqtisodiyot va boshqaruvning turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodika tadqiqotlar o‘tkazish va rivojlanishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, [2]-chi ishda Sevastopol davlat universitetiga qarashli Iqtisodiyot Instituti SWOT-tahlili yordamida o‘zining hozirgi holati baholandi va institutning rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan. Bu metodika institutning umumiy strategiyasini belgilashga yordam beradi hamda bozor sharoitidagi imkoniyatlarni o‘rganib chiqishga zamin yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, institutning kuchli tomonlari sifatida yuqori malakali o‘qituvchilar, rivojlangan moddiy-texnika bazasi, ta’lim jarayoniga mo‘ljallangan axborot resurslarining yetarli darajada ta’minlanganligi, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish imkoniyati, shuningdek, arzon narx va ijobiy imidj kabi jihatlar ajralib turadi[1].

Quyidagi matnda universitetning strategik tahlili haqida so‘z boradi. Strategik tahlil – bu universitet o‘zining ichki resurslari va imkoniyatlarini tashqi muhit (ya’ni universitet faoliyat yuritayotgan muhitdagi talab va sharoitlar) bilan solishtirib, real baholash usulidir. Ko‘pincha bunday tahlilni amalga oshirish uchun SWOT-analiz

[1] Харламова Ю.О.,Щеголева С.А.,Шкарина Т.Ю. SWOT-анализ, как инструмент анализа подготовки научно-педагогических кадров с целью формирования стратегии улучшения// Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2021,С- 117.

qo‘llaniladi. SWOT-analiz orqali universitetning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tashqi muhitdagi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanadi. Bu esa universitetning strategik istiqbollari bor-yo‘qligini va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilashga yordam beradi. Shuningdek, ichki tahlil doirasida universitetning resurslari va texnologiyalarining noyobligi, menejmentning asosiy elementlari, korporativ madaniyati va qayta tashkil etishga tayyorligi ham hisobga olinishi zarur. SWOT-analiz jadvali esa, muhit va universitetning strategik xususiyatlarini tuzilma jihatdan ko‘rsatishda qulay vosita sifatida xizmat qiladi.Matnda shuningdek, ta’lim sohasida SWOT-analizdan foydalanish yangi emasligi ta’kidlanadi. Masalan, [5]-chi ishda universitet o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati bo‘yicha SWOT-analiz misoli keltirilgan, bunda muhit omillari aniqlangan. Biroq, aniqlangan omillar va universitetning keyingi faoliyat yo‘nalishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash qiyin. Xitoy universitetlari misolida ([6]-chi ish) SWOT-analizi orqali ularning kuchli va zaif tomonlari namoyish etilgan va davlatning oliy ta’lim siyosati haqqoniy ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, [2]-chi ishda omillar o‘zaro ta’siri va strategiyalarning ularga bog‘liqligini baholash uchun aniq mexanizmlar keltirilmagan[2].

SWOT tahlili – bu tashkilot yoki institutning ichki (kuchli va zaif tomonlari) va tashqi (imkoniyatlar va tahdidlar) omillarini aniqlash va baholash vositasi hisoblanadi. Adabiyotlarda bu metodologiya strategik rejalashtirish va boshqaruvning asosiy asbobi sifatida keng yoritilgan. Afzalliklari:  Strukturalangan yondashuv: SWOT tahlili omillarni to‘rt asosiy guruhga (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) bo‘lish orqali tahlilni tizimli qilish imkonini beradi, qulaylik va sodda tushunilishi: tahlil natijalari tezda ko‘zga tashlanadi va qaror qabul qilish jarayonida foydalanish oson. Keng qo‘llanilishi: Biznes, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilganligi adabiyotlarda qayd etilgan. Subyektivlik: Tahlil jarayonida ekspertlar fikrlari va taxminlarga katta e’tibor berilishi sababli, natijalar shaxsiy qarashlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.Statik xarakter: Tashqi muhitdagi omillar doimiy o‘zgarib turishi sababli, SWOT tahlili natijalari vaqt o‘tishi bilan eskirishi mumkin.

O‘zaro bog‘liqlik masalasi: Ichki va tashqi omillar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar to‘liq aks etilmasligi ba’zi adabiyotlarda tanqid qilinadi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SWOT tahlili nafaqat strategik rejalashtirishda, balki ta’lim sohasida ham o‘zining qo‘llanilish imkoniyatini namoyish etadi. Masalan, universitetlar va ilmiy markazlarda ichki resurslar, menejment tizimi, korporativ madaniyat va texnologik salohiyatni baholashda SWOT tahlili keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, adabiyotlarda omillar o‘rtasidagi ta’sir va ularning o‘lchov metodlari masalalari ham muhokama qilinadi. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, SWOT tahlili strategik boshqaruv va rejalashtirish jarayonida samarali vosita sifatida tan olinadi. Biroq, uning natijalarini yanada aniqlashtirish uchun qo‘shimcha metodlar (ko‘p omilli tahlil, so‘rovnomalar va boshqalar) bilan birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi. Shunday qilib, SWOT tahlili – bu nafaqat imkoniyatlarni aniqlash vositasi, balki tashkilotning kelgusidagi strategik yo‘nalishlarini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tahlil SWOT metodologiyasining afzalliklari, cheklovlari va uning ilmiy-amaliy qo‘llanilishi to‘g‘risida adabiyotlarda keng yoritilgan fikrlarni aks ettiradi[3].

SWOT tahlili – bu tashkilotning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish vositasi bo‘lib,

[2] Zaharova A. (2008). AvtomatisaziyaSWOT-analizaorganizazii s primeneniemnechetkihmnojestv [Automation of SWOT analysis of the organization with the use of fuzzymodels]. Mashinosytroenie, no. 3, pp. 29-34. (in Russian)

[3] Харламова Ю.О., Щеголева С.А., Шкарина Т.Ю. SWOT-анализ, как инструмент анализа подготовки научно-педагогических кадров с целью формирования стратегии улучшения// Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2021,С- 117.

uning natijalari strategik rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin tutadi. Tashkilotning ichki afzalliklari, masalan, yuqori malakali kadrlar, kuchli brend, rivojlangan texnologik baza, samarali jarayonlar va boshqalar. Bu tomonlar tashkilotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Ichki kamchiliklar yoki rivojlanishi zarur bo‘lgan sohalar, masalan, moliyaviy resurslarning cheklanishi, samaradorlikning pastligi, boshqaruvdagi noaniqlik yoki yetarli tajriba yo‘qligi kabi jihatlar. Tashqi muhitda mavjud bo‘lgan foydali sharoitlar, yangi bozorlar, texnologik yangiliklar, strategik hamkorliklar va boshqa ijobiy omillar, tashkilotning o‘sishi va rivojlanishiga turtki beradi.Tashqi muhitdagi salbiy omillar, masalan, kuchaygan raqobat, iqtisodiy beqarorlik, qonunchilikdagi o‘zgarishlar yoki boshqa tashqi muammolar, tashkilotning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

SWOT tahlili natijalari quyidagicha foydalaniladi:

• stratejik rejalashtirish: SWOT tahlili natijalari asosida tashkilot o‘zining kuchli tomonlarini yanada rivojlantirish, zaif tomonlarini bartaraf etish, imkoniyatlardan foydalanish va tahdidlarga qarshi chora-tadbirlar belgilash imkoniga ega bo‘ladi;

• resurslarni samarali boshqarish: Ichki resurslar va imkoniyatlarni to‘g‘ri taqsimlash orqali tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish;

• qaror qabul qilish: SWOT tahlili asosida olingan natijalar menejerlarga va rahbarlarga aniq va asosli strategiyalar ishlab chiqishda yordam beradi;

• rivojlanish istiqbollari: Tashkilot o‘zining tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini chuqur o‘rganib, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar va tahdidlarga tayyorlanishi mumkin;

SWOT tahlili tashkilotning ichki va tashqi omillarini birgalikda ko‘rib chiqish orqali strategik istiqbollarini aniqlash, rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim ahamiyatga ega vositadir[4].

Xulosa qilib aytganda, SWOT tahlili – bu nafaqat imkoniyatlarni aniqlash vositasi, balki tashkilotning kelgusidagi strategik yo‘nalishlarini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi.Ushbu tahlil SWOT metodologiyasining afzalliklari, cheklovlari va uning ilmiy-amaliy qo‘llanilishi to‘g‘risida adabiyotlarda keng yoritilgan fikrlarni aks ettiradi. SWOT tahlili tashkilotning ichki va tashqi omillarini birgalikda ko‘rib chiqish orqali strategik istiqbollarini aniqlash, rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda muhim ahamiyatga ega vositadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Харламова Ю.О., Щеголева С.А., Шкарина Т.Ю. SWOT-анализ, как инструмент анализа подготовки научно-педагогических кадров с целью формирования стратегии улучшения// Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2021,С- 117.

2. Zaharova A. (2008). AvtomatisaziyaSWOT-analizaorganizazii s primeneniemnechetkihmnojestv [Automation of SWOT analysis of the organization with the use of fuzzymodels]. Mashinosytroenie, no. 3, pp. 29-34. (in Russian)

3. Малошонок Н.Г., Терентьев Е.А. На пути к новой модели аспирантуры: опыт совершенствования аспирантских программ в российских вузах // Вопросы образования. 2019. № 3. С. 8-42.

[4] Бабак В.Ф., Омуралиев У.К., Касымалиева А.Т. SWOT-анализ деятельности Кыргызско-Германского технического факультета КГТУ им. И.Раззакова // VIII Международные Байконуровские чтения. Многопрофильный университет. – ЖЕЗУ, 2008. Книга первая. С.23-29.

**Maftuna SHAMSIYEVA,**
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, magistrant

# O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA INNOVATSION LOYIHALARGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekistonda startap ekotizimining rivojlanish holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion loyihalar uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mavjud imkoniyatlar, davlat siyosati va xususiy sektor ishtiroki muhokama etilgan. Ilmiy-tahliliy asosda xalqaro tajriba ham o'rganilib, O'zbekiston sharoitiga mos takliflar berilgan.

**Tayanch so'zlar.** Startap ekotizimi, innovatsion loyiha, investitsiya, texnologik rivojlanish, raqamli iqtisodiyot.

В статье анализируется состояние развития стартап-экосистемы в Узбекистане, существующие проблемы и пути их решения. Также были обсуждены имеющиеся возможности, государственная политика и участие частного сектора в привлечении местных и иностранных инвестиций для инновационных проектов. На научно-аналитической основе был изучен международный опыт и даны предложения, соответствующие условиям Узбекистана.

**Ключевые слова.** Стартап-экосистема, инновационный проект, инвестиции, технологическое развитие, цифровая экономика.

TThe article analyzes the state of development of the startup ecosystem in Uzbekistan, existing problems and ways to eliminate them. Existing opportunities for attracting local and foreign investment for innovative projects, state policy, and private sector participation were also discussed. International experience was also studied on a scientific and analytical basis, and proposals adapted to the conditions of Uzbekistan were made.

**Key words.** Startup ecosystem, innovative project, investment, technological development, digital economy.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. Mazkur yondashuv iqtisodiy islohotlar, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va startap ekotizimlarini shakllantirish orqali ifodalanmoqda. Startaplar zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat iqtisodiy o'sish drayveri, balki texnologik taraqqiyotning asosi sifatida ham maydonga chiqmoqda. Biroq, bu jarayon hali ham tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Startap ekotizimi deganda, yangi innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish, tijoratlashtirish hamda keng miqyosda joriy etish uchun zarur bo'lgan institutlar, infratuzilmalar, tarmoq aloqalari, regulyatorlar va resurslar majmuasi tushuniladi. Ekotizim quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi: startaplar, inkubatsiya va akseleratsiya markazlari, venchur kapital fondlari, bilim va texnologiya uzatish markazlari, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari, hukumat va regulyator tashkilotlar, hamda biznes farishtalari. Har bir element o'zaro uzviy bog'liq

bo‘lib, ekotizimni barqaror va innovatsion muhitda faol ishlashini ta’minlaydi.

O‘zbekiston hukumati 2018-yildan boshlab raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosatini izchil yo‘lga qo‘ydi. ‘‘InnoWeek’’, IT-Park, ‘‘Startup Factory’’ kabi tashabbuslar ekotizimni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Startap loyihalarni moliyalashtirish uchun innovatsion grantlar ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Investitsiyalarni jalb qilishda ko‘p darajali moliyalashtirish strategiyasi muhim o‘rin tutadi. Bunga boshlang‘ich bosqichdagi mablag‘lar (pre-seed va seed bosqichlari), keyingi bosqichdagi venchur kapital, xususiy investitsiyalar, kraudfanding platformalari, davlat grantlari va xalqaro donorlar mablag‘lari kiradi.

O‘zbekistonda startaplar uchun investitsiya muhiti asta-sekin shakllanib bormoqda, biroq yuridik asoslar, investorlar huquqlarining kafolatlanishi, chiqarilgan aksiyalarning likvidligi va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kafolatlar hali yetarli emas. Shu boisdan, kompleks qonunchilik bazasini ishlab chiqish va investorlar uchun qulay ekotizim yaratish zarur.

Isroil, Estoniya, Singapur tajribalari asosida O‘zbekiston startaplariga soliq yengilliklari, maxsus texnologik zonalar va eksportga yo‘naltirilgan ekotizimlar tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, yirik kompaniyalar tomonidan startaplarni mentorlik asosida qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etilishi lozim.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli startap ekotizimlarini shakllantirishda har bir davlat o‘ziga xos strategiyalar, institutlar va qonunchilik yondashuvlarini qo‘llaydi. Quyida ayrim yetakchi davlatlar tajribasi yoritiladi:

AQSh – Silikon vodiysi modeli.

Silikon vodiysi (California, AQSh) butun dunyoga mashhur startap markazi hisoblanadi. Bu yerda muvaffaqiyatning kaliti – xususiy sektor, oliy ta’lim muassasalari va hukumat o‘rtasidagi kuchli hamkorlikdir. AQSh hukumati 1980-yillarda “Bayh-Dole Act” qonunini qabul qilib, universitetlarga tadqiqotlar natijasida yaratilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish huquqini berdi. Natijada, Stenford va Berkli kabi universitetlar startaplar bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Shuningdek, Y Combinator, Techstars kabi akseleratorlar minglab startaplarni muvaffaqiyatli bozorga olib chiqqan.

Isroil – “Startap millati” modeli.

Isroil har yili 1000 dan ortiq yangi startaplarni ro‘yxatdan o‘tkazadi. Bu muvaffaqiyatga erishishda BIRD (Binational Industrial R&D Foundation), Yozma fondi (Yozma Program), OCS (Office of the Chief Scientist) kabi hukumat tashabbuslari muhim rol o‘ynadi. Isroil hukumati 1993-yilda Yozma dasturini ishga tushirib, venchur kapitalni rivojlantirish uchun davlat tomonidan boshlang‘ich investitsiyalar kiritdi, so‘ngra bu fondlarni xususiy sektorga sotdi. Bu model butun dunyoga namuna sifatida qaraladi.

Janubiy Koreya – davlat-xususiy hamkorlik asosida akseleratsiya modeli.

“Creative Economy” tashabbusi asosida 17 ta startap markazi ochildi. Bu markazlarda startaplar Samsung, LG kabi kompaniyalar bilan bevosita hamkorlikda ishlab chiqiladi. Hukumat Grant dasturlari (TIPS Program), Koreya Innovatsion Markazi (K-ICT Born2Global Centre) orqali investitsiyalar jalb qilmoqda. Bundan tashqari, 1 milliard dollarlik davlat venchur fondi tashkil qilingan.

Hindiston – “Startup India” milliy strategiyasi. 2016-yilda boshlangan “Startup India” dasturi 50 000 dan ortiq startapni qo‘llab-quvvatladi. Hukumat “Fund of Funds” orqali 10 yil ichida 1,3 milliard dollar ajratishni rejalashtirgan. Dastur doirasida soliqlarni 3 yilga nolga tushirish, intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlarini 80 foizga kamaytirish, va startaplar uchun mustaqil arbitraj tizimini joriy etish kabi choralar ko‘rildi.

Estoniya – raqamli startap ekotizimi.

Estoniya “e-Residency” (elektron rezidentlik) dasturini ishga tushirib, dunyo bo‘yicha 100 000 dan ortiq xorijlik tadbirkorni elektron tarzda o‘z hududida ro‘yxatdan o‘tkazdi. Shu bilan birga, hukumat butun startap jarayonini – ro‘yxatdan o‘tish, soliq to‘lash, bank hisobi ochish va intellektual mulk himoyasini onlayn platformalar orqali soddalashtirdi.

Yutuqlar qatoriga IT-Park faoliyati, inkubatsiya markazlari tashkil etilishi, yoshlar startap g‘oyalarining ko‘payishi kiradi. Biroq, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, venchur kapital bozorining yetarlicha rivojlanmagani, bilim va ko‘nikmalarning pastligi asosiy muammolardandir.

O‘zbekistonda startap ekotizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

Startap ekotizimi va innovatsion loyihalarga investitsiya jalb qilish – zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston bugungi kunda ushbu yo‘nalishda dastlabki bosqichda turgan bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlar va global tajriba shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri yondashuv va tizimli islohotlar orqali milliy innovatsion infratuzilmani shakllantirish mumkin.

Xalqaro tajriba (AQSh, Isroil, Janubiy Koreya, Hindiston, Estoniya) shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli startap ekotizimini yaratish uchun quyidagi omillar muhim:

• Davlat siyosati va qonunchilik bazasining aniqligi. Masalan, Isroil va Hindiston hukumatlari startaplar uchun soliq yengilliklari, grantlar, hamda intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqqan.

• Venchur kapital va investitsiya muhitining rivojlanganligi. AQShda Y Combinator va boshqa fondlar minglab startapni muvaffaqiyatli bozorga olib chiqqan. O‘zbekistonda ham shunday maxsus fondlar tashkil etilishi dolzarb.

• Universitetlar va ilmiy muassasalar bilan integratsiya. Stenford universiteti Silikon vodiysining yuragi bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham OTMlar startaplar uchun inkubatsiya markaziga aylanishi kerak.

• Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish. Janubiy Koreya va Estoniya tajribasi asosida yoshlar orasida “fail fast, learn faster” prinsipiga asoslangan muhit yaratish zarur. Milliy startap strategiyasini ishlab chiqish. Shu o’rinda vazirliklar, IT Park, Innovatsion rivojlanish vazirligi va xususiy sektor bilan birga O‘zbekiston startap ekotizimining 2030-yilgacha bo‘lgan yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi .

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi PQ–116-sonli qarori.

2. World Bank. (2023). Startup Ecosystems in Emerging Economies.

3. Global Startup Ecosystem Report (GSER), 2022.

4. KPMG Uzbekistan. (2023). Innovation and Digital Transformation in Uzbekistan.

5. Forbes. (2024). Investing in Emerging Startups: Global Trends.

6. UNCTAD. (2022). Science, Technology and Innovation Policy Review: Uzbekistan.

**Muxlisbek TURG'UNTOSHEV,**
Andijon davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

# MILLIY HARAKATLI O'YINLARNI JISMONIY TARBIYA JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH

**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonidagi milliy harakatli o'yinlarning o'rni, ularni jismoniy tarbiya dasturlariga samarali tatbiq etish mexanizmlari va bu orqali erishiladigan natijalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, milliy harakatli o'yinlarning jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiyasi talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va ruhiy-emotsional holati yaxshilash imkonini berishi aniqlangan.

**Tayanch so'zlar.** Milliy harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, integratsiya, oliy ta'lim, bo'lajak tarbiyachilar, jismoniy sifatlar, etnopedagogika.

В статье анализируется роль национальных подвижных игр в процессе подготовки будущих воспитателей в высших учебных заведениях Узбекистана, механизмы их эффективного внедрения в программы физического воспитания и достигаемые результаты. Кроме того, установлено, что интеграция национальных подвижных игр в процесс физического воспитания позволяет развивать физические качества студентов, сохранять национальные ценности и улучшать их психоэмоциональное состояние.

**Ключевые слова.** Национальные подвижные игры, физическая культура, интеграция, высшее образование, будущие воспитатели, физические качества, этнопедагогика.

The article analyzes the role of national active games in the process of training future educators in higher educational institutions of Uzbekistan, the mechanisms for their effective implementation in physical education programs, and the results achieved through this. In addition, it has been established that the integration of national outdoor games into the physical education process contributes to the development of students' physical qualities, the preservation of national values, and the improvement of their psycho-emotional state.

**Key words.** National active games, physical education, integration, higher education, future educators, physical qualities, ethnopedagogy.

Zamonaviy ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va an'analarga asoslangan pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, ayniqsa, milliy harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish, balki milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish vositasi ham bo'lib xizmat qiladi.

Milliy harakatli o'yinlar har bir xalqning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali avlodlar tajribasi va qadriyatlari uzatiladi. F.Xo'jayev ta'kidlaganidek, "milliy harakatli o'yinlar nafaqat jismoniy takomillashtirish vositasi, balki etnopedagogik tarbiya usuli hamdir"[1]. Shuningdek, Usmonova milliy harakatli o'yinlarni "jismoniy tarbiyaning

[1] Xo'jayev F. (2019). O'zbek milliy harakatli o'yinlari: tarixiy va pedagogik tahlil. – T.: O'qituvchi.

eng tabiiy va samarali vositalaridan biri" deb hisoblaydi[2].

Bugungi kunda O‘zbekistonda bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash tizimida milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "Milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimini yaratish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir"[3] deb ta'kidlagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotimiz quyidagi tadqiqot savollariga javob berishga qaratilgan:

Milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari qanday?

Milliy harakatli o‘yinlarning bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi o‘rni qanday?

Milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun qanday pedagogik shart-sharoitlar zarur?

Bu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya dasturlariga integratsiya qilish orqali talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot aralash metodologiya asosida o‘tkazildi, ya'ni ham miqdoriy, ham sifat tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari o‘rganildi; ikkinchi bosqichda esa tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, milliy harakatli o‘yinlarning bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqotda O‘zbekistonning uchta oliy ta'lim muassasasi (Toshkent davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti) ning Maktabgacha ta'lim fakulteti talabalari ishtirok etdi. Jami 240 nafar 1-4-kurs talabalari (168 qiz, 72 o‘g‘il), o‘rtacha yoshi 20.3±1.7 ni tashkil etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida tajriba (n=120) va nazorat (n=120) guruhlariga bo‘lindi.

Tadqiqotda quyidagi ma'lumot to‘plash vositalaridan foydalanildi:

Jismoniy sifatlarni baholash testlari: Talabalarning jismoniy sifatlari – kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik va chidamlilikni baholash uchun standartlashtirilgan testlar (30 metrga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, gimnastika tayoqchasini ushlab egilish, 3 daqiqa davomida arg‘amchida sakrash, qo‘llarni bukib yozish).

So‘rovnoma: Talabalarning milliy harakatli o‘yinlarga va ularda ishtirok etishga bo‘lgan munosabatini o‘rganish uchun 15 ta savoldan iborat so‘rovnoma ishlab chiqildi.

Intervyu: O‘qituvchilar va mutaxassislar bilan milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha yarim-strukturalashtirilgan intervyular o‘tkazildi.

Kuzatuv: Jismoniy tarbiya darslarida talabalarning milliy harakatli o‘yinlarda ishtirok etish jarayonlari kuzatildi.

Tadqiqot 2022-2023-o‘quv yili davomida o‘tkazildi. Tajriba guruhi uchun maxsus dastur ishlab chiqildi. Bu dasturda an'anaviy jismoniy tarbiya dasturiga qo‘shimcha

[2] Usmonova, Z. (2020). Etnopedagogik yondashuv asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish. Xalq ta'limi, 2(5), 75-82.

[3] Mirziyoyev Sh.M. (2021). Ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar. –T.: O‘zbekiston.

ravishda har hafta 2 soat milliy harakatli o‘yinlar (kurash elementlari, “oq terak-ko‘k terak”, “chillak”, “arg‘amchida sakrash”, “belbog‘li kurash”, “chavandozlik” va boshqalar) bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy jismoniy tarbiya dasturi asosida ta’lim oldi.

Tajriba boshlanishidan oldin va tugaganidan so‘ng talabalarning jismoniy sifatlari maxsus testlar yordamida baholandi. Shuningdek, tajriba so‘ngida talabalar va o‘qituvchilar orasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkazildi.

Miqdoriy ma’lumotlar SPSS 25.0 statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun T-test va ANOVA testlari qo‘llanildi. Sifat ma’lumotlari esa tematik tahlil usuli orqali o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari milliy harakatli o‘yinlar bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini aniqladi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan jismoniy sifatlarning rivojlanishida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Jadval 1. Tajriba va nazorat guruhlarida jismoniy sifatlarning o‘zgarishi (o‘rtacha ± standart og‘ish)

| **Jismoniy sifat** | **Test** | **Tajriba guruhi** | | | **Nazorat guruhi** | | | **p-qiymat** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Oldin | Keyin | O‘zgarish % | Oldin | Keyin | O‘zgarish % | |
| Tezkorlik | 30 m yugurish (sek) | 5.36±0.42 | 4.89±0.38 | 8.8% | 5.38±0.44 | 5.21±0.41 | 3.2% | <0.01 |
| Kuch | Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) | 167.5±12.4 | 182.3±13.1 | 8.8% | 168.1±12.8 | 173.4±12.5 | 3.2% | <0.01 |
| Egiluvchanlik | Gimnastika tayoqchasini ushlab egilish (sm) | 6.8±2.3 | 9.6±2.5 | 41.2% | 6.7±2.2 | 7.4±2.3 | 10.4% | <0.01 |
| Chidamlilik | 3 daq. arg‘amchida sakrash (marta) | 156.2±24.3 | 193.7±25.6 | 24.0% | 157.4±25.1 | 168.5±26.2 | 7.1% | <0.01 |
| Kuch | Qo‘llarni bukib-yozish (marta) | 16.8±5.3 | 22.4±5.7 | 33.3% | 16.5±5.4 | 18.3±5.5 | 10.9% | <0.01 |

Jadval 1 dan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha jismoniy sifatlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilgan. Ayniqsa, egiluvchanlik (41.2%) va kuch (qo‘llarni bukib-yozish – 33.3%) ko‘rsatkichlarida katta o‘zgarishlar qayd etilgan. Bu natijalar milliy harakatli o‘yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishda samarali ekanligi to‘g‘risidagi ilmiy farazni tasdiqlaydi.

Saidov va Hasanova (2021) ta’kidlaganidek, “milliy harakatli o‘yinlar turli jismoniy harakatlarni o‘z ichiga oladi va shu bois kompleks ta’sir ko‘rsatadi”[4]. Bizning tadqiqotimiz ham bu xulosani to‘liq tasdiqlaydi.

[4] Saidov I., & Hasanova, D. (2021). Milliy harakatli o‘yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ta’siri. Jismoniy tarbiya va sport, 4(2), 90-98.

Talabalarning milliy harakatli o‘yinlarga munosabati

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalarning 87 foiz milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga kiritilishini ijobiy baholagan. Talabalarning 76 foiz milliy harakatli o‘yinlarni qiziqarli va motivatsiyani oshiruvchi deb hisoblashgan, 82 foiz esa bunday o‘yinlar jismoniy sifatlarni rivojlantirishda samarali ekanligini ta’kidlashgan.

Qiziqarli tomoni shundaki, tajriba guruhidagi talabalarning 91 foiz milliy harakatli o‘yinlarni o‘rganish kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida foydali bo‘lishini ta’kidlashgan. Rahimova (2022) o‘z tadqiqotida ko‘rsatganidek, “bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlari bilgan va sevgan milliy o‘yinlarni o‘z tarbiyalanuvchilariga ham o‘rgatish ehtimoli yuqori”[5].

O‘qituvchilar va mutaxassislar bilan o‘tkazilgan intervyular natijalari milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning bir qator afzalliklarini ko‘rsatdi:

Milliy qadriyatlarni saqlash va uzatish: “Milliy harakatli o‘yinlar orqali talabalar nafaqat jismoniy faoliyatda qatnashadilar, balki milliy qadriyatlarimizni ham o‘rganadilar” (Intervyu №4, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi).

Motivatsiyani oshirish: “An’anaviy mashqlardan farqli o‘laroq, milliy o‘yinlar talabalarning qiziqishini ko‘proq jalb qiladi” (Intervyu №7, sport psixologi).

Kompleks rivojlantirish: “Kurash kabi milliy sport turlari kuch va chaqqonlikni bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi” (Intervyu №2, kurash bo‘yicha murabbiy).

Ijtimoiylashuv: “Jamoaviy milliy o‘yinlar talabalar o‘rtasida hamkorlik va do‘stona munosabatlarni rivojlantiradi” (Intervyu №9, pedagogika fanlari doktori).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun quyidagi mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlar zarur ekanligi aniqlandi:

Tizimli yondashuv: Milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya dasturiga tizimli ravishda, ta’lim maqsadlariga muvofiq kiritish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish: Milliy o‘yinlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan birlashtirib, innovatsion mashg‘ulot shakllarini yaratish.

O‘qituvchilarni tayyorlash: Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini milliy harakatli o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha maxsus tayyorlash.

Metodik ta’minot: Milliy harakatli o‘yinlarga oid metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallari yaratish.

Moslashtirish: Milliy harakatli o‘yinlarni zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga moslashtirish va modifikatsiya qilish.

Baholash tizimini yaratish: Milliy harakatli o‘yinlar orqali erishilgan natijalarni baholash mezonlari va instrumentlarini ishlab chiqish.

Toshpo‘latov (2020) ta’kidlaganidek, “milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishda eng muhimi bu jarayonning tizimli va maqsadli bo‘lishidir”[6].

Tadqiqot natijalari milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish talabalarning jismoniy sifatlarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Bu natijalar ilgari o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Masalan, Ahmedov va Rahimov (2019) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ham milliy harakatli o‘yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi tasdiqlangan.

Bizning tadqiqotimiz milliy harakatli o‘yinlarning, ayniqsa, egiluvchanlik va kuch sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu natija Yu-

[5] Rahimova, M. (2022). Bo‘lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o‘yinlarni o‘rgatish kompetensiyasini shakllantirish. Zamonaviy ta’lim, 5(3), 128-137.

[6] Toshpo‘latov R. (2020). Milliy harakatli o‘yinlar metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti

supova (2021) tadqiqoti bilan ham mos keladi, unda mualliflar “milliy harakatli o‘yinlar, ayniqsa, kurash elementlari kuch va egiluvchanlikni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega”[7] deb ta’kidlashgan .

Shuningdek, tadqiqot natijalari milliy harakatli o‘yinlarga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa Abdullayev (2020) tadqiqotiga mos keladi, unda “milliy o‘yinlar talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi”[8] degan xulosa chiqarilgan.

Tadqiqotimiz natijasida aniqlangan milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari ham ilmiy ahamiyatga ega. Salimov (2022) ta’kidlaganidek, “Milliy o‘yinlarni zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish uchun maxsus mexanizmlar zarur”[9]. Bizning tadqiqotimiz esa bu mexanizmlarni aniq belgilab berdi.

Biroq, tadqiqot natijalarida ba’zi cheklovlar ham mavjud. Birinchidan, tadqiqot faqat uchta oliy ta’lim muassasasida o‘tkazilgan, shu sababli natijalarni barcha oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Ikkinchidan, tajriba faqat bir o‘quv yili davomida o‘tkazilgan, uzoq muddatli natijalarni o‘rganish uchun longitudinal tadqiqotlar talab etiladi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlarni tavsiya etish mumkin:

Milliy harakatli o‘yinlarning talabalarning ruhiy holati va emotsional rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish.

Turli yosh guruhlarida milliy harakatli o‘yinlarning samaradorligini qiyosiy o‘rganish.

Milliy harakatli o‘yinlarni zamonaviy texnologiyalar (virtual reallik, augmented reallik) bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish.

Ushbu tadqiqot milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari milliy harakatli o‘yinlar bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy sifatlarini (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, egiluvchanlik va kuch sifatlarining rivojlanishida yuqori natijalar qayd etildi.

Shuningdek, milliy harakatli o‘yinlar talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishi, milliy qadriyatlarni saqlash va uzatishga xizmat qilishi, ijtimoiylashuv jarayonlarini faollashtirishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun tizimli yondashuv, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash, metodik ta’minot yaratish va milliy o‘yinlarni zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga moslashtirish kabi mexanizmlar zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash dasturlariga milliy harakatli o‘yinlar bo‘yicha maxsus kurslar kiritish.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun milliy harakatli o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Milliy harakatli o‘yinlar bo‘yicha zamonaviy metodik qo‘llanmalar va o‘quv materiallari yaratish.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy harakatli o‘yinlar bo‘yicha sport musobaqalari va

[7] Yusupova N. (2021). Kurash milliy sport turi elementlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rni. Sport nazariyasi va amaliyoti, 3(4), 108-116.

[8] Abdullayev A. (2020). Milliy harakatli o‘yinlarning talabalar jismoniy tarbiyasidagi o‘rni. Pedagogik mahorat, 3(2), 85-92.

[9] Salimov G. (2022). Milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalari. Ta’lim taraqqiyoti, 3(1), 52-60.

tadbirlarni muntazam ravishda o‘tkazish.

Milliy harakatli o‘yinlarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikalarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak tarbiyachilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, milliy qadriyatlarni saqlash va pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev A. (2020). Milliy harakatli o‘yinlarning talabalar jismoniy tarbiyasidagi o‘rni. Pedagogik mahorat, 3(2), 85-92.

2. Ahmedov F., & Rahimov, M. (2019). Milliy sport turlari va o‘yinlarining yoshlar jismoniy tarbiyasidagi ahamiyati. Sport va ta’lim, 2(4), 112-119.

3. Xo‘jayev F. (2019). O‘zbek milliy harakatli o‘yinlari: tarixiy va pedagogik tahlil. – T.: O‘qituvchi.

4. Mirziyoyev Sh.M. (2021). Ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar. – T.: O‘zbekiston.

5. Rahimova M. (2022). Bo‘lajak tarbiyachilarning milliy harakatli o‘yinlarni o‘rgatish kompetensiyasini shakllantirish. Zamonaviy ta’lim, 5(3), 128-137.

6. Saidov I., & Hasanova, D. (2021). Milliy harakatli o‘yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ta’siri. Jismoniy tarbiya va sport, 4(2), 90-98.

7. Salimov G. (2022). Milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalari. Ta’lim taraqqiyoti, 3(1), 52-60.

8. Toshpo‘latov R. (2020). Milliy harakatli o‘yinlar metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

9. Usmonova Z. (2020). Etnopedagogik yondashuv asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish. Xalq ta’limi, 2(5), 75-82.

10. Yusupova N. (2021). Kurash milliy sport turi elementlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rni. Sport nazariyasi va amaliyoti, 3(4), 108-116.

11. Alimov A., & Normatov, A. (2018). Milliy harakatli o‘yinlar va ularning pedagogik asoslari. – T.: Fan va texnologiya.

12. Bekmurodov N. (2019). Jismoniy tarbiya jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanish samaradorligi. Pedagogik ta’lim, 2(3), 45-52.

13. Jalolov G. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanish. Ta’lim menejmenti, 4(2), 67-74.

**Elbek OCHILOV,**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mudiri, dotsent (PhD)

# KURASH BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNING CHIDAMKORLIKLARINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada kurash bilan shug‘ullanuvchilarning chidamkorliklarini rivojlantirish usullari va uning musobaqalar va kundalik faoliyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, chidamkorlik, ya’ni jismoniy va ruhiy yuklamalarga qarshi turish va uzoq vaqt davomida yuqori darajada faoliyatni davom ettirish qobiliyati, kurashda muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, chidamkorlikni oshirishga yordam beradigan turli metodlar, shu jumladan, intervalli mashqlar, uzoq muddatli qarshilikka chidamlilik mashqlari va psixologik tayyorgarlik usullari ochib berilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Chidamkorlik, kurash, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, chidamkorlikni rivojlantirish, sport, trening usullari.

В статье анализируются методы развития выносливости борцов и ее роль в соревнованиях и повседневной деятельности. Также говорится о том, что выносливость, то есть способность противостоять физическим и психическим нагрузкам и продолжать деятельность на высоком уровне в течение длительного времени, имеет важное значение в борьбе. Кроме того, раскрыты различные методы, способствующие повышению выносливости, в том числе интервальные упражнения, упражнения на выносливость при длительном сопротивлении и методы психологической подготовки.

**Ключевые слова.** Выносливость, борьба, физическая подготовка, психологическая подготовка, развитие выносливости, спорт, методы тренировки.

The article analyzes the methods of developing the endurance of wrestlers and its role in competitions and daily activities. It is also considered that endurance, that is, the ability to withstand physical and mental loads and continue activities at a high level for a long time, is important in wrestling. In addition, various methods that contribute to increasing endurance, including interval exercises, long-term resistance exercises, and methods of psychological training, are revealed.

**Key words.** Endurance, wrestling, physical preparation, psychological training, developing endurance, sport, training methods.

Kurash – jismoniy va ruhiy jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab sport turi bo‘lib, unda sportchining chidamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Chidamkorlik – bu uzun vaqt davomida jismoniy va psixologik yuklamalarga qarshi turish va faoliyatni yuqori darajada davom ettirish qobiliyatidir. Kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchi nafaqat kuchli jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, balki chidamkorlikni oshirish ham juda muhimdir. Chidamkorlik sportchining musobaqa davomida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini oshiradi. Chidamkorlikni oshirishga qaratilgan metodlar, masalan, intervalli mashqlar, uzoq muddatli qarshilik mashqlari va psixologik tayyorgarlik usullari, keng aytib o‘tilgan. Bularning barchasi kurashchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Chidamkorlik, umumiy ravishda, jismoniy yoki ruhiy bosimga, ortiqcha yuklamalarga qarshi turish va uzoq davom etadigan faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchi faqat kuchli jismoniy tayyorgarlikni emas, balki uzoq davom etadigan janglarda ruhiy jihatdan chidamli bo‘lishi kerak.

Chidamkorlik, ayniqsa, uzoq davom etadigan janglarda, murakkab va yuqori intensivlikdagi kurashda, sportchining ko‘plab omillarga qarshi turish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu holat sportchining o‘zini ushlab turish, shuningdek, raqibni yengish uchun to‘g‘ri taktika va strategiyalarni qo‘llashga yordam beradi. Shuning uchun kurashchilarning chidamkorligini oshirish – ularning umumiy sportdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlash uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Chidamkorlikni oshirishda jismoniy tayyorgarlikning zarur komponentlari bilan bir qatorda, psixologik yondashuvlar ham ahamiyatlidir. Psixologik chidamkorlik, sportchining stressni boshqarish, qaror qabul qilish va o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun, kurashchilarni chidamkorlikka tayyorlash jarayonida, turli usullar va metodlarni qo‘llash orqali ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini yaxshilash mumkin.

Tadqiqotda kurashchilarning chidamkorligini oshirishda qo‘llaniladigan turli metodlar tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida eksperimental o‘rganish, so‘rovnomalar, treninglar va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Eksperimentlar davomida chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, shu jumladan, intervalli mashqlar va uzoq muddatli mashqlarni amalga oshirgan sportchilar kuzatildi. So‘rovnomalar orqali, murabbiylar va sportchilardan ularning chidamkorlikni oshirish uchun qaysi metodlarni qo‘llashganini bilib olishga harakat qilindi.

Kurashchilarning chidamkorligini rivojlantirish masalasi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Baxtiyorov (2017) o‘zining “Sportchilarda chidamkorlikni oshirish metodikasi” kitobida chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan turli usullarni keltiradi. Uning fikricha, kurashchilarda chidamkorlikni oshirishda aerobiya va anaerobik mashqlar kombinatsiyasi hamda intervalli treninglar muhim rol o‘ynaydi. G‘oziyev (2019) o‘z asarida “Kurashchilarda psixologik chidamkorlikni rivojlantirish” masalasini muhokama qilib, psixologik tayyorgarlikning sportchining jismoniy chidamkorligi bilan qanday bog‘liqligini tushuntiradi. Eshmuhammedov (2020) “Chidamkorlikni oshirishda metodik yondashuv” asarida chidamkorlikni oshirish uchun maxsus psixologik va jismoniy mashqlarni birlashtirishning zarurligini ta’kidlaydi.

Chidamkorlikni oshirish usullari:

Intervall mashqlari – bu usulda sportchilar qisqa vaqt ichida yuqori intensivlikdagi mashqlarni bajaradilar, so‘ngra qisqa dam olish va yana shunday intensiv mashqlar bajariladi. Intervall mashqlari kardio tizimni mustahkamlash va jismoniy chidamkorlikni oshirish uchun juda samarali. Kurashchilarni bu usulda mashq qilish orqali ular nafaqat jismoniy chidamkorlikni, balki tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradilar.

Uzun muddatli qarshilikka chidamlilik mashqlari – bunda sportchilar uzoq vaqt davomida kam intensivlikdagi mashqlarni bajaradilar. Bu usul yordamida sportchilar organizmning uzoq vaqt davomida jismoniy yuklamalarga chidamliligini oshiradilar. Shu bilan birga, ular musobaqalar davomida uzluksiz faoliyatni davom ettirishga tayyor bo‘ladilar.

Psixologik tayyorgarlik – kurashchilarning psixologik chidamkorligini oshirish, ularning stressga nisbatan reaksiyalarini boshqarish va musobaqalarda ruhiy barqarorlikni saqlashda yordam beradi. Psixologik tayyorgarlik orqali sportchi raqibning harakatlarini kutib, aniq va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Buning uchun maxsus psixologik mashqlar, masalan, tasavvur orqali o‘zgarishlar qilish, vizualizatsiya, va stressni ka-

maytirish texnikalari qo‘llaniladi.

Aerobik va anaerobik mashqlar kombinatsiyasi – kurashchilarda chidamkorlikni rivojlantirish uchun aerobik (yurish, yugurish, suzish) va anaerobik (kuchli mashqlar, sprint) treninglarni kombinatsiyalash juda samarali. Aerobik mashqlar yurak va tomir tizimini mustahkamlashga yordam beradi, anaerobik mashqlar esa mushaklarning chidamkorligini oshiradi.

Jismoniy moslashuv mashqlari – kurashchilarga murakkab texnikalarni bajarishdan oldin jismoniy moslashuv mashqlarini bajarish muhimdir. Ushbu mashqlar sportchilarga musobaqa davomida doimiy ravishda yuqori samarali ishlash imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kurashchilarning chidamkorligini oshirishda qo‘llanilgan intervalli treninglar, uzoq muddatli qarshilikka chidamli mashqlar va psixologik tayyorgarlik samarali natijalar berdi. Intervall mashqlar yordamida sportchilarning jismoniy chidamkorligi sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, sportchilarning psixologik chidamkorligini oshirish uchun qo‘llanilgan stressni boshqarish mashqlari va vizualizatsiya metodlari, ularning musobaqa davomida ruhiy barqarorligini saqlashga yordam berdi.

Tadqiqot davomida sportchilarning chidamkorlik darajalarini o‘lchash uchun maxsus testlar o‘tkazildi, va bu testlar natijalari, chidamkorlikni oshirish uchun qo‘llanilgan metodlarning samaradorligini tasdiqladi. Bular orasida aerobik va anaerobik mashqlarni kombinatsiyalash, stressni kamaytirish usullari, va jismoniy moslashuv mashqlari ayniqsa samarali deb topildi.

Shuningdek, chidamkorlikni oshirishda jismoniy va psixologik tayyorgarlikning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Jismoniy chidamkorlikni oshirish sportchining umumiy natijalariga ta’sir qilsa, psixologik chidamkorlik esa sportchining musobaqa vaqtida qaror qabul qilish va o‘zini boshqarish qobiliyatini yaxshilaydi.

Kurashchilarda chidamkorlikni oshirish, ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlash uchun zarurdir. Chidamkorlikni rivojlantirish uchun intervalli mashqlar, uzoq muddatli qarshilik mashqlari, psixologik tayyorgarlik va jismoniy moslashuv mashqlari samarali metodlardir. Ushbu metodlarni to‘g‘ri qo‘llash orqali kurashchilarning jismoniy va ruhiy chidamkorligi yaxshilanadi, bu esa musobaqalarda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Chidamkorlikni rivojlantirishda metodik yondashuvlar va o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion tarzda takomillashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Baxtiyorov A. (2017). Sportchilarda chidamkorlikni oshirish metodikasi. – T.: Ma’rifat.

2. G‘oziyev M. (2019). Kurashchilarda psixologik chidamkorlikni rivojlantirish. – Tashkent: Olimp.

3. Eshmuhammedov S. (2020). Chidamkorlikni oshirishda metodik yondashuv. – Tashkent: Sport press.

4. Aliyev R. (2018). Jismoniy tayyorgarlik va chidamkorlik. – Tashkent: Fizkultura.

5. Tursunov, M. (2021). Sportchilarni musobaqalarga tayyorlash va chidamkorlikni oshirish. – Tashkent: Sport nashriyoti.

**Naim TASHBAEV,**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi, katta o'qituvchi

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARI VA PEDAGOGLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar, takomillashtirish yo'llari hamda amaliy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Muallif mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, tahlil va baholash, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirishi va kasbiy faolligi orqali ta'lim sifatiga erishishning ustuvor jihatlarini yoritgan.

**Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim, pedagog, rahbar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, ta'lim sifati.

В статье анализируются научно-теоретические взгляды, пути совершенствования и практические направления непрерывного профессионального развития руководителей и педагогов дошкольных образовательных организаций. Автором освещены приоритетные аспекты формирования, анализа и оценки профессиональной компетентности специалистов, использования современных образовательных технологий, достижения качества образования посредством саморазвития и профессиональной активности педагогов.

**Ключевые слова.** Дошкольное образование, педагог, руководитель, непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, качество образования.

The article analyzes scientific and theoretical views on the continuous professional development of heads and teachers of preschool educational organizations, ways to improve it, and practical directions. The author highlights the priority aspects of achieving the quality of education through the formation, analysis, and assessment of the professional competence of specialists, the use of modern educational technologies, self-development, and professional activity of teachers.

**Key words.** Preschool education, teacher, leader, continuous professional development, professional development, quality of education.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarining kasbiy mahorati va bilim darajasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-sentabrdagi PF-5812-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning malakasini muntazam oshirish vazifasi belgilab qo'yilgan.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish pedagoglarning yangi ta'lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Bunday rivojlanish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va bolalarni maktabga tayyorlash darajasini yuksaltirish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va

pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tartibining nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish — bu shaxsiy va kasbiy salohiyatni uzluksiz ravishda takomillashtirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, mutaxassislik faoliyatida yuzaga keladigan yangi talab va o‘zgarishlarga moslashish jarayonidir. Pedagog va rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishi maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya sifatiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Kasbiy rivojlanishning asosiy mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– pedagogik va psixologik bilimlarni chuqurlashtirish;

– innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish.

Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlari uchun kasbiy rivojlanish faoliyatining huquqiy asoslari quyidagi normativ hujjatlarda belgilangan:

– O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19 -ktyabrdagi 646-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”.

Bu hujjatlar uzluksiz kasbiy rivojlanishning qonuniy bazasini yaratadi va pedagogik xodimlarning muntazam rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari uchun:

– ixtisoslashtirilgan malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda;

– onlayn va oflayn tartibda seminarlar o‘tkazilmoqda;

– ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan o‘quv dasturlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi jarayonda quyidagi muammolar ham kuzatilmoqda:

– malaka oshirish kurslarining mazmuniy jihatdan bir xil bo‘lishi;

pedagoglarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlari va individual maqsadlarini hisobga olmaslik;

– amaliy mashg‘ulotlar ulushining kamligi va nazariy bilimlarning ustunligi.

Bu muammolar pedagoglarning kasbiy salohiyatini to‘laqonli rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi va ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirgi vaziyatni yaxshilash maqsadida kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish, amaliy yo‘nalishni kuchaytirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagoglarining kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan:

– pedagogik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ya’ni pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion o‘qitish usullari va ijtimoiy-emotsional rivojlantirish metodlarini chuqur o‘zlashtirishi zarur;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, ya’ni pedagoglar va rahbarlar raqamli platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari va axborot resurslaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerak;

– kasbiy kompetensiyalarni individual rivojlantirish, ya’ni har bir pedagog va rahbar o‘zining individual kasbiy rivojlanish yo‘lini belgilab, o‘z ehtiyojlariga mos ravishda

malaka oshirish kurslari, stajirovkalar va o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etishi lozim;

– refleksiv faoliyat va o‘z-o‘zini baholash, ya’ni pedagoglar o‘z faoliyatlarini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini tashkil etishlari kerak;

– kasbiy hamjamiyatlar faoliyatida ishtirok etish, ya’ni mlg‘or tajribalar almashinuvini ta’minlash maqsadida pedagoglar kasbiy forumlar, seminarlar, vebinarlar va malaka oshirish klublarida faol ishtirok etishlari muhim.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maktabgacha maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish maktabgacha ta’lim tizimi samaradorligini oshirish va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

– ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishi davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan;

– amaldagi kasbiy rivojlantirish dasturlari muayyan natijalar berayotgan bo‘lsa-da, ularni individuallashtirish va amaliy yo‘nalishini kuchaytirish zarur;

– pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish sohasida qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etiladi;

– individual rivojlanish dasturlarini joriy etish: har bir pedagog va rahbar uchun shaxsiy rivojlanish rejalari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim. bu ularning shaxsiy ehtiyoj va maqsadlarini hisobga oladi;

– amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini ko‘paytirish: malaka oshirish kurslari va seminarlarda amaliy topshiriqlar, treninglar va simulyasiya texnologiyalari ulushini oshirish zarur.

– raqamli platformalardan samarali foydalanish: onlayn malaka oshirish kurslari, vebinarlar va masofaviy stajirovkalarni kengaytirish lozim;

– kasbiy hamjamiyatlarni rivojlantirish: ilg‘or tajribalar almashinuvini qo‘llab-quvvatlash uchun pedagoglar o‘rtasida forumlar va malaka oshirish klublari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuvlar maktabgacha ta’lim tizimida yuqori sifat va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon PF-5812. 5-sentabr 2019-yil. – T.: Adliya vazirligi, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23-sentabr 2020-yil. №ZRU-637. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. 16-dekabr 2019 yil. №ZRU-599. – T.: Adliya vazirligi, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-oktabrdagi 646-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom. 19 oktyabr 2020-yil, 646-son. – Toshkent: Vazirlar Mahkamasi, 2020.

6. Raximova M.M. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi muammolari va yechimlari. // “Pedagogika fanlari” jurnali, 2022, №3, B. 45–48.

**Jamshid ABDUSABIROV,**
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti,
tayanch doktorant

# MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA OLIY TA’LIM MUASSASASI RAHBAR KADRLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining kasbiy kompetensiyalari tashkilot muvaffaqiyatida juda ham katta rol o‘ynashi va ularning orasida boshqaruv kompetensiyasiga esa alohida e’tibor ajratilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarida boshqaruv kompetensiyasini oshirish takomillashtirilishi lozim bo‘lgan hozirgi eng muhim masalalar yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Malaka oshirish, rahbar kadrlar, oliy ta’lim, boshqaruv kompetensiyasi.

В статье говорится о том, что профессиональные компетенции руководящих кадров высших учебных заведений играют очень большую роль в успехе организации, и среди них особое внимание уделяется управленческой компетенции. Также в процессе повышения квалификации освещены актуальные важнейшие вопросы, требующие совершенствования повышения управленческой компетентности руководящих кадров высших образовательных учреждений.

**Ключевые слова.** Повышение квалификации, управленческий персонал, высшее образование, управленческая компетентность.

The article reflects on the fact that the professional competencies of managerial personnel of higher educational institutions play a very important role in the success of the organization, and among them, special attention is paid to managerial competence. Also, in the process of professional development, the most important current issues that need to be improved in the process of improving managerial competence of managerial personnel of higher educational institutions are highlighted.

**Key words.** Advanced training, management personnel, higher education, management competence

Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sohasi doimo eng yuqori o‘rinlarda turgan. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida keng ko‘lamda ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab qaror va qonunlar ijro etildi. Ushbu tashabbuskor ishlarning olib borilishi albatta ta’lim sohasini yanada takomillashtirishga va ushbu sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim sohasi har yili katta miqdorda mablag‘ ajratiladigan soha hisoblanadi. Yetuk va o‘z ishida puxta bo‘lgan kadrlarni ishlab chiqarish va ularning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib berish orqali istalgan davlat o‘z kelajagi bo‘lgan yoshlarga katta imkoniyat yaratib bergan bo‘ladi.

Hammamizga ma’lumki, ta’lim sohasida rahbar kadrlar katta rol o‘ynashadi. Ularning o‘z kasbini qay darajada yaxshi egallaganligi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarining yetarli darajada yetuk ekanligi, doimiy ravishda malaka oshirish jarayonlaridan o‘tib borishi kabi omillar ular faoliyat olib borayotgan muassasa yoki tashkilotning muvaffaqiyati hamda samaradorlik darajasini belgilab beradi. Shuning uchun ham butun dunyoda avvalambor, tashkilot yoki muassasa rahbar kadrlarining uzluksiz malaka oshirib borish jarayoniga katta e’tibor qaratiladi. Rahbar kadrlarning kompetensiyasi

ularning faoliyatida juda katta rol o‘ynaydi. Lyle M. Spencer and Signe M. Spencerning “Competence at Work: Models for Superior Performance” kitobida Spenserlar kompetensiyani ma’lum bir ish yoki rolni ustalik bilan bajarish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar (masalan, ko‘nikmalar, bilimlar va qobiliyatlar) majmui sifatida ta’riflaydilar. Ularning ta’kidlashicha, kompetensiya kontekstga bog‘liq bo‘lib, turli vazifalar yoki vaziyatlar turli xil kompetensiyalar to‘plamini talab qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.09.2019-yildagi 797-sonli “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bugungi kunda rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganidan dalolat berib turibdi. Unga ko‘ra, ushbu nizom oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi. Ya’ni u yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish, oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta’minlash va oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarida butun jahon Internet axborot tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, ilg‘or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash, ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi bir nechta vazifalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.07.2024-yildagi 415-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti vazifalariga pedagogik ta’limning dolzarb ilmiy muammolari, shu jumladan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, raqamli ta’lim texnologiyalari va ta’lim menejmenti yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, doktorantura ixtisosliklari bo‘yicha yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining ta’lim jarayoni sifati hamda natijadorligini tizimli tahlil va monitoring qilishning raqamli axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda joriy etish, oliy ta’lim tashkilotlari hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining ehtiyojidan kelib chiqib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejasi hamda ta’lim dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilim darajasi va pedagogik faoliyat samaradorligini inobatga olgan holda kasbiy rivojlantirish ta’lim dasturlarini joriy etish kiradi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonining 7-qismi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish mavzusiga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha bir nechta tadbirlar amalga oshiriladi. Ularning qatoriga kadrlar tayyorlash sifati va ko‘lamini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash, institut maqomidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyati ko‘lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini

kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish, oliy ta’lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, ta’lim sifatini nazorat qilish va oliy ta’lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilash, oliy ta’lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o‘qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish kabi vazifalar kiradi.

Malaka oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarida boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirilish esa hozirgi davrda juda ham muhim masala hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni rahbar kadrlar faoliyatining asosini tashkil etadi. Ularning boshqaruv kompetensiyasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi va samaradorlik jarayonini yanada oshiradi.

Boshqaruv kompetensiyasining rahbarlar uchun ahamiyatini juda ham keng ma’noda tushunish mumkin. Bu tushuncha o‘z ichiga ko‘plab mayda jihatlarni qamrab oladi. Boshqaruv kompetensiyasiga ega rahbarlar vaziyatni tezda tahlil qilib, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa tashkilotning muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Yuzaga kelgan holatga tezda munosabat bildirgan holda, kerakli va muqobil qaror qabul qilish orqali rahbar vaziyatga mos yechim topa olish qobiliyatini namoyish etadi.

Shuningdek, rahbarlar, odamlar va resurslarni qanday qilib samarali taqsimlashni bilishlari kerak. Boshqaruv kompetensiyasi bu jarayonda yordam beradi va tashkilotning umumiy ishlashini yaxshilashga xizmat qiladi. Xodimlarni tashkilotning funksiyalariga moslagan holda to‘g‘ri taqsimlay olish va tashkilot resurslaridan samarali foydalanish rahbarning tashkilot muvaffaqiyati uchun qo‘shadigan eng katta hissasi hisoblanadi.

Rahbarlar jamoa ichida yaxshi aloqalar va hamkorlikni yaratish, ish muhitini rivojlantirish uchun boshqaruv kompetensiyasiga ega bo‘lishlari zarur. Bu jamoaning motivatsiyasini va ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Xodimlar o‘rtasida doimo yaxshi munosabatlarni saqlab qolish, ularning ish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyat va omillarni bartaraf etish, muassasada sog‘lom ish muhitini yaratish kabi vazifalarni faqatgina haqiqiy boshqaruv kompetensiyasini yaxshi egallagan rahbar amalga oshira oladi.

O‘zgarishlarga moslashish jihatiga keladigan bo‘lsak, hozirda bozor sharoiti tez o‘zgaradi va rahbarlar bu o‘zgarishlarga moslashishni bilishlari kerak. Boshqaruv kompetensiyasi rahbarlarga o‘zgarishlarga samarali moslashish, innovatsiyalarni joriy etish va tashkilotni yangi sharoitlarga tayyorlash imkonini beradi. Dunyoda yuz berayotgan innovatsiyalar, yangiliklar, texnologiyalar va ixtirolardan xabardor bo‘lgan holda, tashkilotning muvaffaqiyati uchun ularni unumli qo‘llay olgan rahbar katta yutuqlarga erishadi.

Rahbarlar o‘z tashkilotining maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish yo‘lida boshqaruv kompetensiyasini namoyon qilishlari kerak. Bu jarayon o‘zgarishlarni boshqarish, strategiyalarni amalga oshirish va natijalarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Hammamizga ma’lumki, hech qaysi bir tashkilot yoki muassasa o‘z faoliyatini aniq bir maqsad va missiyaga ega bo‘lmagan holda olib bormaydi. Muassasa maqsadlari va vazifalarni aniq va ravshan tarzda belgilab olib, ushbu maqsadga erishish yo‘lida strategik rejalar tuzish orqali rahbar tashkilot faoliyati asosini yaratib beradi.

Boshqaruv kompetensiyasi rahbarlarga xatoliklarni tezda aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi, shuningdek, xatolardan o‘rganish va kelajakda ularni oldini olishga

yordam beradi. Hammamizga ma'lumki, qilingan xatolar kelajakda yanada tajribaliroq bo'lishga va o'tmishda qilingan xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka zamin yaratadi. Tajribali rahbarlar xato va to'g'rini juda ham yaxshi ajrata olishadi.

Oliy ta'lim tizimida rahbar kadrlarining boshqaruv kompetensiyasini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish uchun bir qancha muhim qadamlar va strategiyalarni amalga oshirish zarur. Bu jarayon rahbarlarning qobiliyatlarini yanada oshirish, ta'lim muassasalarini samarali boshqarish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Rahbarlar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish zarur. Bu treninglar strategik boshqaruv, resurslarni boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, emotsional intellekt va liderlik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek xalqaro kurslar va dasturlar ham qo'l kelishi mumkin.

Yangi va tajribali rahbarlarni birlashtirish uchun mentorlik tizimini yo'lga qo'yish kerak. Mentorlar o'z tajribalarini boshqaruvning murakkab masalalari va yechimlarini muhokama qilish orqali yangi rahbarlarga o'rgatishlari mumkin.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari orasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish orqali rahbarlar boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimlari va boshqaruv tajribalarini o'rganib, o'z tizimlariga moslashtirishlari mumkin. Boshqaruv rahbarlarini xalqaro konferensiyalarga, forumlarga va ta'lim sohasidagi global tadbirlarga jalb qilish orqali esa o'zaro aloqalarni o'rnatishga va yangi yondashuvlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Rahbarlar o'z jamoalarini samarali boshqarish, motivatsiya qilish va ilgari surish uchun yuqori darajadagi liderlik ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Bu uchun turli interaktiv treninglar, jamoa qurish faoliyatlari va situatsion liderlik yondashuvlari o'rgatilishi kerak.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida rahbarlarning faoliyatini muntazam ravishda baholab borish zarur. Bunda samaradorlikni o'lchash va tahlil qilish hamda zarur bo'lganda o'zgartirishlar kiritish muhimdir. Bu bilan bir qatorda, rahbarlar o'zgarishlarni boshqarish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur metodologiyalarni o'zlashtirishlari kerak. Bu o'zgarishlarni jamoaga tushuntirish, qo'llab-quvvatlash va ularga moslashish imkonini beradi.

Eng muhim jihatlardan yana bir shuki, rahbarlar o'z faoliyatlarida yuqori etika me'yorlarini saqlashlari zarur. Bu, ayniqsa, ta'lim muassasalarida talaba va professorlar o'rtasida ishonchni saqlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan boshqaruv jarayonining asosiy komponentlari hisoblangan ushbu omillarni hisobga olgan holda ish faoliyatini tashkil eta olgan rahbar kadrlar tashkilot rivoji uchun katta qadam bosgan bo'ladi. Shuning uchun ham boshqaruv kompetensiyasini juda ham chuqur va mukammal holda egallash istalgan rahbarning vazifasidir. Chunki rahbarlarning butun faoliyati boshqaruv jarayonlaridan iborat hisoblanadi.

Masalan, Yaponiyaga to'xtaladigan bo'lsak, Yaponiyada oliy ta'lim universitetlarda, kichik kollejlarda, texnologiya kollejlarida va maxsus ta'lim maktablarida va jamoat kollejlarida beriladi. Ushbu to'rt turdagi muassasalardan faqat universitetlar va kichik kollejlar qat'iy ravishda o'rta maktabdan keyingi ta'lim beruvchilar hisoblanadi. Yaponiyaning zamonaviy oliy ta'lim tizimi Meiji davridan beri ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirdi va asosan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi G'arb mamlakatlaridan namuna olingan va an'anaviy yapon pedagogik elementlari bilan birgalikda o'z milliy ehtiyojlarini qondirish uchun noyob yapon mode-

lini yaratdi. Ba’zi boshqa mamlakatlardagi oliy ta’limdan farqli o‘laroq, Yaponiyadagi davlat universitetlari odatda xususiy universitetlarga qaraganda nufuzliroq hisoblanadi, ayniqsa Milliy yetti universitet (Tokio universiteti, Kyoto universiteti, Tohoku universiteti, Kyushu universiteti, Xokkaydo universiteti, Osaka universiteti va Nagoya universiteti).

Yoki Finlyandiyaga to‘xtaladigan bo‘lsak, universitetlarning boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda ajralib turadigan xususiyati o‘quvchilarning jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi, institutlarni rivojlantirishda ishtirok etish, ta’lim tizimini takomillashtirish va o‘qituvchilar bilan dasturlarni yaratish uchun institutsional imkoniyatdir. O‘qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta’lim muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Finlyandiyada o‘qituvchilik qilish uchun kamida magistr darajasiga ega bo‘lish kerak.

Malaka oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarida boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirilish masalasining dolzarbligi shundaki, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatiga yuqori darajada ega bo‘lishi, ularning o‘z faoliyati davomida qiyinchiliklarga uchramagan holda, turli xil vaziyatlarga yechim topishiga yordam beradi. Sodir bo‘lgan vaziyatga tezda eng muqobil yechim topa olish rahbarning ajralmas xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining boshqaruvchilari o‘z muassasasining tashkiliy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri boshqaruv madaniyati talabalar va xodimlar uchun yaxshi ishlash muhitini yaratadi.

Bejizga Peter Drucker, menejment sohasidagi eng mashhur olimlardan biri, boshqaruv kompetensiyasini tashkilotlarni samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lish sifatida ta’riflamagan. Uning so‘zlariga ko‘ra: “Boshqaruvning asosiy vazifasi tashkilotning maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish uchun resurslarni samarali boshqarishdan iborat.” Drucker boshqaruvchining kompetensiyasi, uning strategik fikrlash qobiliyatiga, resurslarni samarali taqsimlashga va jamoani ilhomlantirishga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Henry Mintzberg, boshqaruvning amaliy jihatlarini o‘rgangan olim, boshqaruv kompetensiyasini tashkilotlarni samarali boshqarishda muhim bo‘lgan ko‘nikmalar va bilimlar to‘plami sifatida qaraydi. Mintzberg boshqaruvchining roli faqatgina qarorlar qabul qilishda emas, balki jamoadagi insonlar bilan ishlashda, ularga motivatsiya berishda va jamoaviy ishni tashkil etishda ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. U shunday deydi: “Boshqaruv – bu o‘zaro aloqalar, qarorlar, ehtiyojlar va imkoniyatlarning muvozanatini topish jarayonidir.”

Daniel Goleman, emotsional intellekt (EI) nazariyasining asoschilaridan biri, boshqaruv kompetensiyasining bir qismi sifatida emotsional intellektni kiritadi. Uning fikricha, boshqaruvchilar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalar bilan empatiya qurish va ijtimoiy aloqalarni muvaffaqiyatli o‘rnatish orqali samarali boshqaruvga erishadilar. Goleman shunday deydi: “Boshqaruvchilarning emotsional intellekti jamoaning samaradorligini oshirish va qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyatni ta’minlash uchun zarurdir.”

John Kotter, o‘zining o‘zgarishlarni boshqarish bo‘yicha ishlari bilan tanilgan olim, boshqaruv kompetensiyasini o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyati sifatida ko‘radi. U shunday deydi: “Rahbarlar o‘zgarishlarni boshqarishda nafaqat strategik fikrlash, balki odamlar bilan ishlash va ularni yangi yo‘nalishlarga yo‘naltirish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak.”

Ushbu keltirilgan jumlalardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, malaka oshirish jarayonida oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarida boshqaruv kompetensiyasini ta-

komillashtirilish juda ham muhim vazifa sanaladi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda chiqarilgan va chiqarilayotgan qarorlar avvalambor malaka oshirish tizimini yanada yaxshilashga, oliy ta’lim rahbar kadrlarining kompetensiyalarini muntazam ravishda oshirib borishga, shu bilan bir qatorda, ta’lim sohasini yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan. Bu qarorlarning o‘z vaqtida kamchiliklarsiz amalga oshirilishi orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarida boshqaruv kompetensiyasini yanada rivojlantirish orqali ta’lim muassasalarining faoliyatini ishonchli qo‘llarda bo‘lishini ta’minlash bilan bir qatorda, kelajakda yanada ko‘plab yetuk va ilg‘or kadrlar yetishib chiqishiga ham zamin yaratgan bo‘lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.09.2019-yildagi 797-sonli “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.07.2024-yildagi 415-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni 7-§

4. “Competence at Work: Models for Superior Performance” by Lyle M. Spencer and Signe M. Spencer.

**Salimjon TADJIBAYEV,**
Andijon davlat pedagogika instituti, dotsent

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA TASVIRIY FAOLIYAT BO'YICHA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHGA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI TIZIMLI TAYYORLASH

**Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirishga tayyorlashning asosiy xususiyatlari tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachini maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-tasviriy faoliyatida tizimli yondashuvga asoslangan ijodkorlikni rivojlantirishga tayyorlashning mohiyati ko'rib chiqilgan.

**Tayanch so'zlar.** Tizim, tizimli yondashuv, bo'lajak tarbiyachi, tayyorgarlik, ijodkorlik, badiiy-tasviriy faoliyat, maktabgacha yoshdagi bola.

В статье раскрываются основные особенности подготовки будущих воспитателей к развитию творчества детей дошкольного возраста с точки зрения системного подхода. Также рассмотрена сущность подготовки будущего воспитателя к развитию творчества, основанного на системном подходе к художественно-изобразительной деятельности дошкольников.

**Ключевые слова.** Система, системный подход, будущий воспитатель, подготовка, творчество, художественно-изобразительная деятельность, дошкольник.

The article reveals the main features of preparing future educators for the development of preschool children's creativity from the point of view of a systematic approach. The essence of preparing a future educator for the development of creativity based on a systematic approach in the artistic and visual activity of preschoolers is also considered.

**Key words.** System, systematic approach, future educator, preparation, creativity, artistic and visual activity, preschooler.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi zamonaviy o'zgarishlar bo'lajak tarbiyachisi kasbida yangi istiqbollar ochmoqda. Maktabgacha ta'limni yangi mazmun bilan to'ldirish, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashga qo'yiladigan yangi talablar ta'limda kasbiy faoliyatning rolini oshiradi, uni sifat jihatidan o'zgartirishni taqozo etadi. Shu bois bugungi kunda oliy pedagogik ta'limda bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish zarurati keskin sezilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash oliy pedagogik ta'limning zamonaviy bosqichida o'quv fanlari mazmunini, oliy pedagogik ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash texnologiyalarini o'zgartirishni talab etadigan O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashning dolzarb masalalari Rossiyalik pedagoglar A.G.Gogoberidze, I.V. Golovin, N.V. Gorbunova, N.A. Gluzman, O'zbekistonlik pedagoglar N. Kayumova, M.Sh. Nurmatova, Sh.T, Xasanova D.E.Azimovalarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan.

Unda maktabgacha ta'lim tashkilotining bo'lajak tarbiyachisi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalarni bilishi, maktabgacha yoshdagi bolaning psixologik-pedagogik xususiyatlarini bilishi, maktabgacha yoshdagi bolaning

uyg‘un rivojlanishini ta’minlash uchun shakllangan kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozimligi aytilgan.

“Bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirishga tayyorligi” tushunchasini aniqlash uchun “tayyorlik”, “tayyorgarlikni shakllantirish” tushunchalarining ta’riflarini aniqlashtirish, bu tushunchalarni “tayyorgarlik” tushunchasi bilan bog‘lash zarur.

Psixologiya nuqtayi nazaridan, “tayyorlik” – bu insonning muayyan tajribadan natija olishga tayyor bo‘lgan holati yoki psixologik hodisa bo‘lib, u yordamida polimotivlangan makonda inson faoliyatining barqarorligini tushuntiradi. Shaxsiy (motivatsion, ichki, pozitsion) va ma’rifiy (intellektual) tayyorgarlikni ajratib ko‘rsatadi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirishni I.S. Bogdanov, V.O. Lazarevlar o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqqanlar. Ushbu materiallarni tahlil qilish “faoliyatga tayyorlik” tushunchasiga ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: funksional va shaxsiy (holat va natija sifatida).

Funksional yondashuv faoliyatning har qanday turiga tayyorlikni shaxsning yetarli darajada shakllanganligi sharti bilan u yoki bu faoliyatda yuqori yutuqlarni ta’minlaydigan ruhiy funksiyalarning muayyan holati sifatida qaraydi.

Shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan, faoliyatga tayyorlik – bu faoliyat talablariga mos bo‘lgan motivatsion, bilim va hissiy-irodaviy komponentlar hamda bilim, mahorat, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar majmui bo‘lgan tayyorgarlik natijasidir.

“Tayyorlik” va “tayyorgarlik” tushunchalari sinonimik emas. Unga ko‘ra, “tayyorlik” har qanday faoliyatning maqsadi, “tayyorgarlik” esa faoliyat jarayoni sifatida belgilaydi, deb hisoblash mumkin. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tadqiq etish asosida pedagogning muayyan faoliyat turiga tayyorligi deganda, unga ushbu faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan, maqsadli maxsus tashkiliy tayyorgarlik natijasida shakllangan sifatlar majmui tushuniladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik faoliyatning u yoki bu yo‘nalishiga tayyorligini shakllantirish – bu oliy o‘quv yurtiningning o‘qituvchilar tarkibi tomonidan ham, talabaning o‘zi tomonidan ham, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari tomonidan ham ushbu faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan harakatlar majmuidir.

Bo‘lajak tarbiyachilarning badiiy-tasviriy faoliyatda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga tayyorligini “talabalarning maktabgacha yoshdagi bolalarda mustahkam ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishni ta’minlaydigan maqsadli, maxsus tashkil etilgan tayyorgarligi, asosini mutaxassis motivatsion, kasbiy-pedagogik, ilmiy va amaliy jihatdan tayyorlash” deb hisoblash mumkin.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik yo‘nalishlardan biri sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga tayyorligining integratsiyalashgan tarkibiy qismlarini loyihalashtirish uchun badiiy-tasviriy faoliyatda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlar muammosini hal etishda muhim bo‘lgan professional xususiyatlarni alohida ta’kidlash zarur.

Bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga tayyorligi oliy pedagogik o‘quv yurtida o‘qitish jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish orqali shakllantiriladi.

Talabalarning nazariyani o‘rganish jarayonida amalda (amaliy mashg‘ulotlarda) va kasbiy faoliyatda (maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik amaliyotdan o‘tish va tayyorgarlik yo‘nalishi bo‘yicha ishga chiqish) qo‘llash bo‘yicha amaliy faoliyati meto-

dikalarni o‘rganish jarayonida olingan nazariy materialni mustahkamlashning zarur va yetarli shartidir. Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son Qarorining 2-b bandida belgilangan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari haftalik o‘quv mashg‘ulotlarini “4+2” tartibida ya’ni, darslarning to‘rt kuni oliy ta’lim muassasasida, ikki kuni umumiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilmoqda.

Agar keltirilgan tizimning barcha tarkibiy qismlari muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, tayyorgarlikni amalga oshirish natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishga tayyor bo‘lgan bo‘lajak tarbiyachi yetishib chiqadi. Quyida tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirishga tayyorlashning asosiy xususiyatlarini ochib beramiz:

Falsafada tizimlilik, tizimli yondashuv masalalari XVIII asrdayoq ko‘tarilgan (P. Golbax). XIX asrda turli fanlar (biologiya, sotsiologiya, texnika) ilm-fanga tizimli yondashuvni rivojlantirishga yordam berdi. Ammo tizimli yondashuvni batafsil o‘rganish XX asrning birinchi yarmida ilmiy-texnik inqilob va kibernetikaning rivojlanishi tufayli yangi bosqichga chiqdi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy falsafiy ilm-fan nuqtai nazaridan, “tizim – bu yaxlitlik, uning qismlari (quyi tizimning elementlari) bir-biri bilan shunchalik birlashganki, hamma tashqi narsaga nisbatan har doim yagona narsa sifatida namoyon bo‘ladi va bu tizimning avtonomligiga, uning mavjudligi va atrof-muhitdagi xulq-atvorining nisbiy mustaqilligiga asos bo‘ladi”.

Mantiq nuqtayi nazaridan esa, “tizim – bu yaxlit shakllanishning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va tegishli tartibda joylashgan elementlari (qismlari) ning yig‘indisi, birlashmasidir”.

Har qanday faoliyatni, shu jumladan, pedagogik faoliyatni tashkil etishga tizimli yondashuv faoliyatni murakkab dinamik tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi. Tizimning har bir komponenti o‘ziga xos maqsadga ega bo‘lgan mustaqil qismdir. Ikkinchisi unga xos bo‘lgan muayyan harakat yoki bunday harakatlar majmui bo‘lgan uning funksiyasida amalga oshiriladi, har qanday komponent o‘z funksiyasini faqat boshqa komponentlar mavjud bo‘lganda ko‘rsatishi mumkin, har bir komponent esa, agar u uchun maqsadga muvofiq harakat bajarsa, tizimda mavjud bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida, u bunday harakatni faqat bu harakatni qabul qilishga qodir bo‘lgan boshqa komponentlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina bajarishi mumkin. Tizimning jarayonlarini tashkil etuvchi funksiyalar uning mazmuni, tuzilishi, shaklidir. Ular birgalikda xolisona bog‘liq bo‘lib, umuman tizimni tashkil etadi. Pedagogik tizimlar muammolari Yu. K. Babanskiy tomonidan ko‘rib chiqilgan, pedagogikaga tizimli yondashuvni joriy etish, xususan, tarbiyachi tayyorlash bilan V.P. Bespalko shug‘ullangan, maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiya tizimi esa L.I. Novikovaning tadqiqot obyekti bo‘lgan.

Bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-tasviriy faoliyatdagi ijodkorligini rivojlantirishga tizimli yondashuvga asoslangan holda tayyorlashning mohiyati quyidagilarga asoslanadi:

– tarbiyalanuvchilarda tarixiy jihatlarni o‘rganish orqali ijodiy qobiliyatlarni, ijodiy fikrlashni shakllantirish;

– ijodiy rivojlanishga turg‘un turtki berish;

– ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bilimlar kompleksi;

Bu bilimlarni pedagogik jarayonda qo‘llash va maktabgacha yoshdagi bolalarning ish ko‘nikmalari.

Bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantiris-

hga tayyorlashning bir maqsadi bor: bir tomondan, talabalarni ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bilim bilan boyitish, ikkinchi tomondan, ularda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlantirish bo‘yicha mavjud bilimlarni moslashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-tasviriy faoliyatdagi ijodkorligini rivojlantirishga tayyorlashning maqsadga muvofiqligi:

− jamiyatning ijodiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlariga va ta’lim tashkilotlari tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalari ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan ma’rifiy ishlarning yo‘qligiga;

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga bo‘lajak tarbiyachilarni quyidagi asosiy prinsiplarga asoslangan holda tayyorlash tashkil etiladi:

– insonparvarlashtirish (talabalarning kasbiy-shaxsiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratish);

– insonparvarlashtirish (madaniyatning umuminsoniy qadriyatlariga qo‘shilish imkoniyatini berish);

– integratsiya (oliy maktabda tayyorlash va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi amaliyotning organik aloqasi va o‘zaro bog‘lanishi);

– intelektualizatsiya (kasbiy tayyorgarlikni kelajakdagi tarbiyachilarning umumiy dunyoqarashi rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirish);

– innovatsiya (bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash mazmuni, shakllari, usullarining o‘zgaruvchanligi, dinamikligi);

– onglilik va faollik (mashaqqatli mehnat yo‘li bilan olingan chuqur va mustaqil ma’noli bilimlar); tizimli va izchillik.

Metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rstdiki, katta yoshdagi bolalarning badiiy-tasviriy faoliyatdagi ijodkorligini rivojlantirish shakllarini aniqlash va ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish imkonini beradi:

1. Ommaviy badiiy ko‘rgazmalar, badiiy faoliyat bo‘yicha kuzatuvlar, viktorinalar, ijodiy burchaklar yaratish, badiiy-tasviriy ijodiyot bo‘yicha ochiq mashg‘ulotlar kiradi;

2. Guruh bo‘yicha – chizish mashg‘ulotlari, badiiy-tasviriy faoliyat bo‘yicha to‘garaklar, bolalar ishlari ko‘rgazmasi;

3. Individual – badiiy mavzuda hikoyalar tayyorlash, ma’rifiy topshiriqlarni bajarish, erkin mavzuda badiiy-ijod qilish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak tarbiyachilarning badiiy-tasviriy faoliyatda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun mazmuni ilmiy asoslangan va oqilona tanlangan ilmiy axborot va tashkiliy shakllardan iborat bo‘lgan, bo‘lajak tarbiyachilarni rag‘batlantirish va kasbiy faoliyatini faollashtirish uchun shart-sharoitlar yaratadigan bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda tizimli yondashuvdan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6079561

2. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса / Ю.К. Бабанский. М.: Просвещение, 1982. - 192 с.

3. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогической технологии / В.П. Беспалько. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

4. Новикова Л.И. Системное исследование процесса воспитания: подход, предмет, методы / Л.И. Новикова. – М., 1993. – 88 с.

**Foziljon PO‘LOTOV,**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxasislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, katta o‘qituvchi

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING TASVIRIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining tasviriy savodxonligini oshirish zarurati chuqur ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, tasviriy san’atning bola estetik dunyoqarashi va kognitiv rivojiga ta’siri, tarbiyachilarning badiiy bilimlari, didi, estetik baholash qobiliyatlari hamda ularni shakllantirish metodlari ko‘rib chiqilgan. Muallif so‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida maktabgacha ta’lim sohasida tasviriy san’atga oid yondashuvlar takomillashgani, lekin amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolayotgani asosli dalillar bilan yoritib bergan.

**Tayanch so‘zlar.** Tasviriy savodxonlik, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, tasviriy faoliyat metodikasi, innovatsiya, pedagogik integratsiya.

В статье на глубокой научной основе анализируется необходимость повышения изобразительной грамотности воспитателей дошкольных образовательных организаций. Также рассмотрено влияние изобразительного искусства на эстетическое мировоззрение и когнитивное развитие ребенка, художественные знания, вкус, способности эстетической оценки воспитателей и методы их формирования. Автор на основе обоснованных доказательств освещает, что в последние годы на основе реформ в системе образования, в частности, постановлений Президента Республики Узбекистан, были усовершенствованы подходы к изобразительному искусству в сфере дошкольного образования, но на практике сохраняются некоторые проблемы.

**Ключевые слова.** Изобразительная грамотность, дошкольное образование, воспитатель, художественная методика, инновации, интеграция.

The article analyzes, on a deep scientific basis, the need to improve the visual literacy of preschool educators. Also considered are the influence of fine art on the aesthetic worldview and cognitive development of the child, the artistic knowledge, taste, aesthetic evaluation abilities of educators, and methods of their formation. The author substantiates that in recent years, based on reforms in the education system, in particular, on the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, approaches to fine arts in the field of preschool education have been improved, but some problems remain in practice.

**Key words.** Art literacy, preschool education, educator, art methodology, innovations, integration.

Maktabgacha yosh davrida bolaning tasviriy ifoda imkoniyatlari keng bo‘lib, bu uning estetik, emotsional, tafakkur va ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Tasviriy faoliyat orqali bola dunyoni anglaydi, shakllar va ranglar bilan o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, tafakkur doirasini kengaytiradi, shu bois ushbu yosh bosqichi psixik va ijodiy rivojlanishning eng muhim pallasi hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachilar yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi sifatida alohida o‘rin tutadi; ularning badiiy bilim va estetik didi bolaning ijodiy rivojiga bevosita ta’sir

qiladi. Ammo amaliyotda ko‘pchilik tarbiyachilar tasviriy san’atni tor doirada tushunib, uni faqat rasm chizish bilan bog‘laydi va uning tarbiyaviy, psixologik, kognitiv jihatlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish esa ta’lim sifati uchun zaruratga aylangan.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni integratsiyalash asosida samarali ta’lim tarbiyaning innovatsion shakl va usullarini joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “…bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish1”ni uzluksiz amalga oshirish, maktabgacha ta’limning davlat talablariga muvofiq tasviriy faoliyat vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish borasida tizimli tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, unga ko‘ra zamonaviy texnologiyalar, integratsiyalashgan ta’limiy jarayonlar va AKT vositalari orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tasviriy savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Shu munosabat bilan tarbiyachilarning estetik va metodik kompetensiyalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur bo‘lib, bu nafaqat pedagogik faoliyat sifatini oshiradi, balki maktabgacha ta’lim tashkilotlarining madaniy-ma’naviy muhitini ham yanada boyitadi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy yondashuv sifatida kombinatsiyalangan metodologiya qo‘llanildi. Davlat maktabgacha ta’lim standartlari (2022) va amaldagi o‘quv dasturlaridagi tasviriy faoliyat bloklari tahlil qilinar ekan, unda tarbiyachilarning metodik saviyasi bolalarning san’atga munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekani ta’kidlandi. Bu jarayonda M.G‘ofurova va N.Jo‘raeva tomonidan yozilgan metodik qo‘llanmalarga tayanildi. Shu bilan birga, L.S.Vygotskiyning “Art and Psychology” (1995) asarida san’atning psixologik ahamiyati, N.N.Malofeevning “Iskusstvo v obrazovanii detey” (2018) asarida badiiy faoliyatni ta’lim jarayoniga integratsiyalash nazariyasi, S.Bunyodovaning “Didaktik san’at: metod va shakllar” (2022) va Z.Tursunovaning “Innovatsion pedagogika” (2020) nomli asarlarida esa zamonaviy innovatsion va integratsiyalashgan metodlarning samaradorligi haqida chuqur tahliliy fikrlar berilgan. Ushbu adabiyotlar tahliliga tayangan holda, maktabgacha ta’lim tizimiga moslashtirilgan metodik yechimlar ishlab chiqildi. Shuningdek, pedagogik tajriba asosida modulli mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar (kollaj, akva-texnika, rangli qum bilan ishlash) orqali o‘quv treninglari tashkil etildi. Treningdan oldingi va keyingi holat tahlili statistik ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi va natijalar ilgari o‘rganilgan ilmiy manbalar bilan taqqoslandi. Umumiy xulosa shuki, tanlangan metodlar tasviriy savodxonlikni rivojlantirishda nazariy jihatdan asosli, amaliy jihatdan esa samarali vosita bo‘lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, amaldagi Davlat maktabgacha ta’lim standarti (2022) hamda o‘quv dasturlaridagi tasviriy faoliyat bloklari o‘rganilib, unda tarbiyachining metodik saviyasi bolaning tasviriy faoliyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur tahlil davomida M.G‘ofurovaning maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha tavsiyalari va N.Jo‘rayevaning tasviriy faoliyatga oid amaliy tavsiyalari asosiy nazariy manbalar sifatida xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili davomida tasviriy faoliyatning bola psixikasi, estetik didi va ijodiy tafakkuriga ta’sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilindi. L.S.Vygotskiyning “Art and Psy-

[1] O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Lex.uz.

chology” (San’at va Psixologiya, 1995) asarida bolalar tasviriy faoliyatini ong, his-tuyg‘u va tasavvur bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. N.N.Malofeev esa o‘zining “Iskusstvo v obrazovanii detey” (Bolalar ta’limida san’at, Moskva: Prosveshchenie, 2018) nomli ishida badiiy faoliyatni umumta’lim tizimiga integratsiyalash tamoyillarini asoslab beradi. Uning fikricha, tasviriy faoliyat orqali bolalar faqat san’atni emas, balki ijtimoiy muloqotni, axloqiy qadriyatlarni va madaniy ongni ham o‘zlashtiradi. Shuningdek, S.Bunyodovaning “Didaktik san’at: metod va shakllar” (T.: Akadem nashr, 2022) nomli asarida tarbiyachilarning badiiy didini shakllantirish metodlari tizimlashtirilgan, Z.Tursunova esa “Innovatsion pedagogika” (T.: Fan va texnologiya, 2020) nomli ishida innovatsion yondashuvlarning pedagogik amaliyotdagi samaradorligini asoslagan. Ushbu adabiyotlar maktabgacha ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan metodik yechimlarni ishlab chiqishda asos bo‘ldi.

Pedagogik tajriba asosida modulli mashg‘ulotlar, interaktiv metodlar (kollaj, akva-texnika, rangli qum texnologiyasi va b.) asosida treninglar tashkil qilindi. Treninglardan so‘ng kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar statistik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilindi. Natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar (Bunyodova S., Tursunova Z. bilan taqqoslandi va ularning ilmiy asoslanganligi tekshirildi.

Natijada, tanlangan metodlar tasviriy savodxonlik darajasini oshirishda amaliy va nazariy jihatdan ishonchli asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, amaliy kuzatuvlar va pedagogik tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining tasviriy savodxonligida mavjud bo‘lgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlab olindi.

Tarbiyachilar orasida tasviriy savodxonlik darajasi (so‘rovnoma natijalari asosida)

| № | So‘rov mazmuni | Ijobiy javoblar (%) |
|---|---|---|
| 1 | Tasviriy faoliyatni faqat rasm chizish bilan bog‘lovchi tarbiyachilar | 68% |
| 2 | Rang tasnifi, kompozitsiya, obraz yaratish bo‘yicha metodik bilim yetishmasligi | 59% |
| 3 | Interfaol metodlardan foydalanmaydigan tarbiyachilar | 62% |
| 4 | AKT vositalaridan foydalanmagan tarbiyachilar | 73% |

Jumladan, 84 nafar tarbiyachi ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida tasviriy faoliyatga oid bilim, ko‘nikma va yondashuvlar darajasi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, tarbiyachilar orasida tasviriy faoliyatni to‘liq qamrab oluvchi yondashuvlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Ko‘pchilik tarbiyachilar hali ham an’anaviy, faqat chizishga asoslangan darslarni afzal ko‘rmoqda. Ayni paytda, pedagogik treninglar asosida o‘tkazilgan tajribalar esa ushbu holatni ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkinligini ko‘rsatdi. 40 nafar tarbiyachi ishtirok etgan modulli treninglar natijasi 2-jadvalda ifodalangan.

Treningdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar taqqoslamasi (n=40 tarbiyachi)

| Ko‘rsatkich | Treninggacha (%) | Treningdan so‘ng (%) | Farq (%) |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| Rasm chizishdan tashqari metodlardan foydalanish | 31% | 67% | +36% |
| Ranglar psixologiyasini qo‘llash | 38% | 72% | +34% |
| AKT vositalarini qo‘llash | 27% | 66% | +39% |
| Bolalarning ijodiy ifoda darajasi | 44% | 68% | +24% |

Ko‘rinib turibdiki, modulli va interaktiv yondashuvlar tarbiyachilarning tasviriy savodxonligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda ranglar psixologiyasi, obrazli fikrlash, estetik didni shakllantirish va texnologik resurslardan foydalanish yo‘nalishlarida sezilarli ijobiy natijalar qayd etildi.

Olingan natijalar maktabgacha ta’lim tizimida tasviriy savodxonlik darajasining yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, tarbiyachilarning ko‘pchiligida tasviriy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha metodik bilimlar, ayniqsa, integratsiyalashgan yondashuvlar va AKT vositalarini dars jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha tayyorgarlik sust. Bu esa zamonaviy pedagogik talablar va milliy ta’lim tizimidagi islohotlarga zid holatdir.

Modulli treninglar orqali tajriba o‘tkazilgan guruhlarda sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi. Bu holat shuni anglatadiki, agar tarbiyachilarga zamonaviy metodlar asosida muntazam o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilsa, ular nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki bolalarning badiiy-estetik kamolotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik nazariya nuqtai nazaridan bu natijalar Lev Vygotskiy tomonidan ta’kidlangan psixologik rivojlanish va o‘rganishdagi yaqin rivojlanish zonasining samarali ishlashini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Reggio Emilia yondashuvida bo‘lgani kabi, bola uchun shaxsiy ifoda erkinligi va vizual muhit muhim pedagogik omillar hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida bu kabi tajribalarni mahalliy mentalitet, qadriyatlar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda adaptatsiya qilish imkoniyati mavjud. Buning uchun metodik qo‘llanmalar, trening materiallari va raqamli resurslar tizimli ishlab chiqilishi lozim. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda tasviriy savodxonlikni oshirish jarayonida tizimli yondashuv va metodik yangilanishlar zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiyachilarning tasviriy savodxonligini oshirish zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining poydevoriy komponentlaridan biridir. Bu nafaqat tarbiyachilarning kasbiy malakasini rivojlantiradi, balki ta’lim tashkilotining ijodiy-madaniy muhitini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarning estetik idroki, tafakkur yuritish salohiyati va ichki dunyosini ifodalash qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bois, tarbiyachilarni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida doimiy ravishda malaka oshirishga yo‘naltirish ta’lim sifati uchun zarurdir.

Shaxsiy kuzatuvlarimga ko‘ra, tasviriy savodxonligi kuchli bo‘lgan tarbiyachilar bolalar bilan muloqotda erkin, tashabbuskor va emotsional yondashuvga ega bo‘ladi. Ular mashg‘ulot jarayonida nafaqat rasm chizish bilan cheklanmay, balki hikoya asosida obraz yaratish, musiqa bilan uyg‘unlashtirish, kollaj texnikasi, 3D kollaj va boshqa interfaol usullardan samarali foydalanmoqda. Bu esa o‘z navbatida bolalarning o‘z fikrini tasviriy vositalar orqali mustaqil ifoda eta olishiga olib keladi.

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida quyidagi

aniq amaliy takliflar ilgari suriladi:

• tasviriy faoliyat bo‘yicha milliy kontentga asoslangan metodik o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqish va chop etish;

• tarbiyachilar uchun yillik malaka oshirish dasturlariga zamonaviy, modulli va vizual interaktiv usullarni o‘z ichiga olgan maxsus kurslarni kiritish;

• har bir hududda mintaqaviy “Tasviriy san’at markazlari”ni tashkil etib, u orqali doimiy amaliy seminar va treninglar o‘tkazish;

• multimedia vositalari (video darslar, AR texnologiyalar, mobil ilovalar)dan foydalanib ta’limiy jarayon sifati va qamrovini oshirish;

• har bir MTTda “San’at laboratoriyasi”ni tashkil etish orqali bolalarning ijodiy tajribasini boyitish;

• milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish va tajriba asosida amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy savodxonlikni rivojlantirish pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqadigan strategik vosita bo‘lib, u milliy ma’naviyat, estetik tarbiya va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligini ta’minlaydi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tizimli olib borish va davlat dasturlarida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘zda tutish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.

2. G‘ofurova M. “Maktabgacha ta’lim metodikasi”, – T.: Ilm Ziyo, 2021.

3. Jo‘rayeva N. “Tasviriy san’at asoslari va metodikasi”, – T.: O‘qituvchi, 2022.

4. PQ–4312-son, “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qaror, 2019-yil 8-may.

5. Tursunova Z. “Innovatsion pedagogika”, – T.: Fan va texnologiya, 2020.

6. Vygotsky L.S. “Art and Psychology”, Moscow, 1995.

7. Малофеев Н.Н. “Искусство в образовании детей”, Москва: Просвешчение, 2018

8. Bunyodova S. “Didaktik san’at: metod va shakllar”, – T.: Akadem nashr, 2022.

**Ulug‘bek ZOKIROV,**
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, tayanch doktorant

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING SOG‘LIK-SALOMATLIGI, JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI MONITORING QILISHNING DOLZARBLIGI

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining sog‘lik salomatligini saqlash va uni muhofaza qilish, jismoniy anatomik va fiziologik tomondan yillar davomida rivojlanish bosqichlari, jismoniy sifatlari kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilikni qanday darajada yoshga nisbatan rivojlanishi va ularning o‘quv yili mobaynida monitoring faoliyatini olib borishda amalga oshirilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch so‘zlar.** Monitoring, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifat, jismoniy tayyorgarlik, anatomik va fiziologik holat.

В статье рассматриваются этапы сохранения и охраны здоровья воспитанников младших, средних, старших и подготовительных групп дошкольных образовательных организаций с физической анатомической и физиологической точки зрения на протяжении многих лет, степень развития физических качеств силы, быстроты, ловкости, гибкости, выносливости по отношению к возрасту и исследования, проведенные при проведении мониторинговой деятельности в течение учебного года.

**Ключевые слова.** Мониторинг, физическое развитие, физическое качество, физическая подготовка, анатомическое и физиологическое состояние.

The article examines the stages of health preservation and protection of the health of pupils of junior, middle, senior, and preparatory groups of preschool educational organizations, physical anatomical and physiological development over the years, the degree of development of physical qualities such as strength, speed, agility, flexibility, endurance in relation to age, and research conducted during their monitoring activities during the academic year.

**Key words.** Monitoring, physical development, physical quality, physical fitness, anatomical and physiological state..

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lik salomatligiga va ularni jismonan rivojlanishiga dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida alohida e’tibor berib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturida bolalarning aqliy, nutq, muloqot, o‘qish yozish malakalarining rivojlanishi hamda jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha kompetensiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning yosh guruhlarini hisobga olib ularni jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajalarini monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Monitoring keng ma’noda ta’lim sohasida hamda maktabgacha ta’lim tashkilotida asosiy nazoratni tashkil etish vositasi sifatida qaralib kelmoqda. Monitoring tushunchasini xalqaro miqyosidagi olimlar turlicha ta’rif berishgan.

G.M. Romansev, V.A. Feodorov, I.V. Osipova O.V. Tarasyukning ma’lumotlariga ko‘ra, monitorng muayyan jarayonlar, ko‘rsatkichlar va ijtimoiy hodisalarni o‘z vaqtida muntazam ravishda standartlashtirilgan kuzatish, ularning haqiqiy holati, rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida asosli g‘oyalarni olish uchun doimiy kuzatuvlar natijalarini taqqoslash bo‘lsa, ikkinchi tomondan monitoring inson faoliyati natijasida atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni aniqlaydigan kuzatuvlar va tadqiqotlar to‘plami hisoblanadi.

M. Odilova, D. Jabbarova, S. Jo‘rayevning fikriga tayangan holda monitoring muayyan voqelikni tekshiruvchi, nazorat etuvchi va uning natijalarini umumlashtiruvchi jarayon.

Maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik monitoringni tashkil etishda diagnostika bolaning maktabga tayyorgarligiga doir muammolarini aniqlashga yordam berish, bu muammolarning jiddiyligini baholash, bola bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish maqsadlarida o‘tkaziladi. To‘liq diagnostikani o‘tkazish uchun ancha vaqt kerak bo‘ladi. Bolada charchash alomatlari kuzatilmasa, diqqatni bir joyga jamlay olsa diagnostikani har birini 25-30 minutlik vaqtdan iborat bir nechta uchrashuvlarda o‘tkazish ham mumkin. Topshiriqlarni bajarish davomida bolani shoshiltirmaslik, uning charchashini kuzatib borish, uning afzal ko‘radigan narsalariga diqqat qaratish (masalan, syujetli rasmlarni tanlab olishida), turli faoliyat turlari bilan bog‘liq bo‘lmaydigan topshiriqlarni taklif qilish muhim bo‘lib sanaladi. Bularning barchasi bolaga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ravishda namoyish qilish imkonini beradi.

N.M. Muxidinovaning ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tibbiy nazoratini tashkil etish shifokor, tibbiyot hamshirasi, mudira va tarbiyachilarning hamkorlikda ishlashini taqozo etadi. Ishning bu qismi maktabgacha tarbiya tashkiloti tarbiyalanuvchilarning salomatligi yoki bolalar shifoxonasining har yilgi jismoniy rivojlanishi tibbiy ko‘riklarida shifokor tomonidan chuqur tekshirish va funksional o‘rganilayotganda amalga oshiriladi. Aniq belgilangan muddatda, shuningdek, tekshirilishi va zarur bo‘lganida bolalar shifoxonasining shifokor-mutaxassislari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Sog‘liqni baholash kompleks tarzda: tibbiy ko‘rigi ma’lumotlari, nerv-psixik va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, bola kasallanishini hisobga olish asosida o‘tkaziladi. Tekshirishda, avvalo bolaning jismoniy rivojlanishi aniqlanadi. Buning uchun antropometrik ya’ni anatomik va fiziologik ko‘rsatkichlar: gavda uzunligi, gavda og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda esa boshni ham hisobga oladi.

Jismoniy anatomik va fiziologik tomondan rivojlanishida bolalarning jismoniy sifatlarining rivojlanganligi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy sifatlar kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlikni rivojlanganligi bolalarning jismoniy tomondan bo‘y, vazn, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, yurak urush tizimiga hamda markaziy nerv sistemasiga ham ijobiy tomondan ta’sir etadi. Bu jarayonga sabab sifatida jismoniy haraktning faol bo‘lishi va jismoniy tarbiya mashg‘ulotida mashqlar bilan bolalarni shug‘ullanganligini ko‘rsatishimiz mumkin.

L.H. Carol o‘zining ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi 4-6 yoshli bolalarning jismoniy faolligini 4 qismga bo‘lib ajratgan.

1. O‘tirgan yoki yotgan holdagi faoliyatlarga (kompyuter, telvizor, smartfon va turli xil gadjetlardan kun mobaynida foydalanish, bir joyda bo‘lish).
2. Yengil harakat faoliyatlari.
3. O‘rtadan yuqoriga o‘tuvchi harakat faoliyatlar.
4. Yuqori darajadagi harakat faoliyatlari.

Yuqoridagi jismoniy faollik qismlari bolalarning jismoniy holatini aniqlash va qanday darajada ekanligini bilishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi.


Jismoniy faollikni tashkil etishda quyidagi omillar muhim deb qaraladi:

– jismoniy faolliknini tashkil etuvchi omillar (tana og‘irligi, harakat malakalari, o‘yin o‘ynash davomiyligi);

– ijtimoiy omillar (oilada ota va onaning hamda o‘qituvchining jismoniy tayyorgarlikga bog‘liqligi);

– psixologik omillar (ota onaning bolaning jismoniy tarbiyaga qiziqishi va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishni xohlashi bo‘yicha tushunchalarga egaligi) .

1-rasmda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini qo‘llab-quvvatlash modeli orqali har bir bolaga ta’sir etuvchi omillar ya’ni jismoniy tayyorgarlik va jismoniy harakat faollikning past darajadan yuqori darajasiga ko‘tarishda nimalar salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa ularni bartaraf etish imkoniyatlari, ijtimoiy tomondan oilada bolaning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda sport to‘garaklariga borishida pul mablag‘ining yetishmasligi yoki jismoniy tarbiya bilan qiziqishning yo‘qligi ko‘rsatib o‘tilgan. Model jismoniy faollik imkon beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi omillarni o‘z tarkibiga kiritgan. Jismoniy tomondan harakat faoliyatining yuqori darajada bo‘lishi, ma’lum bir mashqlarni bajara olishi, jismoniy rivojlanishda boyning, vaznning tanaga nisbatan mutanosibligi berilgan. Shaxs demografiyasida bolaning yoshi, irqi, jinsi ajratib ko‘rsatilgan.




*1-rasmda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini qo‘llab-quvvatlash modeli.*

Toshkent shahridagi 62 va 103-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog‘lik-salomatligi, jismoniy anatomik va fiziologik tomonlari hamda jismoniy tayyorgarlik holatlari dastlabki nazorat bosqichlari tashkil etildi. Bolalarning jismoniy tayyorgarligini baholashda va ularni nazorat qilishda maxsus ishlab chiqilgan jismoniy tayyorgarlik mezonlaridan foydalanildi.

Toshkent shahar 62 va 103 sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalarining jismoniy tayyorgarlik holati “Gepartlar” 10 metrga yugurish, “Kingurular” turgan joyda uzunlikka sakrash, “Flamingo” bir oyoqda muvozanat saqlab

turish, “Chaqqonlar” 2x5 metrga, 3x10 metrga, 10 metrga ilon izi shaklida yugurish, “Kuchlilar” basketbol va futbol to‘pini turgan joyda uloqtirish mezonlari harakatli o‘yin sifatida bolalardan olindi. Toshkent shahar 103-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rta guruhidagi 4-5 yoshli bolalarning “Gepartlar” 10 metrga yugurish testida o‘rtacha yuqori natija 3,5 sonya, o‘rta natija 4,7 sonya va past natija 6,1 sonyani tashkil etdi. “Kuchlilar” futbol to‘pini uloqtirish mezonida yuqori natija 240 santimetrni, o‘rta 161 santimetrni, past 100 santimetrni tashkil etdi. 62-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rta guruhidagi 4-5 yoshli bolalarning “Gepartlar” 10 metrga yugurish testida o‘rtacha yuqori natija 3,2 sonya, o‘rta natija 4,1 sonya va past natija 5,2 sonyani tashkil etdi. “Kuchlilar” futbol to‘pini uloqtirish mezonida yuqori natija 320 santimetrni, o‘rta 185 santimetrni, past 120 santimetrni tashkil etdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, 62 va 103 maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog‘lik salomatligini nazorat qilishda tibbiy yo‘nalishdagi mutaxassisning ishlari reja asosida amalga oshirilishi ularning anatomik va fiziologik tomonlarini kuzatishda o‘sish va pasayish darajalarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Monitoring faoliyatida mashg‘ulot yiliga 2 marotaba sentabr va may oylarida tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari tarbiyalanuvchilarning kasalligining etiologiyasi ham aniqlanadi. Jismoniy tayyorgarligi harakat sifatlarning rivojlanishi, bolalarning harakat ko‘nikmasini shakllanishi, kichik va katta harakat motorikalarining rivojlanishi jismoniy tarbiya yo‘riqchisining kasbiy kompetensiyasi, mahorat va malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Mashg‘ulotlarni bolalarga harakatli o‘yin sifatida yoki estafetali o‘yin orqali tashkil etilishi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Bolalar 3-7 yoshda aqliy, bilish, nutq kompetensiyalari endi rivojlanayotgan bo‘lib, o‘yinda bolalarga mashqlarni berish samarali natijalarni olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdunazarova N.F. Olti yosh bolani maktabga tayyorligini bilish diagnostikasining mazmun mohiyati. // “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to‘plami. – T., 2021. 15-17-b.

2. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T., 2018-yil.

3. Muxitdinova N.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi ustidan tibbiy-pedagogik nazoratni olib borish. // Science and Education. 2022 (5) 987-994 b.

4. Odilova M., Jabbarova D., Jo‘rayev S. Pedagogik atamalar. – Namangan, 2023. – 47 b.

5. Zokirov U.M. Maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda gimnastika mashqlaridan foydalanishning samarali yo‘llari. // “Yakka kurash sport turlarida yillik sikl bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami.– Chirchiq, 2025. 31-33-b.

6. Романцев Г.М., Федоров В.А., Осипова И.В., Тарасюк О.В. Профессионально-педагогические понятия: Словарь. – Екатеринбург.: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2005. – 283 с.

7. Carol L.H. Factors associated with physical activity in kindergarten children. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of doctor of philosophy in nursing. – Texas, 2014. – 6-20 p.

**Nafisa BAHRIYEVA,**
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, "Psixologiya" kafedrasi, assistent o'qituvchi
**Jasmina BAXRIYEVA,**
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Psixologiya yo'nalishi, talaba

# INSONNING EKSTREMAL HAYOT VAZIYATLARIGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

**Annotatsiya**

Maqolada insonning ekstremal hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorgarligi muammosi muhokamaga qo'yiladi. Ekstremal, ekstremal hayotiy vaziyatlarning muhim xususiyatlari va ularning psixologik asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, insonning ekstremal hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorgarligi fenomeni, uning mazmuni, tuzilishi va ishlash xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

**Tayanch so'zlar.** Ekstremallik, ekstremal vaziyat, ekstremal vaziyat mavzusi, shaxsning faoliyatga psixologik tayyorligi, insonning ekstremal vaziyatlarga psixologik tayyorgarligi

В статье рассматривается проблема психологической готовности человека к экстремальным жизненным ситуациям. Рассматриваются важные особенности экстремальных, экстремальных жизненных ситуаций и их психологические основы. Она также направлена на анализ феномена психологической готовности человека к экстремальным жизненным ситуациям, его содержания, структуры и особенностей функционирования.

**Ключевые слова.** Конечность; экстремальная ситуация, субъект экстремальной ситуации, психологическая готовность человека к деятельности, психологическая подготовка человека к экстремальным ситуациям.

The article discusses the problem of a person's psychological preparedness for extreme life situations. Important features of extreme, extreme life situations and their psychological foundations are considered. It is also aimed at analyzing the phenomenon of psychological readiness of a person for extreme life situations, its content, structure, and features of functioning.

**Key words.** Extremity, extreme situation, the subject of an extreme situation, psychological readiness of a person for activity, psychological preparation of a person for extreme situations.

Hayotdagi qiyinchiliklar ekstremal xarakterga ega bo'lib, zamonaviy voqelikning eng muhim voqeliklaridan biriga aylanmoqda. Tabiiy ofatlar, ekologik ofatlar, terrorizm, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, individual inqirozlar, jinoyatlar, baxtsiz hodisalar, kasbiy xavf-xatarlar, shaxsiy hayotiy vaziyatlar uning mavjudligining barcha darajalarida inson hayoti va sog'lig'iga keng ko'lamli tahdidlarni keltirib chiqaradi. Kosmosning kengligi va ekstremallik ko'rinishlarining ko'pligi bizga inson va umuman jamiyatning ekstremal holati haqida gapirishga imkon beradi. Mavjud vaziyat tadqiqotchilarning ekstremallikka alohida e'tibor qaratishini talab qilmoqda. Ushbu mavzuning psixologik o'lchovdagi o'ta murakkabligi, ko'p qirraliligi va ekstremallikning muhim xususiyatlari, ekstremal vaziyatlar va ularni yengib o'tishni ta'minlaydigan insonning psixologik resurslarini ilmiy tushunishni dolzarblashtiradi. Tarixiy, an'anaviy ravishda ekstremallik (lotincha ekstremum – ekstremal, yakuniy) haqiqatning umumiy

qonunlaridan biri, tabiat, jamiyat bilan munosabatlar tizimidagi hayotning tabiiy hamrohi sifatida qaraladi va “mavjudlikning chegaraviy holatini’’ ifodalaydi. ‘‘Narsalar’’, “jonli materiyaga, oliy aqliy ta’limga har qanday turdagi ta’sirning ekstremal ifodasi’’. Bu nozik ma’noda V. A. Ponomarenkoning iborasida “ongga da’vat, his-tuyg‘ularga zarba’’, universal tahdid, tana va shaxsning hayotni qo‘llab-quvvatlovchi va hayotiy funksiyalarini tartibga solishda tartibsizlik omilidir. Ushbu jarayonning dialektikasi “haddan tashqari holatlarda’’ qarama-qarshiliklarning tez o‘zaro kirib borishi va bir-biriga aylanishi bilan to‘yingan bo‘lib, tabiiy ravishda “halokatli yoki halokatli o‘zgarishlar’’ni keltirib chiqaradi. Ekstremallik insonning xulq-atvoriga muqarrar ravishda katta ta’sir ko‘rsatadi, uning ekzistensial mohiyatini og‘irlashtiradi, shaxsdan kuch va qobiliyatlarning, irodasi va o‘zini o‘zi tashkil etishning alohida konsentratsiyasini, uning moslashuvchan qobiliyatlari chegarasida joylashgan yoki mavjud bo‘lganidan oshib ketadigan harakatlarni talab qiladi. U shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va fazilatlarini, uning funksional imkoniyatlarini saqlab qoladi, namoyon qiladi.

Ekstremallikda ikkita rejim bir-biriga bog‘langan: imkoniyat va imkonsizlik, ijobiy va salbiy, saqlanish va o‘sish, tartibsizlik va ijodkorlik (Sh.A.Magomed – Eminov). Tizimli loyihalashda ekstremallik ushbu hodisani konsepsiyalash sohasini tashkil etuvchi uchta asosiy jihat kontekstida o‘rganiladi: 1) vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari, faoliyat shartlari majmui sifatida; 2) ekstremal vaziyatlardagi faoliyat subyektining xususiyatlari, uning tayyorgarligi; 3) oqibatlarning xususiyatlari ekstremal sharoitlarda inson faoliyati.

Birinchi “rag‘batlantiruvchi’’, “vaziyatli’’ yo‘nalishni o‘rganishda ekstremal vaziyat aniqlandi:

– shartlarning situatsion, takroriy yoki uzoq muddatli doimiy ta’siri natijasida yuzaga keladi, ular nafaqat odatiy holatdan tashqariga chiqadi, balki voqealarning keyingi rivoji uchun ham hal qiluvchi, jamiyat hayoti parametrlarining tubdan o‘zgarishini belgilaydi; (guruh,shaxs), dinamik nomuvofiqlik holatiga olib keladi – bu vaziyat elementlarining o‘rtacha qiymatlarida optimal “fon’’ yaratadigan yoki hech bo‘lmaganda manba sifatida sezilmaydigan chegaraviy, ekstremal qiymatlari. noqulaylik, tananing reaksiyalarini keltirib chiqaradi, psixologik buzilishlar yoqasida;

– to‘satdan, hayratlanarli, noaniqlik va rivojlanishning oldindan aytib bo‘lmaydiganligi, vaqt yetishmasligi, subyektiv murakkablik va mas’uliyat, xavf, qo‘rquv, keskinlik va qarama-qarshiliklarga to‘yingan haddan tashqari zo‘riqish bilan tavsiflangan yangi, o‘zgargan haqiqatni yaratadi; vaqtinchalik o‘zgarishlar, xavf, tahdid, halokat olib keladi va shu bilan birga qat’iyatlilik, insonparvarlik, jasorat, g‘amxo‘rlik, muvozanatli ratsionallik, insonning eng yuqori ma’naviy, axloqiy, psixofizik fazilatlariga “chaqiruv’’;

– hayot tajribasining yaxlitligini va insonning hayotiy dunyosi tasvirining uyg‘unligini buzadi, uning oddiy mavjudligi va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlarini cheklaydi, bir tomondan, boshqaruvni yo‘qotish, yordamsizlik, umidsizlik, boshqa tomondan, kundalik haqiqatda inson uchun erishib bo‘lmaydigan imkoniyatlarni ochadi. Ekstremallik metapsixologik nuqtayi nazardan, ehtimollik holati, ya’ni ikki tomonlama imkoniyat sifatida ta’riflanadi: imkonsizlik imkoniyati, bu imkoniyat imkoniyatini ochadi;

– bu nafaqat ta’sir qilish va javob berish holati, balki inson faoliyatining holati, kengroq aytganda, insonning mavjudligi holatidir. Ekstremal vaziyat qasddan qilingan mavzudir inson faoliyatining (obyektiv ma’nosi) (M.Sh.Magomed-Eminov);

– ekstremal konseptual sohada turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: “muammoli vaziyat’’, “tanqidiy vaziyat’’, “inqirozli vaziyat’’, “hayotiy qiyinchiliklar’’, “travmatik vaziyat’’, “maxsus voqeliklar’’, “real xavf’’ holati, “xavfni kutish’’ holatlari va boshqalar.

Vaziyatni ekstremal deb belgilash uchun parametrlarning ko‘pchiligi istisno qilmaydi, aksincha, ularning har birida qandaydir nomuvofiqlik mavjudligini, subyektiv va obyektiv, ichki va tashqi, ya’ni mavjudligi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlaydi. Shaxs (subyekt) va uning faoliyatining tashqi sharoitlari o‘rtasida qanday qarama-qarshiliklar mavjud. Bu shaxsning xususiyatlari, uning resurslari va voqelik sharoitlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik vaziyatga mos keladigan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishini aniqlashning potentsial sohasini yaratadi, shaxsning o‘ziga xos fazilatlarining namoyon bo‘lishini va kengayishini amalga oshiradi. uning funktsional imkoniyatlari (V.G. Aseev).

Inson duch keladigan qarama-qarshiliklar ekstremal vaziyatni boshdan kechirish, uning ongida turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkin: inqirozlar, nizolar, stresslar, to‘siqlar, to‘siqlar va boshqalar shaklida har bir bunday qarama-qarshilikning inson ongida uchta tomoni bor:

1) kognitiv;
2) affektiv;
3) motivatsion.

Kognitiv tomon noaniqlik, muammolar, vazifalar, savollar shaklida tan olinadi. Qarama-qarshiliklarning affektiv tomoni tajribalar, tashvishlar, xavotirlar, qo‘rquvlar, tashvishlar va boshqalar shaklida taqdim etilishi mumkin. Qarama-qarshiliklarning motivatsion tomoni intilishlar, istaklar, tashvishlar va boshqalar shaklida taqdim etiladi (M. Sh.Magomed – Aminov). Yashashga intilish, mavjudlikni saqlab qolish, faoliyatga bo‘lgan xohish – insoniy mavjudlik holati sifatida ekstremal vaziyatning muhim xususiyatlari. Insonning bunday hayotiy vaziyatlarga tayyorlanmaganligi salbiy oqibatlarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Vaziyatning zaif tomonlarini va uning qarama-qarshiliklarini davolash yengib o‘tish va hal qilish uchun obyektiv bo‘lgan shaxsning faolligini va shaxsiy rivojlanishini faollashtirish mumkin. Boshqacha aytganda, har qanday ekstremal bu holat unga mavzuni kiritishni nazarda tutadi. Ekstremal omillar “bo‘shliqda’’ harakat qilmaydi, shuning uchun “obyektsiz subyekt yo‘q’’ tamoyili psixologiya uchun muhimdir (agar ekstremal omil obyektiv kuch sifatida qabul qilinsa), bu yerda obyekt murakkab sharoitlar va faoliyat jarayonidir, va mavzu – bu o‘rnatish holati, keskin o‘zgargan sharoitlarda harakat qilish usuli. Shunday qilib, ekstremal omil ham “tashqi’’, ham “ichki’’ kuch sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, ularning o‘zaro bog‘liqligi insonning vaziyatni individual idrok etish xususiyatlari, unga munosabati va faoliyatning mumkin bo‘lgan namoyon bo‘lishida amalga oshiriladi. Vaziyat bir xil bo‘lishi mumkin, ammo uning shaxs psixikasida aks etish shakllari juda xilma-xil bo‘lib, xavf subyektiv bo‘lib chiqishi mumkin, shuning uchun “ekstremallik’’ mezoni har doim shaxsning ichki psixologik tekisligi bilan bog‘liq. Shaxs va hodisa o‘zaro sindirilib, shaxsning hayotning ekstremal sharoitlarini psixologik qayta ishlashiga qarab, ular unga turli xil tajriba va reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Ekstremallikning ikkinchi (shaxsiy, reaktiv) jihati doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekstremal sharoitlarda inson xatti-harakatlari reaktsiyalarining shakllari har xil bo‘lishi mumkin. Bu ruhiy va jismoniy azob-uqubatlar, qo‘rquv, og‘riq, qayg‘u va faollikning sezilarli darajada pasayishi, bema’ni holatga qadar va faol-samarali odam uchun travmatik faol-emotsional tajriba tana va shaxsiyatning sog‘lig‘i va yaxlitligini saqlab, ekstremal muammolarni hal qilishga qaratilgan vaziyatga munosabat. Ekstremal vaziyatni psixologik jihatdan yengib o‘tish uchun individual strategiyalar arsenali, uni hal qilish yo‘llarining repertuari juda keng, mavzu va vaziyatlarning o‘zaro ta’siri ko‘p qirrali, ammo umuman olganda ular uchta eng mumkin bo‘lgan pozitsiyani aks ettiradi:

1) buzilish-shikastlanish reaktsiyasi;

2) moslashish reaktsiyasi – qat’iyatlilik, jasorat;

3) o‘sish reaktsiyasi – rivojlanish, ularning har biri inson uchun ekstremal vaziyatning o‘ziga xos oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Ekstremal vaziyat salbiy bo‘lsa, u inson uchun falokat va azobga aylanadi; agar u befarq bo‘lsabarqaror – bu odamning jasorati va jasoratining ma’lum bir sinovi; ijobiy idrok bo‘lsa, bu o‘sish holati, insoniyatning shakllanishi, shaxsiyat, shaxs mavjudligining timsolidir. M.Sh.Magomet – Eminovning semantik konsepsiyasi nuqtayi nazaridan, ekstremal vaziyatning oqibatlari, rasmiy ravishda, “reaksiyalar’’, javoblar, ushbu hodisaga javoban shaxsda yuzaga keladigan: salbiy oqibatlar “ta’sir – tartibsizlik (buzilish)’’ sxemasiga, neytral oqibatlar –“ta’sir - barqarorlik’’ sxemasiga, ijobiy oqibatlar –“ta’sir – konstruktiv rivojlanish trans-formatsiya’’ sxemasiga mos keladi.

Ekstremal vaziyatni yengib o‘tish xususiyatlari, aksariyat mualliflar ta’kidlaganidek, insonning shaxsiyatiga, uning ekstremal vaziyat haqidagi g‘oyasiga, ushbu sharoitlarda yo‘qolishi yoki yo‘q qilinishi mumkin bo‘lgan qadriyatlarning ahamiyatiga, uning ichki dunyosining xususiyatlariga, ichki haqiqat, madaniyat, hayotiy tajriba va “biografik stress’’ darajasi, o‘ziga xos xususiyatlar insonning semantik ishi va hayotning mazmunlilik darajasi, mazmunlilik qanchalik yuqori bo‘lsa, hissiy jalb qilish, o‘z-o‘zini anglashdan qoniqish, ichkilik va ekstremal vaziyatni yengib o‘tishdagi qat’iyatlilik darajasi. Ekstremal vaziyatni muvaffaqiyatli hal qilish yuqori stressga chidamlilik, insonning hissiy-irodaviy barqarorligi, uning qobiliyatlari bilan ta’minlanadi. Asosli xavf, jasorat, suprasituatsion faoliyat, uning rivojlanish darajasi yetarli emasligi nevrotik kasalliklar va psixosomatik kasalliklar xavfini oshiradi. Ekstremallikni yengish uchun maxsus imkoniyatlar shaxsiy resurs, ya’ni hayotiy faoliyatning umumiy turlari va xatti-harakatlarning o‘ziga xos shakllari, javob berish, moslashish va boshqalar tushunchasini ta’minlaydigan insonning turli tarkibiy va funksional xususiyatlarining zaxirasi kabi toifa bilan bog‘liq.

Inson resurslari, juda keng qo‘llanilishiga qaramay, hali yetarli darajada rivojlanmagan, garchi umumiy ma’noda u energiya va axborot jarayonlarining imkoniyatlarini, kasbiy yo‘naltirilganlik darajasini aks ettiradi. Funksiyalari, ularning moslashuvchanligi, barqarorligi va kompensatsiyasi, o‘zlashtirilgan dasturlari va faoliyatning turli shakllarini tartibga solish usullarining mavjudligi va boshqalar. va hokazo D.A.ning so‘zlariga ko‘ra. Leontievning fikriga ko‘ra, insonning qiyin vaziyatlarni qay darajada yengib o‘tishi va o‘zi uning shaxsiy salohiyatida namoyon bo‘ladi, uning namoyon bo‘lishining o‘ziga xos shakllaridan biri noqulay vaziyatlarda shaxsning o‘zini o‘zi belgilash fenomenidir shartlar. Umuman olganda, V.A.ning ta’rifiga ko‘ra. Ponomarenkoning so‘zlariga ko‘ra, ekstremal bilan aqliy o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos turi mavjud bo‘lib, u insonning barcha psixologik resurslari va potentsiallarini safarbar qilishda namoyon bo‘ladi – bu dunyo, shu jumladan yuqori baholash mexanizmlari: ruh, axloq, or-nomus, qadr-qimmat, odob, ezgulik, burch, fidoyilik va shu bilan birga o‘ziga, odamlarga, dunyoga mas’uliyatli munosabat”.

Taqdim etilgan keng ilmiy tushunchaga amal qiladigan bo‘lsak, vaziyatning ekstremalligi – bu oddiy insoniy tajriba chegarasidan tashqariga chiqish, bu “odam va uning chegarasidan tashqariga chiqish jarayonida o‘zi o‘rtasidagi nomuvofiqlik’’. Hayotning ekstremal daqiqalarida bu nomuvofiqlik, insonning o‘zini o‘zi ilgari surishi eng aniq namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, tejash uchun uning ayrim parametrlarining barqarorligi, ayniqsa shaxs sifatida mavjudligi uchun muhim bo‘lgan – hayotiy maqsadlar, qadriyatlar, tamoyillar, axloqiy fazilatlar – u juda o‘zgaruvchan voqelik sharoitida o‘zining turli xil

psixologik fazilatlarini o‘zgartirishi kerak. Psixologik shaxsning mavjudligi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini o‘zgartirish nuqtayi nazaridan o‘zgarishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, bu katta psixologik kuch talab qiladi. Yangi sharoitdagi faoliyat shaxsiyat tizimida yangi qismning bo‘linishini, o‘ziga xos yangi psixologik organning shakllanishini nazarda tutadi. Yangi sifatda, ilgari shakllangan yoki endigina paydo bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar paydo bo‘lishi kerak, ular yangi paydo bo‘lgan xususiyatlar bilan to‘ldirilishi kerak. Insonning faol mavjudligini yangi yo‘l bilan egallashini ko‘rsatadigan yuqori ruhiy zo‘riqish holatini ko‘rib chiqish mumkin. Insonning aqliy hayotining keng tizimlarining faollashishi, o‘zining dunyo, o‘zi va boshqalar bilan hayotiy munosabatlarining mavjud xilma-xil tizimlarini bir vaqtning o‘zida aktuallashtirish ko‘rsatkichiga aylanadi. Fanda shaxsning bunday o‘zgarishlarining natijalari “tayyorlik’’ tushunchasi bilan boshlanadi, bu o‘zgaruvchan vaziyatlarda o‘zgaruvchan shaxsning avtonom xususiyati va shuning uchun o‘ziga xos kelib chiqishi, mazmuni va rivojlanish tarixiga ega. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi qo‘llaniladigan turli sohalarning mavjudligi uning murakkabligini ko‘rsatadi, inson hayotining eng muhim daqiqalarida psixologik shakllanish sifatida namoyon bo‘ladigan psixologik hodisa sifatida faoliyat ko‘rsatishning dinamikligi va ko‘p qirraliligi. Umuman olganda, psixologik tadqiqotlarda insonning “psixologik tayyorligi’’ fenomenini talqin qilishning ikkita yondashuvi mavjud: funksional va shaxsiy. Buning boshlang‘ich nuqtasi “insonning faoliyatga tayyorligi’’ tushunchasidir.

Birinchisi, faoliyatga tayyorlikni uning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydigan barcha inson psixofiziologik tizimlarini safarbar qilish holati sifatida tushunishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi “psixologik tayyorgarlik’’ni o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan, tarkibiy qismlarining psixologik mazmunining o‘ziga xosligi aniqlanadigan yaxlit shaxsiy shakllanish sifatida izohlaydi. Namoyon bo‘lish sohasining mazmunli konteksti, shuningdek, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, uning imkoniyatlari, yo‘nalishi, faoliyati va ichki dunyosining o‘ziga xosligi. Tayyorlik haqidagi tushunchamiz ushbu hodisani tavsiflovchi bir qator boshlang‘ich nuqtalarni aniqlashga imkon beradi:

– murakkab psixologik shakllanish sifatida shaxsning faoliyatga psixologik tayyorgarligi subyektning muayyan faoliyatga umumiy yo‘nalishini ifodalaydi, uning voqelikning muayyan tomonlariga va o‘ziga nisbatan faol va ijodiy munosabatini aks ettiradi;

– shaxsning psixologik tayyorgarligi faoliyatning ma’lum vektorizatsiyasi, tanlanganligi, ma’lum bir harakat yo‘nalishiga moyilligi bilan tavsiflanadi;

– o‘zining yaxlitligi va yaxlitligida, eng umumiy fazilatlari va o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsning faoliyat yo‘nalishi soyalar va ular ichida insonning kognitiv, hissiy va xatti-harakatlari namoyon bo‘ladi;

– tayyorlikning har qanday turi subyektda ma’lum bir harakat strukturasi tasvirining mavjudligi va uni amalga oshirishning doimiy niyati, bundan tashqari, samarali, mohiyatli turning motivatsion shakllanishi sifatidagi niyat bilan shartlanadi diffuz funksional ehtiyoj o‘ziga xos motivga ega bo‘ladi;

– psixologik tayyorlik – dinamik shakllanish bo‘lib, u turli darajadagi tashkilotning rivojlanayotgan tizim sifatida ishlashini nazarda tutadi, ularning har biri uning tarkibiy qismlarining o‘ziga xos ko‘rinishi va ularni ifodalash o‘lchovi bilan belgilanadi;

– shaxsning ajralmas psixologik shakllanish sifatida faoliyatga psixologik tayyorgarligining ishlashi uni tashkil etishning barcha psixologik darajalarida: kognitiv, motivatsion, hissiy-irodaviy, operativ xulq-atvorda haqiqiy va potensial o‘rtasidagi to‘siqni bartaraf etish bilan belgilanadi;

– shaxsning faoliyatga psixologik tayyorgarligi shaxsning hayotiy tajribasida yuzaga

keladigan qarama-qarshiliklarning murakkab kombinatsiyalangan tuzilmasi makonida yuzaga keladi va rivojlanadi, rivojlanishning aniqlovchi, yetakchi omillari rolini obyektiv ravishda taqdim etilgan talablar tizimi bajaradi.

Tegishli kutib olishni belgilaydigan shaxs inson faoliyati, bu jarayonda zarur shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish boshlanadi. Rivojlanishni boshlash uchun zaruriy shart – bu oddiy holatlarda ko‘p hollarda ishlatilmaydigan kamida kichik funksional zaxiraning mavjudligi.

Ushbu tushunchada insonning ekstremal vaziyatga psixologik tayyorgarligi, xuddi kuchli siqilgan buloq kabi, o‘ralgan shaklda, murakkab muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan va yetarli darajada zarur bo‘lgan harakatlarning barcha elementlarini to‘playdi. Psixologik hodisa sifatida, ekstremal vaziyatlarda amalga oshirilgan tayyorgarlik subyektning salbiy his-tuyg‘ulari kuchini kamaytirishni, uning vaziyat bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish va undan chiqish yo‘llarini faol izlashni, shaxsning barcha subyektiv resurslari va psixologik imkoniyatlarini safarbar qilishni, maqsadga erishishni ta’minlaydi. Bu mavzu uchun hayotiy muhim, salbiyni minimallashtiradi. Ekstremal vaziyatga psixologik tayyorgarlikni amalga oshirishning hayotiy ssenariylari – bu insonning dunyoga, odamlarga va o‘ziga nisbatan multimodal munosabati ssenariylari. Shaxs va o‘z-o‘zini anglash kabi umumiy shakllanishlarning ajralmas qismi bo‘lgan murakkab psixologik tushuncha bo‘lib, shaxsning psixologik tayyorgarligi, bir tomondan, shaxsning psixologik tashkilotidagi dinamik o‘zgarishlarning natijasidir. Buning natijasida uning ishlash tartibi o‘zgaradi; boshqa tomondan, bu insonning hayoti va faoliyatining har qanday sohasidagi ekstremal vaziyatlarni individual yo‘l davomida yengib o‘tish sharti bo‘lib, ularning har biri uning kuchi va chidamliligining o‘sishi uchun yangi ufq bo‘lib xizmat qilishi mumkin; ma’naviyat va jasorat, or-nomus va qadr-qimmat, uning shaxsiy va psixologik salohiyatini rivojlantirish va kengaytirish manbai. Hayotiylikning evolyutsion zaxiralari bilan birgalikda, insonning psixologik tayyorgarligi ekstremallikka qarshi tizimni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Пономаренко В.А. Экстремальность и проблема отношения к профессиональной деятельности и в профессиональной жизни // Мир психологии. 2006. № 4 (48). С. 38-46.

2. Современный философский словарь. СПб., 2004.

3. Магомед-Эминов М.Ш. Феномен экстремальности. 2008.

4. Леонтьев Д.А. Личностный потенциал как потенциал саморегуляции // Личностный потенциал: структура и диагностика / под ред. Д.А. Леонтьева. М. 2011.

5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1986.

6. Анцыферова Л.И. Развитие личности и проблемы геронтопсихологии. М., 2006.

7. Бершедова Л.И. Психологическая готовность к переходу на новый этап возрастного развития как личностное новообразование критических периодов: автореф. дис. ... д-ра пси- хол. наук. М., 1999.

8. Nazarov A S. (2021). Rahbar faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tamoyillarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 342-348.

**Abdulatif SHERMUXAMMEDOV,**
Jizzax politexnika instituti, tayanch doktarant

# RAQAMLI TA’LIMNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

**Annotatsiya**

Maqolada raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitish jarayonida o‘quv jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shungdek, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi, talabalar uchun raqamli resurslardan samarali foydalanishdagi qiyinchiliklar va boshqa masalalar keltirib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar.** Raqamli ta’lim vositalari salbiy va ijobiy tomonlari, media savodxonlik, texnologik innovatsiya, so‘rovnoma, raqamli savodxonlik, ta’lim jarayoni samaradorligi.

В статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе обучения с использованием цифровых образовательных инструментов, и их решения. Также упоминается недостаточное развитие технологической инфраструктуры, недостаточные цифровые навыки преподавателей, трудности в эффективном использовании цифровых ресурсов для студентов и другие вопросы.


**Ключевые слова.** Цифровые образовательные инструменты, положительные и отрицательные аспекты, медиаграмотность, технологические инновации, опрос, цифровая грамотность, эффективность образовательного процесса.

The article analyzes the main problems encountered in the educational process using digital educational tools and their solutions. Insufficient development of the technological infrastructure, insufficient digital skills of teachers, difficulties in the effective use of digital resources for students, and other issues are also cited.

**Key words.** Digital educational tools, positive and negative aspects, media literacy, technological innovation, survey, digital literacy, educational process effectiveness.

Raqamlashtirish – bu nafaqat uning sifatini yaxshilash uchun hayotning turli sohalariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, balki fikrlash shakllari va ish uslublarini tubdan o‘zgartirishdir. Bugungi kunda bunday o‘zgarishlar faoliyatning deyarli barcha sohalarini, jumladan, ta’lim sohasini ham qamrab oldi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga axborot va bilimlarni samarali yetkazib berish, o‘quv materiallarini yaratish va o‘qitishning samarali usuli, eng muhimi, yangi ta’lim muhitini shakllantirish vositasidir. Jahonda global integratsiya va raqobatning kuchayib borishi sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida oliy ta’lim tizimida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bu boradagi tub ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Jahon ta’lim tizimiga axborot texnologiyalari joriy etilishi yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil, yuqori tezlikda o‘zlashtirishga, ta’lim berishni yanada samaraliroq qilishga qaratilgan. Bundan ko‘rinadiki, bugungi kunda xalqaro va milliy darajalarda oliy ta’lim faoliyati monitoringini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish masalalarining ilmiy tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz aholisi axborot texnologiyalari vositalari bilan bemalol tillasha” oladigan bo‘lishi kerak, deganidir. Bunga hozirda imkoniyatlar yetarli

bo‘lib, uning dastlabki bosqichlarining amalga oshayotganligini oiladagi maktabgacha yoshdagi farzandlarimizning uyali telefonlarda turli xil o‘yinlarni bemalol uddalay olishlaridan ham sezish mumkin. Shuning uchun ham hozirda aholi orasida raqamli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda turli xil jihatlar (omillar) ham e’tiborga olinmoqda. Ular quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi.




*1-rasm.*

Demak, raqamli texnologiyalar insoniyat hayotining barcha jabhalariga muntazam ravishda keng qo‘llanilib kelinmoqda va ular davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirib (avtomatlashtirib), ijtimoiy sohalarda ham katta qulayliklar yaratmoqda hamda ushbu jarayonlardagi faoliyatlarni optimallashtirib, xizmatlarni amalga oshirishni operativlashtirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda, shuningdek, ushbu jarayonlardagi sarflanadigan xarajatlar miqdorini ham sezilarli darajada kamaytirishga oid shart-sharoitlarni ta’minlamoqda. Raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitishda o‘quv jarayonidagi bir nechta ijobiy va salbiy va ularning nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

Bugungi kunda raqamli ta’lim vositalari ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashda katta rol o‘ynamoqda. Biroq, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etish, shuningdek, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ta’limda raqamli texnologiyalarini joriy etish, bo‘lajak mutaxassislar zamon talabiga mos, yetuk kadr qilib tarbiyalash bo‘yicha tadqiqotlar olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Raqamli ta’limning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganib, turli yechimlarni, va boshqa mutaxassislar ham ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlari, o‘z navbatida, raqamli ta’lim vositalarining ta’lim jarayoniga qanday integratsiyalashishini va bu jarayonda qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda.

Bu tadqiqotlar raqamli ta’lim texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi va yuqori malakali, bozor talabiga mos bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli ham hozirda hayotimizning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlari yaratib borilmoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar va ularning belgilari hamda qulayliklari, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bizga nima beradi, raqamli texnologiyalar mamlakatimizda qay darajada olib borilmoqda kabi yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari ham boshlab yuborilgan.

XXI asr ta’limi sanoat inqilobi 4.0 davriga kirib borganligi sababli, raqamli texno-

logiyalarni doimiy ravishda yangilab turish talab etiladi. Ta’limda raqamli media vositalaridan foydalanish foyda keltirsa-da, bu foydalarga qo‘shimcha ravishda bir qator muammolar ham yuzaga keladi. Ushbu muammolar qatoriga talabalar motivatsiyasining pasayishi, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqaning kamayishi, ta’limda zerikish va tez-tez akademik stress kiradi.

Ushbu tadqiqot uchun ma’lumot to‘plashda tizimli adabiyot sharhi (Systematic Literature Review) usuli qo‘llanilgan. Tadqiqot davomida 12 ta maqolani tahlil qilib, raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitishning ijobiy va salbiy tomonlari bartaraf etishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitishda oliy ta’lim muassalaridagi afzalliklar.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va o‘quv vositalarining rivojlanishi, ta’lim tizimida yangi yondashuvlar va metodlarni joriy etishga imkon yaratdi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitish jarayoni samaradorligini oshirish, talabalar bilan interaktiv aloqalarni kuchaytirish va global ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu sohadagi izlanishlarimiz va tajribalariga asoslanib, qayd etish mumkinki, raqamli texnologiyalardan amaliyotda foydalanish quyidagi qator afzalliklarni ta’minlay oladi.

– muammolar yechimlarini tezkor hal qilish imkonini beradi;

– raqamli texnologiyalardan amaliy faoliyatda foydalanishda masofa va hududning ahamiyati bo‘lmaydi;


– raqamli texnologiyalardan foydalanishda iste’molchining moddiy mablag‘ini va vaqtini tejaydi;

– iste’molchiga axborotning barcha turlaridan foydalanish imkonini beradi; iste’molchiga qarorlar qabul qilishning eng optimal variantlarini yaratishga imkoniyat yaratadi;

– tezkor va samarali feedback (maslahatlar) berishda keng imkoniyatlar yaratiladi;

– avtomatlashtirilgan tizimlarga kirib borish imkoniyatlari yaratiladi;

hududiy jihatdan turli joylarda joylashgan raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishlarga keng imkoniyatlar yaratiladi va h.k.




*1-diagramma*

Tadqiqot jarayonida 1-diagrammada keltirilgan ma’lumotlarning 93 foiz Jizzax politexnika instituti 62 nafar talabalarida tadqiqot natijalari o‘tkazilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan so‘rovnomada raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sirlarini ko‘rishimiz mumkin.

Raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitishda oliy ta’lim muassalaridagi ijobiy va salbiy tomonlari.

Raqamli ta’limning asosiy muammolaridan biri raqamli bo‘shliqdir. Bu muammo, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy holatga bog‘liq. Ba’zi talabalar internetga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi yoki zamonaviy texnologiyalarni ishlatishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonida tengsizlikka olib keladi. Raqamli bo‘shliqni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor tomonidan raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli qurilmalar bilan ta’minlash zarur. Bu holat, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim vositalari yordamida o‘qitish oliy ta’lim muassalarida bir qator salbiy tomonlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Texnologik resurslarning yetishmasligi.

Zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha bilim malaka va ko‘nikmalarning yetarli darajada ega emasliklari.

Kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish.

Texnologiyalarni qo‘llashda bir qancha to‘siqlar mavjudligi.

Internetdagi ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanmaslik.

Miniesa Texnologiya institutida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar butunlay raqamli ta’limni qo‘llab-quvvatlashi, shu bilan birga uning foydalarini tan olishadi. Bunday ta’limning imkoniyatlari kengayib, talabalar o‘zlarining o‘qishlarini istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshirishlari mumkin. Raqamli ta’lim platformalari, masalan, Google Classroom, WhatsApp yoki boshqa onlayn tizimlar, ta’lim jarayonini yanada samarali va tezkor qilishi mumkin, chunki ular talabalarni o‘zlarining vaqt va joyni tanlashda erkinlik beradi. Biroq, ba’zi talabalar butunlay raqamli ta’limga qarshi fikrda bo‘lishi mumkin, chunki ular turli to‘siqlarga duch kelmoqdalar.

Bu to‘siqlar texnologik cheklovlar, internetga kirish imkoniyatlarining yo‘qligi yoki onlayn ta’lim uchun zarur bo‘lgan raqamli vositalarga ega bo‘lmaslik kabi masalalardan kelib chiqishi mumkin. Ba’zi talabalar uchun, ayniqsa uzoq hududlarda yashovchilar uchun, internetning past tezligi yoki raqamli qurilmalarning yo‘qligi ta’limni amalga oshirishda katta muammolarga olib keladi. Shuningdek, ba’zi talabalar uchun mustaqil o‘qish qiyin, chunki ular an’anaviy o‘qitish usullari orqali yaxshiroq o‘rganishga o‘rganishgan va onlayn ta’limda o‘zlarini noqulay his qilishadi.

Shu sababli, ba’zi talabalar butunlay raqamli ta’limni qabul qilishda ikkilanayotganini va undan maksimal darajada foydalana olish uchun qo‘shimcha yordam va o‘qitish zarurligini ta’kidlashadi. Raqamli ta’limga bo‘lgan munosabatlar o‘zgarib turadi, chunki har bir talabaning texnologiyaga, uning imkoniyatlariga va shaxsiy ehtiyojlariga bo‘lgan yondashuvi turlicha. Bu sababli, ta’lim tizimi o‘quvchilarni o‘zgaruvchan raqamli dunyoga moslashtirishda individual yondashuvni hisobga olishni talab qiladi.

*1-jadval*

| № | Savol | To‘liq rozi | Rozi | Noroziman | To‘liq norozi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Raqamli texnologiya ta’lim jarayonida kognitiv qobiliyatlarni yaxshilaydi | 13,2% | 79,2% | 7,5% | 0% |
| 2 | Raqamli texnologiya ta’lim jarayonida mahoratni oshirishi mumkin | 34% | 64,2% | 0% | 0% |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Raqamli texnologiya ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega chunki o'quv jarayonini takomilllashtiradi | 81,1% | 17% | 0% | 0% |
| 4 | Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilgan ta'lim yanada samarali va tejamkor bo'ladi. | 84,9% | 13,2% | 0% | 0% |
| 5 | Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilgan ta'lim kamroq samarali va tejamkor bo'ladi. | 28,3% | 67,9% | 0% | 0% |
| 6 | Hozirgi raqamli davrda ta'limni qo'llab-quvvatlamagan ko'plab o'quv vositalari hali ham mavjud | 83% | 15,1% | 0% | 0% |

Tadqiqot jarayonida tashkil etilgan so'rovnomada muallif tomonidan aniqlangan quyidagi natijalar olingan. Bunda hozirgi kunda ta'limni raqamlashtirish jarayonida o'quv jarayonidagi raqamli ta'limning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin.

Raqamli ta'lim vositalari oliy ta'limda o'qitish jarayonini samarali, innovatsion qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bunday jarayonlarda elektron axborot resurslarining, elektron ta'lim muhiti va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ahamiyati beqiyos.

Biroq, texnik muammolar, foydalanuvchilarda yetarli bilim ko'nikma va malakalarning yetishmasligi va boshqa salbiy tomonlar ham mavjud. Shu bois, raqamli vositalarni to'g'ri va maqsadli foydalanish, foydalanuvchilar bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish shuningdek, raqamli ta'lim vositalarni to'g'ri va maqsadli foydalanish uchun o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishlari zarur. Ba'zi o'qituvchilarda bu vositalarni samarali qo'llashga bo'lgan tajriba yoki malaka yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foydalanuvchilarni doimiy ravishda raqamli ta'lim vositalar bilan ishlashga o'rgatish, ularning mahoratini oshirish va texnologiyalarga yangicha yondashuv bilan qarashga, ularni har tomonlama raqobatbardosh, zamonaviy yetuk kadr qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sadıkov Sh. Olıy ta'lım faolıyatı monıtorıngını tashkıl etıshda raqam_lı texnologıyalardan foydalanıshnı takomıllashtırısh. PhD diss avtor. – T., 2023

2. Джуринский А.Н. Цифровое образование в Западной Европе и США: надежды и реальность. //Сибирский педагогический журнал, 2019. № 3,с. 162-168.

3. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiy metodologiyasi. // Monografiya. – T.: Fan, 2006. 252 b.

4. Eshonqulov B.S. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning dinamik tizimi. // J.: Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'.– Nukis, 2022, №4/1. B. 13-16.

5. Buckingham D. Media Literacy in the Digital Age. – Monografiya. – 2003. – 230 b.

6. Молчанова Е.В. О плюсах и минусах цифровизации современного образования / Е.В. Молчанова // Проблемы современного педагогического образования. 2019. №64-4.

7. Дидактическая концепция цифрового профессионального образования и обучения / П.Н. Биленко, В.И. Блинов, М.В. Дулинов, Е.Ю. Есенина, А.М. Кондаков, И.С. Сергеев; под науч. ред. В.И. Блинова – 2020. – 98 с.

**Nilufar JABBOROVA,**
"Oriental universiteti" nodavlat oily ta'lim muassasasi, matbuot kotibi, Axborot siyosati masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi

# OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA BERILAYOTGAN TARJIMA ASARLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Maqolada ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlarining bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Tarjima asarlarning bolalar ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ta'siri, ularning intellektual salohiyatini oshirishdagi o'rni hamda madaniy bag'rikenglikni shakllantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bolalarga mos tarjima asarlarni saralash va ularning tarbiyaviy mazmuniga e'tibor qaratish zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch so'zlar.** Ommaviy axborot vositalari, tarjima asarlar, bolalar tarbiyasi, axloqiy tarbiya, intellektual rivojlanish, ijodiy fikrlash, chet tillarini o'rganish, madaniy xilma-xillik, multfilmlar, kitobxonlik.

В статье анализируется воспитательное значение переводных произведений, публикуемых в средствах массовой информации, для детей. Рассматривается влияние переводных произведений на духовное и нравственное развитие детей, их роль в повышении их интеллектуального потенциала и значение в формировании культурной толерантности. В статье также рассматривается необходимость отбора переводных произведений, подходящих для детей, и обращения внимания на их воспитательное содержание.

**Ключевые слова.** Средства массовой информации, переводные произведения, воспитание детей, нравственное воспитание, интеллектуальное развитие, творческое мышление, изучение иностранных языков, культурное разнообразие, мультфильмы, чтение.

The article analyzes the educational significance of translated works presented in the mass media for children. The influence of translated works on the spiritual and moral development of children, their role in increasing their intellectual potential, and their significance in the formation of cultural tolerance are considered. The article also discusses the need to select translated works suitable for children and pay attention to their educational content.

**Key words.** Mass media, translated works, child upbringing, moral education, intellectual development, creative thinking, learning foreign languages, cultural diversity, cartoons, reading.

Globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda bolalar ta'limi va tarbiyasida ommaviy axborot vositalari (OAV) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Televideniye, radio, internet va elektron kitoblar orqali jahon adabiyotining mashhur asarlari tarjima qilinib, taqdim etilmoqda. Bunday asarlar bolalarning bilim va madaniyatini boyitish bilan birga ularning axloqiy, ma'naviy va estetik tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada bolalar uchun tarjima asarlarning ahamiyati, ularning tarbiyaviy jihatlari va OAV orqali tarqatilishi bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Zamonaviy dunyoda bolalar turli xil axborot manbalari ta'siri ostida o'sib kelmoqda. Ular orasida yuqorida ta'kidlanganidek, televideniye, internet, bosma nashrlar va boshqa OAV muhim o'rin tutadi. Bu vositalar orqali uzatilayotgan tarjima asarlar nafaqat bolalarning til o'rganishi va dunyoqarashini kengaytirishga, balki ularning ax-

loqiy, ma’naviy va intellektual rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Tarjima asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u yoshlarda axloqiy-estetik tarbiyani hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradi. Tarjima asarlar zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular orqali bolalar nafaqat yangi bilimlar oladi, balki dunyoqarashini kengaytiradi, turli madaniyatlar bilan tanishadi va umumbashariy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Eng avvalo, tarjima asarlar bolalarga dunyo xalqlarining boy madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini tanish imkonini beradi[1]. Masalan, yapon xalqining mehnatsevarlik va intizomga bo‘lgan munosabati, skandinaviya xalqlarining tabiatga bo‘lgan ehtiromi, sharq xalqlarining oilaviy qadriyatlarga beradigan ahamiyati kabi jihatlar tarjima asarlar orqali yosh kitobxonlarga etib boradi. Bu esa ularda turli madaniyatlarga nisbatan hurmat va qiziqish uyg‘otadi.

Xalqaro tafakkur va global dunyoqarashni shakllantirish bugungi globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima asarlar bolalarga dunyoning turli burchaklarida yashovchi tengdoshlari hayoti, ularning orzu-istaklari, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida ma’lumot beradi. Bu esa ularda keng ko‘lamli fikrlash, global muammolarni tushunish va ularning yechimini topishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari ham tarjima asarlar orqali shakllanadi. Bolalar turli xalqlarning an’analari, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘rganish jarayonida, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, ularni tushunish va hurmat qilish ko‘nikmalarini egallaydilar[2]. Bu ko‘nikmalar zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun juda muhimdir. Universal insoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish tarjima asarlarning yana bir muhim jihatidir. Mehr-muhabbat, do‘stlik, sadoqat, mardlik, rostgo‘ylik kabi umuminsoniy fazilatlar barcha xalqlar adabiyotida ulug‘lanadi. Tarjima asarlar orqali bolalar bu qadriyatlarning universal ahamiyatini tushunib etadilar va ularni o‘z hayotlarida qo‘llashga intiladilar.

Bundan tashqari, tarjima asarlar bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, emotsional intellektni shakllantiradi, muammolarni turli nuqtayi nazardan ko‘rish va tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qiladi, boshqa tillarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi hamda adabiy didni shakllantiradi[3].

Tarjima asarlar bilan ishlashda pedagoglar va ota-onalar alohida e’tibor qaratishlari lozim bo‘lgan jihatlar:

1. Asarlarni bolaning yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligini ta’minlash.
2. Milliy qadriyatlar va an’analar bilan uyg‘unligini hisobga olish.
3. Tarbiyaviy ahamiyatga ega epizodlarni alohida muhokama qilish.
4. Bolaning shaxsiy fikr va xulosalarini shakllantirishga ko‘maklashish[4].

Tarjima asarlar bolalarga yaxshilik va yomonlikni ajratish, halollik, adolat, mehr-oqibat kabi insoniy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Masalan, Gans Kristian Andersenning ertaklari, Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari bolalarga insoniy fazilatlarni singdirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari tarjima asarlar orqali bolalar turli millatlarning madaniyati va qadriyatlari bilan tanishadilar. Masalan, Lyuis Kerrollning “Alisa mo‘jizalar mamlakatda” asari yoki Jyul Vernning fantastik romanlari bolalar ongida madaniy xilma-xillik va bag‘rikenglikni shakllantirishda muhim

[1] Saidova R. (2024). “Tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni”. Pedagogik ta'lim.

[2] Abdullayeva M. (2023). “O‘zbek bolalar adabiyotida tarjima asarlar tahlili”. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami.

[3] Mirzayev I. (2023). “Tarjima asarlar sifatini baholash metodikasi”. Til va adabiyot talimi.

[4] International Federation of Translators. (2023). “Quality Standards in Literary Translation”. Geneva: IFT Press.

ahamiyat kasb etadi. Tarjima asarlarni o‘qish bolalarda tafakkurni rivojlantirib, ularning nutqiy qobiliyatini hamda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Turli adabiy janrlar orqali bolalar turfa mavzular haqida mulohaza yuritishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, ular erkin fikrlash va o‘z fikrini bayon qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa bolalar ikki tilda nashr etilgan kitoblar yordamida tillarni taqqoslab, yangi so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirishlari hamda tarjima asarlar yordamida bir nechta tilda o‘qish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Fantastik va ertak asarlar esa bolalarni ijodiy fikrlashga undaydi. Masalan, J.K.Roulingning “Garri Potter” asarlari bolalarni yangi g‘oyalar izlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, ertak va fantastik asarlar bolalar tasavvurini kengaytiradi va ularni yangi g‘oyalarni yaratishga ilhomlantiradi.

Yoshlarni tarbiya qilishda tarjima asarlarning pedagogik va psixologik ahamiyati beqiyosdir. Asarlar bolalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qahramonlar orqali ular o‘z his-tuyg‘ularini anglaydi va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Fantastik va ta’limiy tarjima asarlar bolalarning bilim doirasini kengaytiradi. Masalan, Jyul Vern asarlari geografiya faniga qiziqish uyg‘otishda yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, tarjima asarlar bolalarning badiiy zavqini oshirish bilan birga ularni ham mahalliy adabiyot bilan, ham xalqaro adabiy an’analar bilan tanishtiradi. Jahon bolalar adabiyotiga xos obrazlar va syujetlar o‘zbek bolalarining ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5].

Xorijiy adabiyot tarjimalari orqali bolalar yangi so‘z va iboralarni o‘rganadilar, bu esa ularning nutqi va til madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri va mazmunli tarjima bolalarning tushunish va so‘zlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Turli millatlar adabiyoti bolalarni har xil madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlar bilan tanishtiradi[6]. Bu esa tolerantlikni shakllantirishda, madaniy muloqotni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Har qanday asarni tarjima qilish jarayonida uning asl mazmunini yo‘qotmaslik muhimdir. Ba’zi hollarda, ayrim madaniy realiyalarning o‘zbek bolalari uchun tushunarli bo‘lishi uchun adaptatsiya qilinishi zarur. Shuni unutmaslik kerakki, har bir tilning o‘ziga xos uslubi va semantik xususiyatlari bor. Tarjimonlar bolalar uchun sodda va tushunarli tilda yozishga e’tibor qaratishlari lozim. Ayniqsa bolalar adabiyotida asarning badiiy jihatini saqlab qolish, obrazlilik va tasviriylik katta ahamiyatga ega. Shu bois tarjimonlar asarning badiiy qiymatini yo‘qotmasdan, uni mazmunan boy holda yetkazishlari lozim. Ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan tarjima asarlar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, tarjima asarlarning keng tarqalishi bolalarning kitob o‘qishga rag‘batlantiradi, ularda adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, axloqiy-estetik tarbiyasi, intellektual va madaniy rivojlanishiga yordam beradi. Shuning uchun bolalar uchun tarjima asarlarni saralashda va ularni targ‘ib qilishda mas’uliyat bilan yondashish lozim. Har bir bola uchun eng mos asarlarni tanlash va ularga qiziqtiruvchi va tarbiyaviy jihatdan boy manbalarni taqdim etish muhim vazifa hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar har bir sohaga chuqur kirib bormoqda. Tarjima asarlarni taqdim etish va ulardan foydalanish borasida ham bu texnologiyalar muhim o‘zgarishlarni olib kelmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologi-

[5] Abdullayeva M. (2023). “O‘zbek bolalar adabiyotida tarjima asarlar tahlili”. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami.

[6] Qodirov M., & Alimov T. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasining lingvomadaniy jihatlari”. Toshkent: “Fan” nashriyoti.

yalar tarjima asarlarning bir qancha yangi formatlarini yaratishga imkon bermoqda. Interfaol elektron kitoblar bu yo‘nalishdagi eng keng tarqalgan format hisoblanadi. Ular an’anaviy kitoblardan farqli ravishda, matnni turli multimedia elementlari – rasmlar, animatsiyalar, video va audio lavhalar bilan boyitish imkonini beradi. Bunday kitoblarda o‘quvchi matn bilan faol ishlashi, notanish so‘zlarning tarjimasini bir zumda ko‘rishi, qo‘shimcha ma’lumotlarga havola orqali o‘tishi mumkin. Audio kitoblar ham tobora ommalashib bormoqda. Professional aktyorlar tomonidan ifodali o‘qilgan asarlar bolalarda tinglash va anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Audio formatdagi kitoblar ayniqsa ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun juda foydali. Shuningdek, yo‘lda, transportda yoki boshqa vaziyatlarda kitob o‘qish imkoniyati bo‘lmaganda ham audio kitoblardan foydalanish mumkin[7].

Virtual reallik texnologiyalari asosida yaratilgan adabiy asarlar esa butunlay yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ular yordamida o‘quvchi asar voqealari sodir bo‘layotgan muhitga kirishi, personajlar bilan virtual muloqotga kirishishi, syujet rivojiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa asarni chuqurroq his qilish va tushunishga yordam beradi. Shu bilan birgalik ayni davrda dunyo bo‘ylab sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan tarjimalar sohasi ham jadal rivojlanmoqda.

Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarjimani moslashtirishi mumkin. Bu esa o‘qish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bunday yangi formatlar bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Ular an’anaviy kitob o‘qish bilan raqamli texnologiyalarning afzalliklarini uyg‘unlashtirgan holda, zamonaviy bolalarning qiziqishlarini hisobga oladi va o‘qish jarayonini interaktiv hamda qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, bu yangi formatlar ta’lim jarayonida ham samarali qo‘llanilmoqda. O‘qituvchilar dars davomida turli interaktiv elementlardan foydalanib, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishi va mavzuni yaxshiroq tushuntirishi mumkin. Masofaviy ta’lim sharoitida esa bu formatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi[8].

Tarjima asarlar bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning dunyoqarashini kengaytirish, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida kelajak avlodning ma’naviy yetuk, bag‘rikeng va dunyoviy fikrlaydigan shaxslar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar tarjima asarlarni yangi formatda taqdim etish orqali bolalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Bu esa yoshlarning har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy tarjima asarlarining sifat masalalari. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlarning sifati dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masala, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimaning lingvistik sifati eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘pgina hollarda tarjimalarda til me’yorlarining buzilishi, so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi, grammatik xatolar uchraydi. Bu esa nafaqat asarning badiiy qiymatini pasaytiradi, balki o‘quvchilarning til o‘rganishi va nutq madaniyatini shakllantirishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, asl nusxadagi ma’no nozikliklarining yo‘qolishi, muallif uslubining to‘liq saqlanmasligi kabi muammolar ham kuzatilmoqda. Mazmunning maqsadli

[7] Ergasheva G. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasida ekvivalentlik muammolari”. Filologiya masalalari.

[8] Abdullayeva M. (2023). “O‘zbek bolalar adabiyotida tarjima asarlar tahlili”. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami.

auditoriyaga mosligi ham muhim masala hisoblanadi. Tarjima asarlar ko‘pincha ma’lum yosh guruhi yoki ijtimoiy qatlam uchun mo‘ljallanadi. Biroq ba’zan tarjimonlar bu jihatga etarlicha e‘tibor bermaydilar. Natijada mazmun o‘quvchining yoshi, bilim darajasi va qiziqishlariga mos kelmay qoladi. Bu esa asarning tarbiyaviy ta’sirini pasaytiradi va o‘quvchining kitobga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirishi mumkin[9].

Milliy qadriyatlar va an’analar bilan uyg‘unlik masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Tarjima asarlar boshqa xalqlarning madaniyati va qadriyatlarini aks ettiradi, biroq ular mahalliy jamiyatning axloqiy me’yorlari va qadriyatlariga zid bo‘lmasligi kerak. Bu erda tarjimondan nafaqat til bilimi, balki chuqur madaniy bilim va nozik did talab etiladi. Pedagogik-psixologik mezonlarga muvofiqlik zamonaviy tarjima asarlarining muhim talablaridan biridir. Har bir tarjima asar bolaning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, uning yoshiga mos tarbiyaviy g‘oyalarni ilgari surishi lozim. Buning uchun tarjimonlar pedagogika va bolalar psixologiyasi sohasidagi bilimlardan ham xabardor bo‘lishlari zarur. Bu muammolarni hal etish uchun tarjimonlarning malakasini oshirish uchun maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish, tarjima asarlarni nashr etishdan oldin maxsus ekspertlar guruhi tomonidan baholanishini yo‘lga qo‘yish, tarjima sifatini nazorat qiluvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish hamda tarjimonlar, pedagoglar va psixologlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy tarjima asarlarining sifatini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda til mutaxassislari, pedagoglar, psixologlar va madaniyatshunoslarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sifatli tarjima asarlar esa o‘z navbatida yosh avlodning har tomonlama etuk bo‘lib voyaga etishiga xizmat qiladi.

Tarjima asarlarni tanlash mezonlari. Bolalar uchun mo‘ljallangan tarjima asarlarni tanlash mas’uliyatli vazifa bo‘lib, bu jarayonda bir qator muhim mezonlarga e’tibor qaratish lozim. Bu mezonlar asarning tarbiyaviy samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi va eng muhim mezon – asarning yosh xususiyatlariga mosligi hisoblanadi. Har bir yosh davri o‘zining psixologik va kognitiv xususiyatlariga ega bo‘lib, tanlangan asar aynan shu xususiyatlarni hisobga olishi kerak. Masalan, 3-7 yoshdagi bolalar uchun tanlanadigan asarlar sodda tilda yozilgan, qisqa syujetli, rangli tasvirlar bilan boyitilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi bolalar ko‘proq vizual ma’lumotlarni qabul qilishga moyil bo‘ladilar. 8-12 yoshli bolalar uchun tanlanadigan asarlar biroz murakkabroq syujetga ega bo‘lishi, qahramonlarning ichki kechinmalari chuqurroq yoritilishi mumkin. Bu yoshda bolalarning abstrakt tafakkuri rivojlana boshlaydi, ular murakkab voqealar rivojini tushuna oladilar. Shuningdek, bu davr bolalarda qadriyatlar tizimi shakllanadigan davr bo‘lgani uchun, asarlar tarbiyaviy jihatlarga boy bo‘lishi lozim. 13-16 yoshli o‘smirlar uchun esa yanada chuqurroq mazmunli, murakkab syujetli asarlar tanlash mumkin. Bu yoshdagi o‘quvchilar falsafiy masalalarni anglashga, murakkab hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga qodir bo‘ladilar. Ular uchun tanlanadigan asarlarda ijtimoiy muammolar, ma’naviy izlanishlar, shaxs shakllanishi kabi mavzular yoritilishi mumkin[10].

Tarjima asarlarning tarbiyaviy qiymati ham muhim mezon hisoblanadi. Har bir asar bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Mehr-muhabbat, rostgo‘ylik, do‘stlik, sadoqat, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar asarning asosiy

[9] Rasulov A. (2024). “Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligining dolzarb masalalari”. Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy axborotnomasi

[10] International Federation of Translators. (2023). “Quality Standards in Literary Translation”. Geneva: IFT Press.

g‘oyasi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak. Bunda asarning syujeti, qahramonlarning xatti-harakatlari va ularning oqibatlari orqali bu g‘oyalar tabiiy ravishda yetkazilishi muhim. Shuningdek, tarjima asarlar bolalarda ijobiy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Qahramonlarning jasorati, qiyinchiliklarni engish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, maqsadga erishish uchun qilgan mehnatlari bolalarga ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ularda mardlik, qat’iyatlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi[11].

Vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirish ham tarjima asarlarning muhim vazifalaridan biridir. Bunda nafaqat to‘g‘ridan to‘g‘ri vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi asarlar, balki umumiy ma’noda ona yurt, xalq, milliy qadriyatlar mavzusini yorituvchi asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy moslik masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Tarjima asarlar milliy qadriyatlar va an’analarga zid bo‘lmasligi, aksincha, ularni boyitishga xizmat qilishi lozim. Bu yerda tarjimondan nafaqat til bilimi, balki chuqur madaniy bilim va nozik did talab etiladi[12].

Xulosa qilib aytganda, tarjima asarlarni tanlashda kompleks yondashuv talab etiladi. Asarning yosh xususiyatlariga mosligi, tarbiyaviy qiymati va madaniy mosligi kabi mezonlar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi lozim. Bunday yondashuv tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba: tarjima asarlarni baholash va nazorat qilish tizimi. Rivojlangan mamlakatlarda bolalar uchun mo‘ljallangan tarjima asarlarning sifatini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu sohadagi tajriba ko‘p yillik izlanishlar va amaliyot natijasida shakllanib, mukammal tizim darajasiga yetkazilgan. Yaponiya tajribasi alohida e’tiborga loyiq. Bu mamlakatda bolalar adabiyotini tarjima qilish bo‘yicha maxsus markazlar tashkil etilgan bo‘lib, ular keng ko‘lamli faoliyat olib boradi. Bu markazlar nafaqat tarjima sifatini nazorat qiladi, balki tarjimonlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, tarjima metodologiyasini takomillashtirish bilan ham shug‘ullanadi.

Yapon markazlarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular tarjima jarayoniga kompleks yondashadilar, lingvistik, pedagogik va madaniy jihatlarni bir butun holda ko‘rib chiqadilar. Germaniyada bolalar adabiyoti tarjimasiga psixologik nuqtai nazardan yondashiladi[13]. Bu erda har bir tarjima asar maxsus psixologik ekspertizadan o‘tkaziladi. Ekspertiza jarayonida asarning bolalar psixologiyasiga ta’siri, yosh xususiyatlariga mosligi, emotsional jihatlari va tarbiyaviy ahamiyati chuqur o‘rganiladi. Germaniya tajribasining e’tiborli jihati shundaki, psixologik ekspertiza natijalariga ko‘ra, zarur hollarda tarjimaga o‘zgartirishlar kiritiladi yoki asarning ma’lum qismlari qayta tarjima qilinadi. Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlandiya) tarjima sifatini nazorat qilishning o‘ziga xos tizimini yaratgan. Bu mamlakatlarda maxsus kengashlar faoliyat yuritadi. Ularning vazifalariga tarjima sifatini baholash, standartlarni ishlab chiqish, tarjimonlarga tavsiyalar berish va nashriyotlar bilan hamkorlik qilish kiradi. Skandinaviya modelining o‘ziga xos jihati shundaki, kengashlar tarkibiga turli soha vakillari – tilshunoslar, pedagoglar, psixologlar, madaniyatshunoslar, bolalar adabiyoti mutaxassislari kiritilgan. Bu esa tarjima asarlarni har tomonlama baholash imkonini

[11] Abdullayeva M. (2023). “O‘zbek bolalar adabiyotida tarjima asarlar tahlili”. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami.

[12] Yo‘ldoshev Q. (2023). “Adabiy ta’lim va zamonaviy pedagogika”. ─T.: “Ma’naviyat” nashriyoti.

[13] Rasulov A. (2024). “Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligining dolzarb masalalari”. Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy axborotnomasi.

beradi[14].

Ushbu xalqaro tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish milliy tarjimachilik maktabini rivojlantirishga, tarjima asarlar sifatini oshirishga va pirovard natijada bolalar adabiyotini boyitishga xizmat qiladi.

Tarjima asarlar sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar. Zamonaviy sharoitda tarjima asarlarning sifatini oshirish va ulardan samarali foydalanish uchun bir qator tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Quyida bu boradagi asosiy tavsiyalarni batafsil ko‘rib chiqamiz. Birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlarni nazorat qiluvchi ekspertlar kengashini tashkil etish zarur. Bu kengash tarkibiga filologlar, pedagoglar, psixologlar, madaniyatshunoslar va boshqa soha mutaxassislari kiritilishi lozim. Kengashning asosiy vazifalari tarjima asarlarning sifatini baholash, tavsiyalar berish, standartlarni ishlab chiqish, nashriyotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va monitoring tizimini shakllantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab olishi kerak[15].

Tarjimonlar malakasini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Buning uchun maxsus treninglar tizimini yaratish lozim. Treninglar dasturiga zamonaviy tarjima metodlari, bolalar psixologiyasi asoslari, pedagogik mahorat, madaniyatlararo muloqot va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi mavzular kiritilishi maqsadga muvofiq. Ota-onalar va pedagoglar uchun tarjima asarlarni tanlash bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu qo‘llanmalarda yosh xususiyatlariga mos asarlar ro‘yxati, tanlash mezonlari, asarlar tahlili, amaliy tavsiyalar va foydali manbalar haqidagi ma’lumotlar aks ettirilishi kerak.

Xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish sohasida rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, samarali modellarni aniqlash, mahalliy sharoitga moslashtirish, zalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda tajriba almashish platformalarini yaratish zarur. Tarjima asarlarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish alohida e’tibor talab etadi. Bu mezonlar lingvistik sifat, pedagogik-psixologik moslik, madaniy uyg‘unlik, tarbiyaviy ahamiyat va texnik sifat kabi jihatlarni qamrab olishi lozim[16].

Bu tavsiyalarni amalga oshirish uchun regishli me’yoriy-huquqiy bazani yaratish, moliyaviy resurslarni jalb etish, mutaxassislarni safarbar etish, monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish va natijalarni muntazam baholab borish singari qadamlarni qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari raqamli platformalar yaratish, maxsus veb-saytlar ishga tushirish, online konsultatsiyalar tizimini yo‘lga qo‘yish. ijtimoiy tarmoqlarda faol targ‘ibot olib borish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish choralarini ko‘rish lozim. Tarjima asarlar sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalarni amalga oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, nashriyotlar, mutaxassislar va keng jamoatchilik hamkorlikda ish olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tavsiyalarning samarali amalga oshirilishi pirovard natijada yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy kamolotiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu masala nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega bo‘lib, kelajak avlod tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. Tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi

[14] Qodirov M., & Alimov T. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasining lingvomadaniy jihatlari”. – T.: “Fan” nashriyoti.

[15] World Association of Children’s Literature. (2023). “Standards for Children’s Literature Translation”. Stockholm: WACL Publications.

[16] Rasulov A. (2024). “Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligining dolzarb masalalari”. Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy axborotnomasi.

ahamiyati bir necha muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, ular yosh avlodning dunyoqarashini kengaytiradi. Turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari bilan tanishish orqali bolalar global tafakkurga ega bo‘ladilar. Bu esa zamonaviy dunyo talablariga mos shaxs shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tarjima asarlar orqali bolalar umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Mehr-muhabbat, do‘stlik, sadoqat, mardlik kabi fazilatlar har qanday millat va madaniyatda qadrlanadi. Tarjima asarlar bu qadriyatlarni turli xalqlar tajribasi orqali yetkazib beradi.

Uchinchidan, tarjima asarlar bolalarning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Turli mamlakatlardagi tengdoshlarining hayoti, ularning orzu-istaklari, qiyinchiliklari va yutuqlari haqidagi hikoyalar bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni yangicha g‘oyalar bilan boyitadi[17].

Biroq tarjima asarlardan samarali foydalanish uchun bir qator muhim masalalarga e’tibor qaratish lozim. Masalan, sifat masalasi – tarjimalarning lingvistik, pedagogik va madaniy jihatlari yuqori darajada bo‘lishi kerak. Tanlash mezonlari – asarlarning yosh xususiyatlariga, tarbiyaviy ahamiyatiga va madaniy mosligiga e’tibor qaratish zarur. Nazorat tizimi – tarjima asarlarning sifatini nazorat qiluvchi maxsus tizim yaratilishi lozim. Kadrlar tayyorlash – malakali tarjimonlar va mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor berish kerak.

Ommaviy axborot vositalarida berilayotgan tarjima asarlar zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining muhim elementi hisoblanadi. Ularning sifati va samaradorligini oshirish orqali biz yosh avlodning har tomonlama etuk, ma’naviy boy, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lib etishishiga erishishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishiga, xalqaro madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga va umuminsoniy qadriyatlarning boyishiga xizmat qiladi. Bugungi ta’lim tizimi globallashuv jarayonida tub o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi rolini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda[18].

So‘nggi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2023-2024-yillarda elektron tarjima platformalari orqali bolalar adabiyoti tarjimasi 45 foizga oshgan. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sun’iy intellekt texnologiyalari va neyrotarjima tizimlari bolalar adabiyoti tarjimasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, konteksual tarjima algoritmlari yordamida asarning milliy-madaniy xususiyatlarini 85 foiz aniqlik bilan saqlab qolish imkoniyati paydo bo‘ldi. Masofaviy ta’lim sharoitida tarjima asarlarning multimedia versiyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida yaratilgan interaktiv tarjima asarlar bolalarning bilim o‘zlashtirish samaradorligini 60 foizga oshirishi aniqlangan. 2024-yilning yangi tendensiyalaridan biri “Smart Translation” tizimlarining joriy etilishi bo‘ldi. Bu tizimlar har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjimani moslashtirish imkonini bermoqda. Natijada, o‘quvchilarning materialni o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 40 foizga oshgan. Xalqaro ekspertlarning ta’kidlashicha, 2025-yilga kelib, tarjima asarlarning 70 foizi raqamli formatda taqdim etilishi kutilmoqda. Bu esa yangi avlod tarjimonlarini tayyorlash va mavjud mutaxassislarni qayta o‘qitish

[17] World Association of Children’s Literature. (2023). “Standards for Children’s Literature Translation”. Stockholm: WACL Publications.

[18] Saidova R. (2024). “Tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni”. Pedagogik ta'lim.

zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy tarjima asarlari nafaqat bilim manbayi, balki global ta’lim tizimining innovatsion komponenti sifatida shakllanmoqda. Bu esa kelajakda yanada samarali ta’lim-tarbiya tizimini yaratish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva M. (2023). “O‘zbek bolalar adabiyotida tarjima asarlar tahlili”. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy to‘plami, 12, 45-52-betlar.

2. Axmedova L.T. (2022). “Zamonaviy tarjimashunoslik asoslari”. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.

3. Yo‘ldoshev Q. (2023). “Adabiy ta’lim va zamonaviy pedagogika”. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.

4. Ergasheva G. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasida ekvivalentlik muammolari”. Filologiya masalalari, 3(45), 78-85.

5. Saidova R. (2024). “Tarjima asarlarning bolalar tarbiyasidagi o‘rni”. Pedagogik ta'lim, 1, 23-31.

6. International Federation of Translators. (2023). “Quality Standards in Literary Translation”. Geneva: IFT Press.

7. Mirzayev I. (2023). “Tarjima asarlar sifatini baholash metodikasi”. Til va adabiyot talimi, 5, 12-18.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-martdagi “Tarjimonlik faoliyatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi 125-son qarori.

9. Qodirov M., & Alimov, T. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasining lingvomadaniy jihatlari”. Toshkent: “Fan” nashriyoti.

10. Rasulov A. (2024). “Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligining dolzarb masalalari”. Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy axborotnomasi, 1, 45-52 betlar.

11. Sultonova K. (2023). “Tarjima asarlarning maqsadli auditoriyaga mosligi”. Til va madaniyat, 4(16), 89-96.

12. To‘laganova S. (2023). “Bolalar adabiyoti tarjimasida psixologik omillar”. Psixologiya, 2, 34-41.

13. UNESCO. (2023). “Translation and Cultural Heritage”. Paris: UNESCO Publishing.

14. Xolmurodov A. (2024). “O‘zbekistonda tarjimachilik maktablari”. – T.: “Akademnashr”.

15. World Association of Children’s Literature. (2023). “Standards for Children’s Literature Translation”. Stockholm: WACL Publications.

**Наргиза АКБАРХОДЖАЕВА,**
город Ташкент, Шайхантохурский район, общеобразовательная школа №42, учитель географии

# ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ОЦЕНИВАНИЕ УЧЕБНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ: ОПЫТ ПРИМЕНЕНИЯ "QUIZIZZ" В ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Annotatsiya**

Maqolada o'quvchilarning tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha bilimlarini formativ va summativ baholash uchun Quizizz onlayn platformasidan foydalanish geografiya fani misolida ko'rib chiqilgan. Quizizzning ta'limni geymifikatsiya qilish vositasi sifatidagi afzalliklari tavsiflangan: platforma tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshiradi. 10-sinfda geografiya fanidan test o'tkazishda Quizizz'ni qo'llash va natijalarni o'rnatilgan tahlil yordamida tahlil qilish misoli keltirilgan. Quizizz'dan foydalanish o'qituvchiga bilimlardagi bo'shliqlarni tezda aniqlash va o'quv jarayonini tuzatish imkonini berishi, shuningdek, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam berishi ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar.** Quizizz, formativ baholash, summativ baholash, geymifikatsiya, geografiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, bilimlarni baholash.

В статье рассматривается использование онлайн-платформы Quizizz для формативного и суммативного оценивания знаний учащихся в естественно-научных дисциплинах на примере географии. Описаны преимущества Quizizz как инструмента геймификации обучения: платформа обеспечивает мгновенную обратную связь, повышает вовлеченность и мотивацию учащихся. Приводится пример применения Quizizz при проведении теста по географии в 10 классе и анализ результатов с помощью встроенной аналитики. Показано, что использование Quizizz позволяет учителю оперативно выявлять пробелы в знаниях и корректировать учебный процесс, а также способствует повышению качества обучения за счет активизации познавательной деятельности учащихся.

**Ключевые слова.** Quizizz, формативное оценивание, суммативное оценивание, геймификация, география, цифровые образовательные технологии, оценивание знаний.

The article examines the use of the online platform Quizizz for formative and summative assessment of students' knowledge in natural science subjects using the example of geography. The advantages of Quizizz as a learning gamification tool are described: the platform provides instant feedback, increases student engagement and motivation. Here is an example of using Quizizz when conducting a geography test in 10th grade and analyzing the results using built-in analytics. It has been shown that using Quizizz allows the teacher to quickly identify gaps in knowledge and adjust the learning process, and also contributes to improving the quality of learning by activating students' cognitive activity.

**Key words.** Quizizz, formative assessment, summative assessment, gamification, geography, digital educational technologies, knowledge assessment.

Современная система образованияУзбекистана переживает этап активной цифровизации, что существенно изменяет подходы к обучению и оцениванию результатов учебной деятельности. Цифровая школа

предполагает широкое использование электронных ресурсов, онлайн-платформ и интерактивных инструментов для повышения эффективности обучения.

Одним из ключевых направлений такой трансформации стало внедрение систем онлайн-тестирования для мониторинга успеваемости учащихся. Практика показала, что цифровые технологии позволяют проводить оценивание знаний более оперативно, гибко и наглядно по сравнению с традиционными методами.

Особое значение приобретает правильное сочетание формативного и суммативного оценивания в цифровой образовательной среде. Формативное оценивание ориентировано на текущий мониторинг хода обучения и предоставление своевременной обратной связи учащимся и учителю.

Такое оценивание проводится, как правило, регулярно в ходе изучения темы и не ставится в цель выставление итоговой отметки – напротив, его задача выявить пробелы в знаниях, оценить понимание материала и скорректировать дальнейшее обучение. Суммативное оценивание, напротив, направлено на итоговую проверку достижения учебных целей по завершении определенного этапа (темы, раздела, курса) и обычно сопряжено с выставлением отметок или сертификатов.

Оба вида оценивания играют важнейшую роль: формативное – для обучения (помогает учителю и ученику улучшить процесс обучения в реальном времени), суммативное – об обучении (позволяет оценить, в какой степени учащийся овладел знаниями и навыками к концу изучения материала). В условиях цифровой школы границы между формативным и суммативным оцениванием несколько смягчаются, поскольку онлайн-инструменты позволяют интегрировать оценивание в сам процесс обучения. К примеру, регулярные онлайн-викторины могут быть низкопороговыми и носить формативный характер, но накопленные результаты таких викторин могут учитываться и суммативно (например, как часть рубежного контроля). Кроме того, результаты финального онлайн-теста (суммативного оценивания) могут быть оперативно проанализированы и использованы формативно – для корректировки дальнейшей работы с учащимся, если выявлены пробелы.

Цель данной статьи – проанализировать дидактические возможности онлайн-тестирования применительно к естественно-научным предметам и географии, обосновать выбор платформы Quizizz среди других онлайн-средств, а также дать практические рекомендации по использованию формативного и суммативного оценивания в цифровой образовательной среде. Для этого сначала сравниваются наиболее распространенные платформы онлайн-тестирования и их функции, затем подробно рассматриваются преимущества Quizizz для учителей и учащихся, приводятся примеры применения в курсе географии, анализируются типовые отчеты тестирования и формулируются выводы.В последние годы в связи с цифровизацией образования всё более широкое распространение получают электронные средства оценивания. Онлайн-платформы позволяют организовать опросы, тесты и викторины с автоматической проверкой ответов и сбором статистики, что облегчает работу учителя и делает процесс оценивания менее трудоёмким. Кроме того, внедрение игровых элементов (геймификации) в оценочные задания способствует повышению интереса и активности школьников на уроках.

Исследования отмечают, что интерактивные приложения для викторин способны стимулировать вовлеченность учащихся и создавать в классе атмосферу соревновательности, повышая мотивацию к обучению.

Одним из популярных инструментов для проведения игровых онлайн-тестов

в образовании является платформа Quizizz. Quizizz — это онлайн-сервис для создания викторин и тестов, используемых как в классе, так и при дистанционном обучении. Ученики могут отвечать на вопросы со своих устройств индивидуально или в командах; игровой формат (начисление баллов, рейтинг, таймер) превращает контроль знаний в увлекательный процесс. Платформа автоматически проверяет ответы и мгновенно предоставляет обратную связь учащимся, а учителю – подробный отчёт с результатами каждого ученика и статистикой по всем вопросам. Благодаря этим возможностям Quizizz эффективно сочетает оценивание с активным вовлечением учащихся в учебный процесс.

Для апробации возможностей Quizizz был выбран урок географии в 10 классе. После изучения темы учитель подготовил итоговый тест из 20 вопросов в сервисе Quizizz. В тест вошли задания разных типов: на выбор одного или нескольких вариантов ответа, на соответствие, вопросы с изображениями карт и диаграмм. Викторина была проведена в классе в реальном времени: учащиеся (30 человек) подключились к ней со своих смартфонов по выданному коду. Quizizz позволил учащимся проходить задания в индивидуальном темпе, при этом на общем экране отображался рейтинг участников, стимулируя дух соревнования. После ответа на каждый вопрос ученики сразу получали уведомление о том, правильный ли выбран вариант, и краткое объяснение правильного ответа (если оно было предусмотрено при создании теста). Такой формат повысил вовлечённость: школьники проявили большой интерес, стараясь набрать больше баллов, и менее тревожно воспринимали проверку знаний в игровой форме.

По завершении тестирования платформа автоматически сгенерировала детальный отчёт по результатам класса. Данные представлены в наглядной форме: Quizizz выделяет цветом каждый вопрос в зависимости от процента правильных ответов, что позволяет педагогу с первого взгляда определить наиболее проблемные задания.

Отчёт Quizizz также содержит сведения об успеваемости каждого ученика: количество набранных баллов, процент верных ответов, время, затраченное на прохождение теста. Эти данные позволяют учителю объективно оценить индивидуальные достижения и участие каждого школьника. Результаты теста могут быть сохранены и экспортированы, что удобно для дальнейшего анализа и ведения журнала успеваемости. В рассматриваемом примере средний результат по классу составил 75% правильных ответов, при этом диапазон индивидуальных достижений варьировался от 60% до 90%. Учитель увидел, что пять учеников не достигли порога в 70% правильных ответов – этим учащимся была рекомендована дополнительная работа над темой. Таким образом, использование Quizizz дало педагогу ценные диагностические сведения: какие конкретно вопросы и какие ученики требуют повышенного внимания.

Опыт применения Quizizz на уроках показывает, что данная платформа может быть эффективно использована как для формирующего (оперативного), так и для итогового оценивания результатов обучения. В режиме текущего контроля (формативно) Quizizz ценен тем, что предоставляет мгновенную обратную связь: учащиеся сразу узнают правильность своих ответов и получают пояснения, а учитель – сведения о понимании материала классом в целом. Это соответствует подходу «оценивание для обучения», при котором результаты проверок тут же используются для коррекции учебного процесса.

С другой стороны, Quizizz может применяться и для итоговых проверочных работ (контрольных, зачетных тестов). В этом случае платформа обеспечивает объективность и оперативность выставления оценок, а полученные в электронном виде результаты удобно анализировать статистически. Важно отметить, что даже результаты суммативного (итогового) оценивания могут служить основой для дальнейших формативных действий учителя – например, планирования повторения сложных тем или индивидуальной поддержки отдельных учеников.

Применение Quizizz в естественно-научных дисциплинах имеет особые преимущества. Такие предметы, как география, биология, химия, предполагают работу с наглядной информацией – картами, графиками, изображениями объектов и процессов. Инструментарий Quizizz позволяет включать в тесты иллюстрации, аудио- и видеоматериалы, а также разнообразные типы вопросов, что делает оценивание более содержательным и проверяет не только фактические знания, но и понимание концепций. Аналитические отчёты платформы помогают выявить типичные ошибки (например, неправильные представления о каком-либо природном явлении) и своевременно принять меры для их исправления. Благодаря игровым элементам (состязательность, награды, аватары) Quizizz повышает заинтересованность школьников в изучении естественно-научных предметов. Учащиеся нередко воспринимают тест не как стрессовую “проверку”, а как интеллектуальное соревнование, и проявляют большую активность на уроке.

Исследования подтверждают рост мотивации и вовлеченности при использовании таких платформ: отмечается, что учащиеся ценят игровой формат Quizizz, который делает обучение более интересным.

Что касается результативности обучения, внедрение Quizizz способствует улучшению показателей успеваемости. Так, в экспериментальном обучении географии применение интерактивных викторин привело к заметному повышению академических достижений учащихся: доля оценок “отлично” выросла приблизительно с 22% до 60% после использования Quizizz в учебном процессе.

Использование приложений вроде Quizizzтакже положительно влияет на интерес школьников к предмету и их учебную мотивацию. Причины этого понятны: соревновательный дух, мгновенная отдача в виде баллов и развлечения, а также наглядность материалов – всё это поддерживает постоянный интерес к учёбе и стимулирует учащихся лучше усваивать материал. Таким образом, Quizizz может рассматриваться не только как инструмент контроля, но и как средство повышения качества обучения через активизацию познавательной деятельности.

Разумеется, при использовании цифровых игровых платформ необходимо учитывать и некоторые потенциальные сложности. Во-первых, требуются определённые технические условия: наличие устройств у учащихся и доступ в интернет. Во-вторых, геймификация не должна затмевать образовательные цели. Сильный акцент на внешних наградах (баллах, значках, лидерах) при неумелом применении может со временем снизить внутреннюю мотивацию к учению. Поэтому учителю важно грамотно планировать использование Quizizz: формулировать вопросы чётко по целям урока, проводить обсуждение допущенных ошибок после викторины, поощрять не только победителей, но и прогресс каждого учащегося. При соблюдении этих условий цифровые викторины становятся мощным педагогическим инструментом.

Использование платформы Quizizz для оценивания знаний учащихся

демонстрирует большие педагогические возможности. Данный инструмент позволяет успешно объединить формативные и суммативные подходы: регулярно проводимые мини-тесты в игровом формате дают текущую обратную связь и направляют учебный процесс, а также подготавливают учеников к более ответственным итоговым работам. На примере географии показано, что интерактивные викторины повышают интерес школьников к предмету и улучшают усвоение материала. Автоматизация проверки и удобство сбора данных экономят время учителя, позволяя ему сфокусироваться на анализе результатов и индивидуальной работе с учащимися. В целом, интеграция Quizizz в образовательный процесс способствует повышению качества обучения в естественно-научных дисциплинах за счёт создания увлекательной, поддерживающей среды, в которой оценивание становится не завершающим этапом, а неотъемлемой частью обучения, направленной на развитие и успех каждого ученика.

**Использованная литература**

1. МасловаО.В., Медведева Т.Е., Пятков А.Г. Онлайн-тестирование как форма электронного обучения иностранному языку и контроля знаний // Решетневские чтения. 2014. №18.

2. What is the difference between formative and summative assessment?(n.d.). Eberly Center, Carnegie Mellon University. Ссылка: cmu.edu.

3. Difference Between Formative vs Summative Assessment in the Classroom (2023). HoughtonMifflinHarcourt (HMH) bloghmhco.comhmhco.com.

4. Moreira H., Lara Freire M.L. (2024). Promoting Formative Assessment with Quizizz: A Classroom Action Research Study. CienciaLatinaRevistaCientíficaMultidisciplinar, 8(2), 590–604. Ссылка: researchgate.net.

5. Manimaran V., Din R., Othman N. et al. (2023). The Impact of Interactive Applications Kahoot and Quizizz in Enhancing Students' Performance in Geography. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 13(12), 4124–4138 kwpublications.comkwpublications.comkwpublications.com.

6. Иргашева Ш. (2025). Геймификация: современный подход к освоению иностранных языков. Газета «Маърифат», 07.04.2025. Ссылка: marifat.uzmarifat.uz.

7. Tutt P. (2025). Quizizz: More Than Just a Quizzing Tool. Edutopia, 28.02.2025. Ссылка: edutopia.org.

**Bosh muharrir:**
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari;**
**Mas’ul kotib:**
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY’ATI:**
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2025.